



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI



RESPUBLIKA
TA'LIM MARKAZI

UMUMIY O'RTA TA'LIMNING
MILLIY O'QUV DASTURI

ONA TILI
(1–11-sinf)





ЛОУИНА 2

MUNDARIJA

1.	TIL VA ADABIYOT FANLARI TAVSIFI	3
1.1.	Til va adabiyot fanlari tavsifi va integratsiyasi.....	3
2.	MAKTAB BITIRUVCHILARIGA TIL VA ADABIYOT FANLARI BO‘YICHA QO‘YILADIGAN TALABLAR	7
2.1.	Nutqiy kompetensiya	7
2.2.	Nutqiy kompetensiya	8
2.3.	Til va adabiyot fanlari orqali tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar	10
3.	UMUMIY O‘RTA TA‘LIMDA ONA TILI FANINI O‘QITISH.....	11
3.1	Ona tili fanini o‘qitish konsepsiyasi	11
3.2.	Maktab bitiruvchilariga ona tili fani bo‘yicha qo‘yiladigan talablar.....	16
3.3	Ona tili fani bo‘yicha o‘quvchiga sinflar kesimida qo‘yiladigan talablar	20
4.	ONA TILI FANI O‘QUV ASTURLARI.....	51
4.1.	Ona tili, 1-sinf.....	43
4.2.	Ona tili, 2-sinf.....	51
4.3.	Ona tili, 3-sinf.....	63
4.4.	Ona tili, 4-sinf.....	75
4.5.	Ona tili, 5-sinf.....	89
4.6.	Ona tili, 6-sinf.....	103
4.7.	Ona tili, 7-sinf.....	119
4.8.	Ona tili, 8-sinf.....	133
4.9.	Ona tili, 9-sinf.....	145
4.10.	Ona tili, 10-sinf.....	159
4.11.	Ona tili, 11-sinf.....	166



TIL VA ADABIYOT FANLARI TAVSIFI VA INTEGRATSIYASI

Til va adabiyot fanlari ona tili, adabiyot, o'zbek tili (ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun), qardosh tillar (qozoq, qirg'iz, tojik, turkman), rus tili (ta'lim rus va o'zbek tilida olib boriladigan maktablar uchun) o'quv predmetlarini qamrab oladi hamda ularning o'zaro aloqadorligini ta'minlaydi.

O'quvchiga tilni o'qitish orqali shu til bo'yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to'rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish amallari bo'yicha har bir sinfda taqozo etiladigan malaka va ko'nikmalar me'yorini rivojlantirish, bunda o'qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi.

Adabiyot so'z san'atidir, shu sababli ona tilini puxta o'zlashtirmasdan turib, adabiyotning go'zalligi va qudratini anglab bo'lmaydi. Ona tili va adabiyot fani darslarida amalga oshirish lozim bo'lgan asosiy masala o'quvchida so'zga qiziqish va e'tibor hissini muntazam sur'atda o'stirib borishdan, ularga so'zning ahamiyati, turli matnlarda tutgan o'rnini tushuntirishdan iborat. Fanlararo bog'lanishni tafakkurning rivojlanishiga qiyoslash mumkin. Fanlarni o'zaro bog'lab o'rganish, u yoki bu fan bo'yicha o'rganilayotgan voqea-hodisa haqida o'quvchida jonli mushohada qilish malakasini o'stiradi. Bu bilan o'quvchi voqea-hodisa haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. O'qituvchi ona tili, adabiyot hamda o'zbek tili fanlarini boshqa fanlar bilan uzviy bog'lagan holda o'qitar ekan, yangi materialni bayon qilish, mustahkamlash jarayonida, shuningdek, takrorlash, umumlashtirish vaqtida u yoki bu mavzu yuzasidan o'zni bilan bog'laydi va o'quvchini mantiqiy, tahliliy mushohadaga undovchi turli mazmunga oid matnlardan foydalanadi. Bunday matnlardan foydalanish o'quvchini ijodiy fikrlash, matnni tushunishga o'rgatadi hamda ularning bilimi va dunyoqarashining boyishiga xizmat qiladi.

Yosh avlod ma'naviyatini rivojlantirish o'zbek xalqining boy tarixi, milliy qadriyatlari, urf-odatlar va ularni o'zida aks ettirgan adabiy-badiiy meros bilan yaqindan tanishtirish, milliy an'ana, bayram, urf-odatlar asosida shakllangan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishni taqozo etadi. Bunda, jumladan, o'zbek adabiyotining ixcham va go'zal namunalari, xalqning tarixiy, madaniy hayotiga xos muhim lavhalar, jahon milliy madaniyatiga hissa qo'shgan o'zbek xalqi vakillarining ijodiy merosini o'rganish ham ko'zda tutiladi. Bu jarayonda o'rganilayotgan so'z va so'z shakllarini to'g'ri talaffuz qilish hamda yozish, so'zni grammatik jihatdan to'g'ri shakllantirish, so'zlarni o'rinli tanlash va sintaktik-uslubiy jihatdan to'g'ri baholay olish, jumla tuzish va nutq ohangini belgilashda adabiy til imkoniyatlaridan o'rinli foydalanish talab etiladi. Til o'rganishda uzluksiz

ta'limning boshlang'ich va umumiy o'rta bosqichlarida til ta'limining lisoniy, lingvopsixologik, sotsiopsixologik va paralingvistik va, muhimi, umumdidaktik va o'ziga xos metodik xususiyatlardan kelib chiqqan holda hosil qilinadigan nutqiy-kommunikativ, grammatik va umumtarbiyaviy vazifalar belgilanadi.

“Ona tili” nafaqat leksik va grammatik me'yorlarni o'rgatuvchi, balki o'quvchi nutqiy faoliyatida ixtiyoriy mavzu, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunish, to'g'ri o'qish, orfoepik va orfografik me'yorlarni qo'llash salohiyatini rivojlantirishiga xizmat qiladigan fandır. O'quvchining mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashi uchun ona tili darslarida o'qib tushunishga alohida e'tibor qaratiladi. Ona tilini puxta o'zlashtirgan o'quvchi boshqa fanlarni qoniqarli o'zlashtiradi. O'qish savodxonligi mukammal bo'lgan o'quvchi boshqa fanlarda o'rganayotgan matnlarni o'qish orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlaydi, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqati rivojlantiriladi. Shuningdek, o'quvchining mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, PIRLS) talablariga mos keladigan matnlar bilan ishlashga mo'ljallangan amaliy topshiriqlarni matnlarning mazmuniga moslashtirish o'qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri. Bunda matnni tushunish, tahliliy, tanqidiy fikrlash va munosabat bildirish malakalarini shakllantirish ko'zda tutiladi.

Ona tili fani o'quvchi shaxsida fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri va ravon bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani rivojlantirish; o'quvchida til qurilishiga oid o'zlashtiriladigan amaliy bilimlarni (fonetika (orfoepiya), leksika, so'z tarkibi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish.

O'zbek tili fani umumiy o'rta ta'limning ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarida ikkinchi til sifatida o'qitiladi. Ushbu fan ta'limi mazmunida asosiy diqqat-e'tibor nutqiy va lingvistik kompetensiyani shakllantirishga mo'ljallangan, bu o'quvchining o'zbek tilidan egallaydigan lingvistik bilimlari vositasida kundalik turmush, ijtimoiy-madaniy hayot, mutaxassislik sohalarda og'zaki va yozma shaklda erkin muloqot yurita olishini ta'minlash asosida amalga oshiriladi. O'quvchining kundalik va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun o'zbek tili fani bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini muloqot jarayonida qo'llash malakasini rivojlantiruvchi nutqiy kompetensiyalar va o'zbek tilida og'zaki va yozma savodxonligini rivojlantirishga yo'naltirilgan lingvistik kompetensiyalar o'quvchining o'zlashtirgan bilimlari asosida o'zini o'zi mustaqil rivojlantirish, egallangan bilim, ko'nikma va malakasini turli vaziyatlarda qo'llay olishga qaratilgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirishini ko'zda tutadi.

Adabiyot fani milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini bilish asosida o'quvchining ma'naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantiradi hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim,



ko'nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish, o'quvchini badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o'rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o'quvchining ma'naviyatini boyitish, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

O'qish (umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflari o'quv rejasidagi adabiyot) fani og'zaki va izchil nutqni o'stirish, so'z boyligini oshirish, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyati hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. O'qish fanini o'qitish orqali o'quvchida to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish; mutolaaga muhabbat uyg'otish, ularni oddiy kitob o'quvchidan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish; o'qish orqali tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, dunyoqarashini boyitish; axloqiy-estetik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash; nutqi va tafakkurini o'stirish; tafakkurida elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish; o'quvchining fikrlashini o'stirish ko'zda tutiladi. O'qish darslari oldiga qo'yilgan tarbiyaviy vazifaning muvaffaqiyatli hal etilishi darsda badiiy asar matni ustida ishlash bilangina bog'liq bo'lib qolmay, balki bolani qurshab olgan hayot, tabiatdagi o'zgarishlar, ekologik vaziyat, ijtimoiy foydali mehnat bilan ham o'zaro bog'liq bo'lishi lozim. O'quvchini o'qishga o'rgatishda hayot tajribalariga tayanib ish ko'riladi. O'qish darslari bolalarda go'zallikka muhabbat uyg'otadigan, poklik tuyg'ulariga ozuqa beradigan, hissiyotni o'tkirlashtiradigan, aqlni charxlaydigan, tasavvurlarni boyitadigan, estetik didni o'stiradigan musiqa va tasviriy san'at fanlari bilan uzviy bog'langan bo'lishi kerak. O'qish, musiqa va tasviriy san'at darslarini o'zaro bog'lab uyushtirish bolalarda san'at asarlarini to'g'ri tushunish va qadrlash ko'nikmalarini o'stiradi, o'quvchining shaxs sifatida ma'naviy qiyofasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Til va adabiyot fanlari blokidagi fanlar o'zaro ijtimoiy va aniq fanlar bilan uzviy bog'lab o'qitiladi. Agar o'quvchi matndan tashqari jadval, diagrammalardagi topshiriqlarni mantiqiy fikrlab, unga tanqidiy yoki ijodiy yondasha olmasligi o'qish savodxonligida qusur borligidan dalolat.

Matematika faniga doir masala, misol, topshiriqlarni bajarish uchun, albatta, uni tushuna bilish zarur. Masalan, topshiriqlar gaplar vositasida ifodalanadi. Gap qurilishini esa, shubhasiz, ona tili fani o'rgatadi. Fanga oid matnlarni tinglab tushunish, mantiqiy fikrlash orqali matematik o'lchov va hisob-kitoblar bilan bog'liq masalalarni yechish, laboratoriya va boshqa tajribalarni o'tkazish jarayonida eng maqbul yechimni topa olish va to'g'ri qaror qabul qilish malakalari rivojlantiriladi.

Fizika va astronomiya faniga doir masala, formula, matnlarni o'qib tushunish ushbu fan tushuncha va hodisalarini – bu fan ramzlari va amaliyotlarini to'g'ri yozish va o'qish orqali qanchalik to'g'ri va ongli uqqanligi yoki uqmaganligini ham ko'rsatib turadi. Fanga oid matnlarni o'qish jarayonida o'quvchining mantiqiy fikrlash qobiliyati, aqliy rivojlanishi



va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish barobarida olamning yagona manzarasiga oid tafakkurlarini rivojlantirish hamda egallagan bilimlardan kundalik hayot faoliyatlarida foydalanish ko'nikmasini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Kimyo faniga oid matnlarni, terminlarni, atamalarni o'zlashtirish, topshiriqlarni bajarish uchun, albatta, uni tushuna bilish zarur. Fanga oid matnlarni to'g'ri o'qish va tinglab tushunish orqali o'quvchi moddalar tarkibi, kimyoviy atamalarni farqlash, inson faoliyati va tabiatda ro'y berayotgan kimyoviy jarayonlar haqidagi tushunchalarni biladi. Kimyoviy birikmalarning farqlarini, tabiiy tizimlarning kimyoviy asosini, moddalarning tuzilishi va tarkibining o'zaro bog'liqligini o'rganadi. Kimyoviy moddalar hamda maishiy kimyo mahsulotlaridan ehtiyokorlik bilan foydalanish va ular asosida eksperiment o'tkazish ko'nikmasi rivojlanadi.

Biologiya faniga o'quvchi oid matnlarni to'g'ri o'qish, tushunish orqali terminlar, atamalarni o'zlashtirish, jonli tabiatni tizim sifatida bilish, jonli va jonsiz tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni his etish, jonli muhit muammolarini hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi, ijtimoiylashuvi rivojlanadi. Bir vaqtning o'zida atrofimizni o'rab turgan jonli tabiatga ijobiy munosabat, tabiiy rang-baranglikni saqlab qolish, shuningdek, javobgarlikka asoslangan mustahkam hayotiy faoliyat shakllanadi.

Tabiat va geografiya faniga oid matnlarni tinglab tushunish, o'qish orqali o'quvchida tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy obyekt, jarayon va hodisalar, vatanimiz tabiiy sharoiti va boyliklari, aholisi va iqtisodiyoti, jamiyat va tabiatning o'zaro aloqadorligi, tabiatdan oqilona foydalanish va ishlab chiqarishni to'g'ri tashkil etishning global va hududiy muammolari haqida ilmiy-amaliy tushunchalar hosil bo'ladi, mustaqil fikr-mulohaza yuritish, xaritalardan foydalana olish, geografik bilimlarni amalda qo'llash malakalari shakllanadi.

Informatika va axborot texnologiyalari faniga oid matnlarni tushunish, o'qish orqali axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va kompyuter texnikasidan foydalanish malakalari rivojlanadi.

Tarix fani orqali adabiy va tarixiy dalillarni bir-biriga qiyoslash, dalillar haqida fikr yuritish va to'g'ri xulosalar chiqarish bilimni puxta o'zlashtirishda katta ahamiyat kasb etadi. Adabiyot va tarix fani o'zaro yaqin turadi. Adabiyot darslarida o'quvchi dunyoqarashini shakllantirishda ularning tarix fanidan olgan bilimlari bilan birga, hozirgi davrdagi ijtimoiy-siyosiy hodisalarni o'rganishlaridan ham foydalaniladi. Ilmiy dunyoqarashni shakllantiruvchi yorqin tarixiy shaxslar obrazlari ham o'quvchining ma'naviy dunyosini boyitadi, jamiyatning moddiy boyligi va ma'naviy madaniyatini rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shish tuyg'usini o'stiradi. Shu yo'l bilan o'quvchida ijtimoiy hayot voqealari hamda adabiyot va san'at asarlarini mustaqil anglash malakasi, izchil dunyoqarash shakllantiriladi.



MAKTAB BITIRUVCHILARIDA TIL VA ADABIYOT FANLARI BO'YICHA RIVOJLANTIRILADIGAN UMUMIY KOMPETENSIYALAR (umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilariga qo'yiladigan talablar)

NUTQIY KOMPETENSIYALAR

Og'zaki nutq malakasi

OTBMT.ON.1	o'zbek adabiy tili me'yorlariga amal qilgan holda turli nutqiy vaziyatlarda ravon so'zlay olish
OTBMT.ON.2	mavzu yuzasidan nutq tayyorlay olish va uni bayon qilish, mavzu doirasidagi fikr va g'oyalarini taqdimot ko'rinishida namoyish qilish
OTBMT.ON.3	munozaralarda ishtirok etish, fikrlarni umumlashtirish va munosabat bildirish
OTBMT.ON.4	badiiy matnni yoddan ifodali aytish, bunda ohang, ovoz tovlanishlari va to'xtam (pauza) dan o'rinli foydalana olish

Yozma nutq malakasi

OTBMT.YN.1	o'z fikr va hissiyotlarini imlo, punktuatsion, uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda to'g'ri, izchil, ifodalash, shuningdek, ma'lumotni belgilangan hajm talabiga ko'ra yoza olish
OTBMT.YN.2	turli maqsad va har xil o'quvchiga mo'ljallangan matnlarni yoza olish, xususan, ma'lum narsa/hodisa haqida yozma ma'lumot yetkaza olish
OTBMT.YN.3	materiallarni tartiblash va umumlashtirish, fikr va dalillarni tafsilotlar bilan asoslab yoza olish
OTBMT.YN.4	yoza nutqining ta'sirchanligini oshirish maqsadida ifoda vositalarni o'rinli qo'llay olish
OTBMT.YN.5	matnning izchilligi ta'minlash va saviyasini oshirish uchun so'z va grammatik vositalarni to'g'ri qo'llay olish
OTBMT.YN.6	imlo, uslub va punktuatsion me'yorlarga rioya qilish.

Anglash malakasi

O'qish va tushunish

OTBMT.A.O'T.1	matnning uslubini farqlagan holda ravon va ifodali o'qiy olish;
OTBMT.A.O'T.2	matnda til qanday qo'llanganini, xususan, har bir so'z, so'z birikmasi va gap shaklining qanday ma'no tashiyotganini, nega aynan shu so'z, birikma yoki gap qo'llanganini, matn tuzilishi va uning tarkibiy qismlarini bog'lovchi vositalarning vazifasini tushuna olish;
OTBMT.A.O'T.3	ibora (idioma)lar, maqol va aforizmlarning matnga qo'shadigan hissasini aniqlay olish
OTBMT.A.O'T.4	matn mazmuniga mos sarlavha (lar)ni topa olish
OTBMT.A.O'T.5	matn obyektiga muallifning nuqtayi nazarini aniqlay olish
OTBMT.A.O'T.6	xulosa chiqarish, xulosani matnda berilgan hodisaga bog'lay olish

OTBMT.A.O'T.7 matnning yozilishidan qanday maqsad ko'zlanganini, qaysi toifadagi o'quvchiga mo'ljallanganini, qanday kontekstda yozilganini bilish va bu bilimni matnni yaxshiroq tushunish uchun qo'llay olish.

Tinglab tushunish

OTBMT.A.TT.1	monologik nutq va suhbatni tinglab tushuna olish
OTBMT.A.TT.2	jonli nutq va audiomatn mavzusi yuzasidan tilga olingan tafsilotlarni belgilay olish;
OTBMT.A.TT.3	berilgan savollarni tushuna olish va javob bera olish
OTBMT.A.TT.4	so'roq gap, darak gap, undov gaplar va kinoya ohangidagi farqni tushunish;
OTBMT.A.TT.5	audiomatnda berilgan ma'lumotni turli shaklda, xususan, jadval, chizma, grafik ko'rinishida ifodalay olish
OTBMT.A.TT.6	audiomatnni og'zaki aytib bera olish va matn ko'rinishida yozib bera olish
OTBMT.A.TT.7	tinglanganlar asosida xulosa qilish va xulosani dalillar bilan asoslay olish
OTBMT.A.TT.8	dialogik nutq va suhbatda tomonlarning vazifasi, fikri va qarashlarini farqlay olish;

LINGVISTIK KOMPETENSIYALAR

Lingvistik malaka

(fonetika, imlo, leksikologiya, morfologiya, sintaksis)

Fonetika

OTBMT.L.F.1	nutq tovushlarining ma'no farqlash vazifasini anglash va izohlay olish
OTBMT.L.F.2	fonetik hodisalar (tovush tushishi, tovush orttirilishi, tovush almashishi) ni bilish va izohlay olish
OTBMT.L.F.3	ohang va urg'uni bilish va qo'llay olish

Imlo me'yorlari

OTBMT.L.IM.1	harflar imlosini bilish va yozma nutqda to'g'ri qo'llay olish
OTBMT.L.IM.2	asos va qo'shimchalar imlosini bilish va yozma nutqda to'g'ri qo'llay olish
OTBMT.L.IM.3	so'zlarni qo'shib, ajratib va chiziqcha bilan yozish hamda ko'chirish qoidalariga amal qilish

Leksikologiya

OTBMT.L.L.1	sinonimlar, sinonimik qatordagi uslubiy farqlarni tushunish va to'g'ri qo'llay olish
OTBMT.L.L.2	omonim, paronimlarni farqlash, ularni nutqda to'g'ri qo'llay olish
OTBMT.L.L.3	so'zning ko'p ma'noliligi, bosh va ko'chma ma'nolarni farqlash, ko'chma ma'noni hosil qiluvchi birliklarni nutqda to'g'ri qo'llay olish.

Morfologiya

OTBMT.L.M.1	so'zni tarkibiy qismlarga ajratish, asos va qo'shimchani, tub va yasama so'zlarni farqlash; qo'shimchalarning shakldosh, ma'nodosh, zid ma'noliligini bilish, nutqida qo'llay olish
-------------	---



OTBMT.L.M.2	mustaqil soʻz turkumlari (feʼl, ot, sifat, son, ravish, olmosh), ularning maʼno turlarini oʻzaro farqlash, uslubiy xususiyatlarini tushunish hamda nutqda toʻgʻri qoʻllay olish
OTBMT.L.M.3	yordamchi soʻz turkumlari (bogʻlovchi, koʻmakchi, yuklama)ni oʻzaro farqlash, ularning uslubiy xususiyatlarini tushunib izohlay olish hamda nutqda toʻgʻri qoʻllash
OTBMT.L.M.4	alohida soʻz turkumlari (modal, taqlid va undov soʻzlar) ni oʻzaro farqlash, ularning uslubiy xususiyatlarini tushunib izohlay olish hamda nutqda toʻgʻri qoʻllash
OTBMT.L.M.5	inish belgilarini toʻgʻri qoʻllash

Sintaksis

OTBMT.L.S.1	soʻz birikmasi, gap va uning turlarini farqlay olish va nutqda toʻgʻri qoʻllash
OTBMT.L.S.2	gap boʻlaklarining oʻzaro bogʻliqligini, tartibini tushunish va nutqda toʻgʻri qoʻllay olish
OTBMT.L.S.3	sintaktik birliklarni farqlash va nutqda toʻgʻri qoʻllay olish
OTBMT.L.S.4	inish belgilarini toʻgʻri qoʻllash



TIL VA ADABIYOT FANLARI ORQALI O'QUVCHIDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA TAVSIYALAR

Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchida fanga oid kompetensiyalar bilan birga tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilab berilgan. Til va adabiyot fanlari bloki yo'nalishidagi fanlar orqali o'quvchining o'zlashtirgan bilimlari asosida o'zini o'zi mustaqil rivojlantirish, egallangan bilim, ko'nikma va malakasini turli vaziyatlarda qo'llay olishga qaratilgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Jumladan, kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda davlat tili hamda xorijiy tillarni o'zlashtirishda mustaqil, ijodiy fikrlash, yozma va og'zaki ravon bayon etish malakalarini shakllantirishda ona tili bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini muloqot jarayonida qo'llash malakasini rivojlantirish lozim.

Fanlarni o'qitishda axborot bilan ishlash kompetensiyasini samarali rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi zamonaviy axborot-telekommunikatsiya vositalaridan muntazam foydalanish zarur. Bunda o'quvchini fanga oid axborotlarni turli manbalardan izlash, tahlil qilish va axborot xavfsizligiga rioya qilgan holda axborot vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda mobil qurilma (telefon, planshet va boshqa gadjet) lardan foydalanish tavsiya etiladi.

O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishda umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish, vatanni sevish, huquqiy, iqtisodiy bilimlarga ega bo'lish, yangiliklarga intilish va o'zlashtirgan nazariy bilimlari asosida mustaqil qaror qabul qilish, jamiyatda ro'y berayotgan progressiv va innovatsion o'zgarishlardan xabardor bo'lish hamda ulardan kundalik hayotda foydalana olishga o'rgatish zarur.

Ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishda fuqarolik burchi, ijtimoiy va siyosiy rivojlanish, favqulodda vaziyatlar, ekologik muammolar haqida bilimlarga ega bo'lish hamda badiiy va san'at asarlarini tushunishdan, ularni asrashda tashkilotchilik xislatlarini rivojlantirishdan iborat.



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTEBLARIDA O'ZBEK TILI (ONA TILI, O'ZBEK TILI) FANINI O'QITISHNI RIVOJLANTIRISH K O N S E P S I Y A S I

I. UMUMIY QOIDALAR

Ushbu konsepsiya O'zbekiston Respublikasida umumta'lim fanlari dasturlarini amalga oshiradigan muassasalarda (keyinchalik – ta'lim muassasalari) o'zbek tilini ona tili hamda davlat tili sifatida o'qitishning asosiy masalalari, tayanch tamoyillari, maqsad, vazifalari hamda ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirishning asosiy tendensiyalarini belgilaydi, shuningdek, sohaga oid kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

II. O'ZBEK TILI PREDMETINING TA'LIM TIZIMIDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

O'zbek tili ta'limi barkamol shaxs tarbiyasi, unda ma'naviy sifat va ijodiy tafakkurni rivojlantirish, milliy o'zlikni anglash, milliy an'ana va avlodlar o'rtasidagi vorislikni asrash hamda davom ettirish jarayonida yetakchi o'rin tutadi.

O'zbek tili davlat tili sifatida O'zbekiston Respublikasida davlat ramzi o'laroq aholini yagona milliy manfaatlar atrofida birlashtiradigan, shu tilda so'zlashuvchilarning tafakkur tili sifatida kishi shuurini milliylik zaminiga bevosita bog'laydigan, shu yurtda yashayotgan millat va elatlarning o'zaro aloqasini ta'minlovchi vosita, unga bo'lgan munosabat Vatanga munosabat va sadoqatni belgilaydigan omildir. Ta'lim tizimida o'zbek tilini o'qitish ana shu g'oya va ruhni singdirishga xizmat qiladi.

Jamiyatdagi ijtimoiy nufuzini yuksaltirish bilan ta'lim, ilm-fan, iqtisodiyot va siyosat sohalarida o'zbek tilining mavqeyini mustahkamlash, ularda ish yuritishda davlat tilining mutloq yetakchilik maqomini ta'minlash yo'nalishini belgilagan holda ta'limda o'zbek tilini o'qitish tizimi ushbu yo'nalishda amalga oshiriladigan ishlarni yuzaga chiqarishni ko'zda tutadi.

III. KONSEPSIYANING MAQSAD, VAZIFALARI

Ushbu Konsepsiyaning **maqsadi** o'qitishning bosh yo'nalishi, maqsad, vazifalari, mazmuni, tamoyillaridan kelib chiqib tilshunoslik hamda metodika fanlarining so'nggi yutuqlarini hisobga olib, ulardan ta'lim oluvchilarning hayotiy ehtiyojlariga moslarini tanlagan holda ta'lim muassasalarida o'zbek tili ta'limini samarali yo'lga qo'yish, amaliy samaradorlik jihatidan yangi bosqichga ko'tarishdan iborat.

Ta'lim muassasalarida o'zbek tilini o'qitish tizimini rivojlantirish **vazifalari** sifatida quyidagilar belgilanadi:

ta'limning barcha bosqichlari uchun uzluksizlikni ta'minlagan holda o'qitishning zamonaviy texnologiyalari va metodikasi asosida o'quv dasturlarini ona tili ta'limi maqsadi hamda mazmuni uyg'unligiga ko'ra isloh



qilish hamda ular asosida darsliklar, o'quv qo'llanmalari va didaktik materiallarning yangi avlodini yaratish;

ta'limiy axborotning ko'pligi, tezligi va o'zgaruvchanligini inobatga olib o'zbek tili o'qituvchilarining moslashuvchanligi, intellektuallik darajasini oshirish;

o'quv dasturlari talablarini bajarish, elektron ta'lim, masofadan o'rganish va o'qitishda ta'lim oluvchilar hamda pedagog xodimlar faoliyati uchun kerakli, sifatli, ommabop informatsion resurslarni rivojlantirish;

o'zbek tilini o'rganuvchilar auditoriyasini jahon miqyosida kengaytirishga harakat qilish.

IV. O'ZBEK TILINI O'QITISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR

O'zbek tili o'qitishning uzoq yillardan beri davom etib kelayotgan tizimli an'analari (metodik yondashuvlar, o'quv-uslubiy majmualarini yaratish, ilg'or tajribalarni ommalashtirish, ta'lim amaliyoti) mamlakatdagi umumta'lim tizimining ulkan ilmiy-metodik zahira boyligi sanaladi. Shuning bilan birga mazkur yo'nalishda endilikda hal qilinishi lozim bo'lgan motivatsion, mazmun-mundarijaga aloqador, metodik hamda kadrlar bilan bog'liq yechimini kutayotgan bir qator muammolar mavjud.

IV.1. Motivatsion tabiatli muammolar:

O'zbek tilining jamiyatdagi ona tili va davlat tili sifatida o'z qadri, mavqeyi hamda maqomiga bo'lgan e'tibor sustligi tufayli uni to'laqonli o'rganish va o'rgatishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojga beparvo qaraldi. Natijada ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning diqqati kerak-kerak emas mavzular bilan chalg'itildi, bu esa o'zbek tili ta'limining hayotiy zaruratni qondirish o'zanidan chiqib ketishiga sabab bo'ldi; uni targ'ib qilish ham susayib ketdi.

O'zbek tilining ona tili sifatida o'qitilishida lingvistik kompetensiyani shakllantirish ustuvorlashib, og'zaki va yozma nutq malakasini yuksaltirish uning soyasida qolib ketganligi, lingvistikaga oid nazariy ma'lumotlarni singdirishga yo'naltirilgan til ta'limi jarayoni ta'lim oluvchilarning kundalik hayotiy faoliyatlari, ehtiyojlaridan uzilib qolgani ushbu salbiy holatning turg'unlashishi va chuqurlashuviga sabab bo'ldi.

Ta'limning barcha bosqichlarida ta'lim oluvchilarning yosh, jins xususiyatlari, milliy va mahalliy o'ziga xosligini e'tiborga olib ularning ona (davlat) tilini o'rganishga bo'lgan rag'batini oshiruvchi tilimizning jozibasini, boy imkoniyatlarini aks ettirgan didaktik materiallar majmuasini o'z ichiga olgan milliy metodik ta'minot tizimi markazlashgan holda yaratilmadi.

IV.2. Mazmun-mundarija bilan bog'liq muammolar:

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida til, nutq, o'qish va yozish kompetensiyalarini shakllantirish mashg'ulotlari uchun milliy xarakterdagi didaktik (matnlar, audio, video va boshqa) materiallar tanqisligi mavjud.

Ta'lim oluvchilarning so'z boyligini oshirish, nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishda maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi faoliyat markazlari o'rtasida integratsiyani yo'lga qo'yish talab darajasida emas.



Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan amaldagi "Ona (o'zbek) tili" fani darsligining mundarijasi bevosita 1-4-sinfidagi "Ona (o'zbek) tili" kitobining davomi sifatida tizimli tashkil qilinmagan, atamalar, ayrim grammatik qoidalarga yondashuvda har xillik kuzatiladi, shuningdek, ijodiy mashqlar ulushi darsliklarda juda oz bo'lib, qariyb 60 foizini namuna asosida bajariladigan sxolastik mashq va topshiriqlar tashkil etadi.

Ta'limning barcha bo'g'inlarida ona tili fanini o'qitishda asosiy e'tibor lingvistikaga oid nazariy ma'lumotlarga qaratilib, o'quvchida amaliy xarakterdagi nutqiy (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish) kompetensiyalarni shakllantirishni ta'minlay olmadi. Ta'lim oluvchilarga adabiy til me'yorlarini singdirish masalasida asosiy e'tibor yozma nutqqa qaratilib, madaniy og'zaki nutq malakalarini shakllantirish esa e'tiborsiz qolib ketdi.

IV.3. Metodik xarakterdagi muammolar:

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari milliy tilimizga asoslangan nutqiy faoliyatni takomillashtiruvchi, boyituvchi va madaniylashtiruvchi mashg'ulotlarda bolalar nutqini o'stirish, so'z boyligini oshirish bo'yicha tegishli metodik yo'riq, tavsiya va adabiyotlar bilan deyarli ta'minlanmagan.

Maktabda o'quvchiga darslikdan boshqa ta'limning o'quv vositalari taqdim etilmadi va bu holat hamon davom etmoqda. O'zbek tili fanining o'quv va ilmiy metodik ta'minoti (lug'at va qomuslar, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, multimedia, mobil ilova va boshqa didaktik materiallar) yetarli darajada ishlab chiqilmadi. Natijada ularda ta'limning yordamchi o'quv vositalaridan foydalanish malakasini hosil qiladigan mustaqil izlanish tajribasi shakllanmadi.

Ta'lim oluvchilarning yoshi, jinsi, milliy xususiyatlari, xususan, fiziologik, psixologik jihatlaridan kelib chiqqan holda o'quv materiallarini qanday va qay miqdorda o'zlashtirilishini hisobga olib sinflar kesimida tadrijiy rivojlantirib boriladigan ilmiy-metodik asosga ega uzviy o'quv dasturi ham hamon yaratilmagan.

O'zbek tili fanini o'qitishda fanlararo integratsiya mexanizmi talab darajasida ishlab chiqilmagan. Boshqa o'quv fanlari, o'quv predmetlariga qo'yilgan malaka talablarida ta'lim oluvchi o'z fikrini (dars jarayonida) ona tilida ifodalashi zarurligi bilan bog'liq alohida talab qo'yilmadi.

O'zbek tili fanini o'zlashtirishda bitiruvchilarga qo'yiladigan malaka talablari, tasdiqlangan davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq ilmiy asoslangan baholash mezonlari mavjud emas.

Lingvodidaktika va tilshunoslikning pragmatik xarakterdagi so'nggi yutuqlarini amaliyotga tatbiq qilish ham oqsamoqda.

IV.4. Kadrlar bilan bog'liq muammolar:

Oliy ta'lim, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazlarida metodist mutaxassislar va olimlar juda oz, aksariyatida umuman yo'q. Bu, o'z navbatida, talabalar, kurs tinglovchilarining metodik tayyorgarligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.



Metodist mutaxassislarni tayyorlash ilmiy kadrlar yetishtirish tizimida nihoyatda e'tiborsiz sohaga aylanib qolgan. Mamlakat miqyosida til va adabiyot bo'yicha yuzlab fan doktorlari bo'lgani holda lingvodidaktika va o'zbek tilini o'qitish metodikasi sohasida sanoqli mutaxassislarning mavjudligi – buning dalili. Oliy o'quv yurtlarida til va adabiyot o'qitish metodikasi – o'quv mashg'ulotlari aksar hollarda nomutaxassis kadrlar tomonidan olib boriladi.

Oliy ta'limdagi nomukammalliklar tufayli bitiruvchilarning nazariy tayyorgarlik hamda amaliy kompetensiyalari bog'lanishlarida bo'shliqlar yuzaga kelgan. Bu esa ta'lim tizimida raqobatbardoshlik talablariga javob bermaydigan kadrlar sonining oshishiga sabab bo'lmoqda.

Masofadan o'qitish, pedagog xodimlarning o'z ustlarida davomli va samarali ishlash tizimi yo'lga qo'yilmagan.

O'zbek (ona) tili va adabiyot fani o'qituvchilari mehnatini rag'batlantirish, ish sifatini baholash tizimi, xususan, o'tkaziladigan attestatsiyalar yuzaki va rasmiy tus olganki, bu ularning kasbiy rivojlanishiga yetarli darajada ta'sir ko'rsatmaydi.

Viloyat, tuman va shahar xalq ta'limi muassasalarida bevosita o'qituvchilar bilan ishlaydigan metodist (mentor)larning ilmiy saviyasi, metodik salohiyati va tashkilotchiligi borasida ham katta muammolar kuzatiladi.

V. KONSEPSIYANI AMALGA OSHIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

V.1. Umumiy masalalar.

O'zbekistondagi ta'lim tizimi va jarayoni, qanday shakl va mazmunda bo'lishidan qat'i nazar, mamlakatdagi barcha ta'lim muassasalarida o'zbek tiliga davlat ramzlari sirasidagi muqaddas timsol sifatida qaralishi hamda shunday munosabatning shakllanishiga yo'naltiriladi.

Mamlakatimizning maorif sohasiga daxldor har bir xodimi, mutasaddisi o'zbek tilida yetarli darajadagi og'zaki va yozma nutqiy kompetensiyalarga ega bo'lishi kerak hamda ular kasbiy faoliyatida tarbiyalanuvchilarda ushbu kompetensiyalarni shakllantirishga o'zbek (ona) tili o'qituvchilari bilan teng barobarda mas'uldir.

V.2. Til ta'limini yangilash asoslari

Til ta'limida lingvistikaga oid nazariy bilimlarning amaliy tabiatli nutqiy kompetensiyalar ustida ishlashga yo'naltirilishi va unga bo'ysundirilishi yetakchi tamoyil sifatida belgilanadi.

O'zbek tili ta'limida xorijiy tajribalarga ijodiy va tanqidiy yondashiladi, milliy pedagogikamiz tarixidagi boy tajribalarga tayaniladi hamda mamlakatimizda vujudga kelgan ilg'or tajribalar o'rganilib, umumlashtirilgan holda amaliyotga tatbiq etiladi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasi ta'minlanadi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlari tashkil etiladi.



Metodik tadqiqotlar natijalariga ko'ra ta'lim oluvchilarning mustaqil ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ustuvorlik kasb etgan majburiy hamda variativ komponentlar uyg'unligini nazarda tutuvchi o'quv dasturlari asosida darsliklarning yangi avlodi yaratiladi.

O'quv materiallarini nazariy hamda amaliy o'zlashtirishda yordam beradigan metodik ta'minot: yordamchi o'quv vositalari (lug'atlar, qomuslar, matnlar to'plami, multimedia, mobil ilovalar va h.) yaratiladi.

Amaliyotdagi mavjud muammolar metodik tadqiqotlar hamda ilmiy izlanishlar natijalariga tayanilgan holda hal etiladi.

O'zbek tili o'quv predmeti bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi uchun baholovchi nazorat materiallarini takomillashtirish davom ettiriladi.

V.3. O'zlashtiriladigan bilim va malakalar

O'quv materiallari vositasida o'zlashtiriladigan bilim va malakalar quyidagilardan iborat:

tilning milliy tabiati, ijtimoiy hodisa ekanligi, uning qurilishi, vazifalari va taraqqiyoti to'g'risidagi zarur bilimlarni egallash;

nutqiy faoliyat turlarini (tinglash, o'qish, so'zlash, yozish) yaxlit o'zlashtirish, muloqotning barcha sohalarida nutq malakalaridan to'g'ri foydalanishni bilish;

og'zaki va yozma nutq savodxonligiga erishish;

o'zbek tilining boshqa fanlar bilan aloqasini idrok etish, ona tili o'qitish o'zbek tilida olib boriladigan barcha ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fanlar, o'quv predmetlarining o'rganish va o'rgatish vositasi ekanligini chuqur anglagan holda undan ilmiy va amaliy faoliyatda foydalanish;

ijtimoiy hayotning turli qirralarini aks ettiradigan, shuningdek, ta'lim oluvchilarning yosh, gender va etnomadaniy xususiyatlarini inobatga olib yaratilgan matnlardan foydalanish;

axborot-kommunikativ vosita va resurslari (chop etiladigan va elektron lug'atlar, tarjimon dasturlari, imloviy nazorat dasturi, qidirish tizimlari va b.)dan foydalanish;

yakuniy davlat attestatsiyasida bitiruvchining nafaqat yozma, ayni paytda og'zaki nutqini ham baholash.

V.4. O'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish

O'zbek tili o'qituvchilari ish faoliyati sifat va samaradorligini oshirishda quyidagilar muhim sanaladi:

o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning yangi shakl va mazmundagi muqobil tizimini yaratish;

pedagog xodimlarni tayyorlash hamda qayta tayyorlash va malakasini oshirishda nazariy bilimlar berish bilan birga asosiy e'tiborni nutqiy kompetensiyalarni o'zlashtirish hamda ularni o'qitish bo'yicha kasbiy tayyorgarlik darajasiga qaratish;

sohasidagi ilg'or tajriba, pedagogik texnologiya, tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, targ'ib qilish, bunda alohida o'rnak ko'rsatayotgan pedagoglarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish;

axborot-kommunikativ texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan o'qish, malaka oshirish va o'qitishning samarador mexanizmlarini ishlab chiqish hamda takomillashtirib borish;

o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilarini attestatsiyadan o'tkazish, ularning ish sifatini o'quvchida shakllantirilgan bilim va kompetensiyalardan kelib chiqib baholash tizimini yo'lga qo'yish;

o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilari uchun kasbiy tayyorgarligini oshirishga yordam beradigan o'quv, metodik adabiyotlar hamda didaktak materiallarni davomli tarzda tayyorlab borish va yetkazib berish.

VI. KONSEPSIYANI AMALGA OSHIRISHDAN KUTILAYOTGAN NATIJALAR

Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali o'zbek (ona) tili fanini umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitishni rivojlantirishda 2030- yilgacha quyidagi natijalarga erishish nazarda tutilmoqda:

konsepsiya umumiy o'rta ta'limning malaka talablari(DTS)da belgilangan talablar uchun asos bo'ladi;

konsepsiyada belgilangan maqsad va vazifalarni keng amaliyotga joriy etish o'quvchi-yoshlarning intellektual rivojlanishiga samarali ta'sir etadi;

o'zbek tili fanini o'qitish bosqichlari, o'quv fani bo'yicha ta'lim mazmuni va malaka-talablari me'yorlari aniqlashtiriladi;

umumiy o'rta ta'lim muassasalarida, zamonaviy va innovatsion texnologiyalardan foydalanib ona tilining imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga erishiladi;

ta'lim muassasalarida o'zbek (ona) tilini o'rgatish va uni bilish darajasini baholash tizimi yo'lga qo'yiladi, barcha fan, sohalarga oid ilmiy tadqiqotlarda o'zbek (ona) tilining ilm-fan tili sifatidagi nufuzi yanada ortadi.



ONA TILI FANI BO'YICHA UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI BITIRUVCHILARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

OG'ZAKI NUTQ MALAKASI

OTBMT.ON.1	o'zbek adabiy tili me'yorlariga amal qilgan holda turli nutqiy vaziyatlarda ravon so'zlay olish
OTBMT.ON.2	mavzu yuzasidan nutq tayyorlay olish va uni bayon qilish, mavzu doirasidagi fikr va g'oyalarini taqdimot ko'rinishida namoyish qilish
OTBMT.ON.3	munozaralarda ishtirok etish, fikrlarni umumlashtirish va munosabat bildirish
OTBMT.ON.4	badiiy matnni yoddan ifodali aytish, bunda ohang, ovoz tovlanishlari va to'xtam (pauza) dan o'rinli foydalana olish

YOZMA NUTQ MALAKASI

OTBMT.YN.1	o'z fikr va hissiyotlarini imlo, punktuatsion, uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda to'g'ri, izchil, ifodalash, shuningdek, ma'lumotni belgilangan hajm talabiga ko'ra yoza olish
OTBMT.YN.2	turli maqsad va har xil o'quvchiga mo'ljallangan matnlarni yoza olish, xususan, ma'lum narsa/hodisa haqida yozma ma'lumot yetkaza olish
OTBMT.YN.3	materiallarni tartiblash va umumlashtirish, fikr va dalillarni tafsilotlar bilan asoslab yoza olish
OTBMT.YN.4	yoza nutqining ta'sirchanligini oshirish maqsadida ifoda vositalarni o'rinli qo'llay olish
OTBMT.YN.5	matnning izchilligi ta'minlash va saviyasini oshirish uchun so'z va grammatik vositalarni to'g'ri qo'llay olish
OTBMT.YN.6	imlo, uslub va punktuatsion me'yorlarga rioya qilish.

ANGLASH MALAKASI

O'qish va tushunish

OTBMT.A.O'T.1	matnning uslubini farqlagan holda ravon va ifodali o'qiy olish;
OTBMT.A.O'T.2	matnda til qanday qo'llanganini, xususan, har bir so'z, so'z birikmasi va gap shaklining qanday ma'no tashiyotganini, nega aynan shu so'z, birikma yoki gap qo'llanganini, matn tuzilishi va uning tarkibiy qismlarini bog'lovchi vositalarning vazifasini tushuna olish;
OTBMT.A.O'T.3	ibora (idioma)lar, maqol va aforizmlarning matnga qo'shadigan hissasini aniqlay olish
OTBMT.A.O'T.4	matn mazmuniga mos sarlavha (lar)ni topa olish
OTBMT.A.O'T.5	matn obyektiga muallifning nuqtayi nazarini aniqlay olish
OTBMT.A.O'T.6	xulosa chiqarish, xulosani matnda berilgan hodisaga bog'lay olish

OTBMT.A.O'T.7	matnning yozilishidan qanday maqsad ko'zlanganini, qaysi toifadagi o'quvchiga mo'ljallanganini, qanday kontekstda yozilganini bilish va bu bilimni matnni yaxshiroq tushunish uchun qo'llay olish.
Tinglab tushunish	
OTBMT.A.TT.1	monologik nutq va suhbatni tinglab tushuna olish
OTBMT.A.TT.2	jonli nutq va audiomatn mavzusi yuzasidan tilga olingan tafsilotlarni belgilay olish;
OTBMT.A.TT.3	berilgan savollarni tushuna olish va javob bera olish
OTBMT.A.TT.4	so'roq gap, darak gap, undov gaplar va kinoya ohangidagi farqni tushunish;
OTBMT.A.TT.5	audiomatnda berilgan ma'lumotni turli shaklda, xususan, jadval, chizma, grafik ko'rinishida ifodalay olish
OTBMT.A.TT.6	audiomatnni og'zaki aytib bera olish va matn ko'rinishida yozib bera olish
OTBMT.A.TT.7	tinglanganlar asosida xulosa qilish va xulosani dalillar bilan asoslay olish
OTBMT.A.TT.8	dialogik nutq va suhbatda tomonlarning vazifasi, fikri va qarashlarini farqlay olish;

LINGVISTIK MALAKA <i>(fonetika, imlo, leksikologiya, morfologiya, sintaksis)</i>	
Fonetika	
OTBMT.L.F.1	nutq tovushlarining ma'no farqlash vazifasini anglash va izohlay olish
OTBMT.L.F.2	fonetik hodisalar (tovush tushishi, tovush orttirilishi, tovush almashishi) ni bilish va izohlay olish
OTBMT.L.F.3	ohang va urg'uni bilish va qo'llay olish
Imlo me'yorlari	
OTBMT.L.IM.1	harflar imlosini bilish va yozma nutqda to'g'ri qo'llay olish
OTBMT.L.IM.2	asos va qo'shimchalar imlosini bilish va yozma nutqda to'g'ri qo'llay olish
OTBMT.L.IM.3	so'zlarni qo'shib, ajratib va chiziqcha bilan yozish hamda ko'chirish qoidalariga amal qilish
Leksikologiya	
OTBMT.L.L.1	sinonimlar, sinonimik qatordagi uslubiy farqlarni tushunish va to'g'ri qo'llay olish
OTBMT.L.L.2	omonim, paronimlarni farqlash, ularni nutqda to'g'ri qo'llay olish
OTBMT.L.L.3	so'zning ko'p ma'noliligi, bosh va ko'chma ma'nolarni farqlash, ko'chma ma'noni hosil qiluvchi birliklarni nutqda to'g'ri qo'llay olish.
Morfologiya	
OTBMT.L.M.1	so'zni tarkibiy qismlarga ajratish, asos va qo'shimchani, tub va yasama so'zlarni farqlash; qo'shimchalarning shakldosh, ma'nodosh, zid ma'noliligini bilish, nutqida qo'llay olish

OTBMT.L.M.2	mustaqil soʻz turkumlari (feʼl, ot, sifat, son, ravish, olmosh), ularning maʼno turlarini oʻzaro farqlash, uslubiy xususiyatlarini tushunish hamda nutqda toʻgʻri qoʻllay olish
OTBMT.L.M.3	yordamchi soʻz turkumlari (bogʻlovchi, koʻmakchi, yuklama)ni oʻzaro farqlash, ularning uslubiy xususiyatlarini tushunib izohlay olish hamda nutqda toʻgʻri qoʻllash
OTBMT.L.M.4	alohida soʻz turkumlari (modal, taqlid va undov soʻzlar) ni oʻzaro farqlash, ularning uslubiy xususiyatlarini tushunib izohlay olish hamda nutqda toʻgʻri qoʻllash
OTBMT.L.M.5	tinish belgilarini toʻgʻri qoʻllash
Sintaksis	
OTBMT.L.S.1	soʻz birikmasi, gap va uning turlarini farqlay olish va nutqida toʻgʻri qoʻllash
OTBMT.L.S.2	gap boʻlaklarining oʻzaro bogʻliqligini, tartibini tushunish va nutqda toʻgʻri qoʻllay olish
OTBMT.L.S.3	sintaktik birliklarni farqlash va nutqda toʻgʻri qoʻllay olish
OTBMT.L.S.4	tinish belgilarini toʻgʻri qoʻllash



UMUMIY O'RTA TA'LIM O'QUVCHIIGA ONA TILI FANIDAN QO'YILADIGAN TALABLAR (1–11- SINFLAR)

1-SINF

NUTQIY KOMPETENSIYA

(og'zaki nutq, yozma nutq, anglash (o'qish va tushunish, tinglab tushunish))

Og'zaki nutq

OTMT.1.NK.ON.1	unli va undosh tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish;
OTMT.1.NK.ON.2	x va h, o' va u tovushlarini og'zaki nutqda farqlash (dasturda berilgan matnlar asosida);
OTMT.1.NK.ON.3	tengdoshlari va kattalar bilan suhbatga kirisha olish, suhbatlashish odobiga rioya qilish (bir-birini hurmat qilish, so'zga chiqishni istashini hurmat bilan so'rash, mavzu yoki matn yuzasidan navbat bilan gapirish);
OTMT.1.NK.ON.4	rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og'zaki tasvirlash;
OTMT.1.NK.ON.5	o'quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan gapira olish;
OTMT.1.NK.ON.6	matnni qayta bayon qila olish.

Savod chiqarish va yozma nutq

OTMT.1.NK.YN.1	fikr ifodalashda bir-biriga o'xshash (satr osti, satr usti harflari) harflarni farqlab yozish;
OTMT.1.NK.YN.2	yoza nutqda x va h harflarini to'g'ri qo'llash;
OTMT.1.NK.YN.3	bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qilish;
OTMT.1.NK.YN.4	husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qilgan holda 15–20ta so'zdan iborat diktant yozish;
OTMT.1.NK.YN.5	yil davomida o'rganilgan fanlarga oid atamalarni farqlash va ularni to'g'ri yoza olish;
OTMT.1.NK.YN.6	berilgan rasm asosida, odam yoki ma'lum voqeani tasvirlab, 2–3ta gap tuzib yoza olish;
OTMT.1.NK.YN.7	turli mavzularda tabriknoma yoza olish.

Anglash

O'qish va tushunish

OTMT.1.NK.A.O'T.1	harflarning bosma va yozma shakllari muvofiqligi va farqlarini ajratgan holda o'qish va tushunish;
OTMT.1.NK.A.O'T.2	o'quv dasturida tavsiya qilingan matnlardagi so'z va birikmalarning ma'nosini anglash;
OTMT.1.NK.A.O'T.3	darslikda berilgan lug'atdan foydalana olish;
OTMT.1.NK.A.O'T.4	matn yuzasidan savollar bera olish;
OTMT.1.NK.A.O'T.5	matn tafsilotlarini aniqlashtirish uchun savollarga javob bera olish (Kim? Nima? Qayerda? Qachon? Nima uchun? Qanday qilib? kabi);
OTMT.1.NK.A.O'T.6	o'qilgan ertaklarning xulosasini ayta olish.

Tinglab tushunish

OTMT.1.NK.A.TT.1	tinglangan tovushlarni o'zaro farqlash va harflarga moslashtira olish;
------------------	--



OTMT.1.NK.A.TT.2	suhbatlashish qoidalariga rioya qilish (bir-birini hurmat qilish, so'zga chiqishni istashini hurmat bilan so'rash);
OTMT.1.NK.A.TT.3	xabar, buyruq, so'roq ohanglarini farqlash;
OTMT.1.NK.A.TT.4	berilgan savolni tushunish va tartibli javob bera olish;
OTMT.1.NK.A.TT.5	jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g'oyasini ayta olish.

LINGVISTIK KOMPETENSIYA

OTMT.1.LK.TII.1	unli va undosh harflar talaffuzi, imlosini bilish, og'zaki va yozma nutqda to'g'ri qo'llay olish;
OTMT.1.LK.TII.2	bo'g'in ko'chirish va bosh harflar imlosiga rioya qilish;
OTMT.1.LK.TII.3	olinma so'zlar, atamalardan og'zaki va yozma nutqda to'g'ri foydalanish;
OTMT.1.LK.TII.4	so'zlarni o'zaro biriktirgan holda gap hosil qila olish;
OTMT.1.LK.TII.5	gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini farqlay olish va nutqda to'g'ri qo'llay olish.

2- SINIF

NUTQIY KOMPETENSIYA

(og'zaki nutq, yozma nutq, anglash (o'qish va tushunish, tinglab tushunish))

Og'zaki nutq

OTMT.1.NK.ON.1	nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish;
OTMT.1.NK.ON.2	atrofdagilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqot odobiga rioya qilish;
OTMT.1.NK.ON.3	rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og'zaki tasvirlash;
OTMT.1.NK.ON.4	o'quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan fikr bildirish;
OTMT.1.NK.ON.5	og'zaki fikr ifodalashda ma'nodosh va zid ma'noli so'zlardan o'rinli foydalanish;
OTMT.1.NK.ON.6	matnni qayta ijodiy bayon qila olish.

Yozma nutq

OTMT.1.NK.YN.1	bo'g'in ko'chirish, bosh harflar imlosiga rioya qilish;
OTMT.1.NK.YN.2	gap ohangiga rioya qilgan holda tinish belgilari (nuqta, vergul va so'roqni) qo'ya olish;
OTMT.1.NK.YN.3	punktuatsion va imlo qoidalariga amal qilgan holda 30–40 ta so'zdan iborat diktant yozish;
OTMT.1.NK.YN.4	yil davomida o'rganilgan fanlarga oid atamalarni farqlash va ularning ro'yxatini tuzish, to'g'ri yoza olish;
OTMT.1.NK.YN.5	berilgan rasm asosida, odam yoki ma'lum voqeani tasvirlab, 3–4 ta gap tuzib yoza olish;
OTMT.1.NK.YN.6	tabriknoma va xat yoza olish.

Anglash

O'qish va tushunish

OTMT.1.NK.A.O'T.1	matnlarni ravon va ifodali o'qish;
OTMT.1.NK.A.O'T.2	o'quv dasturida tavsiya qilingan matnlardagi so'z va birikmalarning ma'nosini anglash;

OTMT.1.NK.A.O'T.3	lug'atdan foydalana olish;
OTMT.1.NK.A.O'T.4	matnning asosiy mohiyatini aniqlay olish, matn yuzasidan savollar bera olish;
OTMT.1.NK.A.O'T.5	ertaklarning xulosasini ayta olish, ertak qahramonlari nutqini obrazga kirib o'qiy olish.

Tinglab tushunish

OTMT.1.NK.A.TT.1	suhbatni tinglab tushuna olish, zarur o'rinlarni qayd qila olish;
OTMT.1.NK.A.TT.2	tinglangan monologik nutq va suhbatdan so'zlovchining nutq ohangini belgilay olish;
OTMT.1.NK.A.TT.3	berilgan savolni tushunish va mantiqli javob bera olish;
OTMT.1.NK.A.TT.4	jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g'oyasini ayta olish;
OTMT.1.NK.A.TT.5	maqollar va hikmatli so'zlar ma'nosini tushunish.

LINGVISTIK KOMPETENSIYA

OTMT.2.LK.TII.1	unli va undosh harflar talaffuzi, imlosini bilish, og'zaki va yozma nutqda to'g'ri qo'llay olish;
OTMT.2.LK.TII.2	bo'g'in ko'chirish va bosh harflar imlosiga rioya qilish;
OTMT.2.LK.TII.3	olinma so'zlar, atamalar, ulardan og'zaki va yozma nutqda to'g'ri foydalana olish;
OTMT.2.LK.TII.4	so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini o'zaro farqlash;
OTMT.2.LK.TII.5	so'zlarga so'roq berish orqali ularni turkumlarga ajratish va nutqda to'g'ri qo'llay olish;
OTMT.2.LK.TII.6	so'z va gapni o'zaro farqlash; so'zlarni o'zaro biriktirgan holda gap hosil qila olish;
OTMT.2.LK.TII.7	gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini farqlash va imlosiga rioya qilish.

3- SINIF

NUTQIY KOMPETENSIYA

(og'zaki nutq, yozma nutq, anglash (o'qish va tushunish, tinglab tushunish))

Og'zaki nutq

OTMT.1.NK.ON.1	berilgan mavzuda og'zaki talaffuz me'yorlariga amal qilgan holda tartibli va ravon so'zlay olish; she'rlarni ifodali aytish;
OTMT.1.NK.ON.2	munoza jarayonida o'zaro hurmatni saqlagan holda navbat bilan fikr bildirish, o'z qarashlarini odob bilan himoya qilish;
OTMT.1.NK.ON.3	rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og'zaki tasvirlash;
OTMT.1.NK.ON.4	o'quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan gapira olish; tushunmagan o'rinlarni aniqlashtirish maqsadida savollar bera olish;
OTMT.1.NK.ON.5	og'zaki fikr ifodalashda maqsadga muvofiq so'z, ibora va birikmalardan o'rinli foydalanish;
OTMT.1.NK.ON.6	matn, hikoya, ertakni qayta ijodiy bayon qila olish.

Yozma nutq



OTMT.1.NK.YN.1	gap ohangiga rioya qilgan holda tinish belgilari (nuqta, vergul, so'roq, undov)ni qo'ya olish;
OTMT.1.NK.YN.2	punktuatsion va imlo qoidalariga amal qilgan holda 50–60ta so'zdan iborat diktant yozish;
OTMT.1.NK.YN.3	yil davomida o'rganilgan fanlarga oid atamalarni farqlash va ularning ro'yxatini tuzish, to'g'ri yoza olish;
OTMT.1.NK.YN.4	berilgan rasm asosida odam yoki ma'lum voqeani tasvirlab 5–6ta gap tuzib yoza olish, bunda fikr tartibiga rioya qilish;
OTMT.1.NK.YN.5	berilgan qo'shimchalar asosida so'zlar hosil qilish va ularni to'g'ri yozish;
OTMT.1.NK.YN.6	shaxsiy xat va tabriknoma yoza olish, bunda so'z va so'z birikmalarini to'g'ri bog'lay olish.

Anglash

O'qish va tushunish

OTMT.1.NK.A.O'T.1	matnlarni to'g'ri, ravon va ifodali o'qish;
OTMT.1.NK.A.O'T.2	o'quv dasturida tavsiya qilingan matnlardagi so'z, ibora va birikmalarning mohiyatini anglash;
OTMT.1.NK.A.O'T.3	matndagi so'zlarning shakliy va mazmuniy jihatlarini sharhlay olish;
OTMT.1.NK.A.O'T.4	so'zlarga so'roq berish orqali ularni tasniflay olish;
OTMT.1.NK.A.O'T.5	qavm-qarindoshlik bilan bog'liq so'zlarni sharhlay olish;
OTMT.1.NK.A.O'T.6	matnning asosiy mohiyatini aniqlay olish, matn yuzasidan savollar bera olish;
OTMT.1.NK.A.O'T.7	ertak, hikoya, rivoyatlarning asosiy g'oyasini, axloqiy jihatini aniqlash.

Tinglab tushunish

OTMT.1.NK.A.TT.1	tinglangan monologik nutq va suhbatdan so'zlovchining asosiy g'oyasini ajrata olish, zarur o'rinlarni qayd qila olish;
OTMT.1.NK.A.TT.2	tinglangan matnda qo'llangan zid ma'noli, shakldosh va ma'nosi yaqin so'zlarni sharhlay olish;
OTMT.1.NK.A.TT.3	berilgan savolni tushunish va mantiqli javob bera olish;
OTMT.1.NK.A.TT.4	hikoya, ertaklardagi qahramonlarni tasvirlay olish;
OTMT.1.NK.A.TT.5	jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g'oyasini ayta olish;
OTMT.1.NK.A.TT.6	iboralar, maqollar va hikmatli so'zlar ma'nosini tushunish;
OTMT.1.NK.A.TT.7	tinglangan materialga mos rasm, chizma, belgi va shakllarni tanlay olish.

LINGVISTIK KOMPETENSIYA

OTMT.3.LK.TII.1	unli va undosh harflar imlosini bilish va yozma nutqda to'g'ri qo'llay olish;
OTMT.3.LK.TII.2	bo'g'in, uning hosil bo'lishi, yozma nutqda bo'g'inga ko'chirish qoidalariga rioya qilish;
OTMT.3.LK.TII.3	olinma so'zlar, atamalar, yangi so'zlarning talaffuzi, imlosi va ma'nolari, ulardan og'zaki va yozma nutqda to'g'ri foydalana olish;
OTMT.3.LK.TII.4	lug'at va lug'at turlari, lug'atdan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
OTMT.3.LK.TII.5	so'z, uning tarkibiy qismi, so'zlarni asos va qo'shimchalarga ajrata olish, yasama so'zlarni farqlash;

OTMT.3.LK.TII.6	so'zlarga so'roq berish orqali ularni turkumlarga ajrata olish;
OTMT.3.LK.TII.7	ot, sifat, son, olmosh, fe'lni o'zaro farqlash;
OTMT.3.LK.TII.8	so'zlarni o'zaro to'g'ri biriktirgan holda gap hosil qila olish;
OTMT.3.LK.TII.9	sanash ohangi bilan berilgan so'zlar va ularning orasida vergulning qo'llanishiga oid qoidalaridan yozma nutqda to'g'ri foydalanish;
OTMT.3.LK.TII.10	gap va uning qismalrini farqlash, imlosiga rioya qilish;
OTMT.3.LK.TII.11	so'z, gap va matnning xususiyatlarini bilish, matn hosil qilish qoidalariga rioya qilgan holda matn yarata olish.

4- SINF

NUTQIY KOMPETENSIYA

(og'zaki nutq, yozma nutq, anglash (o'qish va tushunish, tinglab tushunish))

Og'zaki nutq	
OTMT.1.NK.ON.1	berilgan mavzuda og'zaki talaffuz me'yorlariga amal qilgan holda to'g'ri va ravon so'zlay olish; she'rlarni ifodali ayta olish;
OTMT.1.NK.ON.2	munozara jarayonida mavzudan chetga chiqmagan holda o'z fikrini erkin, navbat bilan bayon qilish va asoslash, shaxsiy qarashlarini odob bilan himoya qilish;
OTMT.1.NK.ON.3	rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og'zaki tasvirlash;
OTMT.1.NK.ON.4	o'quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan gapira olish; tushunmagan o'rinlarni aniqlashtirish maqsadida savollar bera olish;
OTMT.1.NK.ON.5	og'zaki fikr ifodalashda o'zlashtirilgan leksik birliklarni maqsadga muvofiq tarzda qo'llash;
OTMT.1.NK.ON.6	matn, hikoya, ertakni qayta ijodiy bayon qila olish.
Yozma nutq	
OTMT.1.NK.YN.1	gap ohangiga rioya qilgan holda tinish belgilari (nuqta, vergul, so'roq, undov)ni qo'ya olish;
OTMT.1.NK.YN.2	punktuatsion va imlo qoidalariga amal qilgan holda 65–70ta so'zdan iborat diktant yozish, tinglangan matn asosida bayon yozish;
OTMT.1.NK.YN.3	yil davomida o'rganilgan fanlarga oid atamalarni farqlash va ro'yxatini tuzish, ularni to'g'ri yoza olish;
OTMT.1.NK.YN.4	berilgan rasm asosida odam yoki ma'lum voqeani tasvirlab, 7–8ta gap tuzib yoza olish, bunda fikr tartibiga rioya qilish, ifodada badiiylilik unsurlarini qo'sha olish;
OTMT.1.NK.YN.5	berilgan qo'shimchalar asosida yangi so'zlar hosil qilish va ularni to'g'ri yozish;
OTMT.1.NK.YN.6	shaxsiy xat, tabriknoma va e'lon yoza olish, bunda o'z tilaklari va shaxsiy munosabatini ifodalay olish.
Anglash	
O'qish va tushunish	
OTMT.1.NK.A.O'T.1	matnlarni og'zaki talaffuz me'yorlariga amal qilgan holda to'g'ri, ravon va ifodali o'qish;
OTMT.1.NK.A.O'T.2	o'quv dasturida tavsiya qilingan matnlardagi so'z, so'z birikmasi, ibora va sodda gaplarning mohiyatini anglash;
OTMT.1.NK.A.O'T.3	matnning ma'lum qismini o'qib, uni mantiqan davom ettirish, matn

OTMT.1.NK.A.O'T.4	mazmuniga mos keladigan sarlavha topish;
OTMT.1.NK.A.O'T.5	matnning asosiy mohiyatini aniqlay olish, matn yuzasidan savol, taklif va tavsiyalar bera olish;
	ertak, hikoya, rivoyatlarning asosiy g'oyasini, axloqiy jihatini aniqlash, ertak qahramonlari nutqini obrazga kirib o'qiy olish.

Tinglab tushunish

OTMT.1.NK.A.TT.1	tinglangan audiomaterialni og'zaki aytib bera olish va matn ko'rinishida yozib bera olish;
OTMT.1.NK.A.TT.2	tinglangan matnda qo'llangan zid ma'noli, shakldosh va ma'nosi yaqin so'zlarni sharhlay olish;
OTMT.1.NK.A.TT.3	berilgan savolni tushunish va mantiqli javob bera olish;
OTMT.1.NK.A.TT.4	matn, hikoya va ertaklardagi qahramonlarni tasvirlay olish;
OTMT.1.NK.A.TT.5	jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g'oyasini ayta olish;
OTMT.1.NK.A.TT.6	ibora, maqol va hikmatli so'zlarning ma'nosini tushunish;
OTMT.1.NK.A.TT.7	tinglangan materialga mos rasm, chizma, belgi va shakllarni tanlash va izohlay olish;
OTMT.1.NK.A.TT.8	ma'lum qismi berilgan matnni davom ettira olish.

LINGVISTIK KOMPETENSIYA

OTMT.4.LK.TII.1	unli va undosh harflar imlosini bilish va yozma nutqda to'g'ri qo'llay olish;
OTMT.4.LK.TII.2	olinma so'zlar, atamalarining talaffuzi, imlosi va ma'nolarini bilish, ularni nutqda to'g'ri qo'llash;
OTMT.4.LK.TII.3	so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini o'zaro farqlash va nutqda to'g'ri qo'llay olish;
OTMT.4.LK.TII.4	lug'at va lug'at turlarini bilish, lug'atdan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
OTMT.4.LK.TII.5	so'z, uning tarkibiy qismi, asos va qo'shimchalar imlosini bilish va nutqda to'g'ri qo'llay olish;
OTMT.4.LK.TII.6	ot, sifat, son, olmosh, fe'lni o'zaro farqlash, nutqda to'g'ri foydalana olish;
OTMT.4.LK.TII.7	so'zlarni o'zaro to'g'ri biriktirgan holda gap hosil qila olish;
OTMT.4.LK.TII.8	gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini bilish, ular imlosiga rioya qilish;
OTMT.4.LK.TII.9	gap bo'laklarini farqlash va nutqda to'g'ri qo'llay olish;
OTMT.4.LK.TII.10	so'z, gap va matnning xususiyatlarini bilish, qoidalariga rioya qilgan holda matn yarata olish.

5- SINIF

NUTQIY KOMPETENSIYA

(og'zaki nutq, yozma nutq, anglash (o'qish va tushunish, tinglab tushunish))

Malaka talabi kodi	Og'zaki nutq
OTMT.5.NK.ON.1	og'zaki talaffuz me'yorlariga amal qilgan holda mazmunli, ta'sirchan va ravon so'zlay olish;

OTMT.5.NK.ON.2	oldindan berilgan mavzuga doir matn tuzib taqdimot qila olish;
OTMT.5.NK.ON.3	egallagan amaliy va nazariy bilimlari, kundalik mavzular yuzasidan fikrini tartibli va tushunarli tarzda ifodalay olish;
OTMT.5.NK.ON.4	mantiqiy, ijodiy, tanqidiy fikrlash va fikrini og'zaki bayon qila olish;
OTMT.5.NK.ON.5	badiiy asar namunalarini ifodali o'qish, bunda til vositalarining mazmunini qisman anglash, ohang, ovoz past-balandligi, to'xtam (pauza)dan o'rinli foydalana olish.

Yozma nutq

OTMT.5.NK.YN.1	berilgan matn, rasm, audiomaterial asosida imlo va uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda o'z fikrini to'g'ri, izchil ifodalash, shuningdek, 10–12ta gapdan iborat matn yoza olish;
OTMT.5.NK.YN.2	so'zning ko'p ma'noliligi, bosh va ko'chma ma'nolarni farqlagan holda yozma nutqda to'g'ri qo'llash;
OTMT.5.NK.YN.3	husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qilgan holda 80–90 ta so'zdan iborat diktant yozish;
OTMT.5.NK.YN.4	matnning izchilligini va samarasini oshirish uchun so'zlarni, grammatik qoidalar va gap qurilmalarini to'g'ri qo'llash;
OTMT.5.NK.YN.5	grammatik, punktuatsion va imlo qoidalariga rioya qilish;
OTMT.5.NK.YN.6	ish qog'ozlari(taklifnoma, e'lon)ni to'g'ri yoza olish.

Anglash

O'qish va tushunish

OTMT.5.NK.A.O'T.1	turli uslubdagi matnlarni ravon va ifodali o'qish;
OTMT.5.NK.A.O'T.2	matnni tashkil qilgan komponentlarning qanday ma'no tashiyotgani, nima uchun aynan ulardan foydalanilganligini tushuna olish;
OTMT.5.NK.A.O'T.3	maqol, matal va hikmatli so'zlarning matndagi o'rini aniqlay olish;
OTMT.5.NK.A.O'T.4	matn mazmuniga mos keladigan sarlavha/sarlavhalarni topa olish;
OTMT.5.NK.A.O'T.5	matnni qismlarga ajrata olish;
OTMT.5.NK.A.O'T.6	matndan ko'zlangan maqsadni anglay olish.

Tinglab tushunish

OTMT.5.NK.A.TT.1	tinglangan qo'shiqlardan nutq tovushlarining ohangini anglay olish;
OTMT.5.NK.A.TT.2	monologik nutq va suhbatni eshitib tushuna olish;
OTMT.5.NK.A.TT.2	tinglangan jonli nutq va audiomaterialning tafsilotlarni belgilay olish, matn ko'rinishida yozib bera olish;
OTMT.5.NK.A.TT.3	berilgan savollarni tushuna olish va javob bera olish;
OTMT.5.NK.A.TT.4	audiomaterialda berilgan ma'lumotni grafik va rasm ko'rinishida ifodalay olish;
OTMT.5.NK.A.TT.5	so'zlovchilarning nutqiy vaziyatlardagi ruhiy holati, gap ohangi, fikr va qarashlarini farqlay olish.

LINGVISTIK KOMPETENSIYA

Fonetika

OTMT.5.LK.F.1	nutq a'zolarining tovushlar talaffuzidagi o'rnini (unli va undosh harflarning qaysi nutq a'zosi orqali yuzaga chiqayotganini), tovush tilning eng kichik birligi ekanligini farqlay olish;
---------------	--



- OTMT.5.LK.F.2 unilarning bo'g'in va so'zlar shakllanishidagi ahamiyati, badiiy matnlar va qo'shiqchilik san'atida ularning tutgan o'rnini farqlash;
- OTMT.5.LK.F.3 fonetik hodisalarning yuz berishi va imlosini farqlay olish;
- OTMT.5.LK.F.4 urg'u, so'z urg'usi va uning ma'no farqlash xususiyatini anglash va nutqda qo'llay olish.

Imlo me'yorlari

- OTMT.5.LK.IM.1 unli va undosh harflar imlosini bilish va yozma nutqda to'g'ri qo'llay olish;
- OTMT.5.LK.IM.2 so'zlarga qo'shimchalar qo'shilishi natijasida ularning imlosida sodir bo'ladigan tovush hodisalarining imlosini bilish va yozma nutqda qo'llay olish;
- OTMT.5.LK.IM.3 so'zlarni qo'shib, ajratib va chiziqcha bilan yozish hamda ko'chirish qoidalarini bilish, ularga amal qilish.

Morfologiya

- OTMT.5.LK.L.1 so'z turkumlarining kontekstda ifodalanishini anglash va nutqda to'g'ri qo'llash;
- OTMT.5.LK.L.2 bog'lovchi, ko'makchi, yuklamani o'zaro farqlash va nutqda to'g'ri qo'llash;
- OTMT.5.LK.L.4 taqlid va undov so'zlarni o'zaro farqlash, nutqda to'g'ri qo'llash;
- OTMT.5.LK.L.5 tinish belgilari (nuqta, vergul) va chiziqchani to'g'ri qo'llay olish.

Leksikologiya

- OTMT.5.LK.M.1 sinonim, antonim, omonim va paronim so'zlarni farqlash, ularni nutqda to'g'ri qo'llash;
- OTMT.5.LK.M.2 so'zning ko'p ma'noliligi, bosh va ko'chma ma'nolarni farqlash, ko'chma ma'noni hosil qiluvchi birliklarni nutqda to'g'ri qo'llay olish;
- OTMT.5.LK.M.3 yangi so'zlarning paydo bo'lish sabablarini bilish va tilimizga qanday shaklda o'zlashganligini tahlil qila olish;
- OTMT.5.LK.M.4 ilmiy va kasbiy atamalarni farqlash; lug'atlardan to'g'ri foydalana olish.

Sintaksis

- OTMT.5.LK.S.1 so'zlarni to'g'ri biriktira olish va gap strukturasini to'g'ri shakllantira olish;
- OTMT.5.LK.S.2 sodda gap turlarini farqlash va nutqda to'g'ri qo'llash;
- OTMT.5.LK.S.3 matn tuzish uchun gaplarni ketma-ketlikda bog'lay olish;
- OTMT.5.LK.S.4 tinish belgilari (nuqta, so'roq va undov)ni to'g'ri qo'llash.

6- SINIF

NUTQIY KOMPETENSIYA

(og'zaki nutq, yozma nutq, anglash (o'qish va tushunish, tinglab tushunish))

Malaka talabi kodi	Og'zaki nutq
OTMT.6.NK.ON.1	adabiy talaffuz me'yorlari asosida nutqqa mos keluvchi iqtiboslar tanlagan holda mazmunli, ta'sirchan va ravon so'zlay olish;
OTMT.6.NK.ON.2	turli mavzular yuzasidan fikrni mazmun ketma-ketligini rejalashtira olgan holda izchil va tushunarli tarzda ifodalay olish;



OTMT.6.NK.ON.3	mantiqiy, ijodiy, tanqidiy fikrlash va fikrini og'zaki bayon qila olish;
OTMT.6.NK.ON.4	badiiy asar namunalarini ifodali o'qish, bunda nafas olish va chiqarish, tovushlarning rang-barangligi, baland-pastligi, talaffuzdagi o'ziga xosliklarni anglash, ohang, to'xtam (pauza)dan o'rinli foydalana olish;
OTMT.6.NK.ON.5	berilgan mavzu muhokamasida o'zining shaxsiy qarashlarini himoya qila olish.

Yozma nutq

OTMT.6.NK.YN.1	berilgan matn, rasm, audiomaterial asosida imlo va uslubiy qoidalariga rioya qilgan holda o'z fikrini to'g'ri, izchil ifodalash, shuningdek, 12–14ta gapdan iborat matn yoza olish;
OTMT.6.NK.YN.2	materialni tartiblash va umumlashtirish, fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslab yoza olish;
OTMT.6.NK.YN.3	husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qilgan holda 100–120ta so'zdan iborat diktant yoza olish;
OTMT.6.NK.YN.4	hikoya matni, tasviriy matn, muhokama matni yaratishda so'zlarni, grammatik qoidalar va gap qurilmalarini to'g'ri qo'llash;
OTMT.6.NK.YN.5	grammatik, punktuatsion va imlo qoidalariga rioya qilish;
OTMT.6.NK.YN.6	ish qog'ozlari (shaxsiy xat, e'lon, tabriknoma, taklifnoma, tushuntirish xati, tarjimayi hol)ni to'g'ri yoza olish.

Anglash

O'qish va tushunish

OTMT.6.NK.A.O'T.1	turli uslubdagi matnlarni ularning xususiyatidan kelib chiqib ravon va ifodali o'qish;
OTMT.6.NK.A.O'T.2	matnni tashkil qilgan komponentlarning anglatayotgan ma'nosi (har bir so'z, so'z birikmasi va gap shaklining qanday ma'no tashiyotgani) ni farqlay olish;
OTMT.6.NK.A.O'T.3	maqol va aforizmlar (hikmatli so'zlar)ning matnga qo'shadigan hissasini aniqlay olish;
OTMT.6.NK.A.O'T.4	matnga sarlavha/sarlavhalarni topa olish;
OTMT.6.NK.A.O'T.5	matnni qismlarga ajrata olish; xatboshilarni aniqlay olish;
OTMT.6.NK.A.O'T.6	matndan ko'zlangan maqsadni anglay olish, matn qaysi toifadagi o'quvchiga mo'ljallanganini, u qanday kontekstda yozilganini anglay olish.

Tinglab tushunish

OTMT.6.NK.A.TT.1	monologik nutq va suhbatni eshitib tushuna olish; mavzuni aniqlash va nomlay bilish; munosabat bildirira olish;
OTMT.6.NK.A.TT.2	jonli nutq va audiomaterialning umumiy mavzusi yuzasidan tilga olingan tafsilotlarni belgilay olish;
OTMT.6.NK.A.TT.3	berilgan savollarni tushuna olish va javob bera olish; savol bera olish; maqsadga ko'ra mantiqiy urg'u qo'ya bilish;
OTMT.6.NK.A.TT.4	audiomaterialda berilgan ma'lumotni yozma, grafik va rasm ko'rinishida ifodalay olish;
OTMT.6.NK.A.TT.5	eshitilganlar asosida xulosa qilish va xulosani dalillar bilan asoslay olish.

LINGVISTIK KOMPETENSIYA

So'z yasalishi



OTMT.6.LK.F.1	soʻzni tarkibiy qismlarga ajratish, asos va qoʻshimchani farqlagan holda toʻgʻri yoza olish;
OTMT.6.LK.F.2	tub va yasama soʻzlarni farqlay olish va nutqda toʻgʻri qoʻllay olish;
OTMT.6.LK.F.3	asosga qoʻshilib, soʻzga yangi va qoʻshimcha maʼno yuklovchi yoki oʻzi qoʻshilayotgan soʻzni boshqa soʻzga bogʻlash vazifasini bajaruvchi qoʻshimchalarni farqlash va nutqda toʻgʻri qoʻllay olish;
OTMT.6.LK.F.3	qoʻshimchalarning shakldosh, maʼnodosh, zid maʼnoliligini bilish, nutqda qoʻllay olish.

Imlo meʼyorlari

OTMT.6.LK.IM.1	unli va undosh harflar imlosi, qoʻsh va qator kelgan unlilar va undoshlar talaffuzi va imlosini bilish va yozma nutqda toʻgʻri qoʻllay olish;
OTMT.6.LK.IM.2	soʻzlarga qoʻshimchalar qoʻshilishi natijasida, shuningdek, ayrim soʻzlar talaffuzi bilan bogʻliq sodir boʻladigan tovush hodisalari imlosini bilish va yozma nutqda qoʻllay olish;
OTMT.6.LK.IM.3	soʻzlarni qoʻshib, ajratib va chiziqcha bilan yozish hamda koʻchirish qoidalari, atoqli otlar imlosiga rioya qila olish.

Morfologiya

OTMT.6.LK.L.1	soʻz turkumlarini oʻzaro farqlash va nutqda toʻgʻri qoʻllay olish;
OTMT.6.LK.L.2	nom bildiruvchi soʻzlarning oʻziga xos belgilari va imlosini bilish, nutqda toʻgʻri qoʻllay olish;
OTMT.6.LK.L.3	belgi bildiruvchi soʻzlarning oʻziga xos belgilari va imlosini bilish, nutqda toʻgʻri qoʻllay olish;
OTMT.6.LK.L.4	narsalarning miqdori va tartibini bildiruvchi soʻzlarning oʻziga xos belgilarini bilish, nutqda ulardan toʻgʻri foydalana olish;
OTMT.6.LK.L.5	harakat va holatning belgisini bildiruvchi soʻzlarning oʻziga xos xususiyatlarini bilish, nutqda ulardan toʻgʻri foydalana olish;
OTMT.6.LK.L.6	harakat va holatni ifodalovchi soʻzlarning oʻziga xos belgilari va imlosini bilish, nutqda ulardan toʻgʻri foydalana olish.

Leksikologiya

OTMT.6.LK.M.1	tasviriy ifodalarni bilish va nutqda toʻgʻri qoʻllay olish;
OTMT.6.LK.M.2	lboralarni farqlash va ulardan nutqiy vaziyatlarda toʻgʻri foydalana olish;
OTMT.6.LK.M.3	lugʻat turlarini farqlash va ulardan foydalana olish (imlo, izohli va tarjima lugʻatlari);

Sintaksis

OTMT.6.LK.S.1	sintaktik birliklarni farqlash va nutqda toʻgʻri qoʻllay olish;
OTMT.6.LK.S.2	matn va uning turlari (hikoya matni, tasviriy matn, muhokama matni)ni farqlash; kichik hajmli matnlarni yarata olish.
OTMT.6.LK.S.3	tinish belgilari (nuqta, soʻroq, tire, qoʻshtirnoq va undov)ni toʻgʻri qoʻllash.

7- SINIF

NUTQIY KOMPETENSIYA

(ogʻzaki nutq, yozma nutq, anglash (oʻqish va tushunish, tinglab tushunish))

Malaka talabi kodi		Og'zaki nutq
OTMT.7.NK.ON.1		o'zbek tilining adabiy talaffuz me'yorlariga amal qilgan holda rasmiy va norasmiy vaziyatlarda ta'sirchan va ravon so'zlay olish;
OTMT.7.NK.ON.2		ma'lum mavzu yuzasidan nutq tayyorlay olish va so'zlash, fikrini mantiqiy, ishonchli, tanqidiy va izchil tarzda taqdimot ko'rinishida ifodalab bera olish;
OTMT.7.NK.ON.3		sodda grafik chizma hamda diagrammalarni og'zaki ifodalab bera olish;
OTMT.7.NK.ON.4		she'rlarni yoddan ifodali o'qish, obraz holatini anglagan holda dramatik asarlardan parchalar ijro etib bera olish;
OTMT.7.NK.ON.5		nutq jarayonida ohang, to'xtam (pauza)dan o'rinli foydalana olish.
		Yozma nutq
OTMT.7.NK.YN.1		berilgan matn, rasm, audiomaterial asosida imlo va uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda o'z fikr va hissiyotlarini to'g'ri, izchil ifodalash, shuningdek, turli mazmundagi 14–16ta gapdan iborat matn yoza olish;
OTMT.7.NK.YN.2		biror narsani tushuntirish yoki ma'lum predmet, hodisa haqida ma'lumot yetkazish maqsadida fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslab yoza olish;
OTMT.7.NK.YN.3		o'z yozma nutqining ta'sirchanligini oshirish maqsadida badiiy va ritorik vositalarni qo'llay olish;
OTMT.7.NK.YN.4		husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qilgan holda 100–120ta so'zdan iborat diktant yoza olish;
OTMT.7.NK.YN.5		grammatik, punktuatsion va imlo qoidalariga rioya qilish;
OTMT.7.NK.YN.6		ish qog'ozlari (shaxsiy xat, e'lon, tabriknoma, taklifnoma, tushuntirish xati, tarjimayi hol, ariza, tavsifnoma, tavsiyanoma)ni to'g'ri yoza olish.
		Anglash
		O'qish va tushunish
OTMT.7.NK.A.O'T.1		matnning xususiyatidan kelib chiqib, ravon va ifodali o'qiy olish;
OTMT.7.NK.A.O'T.2		matnni tashkil qilgan grammatik vositalarning hamda matn tuzilishi va uning tarkibiy qismlarini bog'lovchi vositalarning vazifasini tushuna olish;
OTMT.7.NK.A.O'T.3		o'zbek tiliga xos bo'lgan ibora(idioma)lar maqol va aforizmlarning matnga qo'shadigan hissasini aniqlay olish;
OTMT.7.NK.A.O'T.4		matnga sarlavha / sarlavhalarni topa olish, xatboshilarni aniqlay olish;
OTMT.7.NK.A.O'T.5		yo'riqnomala hamda ketma-ketlikda berilgan ko'rsatmalarni tushunish va bajara olish;
OTMT.7.NK.A.O'T.6		xulosa chiqarish, xulosani matnda berilgan hodisaga bog'lay olish;
OTMT.7.NK.A.O'T.7		matndan ko'zlangan maqsadni anglay olish, matn qaysi toifadagi o'quvchiga mo'ljallanganini, u qanday kontekstda yozilganini farqlay olish.
		Tinglab tushunish
OTMT.7.NK.A.TT.1		tinglangan monologik nutq va suhbat haqidagi savollarga javob bera olish, unga munosabat bildiradi olish;
OTMT.7.NK.A.TT.2		dialogik nutq va suhbatda tomonlarning vazifasi, fikri va qarashlarini farqlay olish;
OTMT.7.NK.A.TT.3		audio yoki videomaterialda berilgan ma'lumotni yozma, grafik va

- OTMT.7.NK.A.TT.4 rasm ko'rinishida ifodalay olish;
OTMT.7.NK.A.TT.5 tinglangan audiomaterialdan ona tilining jozibasini anglay olish;
eshitilganlar asosida xulosa qilish va xulosani dalillar bilan asoslay olish.

LINGVISTIK KOMPETENSIYA

Morfologiya

- OTMT.7.LK.M.1 mustaqil, yordamchi va alohida so'z turkumlarini o'zaro farqlash va nutqda to'g'ri qo'llay olish;
OTMT.7.LK.M.2 olmoshlarning o'ziga xos belgilari va imlosini bilish, nutqda to'g'ri qo'llay olish;
OTMT.7.LK.M.3 mustaqil so'zlarni yoki gaplarni bir-biriga bog'lash, ularning ma'nolariga qo'shimcha ma'no yuklash vazifalarini bajaruvchi so'zlarning o'ziga xos belgilarini bilish, nutqda ulardan to'g'ri foydalanish;
OTMT.7.LK.M.4 undov, taqlid va modal so'zlarning o'ziga xos xususiyatlarini bilish, nutqda ulardan to'g'ri foydalana olish;
OTMT.7.LK.M.5 ismlarning lug'aviy va munosabat shakllarini farqlash, imlosini bilish va ularni nutqda to'g'ri qo'llay olish.

Tinish belgilari

- OTMT.7.LK.P.1 tinish belgilarining yozuvda qo'llanishi o'ziga xos tizimga ega ekanligi, ularning chegaralash va ajratish vazifalarini bilish va ulardan to'g'ri foydalana olish;
OTMT.7.LK.P.2 tinish belgilarining umumiy ma'noga ta'sir qilish xususiyatlarini farqlay olish;
OTMT.7.LK.P.3 gap tuzish va matn yaratishda tinish belgilarini to'g'ri qo'llay olish.

Leksikologiya

- OTMT.7.LK.S.1 ona tilining boyish imkoniyatlarini bilish va nutq yaratishda ulardan foydalana olish;
OTMT.7.LK.S.2 qo'llanish doirasi chegaralangan va chegaralanmagan so'zlarni farqlay olish;
OTMT.7.LK.S.3 nomshunoslikka oid dastlabki tushunchalarni egallash va ularning imlosini bilish.

Sintaksis

- OTMT.7.LK.S.1 sintaktik birliklarni farqlash va ularni nutqda to'g'ri qo'llay olish;
OTMT.7.LK.S.2 matn va uning turlarini farqlash; turli matnlarni yarata olish.
OTMT.7.LK.S.3 tinish belgilari (nuqta, so'roq, tire, qo'shtirnoq va undov)ni to'g'ri qo'llay olish.

8- SINIF

NUTQIY KOMPETENSIYA

(og'zaki nutq, yozma nutq, anglash (o'qish va tushunish, tinglab tushunish))

Malaka talabi kodi

Og'zaki nutq

- OTMT.8.NK.ON.1 adabiy talaffuz qoidalariga amal qilgan holda turli vaziyatlarda ta'sirchan va ravon so'zlay olish;

OTMT.8.NK.ON.2	ma'lum mavzu yuzasidan dialogik, monologik va polilogik xarakterdagi nutq tayyorlay olish va so'zlash;
OTMT.8.NK.ON.3	nisbatan murakkab grafik chizma hamda diagrammalarni og'zaki ifodalab bera olish;
OTMT.8.NK.ON.4	badiiy asar namunalarini ifodali o'qish, obraz holatini anglagan holda dramatik asarlardan parchalar ijro etib bera olish;
OTMT.8.NK.ON.5	nutq jarayonida verbal va noverbal vositalardan o'rinli foydalana olish.
Yozma nutq	
OTMT.8.NK.YN.1	turli ko'rinishda berilgan materiallar asosida o'z fikr va hissiyotlarini to'g'ri, izchil ifodalash, shuningdek, turli mazmundagi 16–18ta gapdan iborat matn yoza olish;
OTMT.8.NK.YN.2	ma'lum narsa yoki hodisa haqida ma'lumot yetkazish maqsadida ma'lumot va ijodiy-tavsifiy xarakterdagi matn yarata olish, bunda dalillardan foydalana olish;
OTMT.8.NK.YN.3	matnning izchilligini va samarasini oshirish uchun so'zlar, grammatik qoidalar va strukturalarni to'g'ri qo'llash; o'z yozma nutqining ta'sirchanligini oshirish maqsadida badiiy va ritorik vositalarni qo'llay olish;
OTMT.8.NK.YN.4	husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qilgan holda 140–160ta so'zdan iborat diktant yoza olish;
OTMT.8.NK.YN.5	grammatik, punktuatsion va imlo qoidalariga rioya qilish;
OTMT.8.NK.YN.6	ish qog'ozlari (e'lon, tabriknoma, taklifnoma, tushuntirish xati, tarjimayi hol, ariza, tavsifnoma, tavsiyanoma, tilxat, bayonnoma va hisobot)ni to'g'ri yoza olish.
Anglash	
O'qish va tushunish	
OTMT.8.NK.A.O'T.1	matnning uslubini farqlagan holda ravon va ifodali o'qish;
OTMT.8.NK.A.O'T.2	matnda har bir so'z, so'z birikmasi va gap shaklining qanday ma'no tashiyotganini, nima uchun aynan shu so'z, birikma yoki gap qo'llanganini, grammatik vositalarning hamda matn tuzilishi va uning tarkibiy qismlarini bog'lovchi vositalarning vazifasini tushuna olish;
OTMT.8.NK.A.O'T.3	o'zbek tiliga xos bo'lgan ibora(idioma)lar maqol va aforizmlarning matnga qo'shadigan hissasini aniqlay olish;
OTMT.8.NK.A.O'T.4	matnga sarlavha / sarlavhalarni topish, xatboshilarni aniqlay olish;
OTMT.8.NK.A.O'T.5	turli mahsulotlarning yo'riqnomalari, ko'rsatmalarini tushunish va tavsiyalarni bajara olish;
OTMT.8.NK.A.O'T.6	matndagi voqealarga muallifning nuqtayi nazarini aniqlay olish;
OTMT.8.NK.A.O'T.7	xulosa chiqarish, xulosani matnda berilgan hodisaga bog'lay olish.
Tinglab tushunish	
OTMT.8.NK.A.TT.1	tinglangan dialogik, polilogik nutq va bahsda tomonlarning vazifasi, fikri va qarashlarini farqlash, ularga munosabat bildira olish, savollarga javob bera olish;
OTMT.8.NK.A.TT.2	so'roq gap, darak gap, undov gaplar va kinoya ohangidagi farqni tushuna olish;
OTMT.8.NK.A.TT.3	audio yoki videomaterialda berilgan ma'lumotni yozma, grafik va



rasm ko'rinishida ifodalay olish;

OTMT.8.NK.A.TT.4

eshitilganlar asosida xulosa qilish va xulosani dalillar bilan asoslay olish.

LINGVISTIK KOMPETENSIYA

Talaffuz va ohang

- | | |
|----------------|---|
| OTMT.8.LK.TO.1 | muloqot madaniyati, o'zbek muloqot xulqining jins jihatdan xoslanishi(o'zbek erkak va ayollaridagi muloqot sifatleri)ni farqlay olish; |
| OTMT.8.LK.TO.2 | nutqning dialogik, monologik va polilogik ko'rinishlarining o'ziga xos xususiyatlarini farqlagan holda nutq yarata olish va ijro eta olish; |
| OTMT.8.LK.TO.3 | nutq texnikasi vositalaridan (verbal, noverbal) o'rinli foydalana olish; |
| OTMT.8.LK.TO.4 | talaffuzdagi muqsonlarni yo'qotish mashqlari haqida bilish va mustaqil mashqlar bajara olish; |
| OTMT.8.LK.TO.5 | og'zaki nutqning xususiyatlarini bilish: so'zlarning talaffuzi va imlosidagi tafovutlarni farqlay olish. |

Sintaksis

- | | |
|---------------|--|
| OTMT.8.LK.S.1 | so'z birikmasi va qo'shma so'z, so'z birikmasi va ibora, so'z birikmasi va tasviriy ifoda, so'z birikmasi va gapni o'zaro farqlay olish; |
| OTMT.8.LK.S.2 | gapning ifoda maqsadiga va tuzilishiga ko'ra turlarini farqlash, ularda tinish belgilarini to'g'ri qo'llay olish; |
| OTMT.8.LK.S.3 | gap bo'laklarini o'zaro farqlash, ularning gapni shakllantirishdagi o'rnini anglagan holda to'g'ri qo'llay olish; |
| OTMT.8.LK.S.4 | fikr ifodalashda uyushiq, ajratilgan bo'lak, kiritma va undalmalardan to'g'ri foydalana olish; |
| OTMT.8.LK.S.5 | ma'lumotnoma matni va ijodiy-tavsifiy matnlarni farqlash va matn namunasini yarata olish; |
| OTMT.8.LK.S.6 | insho haqida ma'lumotga ega bo'lish, ularning mazmun-mohiyatiga ko'ra turlari(adabiy, erkin va ilmiy)ni farqlash va insho yoza olish; |
| OTMT.8.LK.S.7 | inshoga mavzu tanlash, reja tuza olish, epigraf va iqtiboslar tanlay olish; |
| OTMT.8.LK.S.8 | berilgan mavzuda grammatik, punktuatsion va imlo qoidalariga rioya qilgan holda ijodiy matn yarata olish. |

9- SINIF

NUTQIY KOMPETENSIYA

(og'zaki nutq, yozma nutq, anglash (o'qish va tushunish, tinglab tushunish))

Malaka talabi kodi

Og'zaki nutq

- | | |
|----------------|--|
| OTMT.9.NK.ON.1 | o'zbek tilining qonun-qoidalariga amal qilgan holda rasmiy va norasmiy vaziyatlarda ta'sirchan va ravon so'zlay olish; |
| OTMT.9.NK.ON.2 | ma'lum mavzu yuzasidan nutq tayyorlay olish va so'zlash, mavzudan chetlashmagan holda fikr va g'oyalarini taqdimot ko'rinishida tayyorlay olish; |

OTMT.9.NK.ON.3	murakkabroq grafik chizma hamda diagrammalarni og'zaki ifodalab bera olish;
OTMT.9.NK.ON.4	she'rlarni yoddan ifodali o'qish, dramatik asarlardan parchalar ijro eta olish, bunda til vositalarining mazmunini anglash, ohang, ovoz past-balandligi, to'xtam(pauza)dan o'rinli foydalana olish.

Yozma nutq

OTMT.9.NK.YN.1	berilgan matn, rasm, audiomaterial asosida imlo va uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda o'z fikr va hissiyotlarini to'g'ri, izchil ifodalash, shuningdek, turli mazmundagi 18–20ta gapdan iborat matn yoza olish;
OTMT.9.NK.YN.2	turli maqsad va turli auditoriyaga mo'ljallangan turli uslubdagi matnlarni yoza olish, xususan, biror narsani tushuntirish yoki ma'lum narsa yoki hodisa haqida ma'lumot yetkazish uchun yoza olish;
OTMT.9.NK.YN.3	materialni tartiblash va umumlashtirish, fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslagan holda esse va insho yoza olish;
OTMT.9.NK.YN.4	o'z yozma nutqining ta'sirchanligini oshirish maqsadida badiiy tasvir vositlarini qo'llay olish;
OTMT.9.NK.YN.5	matnning izchilligini ta'minlash uchun so'zlar, grammatik qoidalar va strukturalarni to'g'ri qo'llay olish;
OTMT.9.NK.YN.6	husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qilgan holda 160–180ta so'zdan iborat diktant yoza olish;
OTMT.9.NK.YN.7	grammatik, punktuatsion va imlo qoidalariga rioya qilish;
OTMT.9.NK.YN.6	ish qog'ozlari (e'lon, tabriknoma, taklifnoma, tushuntirish xati, tarjimayi hol, ariza, tavsifnoma, tavsiyanoma, dalolatnoma, ishonchnoma, kafolat xati)ni to'g'ri yoza olish.

Anglash

O'qish va tushunish

OTMT.9.NK.A.O'T.1	matnning uslubini farqlagan holda ravon va ifodali o'qish;
OTMT.9.NK.A.O'T.2	matnni tashkil qilgan grammatik vositalar hamda matn tuzilishi va uning tarkibiy qismlarini bog'lovchi vositalarning vazifasini farqlay olish;
OTMT.9.NK.A.O'T.3	o'zbek tiliga xos bo'lgan ibora(idioma)lar maqol va aforizmlarning matnga qo'shadigan hissasini aniqlay olish;
OTMT.9.NK.A.O'T.4	matndan birlamchi va ikkilamchi tafsilotlar, xatboshilarni aniqlay olish;
OTMT.9.NK.A.O'T.5	turli qo'llanmalar, ketma-ketlikda berilgan ko'rsatmalarni tushunish va bajara olish;
OTMT.9.NK.A.O'T.6	matndan badiiy tasvir vositalarini aniqlay olish va ularning ma'noga ta'sirini izohlay olish;
OTMT.9.NK.A.O'T.7	xulosa chiqarish, xulosani matnda berilgan hodisaga bog'lay olish;
OTMT.9.NK.A.O'T.8	matndan ko'zlangan maqsadni anglay olish, matn qaysi toifadagi o'quvchiga mo'ljallanganini, u qanday kontekstda yozilganini ajrata olish.

Tinglab tushunish

OTMT.9.NK.A.TT.1	turli shakldagi nutq va bahsni eshitib tushuna olish; eshitilgan monologik nutq va suhbat haqidagi savollarga javob bera olish, unga munosabat bildira olish;
------------------	---



OTMT.9.NK.A.TT.2	jonli nutq va audiomaterialning umumiy mavzusi yuzasidan tilga olingan tafsilotlarni belgilay olish;
OTMT.9.NK.A.TT.3	turli uslubdagi audio yoki videomaterialda berilgan ma'lumotni yozma, grafik va rasm ko'rinishida ifodalay olish;
OTMT.9.NK.A.TT.4	gap ohangidagi uslubiy vositalar (kinoya, piching, kesatiq, istehzo; mubolag'a, lof, yumor)ni tushunish;
OTMT.9.NK.A.TT.5	eshitilganlar asosida xulosa qilish va xulosani dalillar bilan asoslay olish;
OTMT.9.NK.A.TT.6	tinglangan nutqning ruh(pafos)ini anglash va unga munosabat bildirish.

LINGVISTIK KOMPETENSIYA

Yozma savodxonlik

OTMT.9.LK.IM.1	harflar imlosini bilish va yozma nutqda to'g'ri qo'llay olish;
OTMT.9.LK.IM.2	asos va qo'shimchalar imlosini bilish, nutqda to'g'ri foydalanish;
OTMT.9.LK.IM.3	so'zlarni qo'shib, ajratib va chiziqcha bilan yozish hamda ko'chirish qoidalarini bilish, ularga amal qilish;
OTMT.9.LK.IM.4	bosh harflar imlosini bilish va qoidalarga amal qilish.

Sintaksis

OTMT.9.LK.S.1	qo'shma gap qismlari va ularni bog'lovchi vositalarni, uning qismlari orasida tinish belgilarining qo'llanishini farqlay olish;
OTMT.9.LK.S.2	bog'langan, ergashgan va bog'lovchisiz qo'shma gaplarni farqlash, nutqda to'g'ri qo'llay olish;
OTMT.9.LK.S.3	ko'chirma va o'zlashtirma gaplar haqida bilish; ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gapga aylantira olish, ularda tinish belgilarini to'g'ri qo'llay olish;
OTMT.9.LK.S.4	so'zlashuv uslubining o'ziga xos jihatlarini bilish va boshqa nutq uslublaridan farqlay olish;
OTMT.9.LK.S.5	ilmiy uslubning o'ziga xos jihatlarini bilish va boshqa nutq uslublaridan farqlay olish;
OTMT.9.LK.S.6	publitsistik uslubning o'ziga xos jihatlarini bilish va boshqa nutq uslublaridan farqlay olish;
OTMT.9.LK.S.7	badiiy uslubning o'ziga xos jihatlarini bilish va boshqa nutq uslublaridan farqlay olish;
OTMT.9.LK.S.8	rasmiy uslubning o'ziga xos jihatlarini bilish va boshqa nutq uslublaridan farqlay olish.

10- SINIF

NUTQIY KOMPETENSIYA

(og'zaki nutq, yozma nutq, anglash (o'qish va tushunish, tinglab tushunish))

Malaka talabi kodi	Og'zaki nutq
OTMT.10.NK.ON.1	o'zbek tilining adabiy me'yorlariga rioya qilgan holda rasmiy va norasmiy vaziyatlarda ta'sirchan va ravon so'zlay olish;



OTMT.10.NK.ON.2	nutqiy vaziyatlarda suhbat va munozara odobiga rioya qilgan holda og'zaki muloqotga kirisha olish;
OTMT.10.NK.ON.3	har qanday mavzu yuzasidan nutq tayyorlay olish, mavzudan chetlashmagan holda fikr va g'oyalarini taqdimot ko'rinishida ifodalay olish;
OTMT.10.NK.ON.4	murakkab grafik chizma hamda diagrammalarni og'zaki ifodalab bera olish;
OTMT.10.NK.ON.5	she'rlarni yoddan ifodali o'qish, dramatik asarlardan parchalar ijro eta olish, bunda til vositalarining mazmunini anglash, ohang, ovoz past-balandligi, to'xtam(pauza)dan o'rinli foydalana olish;
OTMT.10.NK.ON.6	munozaralarda ishtirok etish, aytilganlarni umumlashtirish va xulosalay olish.

Yozma nutq

OTMT.10.NK.YN.1	berilgan matn, rasm, audiomaterial asosida imlo va uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda o'z fikr va hissiyotlarini to'g'ri, izchil ifodalash, shuningdek, turli mazmundagi 20–25ta gapdan iborat matn yoza olish;
OTMT.10.NK.YN.2	turli maqsad va turli auditoriyaga mo'ljallangan turli uslubdagi matnlarni yoza olish, xususan, biror narsani tushuntirish yoki ma'lum narsa yoki hodisa haqida ma'lumot yetkazish uchun yoza olish;
OTMT.10.NK.YN.3	materialni tartiblash va umumlashtirish, fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslagan holda esse va insho yoza olish;
OTMT.10.NK.YN.4	yozma nutqining ta'sirchanligini oshirish maqsadida badiiy tasvir vositlarini qo'llay olish;
OTMT.10.NK.YN.5	matnning izchilligini ta'minlash uchun so'zlar, grammatik qoidalar va strukturalarni to'g'ri qo'llay olish;
OTMT.10.NK.YN.6	husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qilgan holda 160–170ta so'zdan iborat diktant yoza olish;
OTMT.10.NK.YN.7	yozma nutqda grammatik, punktuatsion va imlo qoidalariga rioya qilish;
OTMT.10.NK.YN.8	ish qog'ozlari (e'lon, tabriknoma, taklifnoma, tushuntirish xati, tarjimayi hol, ariza, tavsifnoma, tavsiyanoma, tilxat, dalolatnoma, ishonchnoma, yo'riqnoma, shartnoma, buyruq, buyruqdan ko'chirma)ni to'g'ri yoza olish.

Anglash

O'qish va tushunish

OTMT.10.NK.A.O'T.1	matnning uslubini farqlagan holda ravon va ifodali o'qish;
OTMT.10.NK.A.O'T.2	badiiy matn turlari(hikoya, she'r, drabl, drama)ning shakliy va mazmuniy xususiyatlarini farqlash, matn tuzilishiga xizmat qiluvchi grammatik vositalarning vazifasini tushunish;
OTMT.10.NK.A.O'T.3	o'zbek tiliga xos bo'lgan ibora(idioma)lar maqol va aforizmlarning matnga qo'shadigan hissasini aniqlay olish; muallifning so'z qo'llash mahoratiga unosabat bildiradi olish;
OTMT.10.NK.A.O'T.4	axborot matnlari(ilmiy va ommabop maqola, yo'riqnoma, grafik tasvir va jadvallar, tahliliy va tanqidiy matnlar, qiyoslash matnlari)ning muhim va nomuhim jihatlarni ajratish, xatboshilarni aniqlay olish;
OTMT.10.NK.A.O'T.5	o'qish strategiyalari (eski bilimlarni qo'llash, bashorat qilish, asosiy g'oyani aniqlab olish, so'roqlash, xulosalar chiqarish, tasavvur qilish, hamkorlikda o'qish)dan amalda foydalana olish;



OTMT.10.NK.A.O'T.6 xulosa chiqarish, xulosani matnda berilgan hodisaga bog'lay olish.

Tinglab tushunish

OTMT.10.NK.A.TT.1	badiiy matnlarning yozma va audio shakllarini taqqoslagan holda ma'nodagi o'zgarishlar haqida fikr yurita olish;
OTMT.10.NK.A.TT.2	audiomaterialni og'zaki aytib bera olish va matn ko'rinishida yozib bera olish;
OTMT.10.NK.A.TT.3	audio yoki videomaterialda berilgan ma'lumotni yozma, grafik va rasm ko'rinishida ifodalay olish;
OTMT.10.NK.A.TT.4	gap ohangidagi uslubiy bo'yoqdor vositalarni ajratish va tahlil qila olish;
OTMT.10.NK.A.TT.5	eshitilganlar asosida xulosa qilish va xulosani dalillar bilan asoslay olish;
OTMT.10.NK.A.TT.6	tinglash jarayonida mazmunni tushunishdagi to'siqlarni anglash va bartaraf eta olish.

LINGVISTIK KOMPETENSIYA

Tilning ifoda imkoniyatlari

OTMT.10.LK.TII.1	fonetik vositalarning badiiy-estetik vazifasini farqlash va nutqda ulardan to'g'ri foydalana olish;
OTMT.10.LK.TII.2	so'zning ma'no va shakl munosabatlarini farqlash, nutqda to'g'ri qo'llay olish;
OTMT.10.LK.TII.3	so'zning ma'no nozikliklarini farqlash, nutqda to'g'ri qo'llay olish;
OTMT.10.LK.TII.4	ona tilining boyish manbalarini, tarixiy, eskirgan, arxaiik va yangi so'zlarni farqlash, nutqda ulardan to'g'ri foydalana olish;
OTMT.10.LK.TII.5	nutqda qo'llangan barqaror birikmalarning estetik vazifasini aniqlay olish;
OTMT.10.LK.TII.6	ma'no ko'chish yo'llarini farqlash, matndagi o'rnini tahlil qila olish;
OTMT.10.LK.TII.7	morfologik vositalarning badiiy-estetik vazifasini farqlash va nutqda to'g'ri foydalana olish.

11- SINIF

NUTQIY KOMPETENSIYA

(og'zaki nutq, yozma nutq, anglash (o'qish va tushunish, tinglab tushunish))

Malaka talabi kodi	Og'zaki nutq
OTMT.11.NK.ON.1	o'zbek adabiy tilining qonun-qoidalariga amal qilgan holda rasmiy va norasmiy vaziyatlarda ravon so'zlay olish;
OTMT.11.NK.ON.2	nutqiy vaziyatlarda suhbat va munozara odobiga rioya qilgan holda og'zaki muloqotga kirisha olish;
OTMT.11.NK.ON.3	har qanday mavzu yuzasidan nutq tayyorlay olish, mavzudan chetlashmagan holda fikr va g'oyalarini taqdimot ko'rinishida ifodalay olish;
OTMT.11.NK.ON.4	murakkab grafik chizma hamda diagrammalarni og'zaki ifodalab bera olish;

OTMT.11.NK.ON.5	she'rlarni yoddan ifodali o'qish, dramatik asarlardan parchalar ijro eta olish, bunda til vositalarining mazmunini anglash, ohang, ovoz past-balandligi, to'xtam(pauza)dan o'rinli foydalana olish;
OTMT.11.NK.ON.6	og'zaki nutq jarayonida madaniy nutq va uni shakllantiruvchi asosiy sifatlarga rioya qilish;
OTMT.11.NK.ON.7	munozaralarda ishtirok etish, aytilganlarni umumlashtirish va xulosalay olish.

Yozma nutq

OTMT.11.NK.YN.1	imlo va uslubiy qoidalargi rioya qilgan holda to'g'ri, izchil, o'z fikr va hissiyotlarini ifodalash, shuningdek, biror ma'lumotni yetkazish uchun 25–30ta gapdan iborat matn yoza olish;
OTMT.11.NK.YN.2	turli maqsad va turli auditoriyaga mo'ljallangan matnlarni yoza olish, xususan, biror narsani tushuntirish yoki ma'lum narsa yoki hodisa haqida ma'lumot yetkazish uchun yoza olish;
OTMT.11.NK.YN.3	materialni tartiblash va umumlashtirish, fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslab tezis yoza olish;
OTMT.11.NK.YN.4	o'z yozma nutqining ta'sirchanligini oshirish maqsadida badiiy va ritorik vositalarni qo'llay olish;
OTMT.11.NK.YN.5	matnning izchilligini va samarasini oshirish uchun so'zlar, grammatik qoidalar va strukturalarni to'g'ri qo'llay olish;
OTMT.11.NK.YN.6	drabllarni g'oyani saqlagan holda qayta kengaytirib yoza olish; xatboshiga rioya qilish;
OTMT.11.NK.YN.7	grammatik, punktuatsion va imlo qoidalariga amal qilgan holda 170–180ta so'zdan iborat diktant yoza olish;
OTMT.11.NK.YN.8	ish qog'ozlari(xat va uning turlari, diplomatik va tijorat yozishmalari)ni to'g'ri yoza olish.

Anglash

O'qish va tushunish

OTMT.11.NK.A.O'T.1	matnning uslubini farqlagan holda ravon va ifodali o'qiy olish;
OTMT.11.NK.A.O'T.2	turli matnlar(yo'riqnoma, reklama matnlari)ni o'qib tushinish va munosabat bildira olish;
OTMT.11.NK.A.O'T.3	muallifning matnning muayyan qismlarini (voqeani boshlash yoki tugatish) yaratish bo'yicha tanlovi (komedik, tushkun, fojiali) matnning umumiy tuzilishi va mazmuniga, estetikasiga qanday hissa qo'shganini tahlil qila olish;
OTMT.11.NK.A.O'T.4	turli davrlarda bir xil mavzuda yozilgan matnlarni qiyoslay olish;
OTMT.11.NK.A.O'T.5	muallif tomonidan yaratilgan topilmalarni (yangi so'zlar, birikmalar) aniqlash va ularga munosabat bildira olish;
OTMT.11.NK.A.O'T.6	dramatik va she'riy parchalardagi so'zlarning ohang va mazmunga ta'sirini aniqlay olish;
OTMT.11.NK.A.O'T.7	xulosa chiqarish, xulosani matnda berilgan hodisaga bog'lay olish.

Tinglab tushunish

OTMT.11.NK.A.TT.1	monologik nutq va suhbatni eshitib tushuna olish; dialogik nutq va suhbatda tomonlarning vazifasi, fikri va qarashlarini farqlay olish;
OTMT.11.NK.A.TT.2	jonli nutq va audiomaterial, ning umumiy mavzusi yuzasidan tilga olingan tafsilotlarni belgilay olish;
OTMT.11.NK.A.TT.3	audio yoki videomaterialda berilgan ma'lumotni yozma, grafik va

	rasm ko'rinishida ifodalay olish;
OTMT.11.NK.A.TT.4	so'roq gap, darak gap, undov gaplar va kinoya ohangidagi farqni tushuna olish;
OTMT.11.NK.A.TT.5	tinglangan nutqni kommunikativ sifatlariga ko'ra baholay olish;
OTMT.11.NK.A.TT.6	eshitilganlar asosida xulosa qilish va xulosani dalillar bilan asoslay olish;
OTMT.11.NK.A.TT.7	tinglangan ko'rsatmalar asosida harakat qila olish.

LINGVISTIK KOMPETENSIYA

Tilning ifoda imkoniyatlari

OTMT.11.LK.TII.1	gap bo'laklarining odatiy tartibi, o'zgargan (inversiyaga uchragan) tartibini, ma'nodagi o'zgarishlarni farqlash va nutqda ulardan to'g'ri foydalanish;
OTMT.11.LK.TII.2	ifoda maqsadiga ko'ra gap turlari uslubiyatini, ulardagi o'ziga xos ifodalarni farqlash, nutqda to'g'ri qo'llash;
OTMT.11.LK.TII.3	undalmalarning o'rinishuvi va ularning uslubiy ahamiyatini farqlagan holda nutqiy vaziyatlarda to'g'ri qo'llash;
OTMT.11.LK.TII.4	so'zlovchining bayon qilayotgan fikrga bo'lgan subyektiv bahosi, turli munosabatlarni ifodalovchi so'zlarni ajrata olish va nutq jarayonida ulardan to'g'ri foydalana olish, tinish belgilariga rioya qilish;
OTMT.11.LK.TII.5	nutqiy vaziyatlarda qo'shma gap turlaridan o'rinli va to'g'ri foydalanish, tinish belgilarini qo'llay olish;
OTMT.11.LK.TII.6	ko'chirma gaplarning uslubiy-tasviriy imkoniyatlaridan to'g'ri foydalana olish.

TUSHUNTIRISH XATI

DTSda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ona tili o'qitishning asosiy maqsadi quyidagicha belgilangan: "o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat".

Ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi sifatida "o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani shakllantirish; o'quvchida grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, yozuv, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish; ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat" ekanligi belgilangan.

Mazkur o'quv dasturi kognitiv, ya'ni tilga oid malaka va ko'nikmani rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, Ona tili faniga shunchaki o'quv predmeti sifatida qaralmaydi. Bunda ona tili butun borliqni: tabiat, jamiyat, fanlarni, o'zlikni anglash va o'rganish vositasiga aylantiriladi. O'quvchi Ona tili fanini o'zlashtirish jarayonida tildan turli ijtimoiy munosabatlarda to'g'ri va o'rinli foydalanishni o'rganadi. Matematika, fizika, kimyo, biologiya, geografiya, iqtisod, jamiyatshunoslik kabi fanlarni o'zlashtirishda til omilini his qiladi. Muayyan soha mutaxassisiga aylanganida, maktabda olgan bilim, ko'nikma va malakalaridan foydalanib o'zbek tilida ish yuritish, nutq so'zlash, turli uslublarda yoza olish, qarashlarini erkin ifodalagan holda fikrini boshqalarga turli shakllarda samarali tarzda yetkazishni, eng muhimi, teran fikrlashni biladi.

Boshlang'ich ta'lim 1- sinf o'quv dasturining tarkibi quyidagicha:

1. Tayyorgarlik davri (tayyorgarlik davrida o'qish hamda yozuv darslari).

2. Alifbe davri (o'qishga va yozishga o'rgatish).

3. Ona tili.

2–4- sinflar uchun Ona tili fani dasturi o'quvchining yosh xususiyatlari va shunga muvofiq nutqiy ehtiyojlaridan kelib chiqib tuzilgan.

5–11- sinflar uchun Ona tili fani dasturi boshlang'ich sinfda egallanadigan nutqiy va lingvistik kompetensiyalarning uzviy davomi bo'lib, soddadan murakkabga tamoyili asosida ishlab chiqilgan.

Ona tilidan ta'lim mazmuni tilning barcha xususiyat va qonuniyatlari parallel ravishda soddadan murakkabga tomon, amalda qo'llash ehtiyojidan kelib chiqqan holda o'rgatishga asoslangan, ya'ni malaka talablarida ko'rsatilgan ko'nikma va malakalarni egallash uchun nutqiy mavzu doirasida qaysi grammatik va til sathlari bo'yicha bilim zarur bo'lsa, shundan o'quvchining yosh xususiyatlari va o'quv imkoniyatlarini hisobga olgan holda foydalanilgan. Ketma ketlik hisobga olinmagan. Bir mavzuga



qayta-qayta murojaat qilinishi va uning doimiy murakkablashib borishiga e'tibor qaratilgan.

O'quv dastirida o'quvchi ehtiyoj sezadigan har qanday fan doirasida mavzular shakllantirilib, ularda til birliklaridan qanday foydalanish, nimalarga e'tibor berish kerakligi, ularning mashq va topshiriqlar orqali mustahkamlanishi fanlararo integratsiyani ta'minlashga xizmat qilgan.

O'quv materiallarini tanlashda turli uslubdagi qiziqarli ma'lumotlarni o'zida jamlagan yaxlit matnlar yoki yaxlit mazmun ifodalagan badiiy matn parchalarini o'qish, eshitish va tahlil qilish, bir xil mavzuda ikki xil uslubda yozilgan matnlarni o'zaro qiyoslash kabi jihatlar e'tiborga olingan.

Ona tilidan darsliklar yaratishda ona tilining boshqa fanlar bilan aloqasini ta'minlashga, ona tilining barcha ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fanlar, o'quv predmetlarining o'rganish va o'rgatish vositasi ekanligini chuqur anglagan holda undan ilmiy va amaliy faoliyatda foydalanishga, ijtimoiy hayotning turli qirralarini aks ettirishga, shuningdek, ta'lim oluvchilarning yosh, gender va etnomadaniy xususiyatlariga, to'rtta lisoniy malakaning baravar shakllantirishga e'tibor qaratilishi lozim.

O'quvchini xalqaro baholash – o'qish savodxonligini baholovchi PIRLS hamda PISA dasturlariga tayyorlash maqsadida o'qib tushunish malakalarini shakllantirishga qaratilgan mashq va topshiriqlar darslik mazmuniga singdiriladi.

O'quv dasturi asosida tuzilgan taqvim-mavzuiy rejalar ta'lim muassasasining metod birlashmasida o'rganilib, o'quvchining o'quv imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda belgilangan soatlar doirasida 15 foizgacha o'zgartirilishi mumkin. Mazkur o'zgarishlar tegishli tartibda pedagogik kengashda tasdiqlanishi lozim.

O'quv dasturida ona tili chuqur o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalari uchun alohida mavzular berilmay, mavjud nutqiy mavzularning o'qituvchining ijodiy va kreativ yondashuvi asosida yo'nalishga mos ravishda chuqurlashtirib o'qitilishiga imkoniyat berildi.



I SINF

SAVOD O'RGATISH VA NUTQ O'STIRISH

(128 soat)

I bo'lim. TAYYORGARLIK DAVRI

(16 soat)

1. Tayyorgarlik davrida o'qish darslari (8 soat)

O'quv predmeti mazmuni asosida tashkil etiladigan dars haqidagi amaliy ko'nikma; darsning muayyan vaqt oralig'ida davom etishi; rasm mazmunini anglash, rasm mazmuni asosida mantiqiy izchillikka ega bo'lgan matn tuzish; darslik bilan ishlash; og'zaki va yozma nutq haqida tushuncha; gap haqida tushuncha; so'z va bo'g'in haqida tushuncha; gap, so'z, bo'g'in va tovush uzviyligi; unli va undosh tovush haqida tushuncha; maktab partasida to'g'ri o'tirish; darslikdan foydalanishga oid ilk o'quv ko'nikmalarini shakllantirish.

2. Tayyorgarlik davrida yozuv darslari (8 soat)

Yozuv darslari o'qish darslari bilan uzviy bog'langan holda olib boriladi. Tayyorgarlik davri yozuv darslarida o'quvchi yozuv daftaridan to'g'ri foydalanish, parta ustiga daftarni to'g'ri qo'yish yozuv daftari bilan o'quvchi oralig'ida muayyan masofani saqlash (35 sm); yozuv qurollaridan to'g'ri foydalanish, yozayotganda gavdani to'g'ri tutish va tirsaklarni to'g'ri harakat qildirish; yozuv elementlarini to'g'ri idrok etish (qayerdan boshlash, qayerda to'xtash, o'ngga, chapga burish, yoza boshlash, qo'l harakatini uzmay yozish).

II bo'lim. ALIFBE DAVRI

(112 soat)

1. O'qishga o'rgatish (56 soat)

Unli va undosh tovushlar, ularning talaffuzidagi farqlanish haqida ma'lumot berish; harf va tovush munosabatiga oid tushunchalar bilan o'quvchilarni tanishtirish; kesma harf va bo'g'inlar asosida so'z hosil qilish, tuzilgan so'zlarni to'g'ri o'qish; so'zlarni avval bo'g'inlab, ravon o'qishga o'rgatish; taqqoslash va chamalash qobiliyatlarini o'stirish; tinish belgilariga rioya qilib, ifodali o'qishga o'rgatish; o'qish jarayonida amal qilinishi lozim bo'lgan gigiyena qoidalariga rioya qilishga o'rgatish.

2. Yozuvga o'rgatish (56 soat)

Unli va undosh harflarning bosh va kichik shakllarini yozish (genetik metod), kichik harflarga o'xshash bosh harflarni farqlash; o'quvchida yozuv sifatini, ya'ni harflarni to'g'ri bog'lab yozish; harflarni belgilangan 65° qiyalikda yozish (chiziqli metod); har bir qatorda harflarning bir xil balandlikda bo'lishiga erishish (sanoq-ohang metodi); harf elementlari, harflar va so'zlar orasidagi masofalarni bir xilda saqlash kabilarni shakllantirish; tasavvur qilish orqali havoda harflarning shaklini yozdirish



orqali (tasavvur orqali yozish metodi), har bir harf yoki harflarning bog'lanishi, og'zaki yoki doskada tushuntirish orqali, qo'lni qayerga qo'yish, qayerda bu harakatni burish yoki uzish kerakligi, harflarning yozuv chizig'i bo'ylab joylashishi haqida nazariy va amaliy tushuncha va malakalarni rivojlantirish; bir va undan ortiq bo'g'inlardan tashkil topgan talaffuzi va yozilishi bir xil so'zlarni, 2-3 so'zdan tuzilgan gaplarni eshitib yozish; so'z va gapni to'g'ri yozish; eshituv va ko'ruv xotirasiga asoslangan kichik diktantlar yozish.

ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI

(128 soat)

I bo'lim. MEN, SEN, U VA ULAR

(25 soat)

Mening oilam

Berilgan matn tarkibidan qarindoshlikni bildiruvchi so'zlar va kishilarning ismlarini bildiruvchi so'zlarni ajrata olish va ularning imlosini bilish. Matn uchun tayyorlangan savol va topshiriqlar ustida ishlash. Berilgan savolni tushunish va tartibli javob bera olish mashqlari. Kishilarning ism va familiyasi bosh harflar bilan yozilishi, ayrim tovushlarning talaffuzi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Oila mavzusida nutq (matn) tuzish, so'zlarda qo'llanilayotgan unli va undosh tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, bir-biriga o'xshash (satr osti, satr usti harflari) harflarni farqlab yozish mashqlari ustida ishlash.

Tinglangan audiomatn tarkibidagi insonning tashqi ko'rinishi va xarakterini ifodalashda ishlatiladigan til birliklarini aniqlay olish va ularning imlosi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Gaplar yig'indisi va matnni farqlash. Matndagi gaplar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunish. Matn yaxlitligiga xizmat qiladigan vositalarni (mantiqiy bog'lanish, olmoshlar) tushunish.

Kun tartibi

Mavzu bilan bog'liq bo'lgan matn ustida ishlash, unda berilgan harakatni bildiruvchi so'z va birikmalarning ma'nosini anglash, imlosi bilan tanishishga oid mashq va topshiriqlar. Matn tarkibidagi yonma-yon kelgan bir xil undoshli so'zlarni aniqlash va ularning imlosi ustida ishlash.

Tartib, uning ahamiyati, bolalarning kun tartibi qanday bo'lishi kerakligi haqida suhbat qurish, suhbat jarayonida tengdoshlari va kattalar bilan suhbatga kirisha olish, suhbatlashish odobiga rioya qilish, berilgan savolni tushunish va tartibli javob bera olishga o'rgatish mashqlari.

Kun tartibi bilan bog'liq audiomatnni tinglash, ushbu matn asosida o'z kun tartibini tuzish va uni yoza olishga oid topshiriqlarni bajarish mashqlari.

Vaqtni ifodalovchi so'zlar va ularning imlosi bilan tanishish, raqamlar orqali berilgan sonlarni harflar orqali ifodalash, so'zlar orasida vergulning qo'llanilishi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Matnda bayon voqealar ketma-ketligini tushunish. Voqealarni to'g'ri xronologik tartibda joylashtira olish.



Bolalarning sevimli bayramlari

Bayramlar mavzusi bilan bog'liq rasmlarda ifodalangan voqealarni og'zaki tasvirlash, bayram nomlarining imlosini o'rganish, mavzu bilan bog'liq 2 yoki undan ortiq gapdan iborat kichik ijodiy matn yaratish.

Audiomatnni tinglash, matn yuzasidan berilgan savollarga javob bera olish, matn mazmuni asosida o'z xulosasini aytishga oid mashqlar.

"Men bayramni qanday nishonlayman?" mavzusida fikr ifodalash va o'z g'oyasini ayta olish ustida ishlash. Fikrni dallilashda qo'llaniladigan til birliklari, ularning nutq tuzishdagi ahamiyati bilan tanishish, kayfiyatni ifodalovchi so'zlar va vositalarni aniqlash, ularni og'zaki va yozma nutqda qo'llash mashqlari.

Mavzu bilan bog'liq she'riy matnlar tahlili, she'rdagi ohangdoshlik va qofiyadosh so'zlarni ajrata olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Yaqin qarindoshlarni bayram bilan tabriklash uchun tabriknoma yozish. Matnni mantiqiy qismlarga bo'la olish. Matn uchun reja tuzish.

II bo'lim. TABIAT NE'MATLARI **(24 soat)**

Yashil sayyora

Berilgan matndagi so'z va birikmalarning ma'nosini anglash, matndagi rangni bildirgan so'zlarni ajrata olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar ustida ishlash. Matndagi atoqli otlar va sanoq sonlarning yozuvda ifodalanishi bo'yicha topshiriqlar ustida ishlash. Matn yuzasidan berilgan savol va topshiriqlarni to'g'ri anglash, savollarga tartibli javob bera olish mashqlari. X va h tovushlarini o'zaro farqlash, ushbu tovushlar ishtirok etgan so'zlar imlosi ustida ishlash mashqlari.

Berilgan mavzu yuzasidan suhbat qurish, unli va undosh tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar ustida ishlash. Fikr ifodalashda tartibni bildiruvchi so'zlardan (birinchidan, ikkinchidan) foydalanish mashqlari.

Tabiatni asrash mavzusida 3 yoki undan ortiq gapdan iborat matn yaratish. Bu jarayonda atoqli otlardan foydalanish, ularning bosh harflarda yozilishi haqida tushuncha berish.

Matnda berilgan tasvirlarni tushunish. Tasvirga mos rasmlar tanlash yoki chizish.

Jonli burchak

Berilgan audiomatnning mazmuni bilan tanishish, audiomatn tarkibida berilgan ayrim so'zlar tahlilini olib borish, unli va undosh tovushlarni farqlash, ularni to'g'ri talaffuz qilish. J harfining ikki tovushni ifodalashi haqida ma'lumot berish, ularni farqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar ustida ishlash. Matn mazmuni ustida ishlash, ushbu matnning xulosasi va g'oyasi yuzasidan og'zaki suhbat qurish.

Sevimli uy hayvonlari bilan bog'liq mavzusda og'zaki suhbat uyushtirish, bunda hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar, nomlarning qanday



tanlanishi bilan bog'liq savollarga javob berish, o'z fikrini ifodalashda xabar, so'roq va buyruq ohangidan foydalana olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Hayvonlar bilan bog'liq tasviriy ifodalar ustida ishlash, tasviriy ifodalarning nutqni boyitishdagi ahamiyati haqida ma'lumot berish. Tasviriy ifodalar yordamida bo'g'in ko'chirish qoidalariga rioya qilgan holda 2 yoki undan ortiq gap yozish, gapning oxirida qo'llaniladigan tinish belgilari.

Matndagi (asardagi) voqealar ketma-ketligi hamda sabab va oqibat bog'lanishlarini tushunish.

Husnixat darsi: so'zlarning orasidagi masofani ajratishda bir xillikka rioya qilish, xatboshini ajratish.

III bo'lim. SOG' TANDA – SOG'LOM AQL (24 soat)

Foydali sabzavotlar

Berilgan matn asosida d-t, b-p, z-s, j-ch, g-k, v-f undoshlarining talaffuzi, imlosi, d-t undoshlarining talaffuzda tushib qolishi, yozuvda saqlanishi, q va g' tovushlari, ularning talaffuzda va yozuvda qo'llanilishi bo'yicha mashq va topshiriqlar ustida ishlash. O'rganilgan qoidalar asosida 2 yoki undan ortiq gap tuzib, o'z fikrini yozma ifodalash topshirig'i ustida ishlash.

Tutuq belgisi ishtirok etgan matnlar ustida ishlash, unli tovushdan keyin kelgan va undosh tovushdan keyin kelgan tutuq belgisining vazifasini tushuntirish bilan bog'liq mashq va topshiriqlarni bajarish. Tutuq belgisi tushib qolganda so'z ma'nosining o'zgarishi bilan bog'liq topshiriqlarni bajarish. Ma'nosi izohlanishi kerak bo'lgan so'zlar izohi bilan tanishish, bunda lug'at va undan foydalanish qoidalariga rioya qilish.

Sog'lom bo'lish uchun tana a'zolariga qanday vitaminlar zarurligi haqida suhbat qurish. Bunda insonning tana a'zolarini ifodalovchi so'zlar va ularning imlosi bilan tanishish. Suhbat jarayonida nutqda so'roq, buyruq, xabar mazmunidagi gaplarni qo'llash, ularning ohangi va imlosi ustida ishlash. Belgini bildiruvchi so'zlar bilan bog'liq mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Matnning umumiy mazmunini tushunish. Matnga sarlavha tanlash.

Xotiram kuchli bo'lsin desangiz.

Berilgan matnda shaxs va narsa nomlarining ko'plikda qo'llanilishiga e'tiborni qaratish, shaxs va narsa nomlarining ko'plikda qanday qo'llanilishi haqida ma'lumot berish. Matn tarkibidagi ma'nosi izohlanishi lozim bo'lgan so'zlar izohi bilan tanishish, ushbu so'zlarni daftarga yozish. Matn yuzasidan savollar berishga o'rgatish, shuningdek, o'z javoblarida fikr ifodalashda tartibni bildiruvchi so'zlar (avval, keyin)dan foydalanishga o'rgatish. X va h tovushlarini o'zaro farqlash, ushbu tovushlar ishtirok etgan so'zlar imlosi ustida ishlash.

Matnda fikrni asoslaydigan gaplarni topish va tahlil qilish.

Oq terakmi, ko'k terak? (Milliy o'yinlar, sport)

Berilgan mavzu bilan bog'liq audiomatnni tushunish, undagi ayrim so'zlar talaffuziga e'tiborni qaratishga oid mashq va topshiriqlar. Eshitilgan tovushlarni harflarga moslashtirib yozish mashqlarini bajarish. Tinglangan audiomatnning g'oyasi va xulosasini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan mashq va topshiriqlar ustida ishlash. Joy nomlari va ularning bosh harflarda yozilishi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Berilgan matndagi ayrim so'zlarning fikr ifodalashdagi o'rni. Matn tafsilotlarini aniqlashtirishda kim?, nima?, qayerda?, qachon?, nima uchun?, qanday qilib? kabi savollarning mazmunini tushunish va javob berish bilan bog'liq topshiriqlar ustida ishlash.

She'riy matndagi ohangdoshlikni hosil qiluvchi so'zlarni aniqlash, she'rni ifodali o'qish va yod olish.

Matnda ifodalangan ma'lumotni boshqa shaklda (jadval, grafik) ifodalash.

IV bo'lim. SAN'AT VA MADANIYAT (22 soat)

Ertakdagi qahramon.

Berilgan ertak matni tarkibidagi ayrim so'zlarning talaffuzi va imlosi. D-t, b-p, z-s, j-ch, g-k, v-f undoshlarining talaffuzi va imlosi. D-t undoshining talaffuzda tushib qolishi, yozuvda saqlanishi, q va g' tovushlari, ularning talaffuzda va yozuvda qo'llanilishi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Tinglangan ertak matni ustida ishlash, ertakdagi qahramonlarga tavsif berish, ertak mazmuni asosida xulosa chiqarish va o'z fikrlarini tartibli, ifodali yetkaza olishga qaratilgan mashq va topshiriqlar ustida ishlash. Tengdoshlari va kattalar bilan suhbatga kirisha olish, suhbatlashish odobiga rioya qilish (bir-birini hurmat qilish, so'zga chiqishni istashini hurmat bilan so'rash, mavzu yoki matn yuzasidan navbat bilan gapirish) qoidalari.

Ertak qahramonlariga berilgan audiotavsifni tinglash orqali ayrim so'zlarning aytilishi va yozilishini taqqoslash, ular o'rtasidagi farqni aniqlash mashqlari. Ushbu qoidalar asosida sevimli ertak qahramonlari haqida 2 yoki undan ortiq gap yozish.

So'zlarning ma'nosini aniqlashda tovushlarning o'rni haqida ma'lumot berish, so'zdagi bir tovushni o'zgartirish orqali so'zning ma'nosini o'zgartirish mashqlari ustida ishlash.

Matndagi (asardagi) voqealar ketma-ketligini tushunish. Voqealarning ketma-ketligi, sabab va oqibat bog'lanishlarini tahlil qilish. Matndan xulosa chiqarish.

Birinchi kitobim

Kitob va uning ahamiyati bilan bog'liq matn bilan tanishish, undagi ayrim so'zlarga o'quvchi e'tiborini qaratishga oid mashq va topshiriqlar. A va O unlisini to'g'ri tallaffuz qilishga va yozuvda ifodalashga o'rgatish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar ustida ishlash. Matn yuzasidan savollar



berish, savollarga javob berishda o'z fikrlarini aniq va tartibli ifodalash mashqlari.

Kitob o'qish qoidalari haqidagi audiomatnni tinglash, unda i va u unlisini to'g'ri talaffuz qilish va yozuvda ifodalanishi, u unlisining i tarzida aytilishi va yozilishi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar ustida ishlash. Bo'g'in ko'chirish qoidalari.

Kim?, nima?, qayerda?, qachon?, nima uchun?, qanday qilib? kabi savollarga javob berish orqali so'zlarning kishi, narsa nomlari, ularning belgisi, miqdori va harakati kabi ma'nolarni ifodalashi. Shaxs nomini bildirgan so'zlar, ularni so'roq berish orqali aniqlash bo'yicha mashq va topshiriqlar ustida ishlash. Harfiy birikmalar ishtirok etgan so'zlarni aniqlash, ular imlosiga e'tibor qaratishga oid mashqlar ustida ishlash.

Kitoblarning turlarini (badiiy kitoblar, ilmiy va o'quv kitoblari – lug'atlar, ensiklopediyalar, darsliklar) va ularda qo'llaniladigan matnlarni farqlash. Ularning vazifasi, qo'llanilish o'rniga haqida dastlabki tushunchalar.

Mehmon bo'lish yaxshi-da!

Mehmon bo'lish qoidalari haqidagi matn mazmuni bilan tanishish, undagi so'z va birikmalarning ma'nosini anglash. Narsalarning nomini bildirgan so'zlar, ularni so'roq berish orqali ajrata olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Mehmon kutish qoidalari, o'z uyida mehmonni qanday kutib olish haqida og'zaki suhbat uyushtirish, bunda mehmon bilan qanday munosabatda bo'lish, suhbat jarayonida qanday so'zlardan foydalanish kerakligi haqida, suhbatlashish odobiga rioya qilish, bir-birini hurmat qilish, so'zga chiqishni istashini hurmat bilan so'rash, navbat bilan gapirishga odatlanish haqida fikr almashish. Kattalar bilan suhbatlashishda qo'llaniladigan til birliklari va ulardan foydalanish.

Bo'g'in ko'chirish qoidalariga rioya qilgan holda berilgan rasm asosida mehmonga borish odobi mavzusida 2-3 ta gap tuzib yozish.

Matn (asar) qahramonlari xatti-harakatlaridan xulosa chiqarish. Asar qahramonlariga tavsif berish.

V bo'lim. TIL VA DIL (21 soat)

She'r bo'ladigan so'zlar.

Til haqidagi she'rni tinglash, unda qo'llanilgan so'zlarning ma'nolari bilan tanishish. She'r matni yordamida so'zlashuv tili va badiiy nutqning o'rtasidagi farqni tushunish bilan bog'liq topshiriqlar ustida ishlash. She'riy matnda ohangdoshlikni hosil qiluvchi so'zlarni aniqlash, she'riy matnni o'qish qoidalari bilan tanishish.

Tasviriy ifoda, undan foydalanish. Berilgan matn tarkibidagi tasviriy ifodalarni aniqlash, ularning nutqni boyitishdagi ahamiyati haqida suhbatlashish. Muayyan narsa va shaxslar haqidagi tasviriy ifodalar yordamida 2 yoki undan ortiq gapdan iborat matn yaratish, matnni yaratishda bo'g'in ko'chirish qoidalariga rioya qilish.

So'zlarning ko'p ma'no anglatishi. Ko'p ma'no anglatuvchi so'zlar bilan tanishish, ko'p ma'no anglatuvchi so'zlar bilan bog'liq mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

She'riy nutqga xos bo'lgan xususiyatlar: qofiya, ohang. Badiiy nutqdagi o'xshatishlarni va sifatlashlarni tushunish.

Maqolning mag'zi.

Maqollar bilan bog'liq mavzuda berilgan audiomatnni tinglash orqali maqollar va ularning mazmuni bilan tanishishga oid topshiriqlar. Shaxs va narsaning nomini bildirgan so'zlar. So'roq berish orqali shaxs va narsa nomlarini ajrata olish mashqlari.

Berilgan matn mazmuni yuzasidan suhbat qurish, bo'g'inga ajratilmaydigan so'zlar bilan tanishish, ularning imlosi va talaffuzi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar ustida ishlash. Yonma-yon kelgan har xil undoshli va bir xil undoshli so'zlarning bo'g'inlarga ajratilishi bilan bog'liq mashqlarni bajarish.

Maqollar va gaplarni ular ifodalangan mazmun bo'yicha tahlil qilish, maqol va gapni farqlay olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

So'zlarning ko'chma ma'nosi. Matnda ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlarning ma'nosini kontekstdan tushunish. Matn mazmuniga mos maqol tanlash.

VI bo'lim. FAN VA TEXNOLOGIYALAR **(12 soat)**

Oy Yerdan kattami?

Berilgan matnning mazmuni yuzasidan suhbat qurish, matn mazmunini qayta hikoya qilish, so'zning fikr ifodalashdagi o'rni va ma'nolari bilan bog'liq mashq va topshiriqlar ustida ishlash. Matn tarkibida berilgan atamalarni aniqlash, lug'at yordamida ularning izohi bilan tanishish.

Fazogirlik kasbi haqidagi audiomatn bilan tanishish. Unda so'zlar tarkibidagi unli va undosh tovushlarning qo'llanilishi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar ustida ishlash. Harfiy birikmalar ishtirok etgan so'zlarni aniqlash va ularning imlosi bilan bog'liq mashqlar.

Qiziqarli kasblar, kasb tanlash haqida suhbat qurish, suhbat davomida kasbga oid so'zlar va ularning imlosi bilan tanishish. O'zi tanlagan kasb haqida 2 yoki undan ortiq gapdan iborat matn yaratish, unda so'zlarni bo'g'inlarga ajratish va gapga nuqta qo'yish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar ustida ishlash. Tengdoshlar bilan suhbat jarayonida qo'llaniladigan so'zlar, ulardan foydalanishga oid mashqlar ustida ishlash.

Badiiy bo'lmagan (faktik ma'lumotlar beradigan) matnni tushunish. Verbal (matnli) va vizual (grafik, illyustratsiya, jadval va hokazo) kerakli ma'lumotni qidirib topish.



VII bo'lim. O'QUV YILI OXIRIDA TAKRORLASH (8 soat)

Ushbu soatlarda o'quvchining yil davomida olgan o'qib, eshitib tushunish, og'zaki va yozma nutqqa oid bilim, ko'nikma va malakalari sinovdan o'tkaziladi. Sinov natijalari asosida qo'shimcha ta'limiy ishlar amalga oshiriladi.

MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Bo'limlar nomi	Soatlar taqsimoti				
		Jami	Yangi mavzu	Nazorat ishlari	Mus-lash	Tak-lash
1	Tayyorgarlik davri	16	16			
2	Alifbe davri	112	102	2	2	4
1	Men, sen, u va ular	25	23		2	
2	Tabiat ne'matlari	24	22		2	
3	Sog' tanda – sog'lom aql	24	22	1		
4	San'at va madaniyat	22	20		2	
5	Til va dil	21	19		2	
6	Fan va texnologiyalar	12	11	1		
7	O'quv yili oxirida takrorlash	8		1		6
Jami		264	230	10	6	10



II SINF

I bo'lim. O'ZBEKISTON – MENING VATANIM! (12 soat: takrorlash 8 soat, yangi mavzu 4 soat)

O'zbekiston – mening Vatanim! (mustaqillik, Vatan, iftixor...)

Berilgan mavzu bilan bog'liq matn ustida ishlanadi. Unda nutq tovushlarining to'g'ri talaffuz qilinishi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Tovush va harf, unli va undosh tovushlar, kichik va bosh harflarning qo'llanilishi, bo'g'inga ajratish bo'yicha olingan bilimlarni takrorlash.

Vatan, Vatanga muhabbat mavzusidagi audiomatn ustida ishlash. Matn tarkibidagi so'zlar tahlilini olib borish. So'zlar ma'nosi, so'zlar ifodalagan tushunchalar: narsa, shaxs nomi, harakat, belgi va miqdorni bildiruvchi so'zlar, ularning so'roqlari bo'yicha o'tilganlarni takrorlash. Matnning xulosasini aniqlash, g'oyasini ayta olish bilan bog'liq topshiriqlar. Matn tarkibida qo'llanilgan maqol va hikmatli so'zlarni ajratish, ular ma'nosi bilan tanishish.

She'riy matn tarkibida qo'llanilgan gaplar, ularning ifoda maqsadiga ko'ra turlari, tinish belgilarining ifodalanishi bilan bog'liq bilimlarni takrorlash. She'riy matndagi ohangdosh so'zlarni aniqlash, she'riy matnni ifodali o'qish bilan bog'liq topshiriqlar.

Mustaqillik, iftixor tushunchalari bilan bog'liq 3 yoki undan ortiq gap tuzib ijodiy matn yaratish. Bu jarayonda unli va undosh harflarning yozma nutqda qo'llanilish qoidalari, so'zlarni bo'g'inlarga ajratish, bosh va kichik harflarning imlosi, gapda tinish belgilarining qo'llanilishi.

Matnning asosiy mazmunini tushunish. Matnning asosiy mazmunini ochishga yordam beradigan gaplarni topish. Matnga sarlavha qo'yish.

II bo'lim. MEN, SEN, U VA ULAR (26 soat)

Maktabim – ikkinchi uyim.

Berilgan matn tarkibidan ma'nolari yaqin bo'lgan so'zlarni ajratish, ular o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan mashq va topshiriqlar. Matn tarkibidan maktab hayoti bilan bog'liq bo'lgan narsa nomlariga so'roq berish orqali ularni ajratish, ularning umumiy nomini aniqlay olishga qaratilgan mashqlar. Matnning asosiy mohiyatini ochib beruvchi savollar ustida ishlash. Vergul (uyushiq ohang bilan aytiladigan bo'laklar orasidagi qo'llanishi) va nuqta (darak gaplar oxiriga nuqta qo'yilishi) tinish belgilarini to'g'ri qo'llash. Narsa nomlariga qo'shiladigan ko'plik qo'shimchasi.

Maktabdagi shaxs va narsalarga qanday munosabatda bo'lish bilan bog'liq audiomatn tarkibidagi ayrim so'zlar tahlili. So'zlar tarkibida kelayotgan nutq tovushlari, ularni unli va undoshga ajratish. Matn tarkibidagi xabar ma'nosini ifodalovchi gaplarni ajratish, ular imlosi bilan tanishish. Matn mazmuni bo'yicha berilgan savollarga javob berish, matnning xulosasi va g'oyasini aniqlash, ayni shu g'oyani qaysi so'z va



birikmalar tashiyotgani haqida taxminlarni ilgari surish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Maktabda o'zini tutish, kiyinish odobi, oshxonada gigiyena va axloq-odob qoidalariga rioya qilish bilan bog'liq matn ustida ishlash. Atrofdagilar bilan muloqot qilish, muloqot qoidalari (hurmatni ifodolovchi ohang va so'zlarni qo'llash)ga rioya qilgan holda mavzu bilan bog'liq fikrlarini ifodalash. Mavzu bilan bog'liq vaziyatlar aks etgan rasm asosida 3 yoki undan ortiq gap tuzish.

Matndagi (asardagi) sabab va oqibat bog'lanishlarini tushunish. Matndan (asardan) xulosa chiqarish.

Tug'ilgan kuning bilan!

Berilgan mavzu doirasida suhbat olib borish, bunda nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishga e'tiborni qaratish, mashq va topshiriqlar yordamida nutq tovushlarining vazifasi bilan tanishtirish. Bo'g'in, so'zlarni bo'g'inlarga ajratish, unli tovushlarning bo'g'in hosil qilishi. Mavzu yuzasidan berilayotgan savollarga mantiqli va tartibli javob berish mashqlari. Fikr ifodalashning og'zaki shakli, uning afzalliklari va e'tiborli tomonlari. Chiziqcha belgisining qo'llanishi (tartibni bildirgan raqamlardan keyin ishlatilishi). Yil va sanalarning yozuvda aks etishi. Oy nomlarining talaffuzi va imlosi. Tabriknoma matnida undov belgisining qo'llanilishi.

Mehmonga borish qoidalari haqidagi matn bilan tanishish, undagi ma'nodosh so'zlar, ma'nolar o'rtasidagi yaqinlikni aniqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Matnni ifodali va ravon o'qiy olish malakasini shakllantirishga oid mashqlar. Mehmonga borish va mehmon kutishda qo'llaniladigan so'z va birliklardan foydalana olish malakasini shakllantirishga qaratilgan mashqlar. Vergulning (sanash ohangi bilan aytilgan birliklar orasida) qo'llanilishi.

Do'sti yoki oila a'zolari uchun tabriknoma yozish mashqlari, bunda bo'g'in ko'chirish, bosh harflar imlosiga e'tibor qaratish. Tabrik uchun qo'llaniladigan so'zlar bilan tanishish, ularni o'z nutqida qo'llash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Tabriknoma matnida qo'llanuvchi til birliklarning qo'llanilishi ("tilayman", "qutlayman", "et" va "bo'l" so'zlari).

Asar qahramoni xatti-harakatlariga baho berish. Qahramon harakatlaridan saboq chiqarish.

Mening mahallam

Muayyan mahalla tarixi bilan bog'liq berilgan matn tarkibidan "qayer?" so'rog'iga javob bo'luvchi so'zlarni ajrata olish, ularning joy nomlari ekanligi, joylarga nomlar qanday tanlanishi haqidagi boshlang'ich tushunchalar bilan tanishish. Berilgan lug'at yordamida matn tarkibidagi ayrim so'zlarning izohi bilan tanishish. Joy nomlarining talaffuzi va imlosi.

Qo'shnichilik qoidalari mavzusida suhbat uyushtirish, bunda muloqot odobi, atrofdagilar bilan muloqot qilish qoidalariga rioya qilish, nutq tovushlarining to'g'ri talaffuz qilinishiga doir topshiriqlar.

Mahalladagi urf-odatlarini aks ettiruvchi audiomatn bilan tanishish. Matn tarkibida qo'llangan so'z oxirida jufti bor undoshlarning to'g'ri



yozilishini tekshirish usullari, tekshiruvchi va tekshiriluvchi soʻzlar bilan tanishish. Ular imlosiga rioya qilish. Suhbat davomida zarur boʻlgan oʻrinlarni aniqlash va ularni daftarga yozish bilan bogʻliq mashq va topshiriqlar.

Asarning davomini tasavvur qilish. Asarni davom ettirishni mashq qilish.

Mustahkamlash darsi.

III boʻlim. TABIAT NE'MATLARI **(28 soat)**

Qoʻriqlanadigan hayvonlar

Berilgan rasm asosida qizil kitobga kirgan hayvonlar haqida suhbat olib borish, suhbat davomida oʻzbek tilidagi 23ta undosh harfning 24ta tovush bilan ifodalanishiga, j harfining ikki tovushni ifodalashiga, uning talaffuziga, j harfi ishtirok etgan soʻzlarga eʼtiborni qaratish. Rasmda tasvirlangan vaziyat haqida ogʻzaki fikr bildirish olish mashqlari. Hayvonlarning sifatlarini bildiruvchi soʻzlar maʼnosi va imlosi. Hayvonlar nomlari va hayvonlarga atab qoʻyilgan nomlar imlosi. Koʻrgan, bilgan hayvoni haqida ogʻzaki soʻzlab bera olish mashqlari. Nutq tovushlari va tabiiy tovushlarning farqi.

Berilgan matn tarkibidan ayrim soʻzlardagi boʻgʻinlarning tarkibini aniqlash mashqlari. Soʻzlarni boʻgʻinlab koʻchirishdan maqsad, boʻgʻin koʻchirish qoidalari. Ularni bir unli tovushdan iborat boʻgʻinlar, bir unli tovush va bir undosh tovushdan iborat boʻgʻinlar, bir unli tovush va bir necha undosh tovushdan iborat boʻgʻinlarga ajratish. Matnning asosiy mazmunini tushunish, matn bilan bogʻliq savollarni bera olish. Matn tarkibidan atab qoʻyilgan joy nomlarini aniqlash, ular imlosiga oid topshiriqlar.

Asar muallifining tasvirlanayotgan voqea-hodisalarga munosabatini tushunish.

Yer ostida nima bor?

Yer ostidagi qazilma boyliklari haqida matn bilan tanishish. Matn tarkibidagi narsa nomlarini bildiruvchi soʻzlarni ularga soʻroq berish orqali aniqlay olish. Matnni ifodali va ravon oʻqish malakasini shakllantirishga qaratilgan mashqlar, oʻqish davomida muhim oʻrinlarni belgilay olish bilan bogʻliq topshiriqlar.

Tabiiy boyliklardan foydalanish va ularni tejash bilan bogʻliq matn bilan tanishish. Matnning asosiy mohiyati va gʻoyasini aniqlay olishga qaratilgan topshiriqlar. Mavzu yuzasidan 3 yoki undan ortiq gapdan iborat matn yaratish. Gap – fikr ifodalashning asosiy vositasi. Fikr ifodalashning yozma shakli, yozma shaklda rioya qilinishi lozim boʻlgan qoidalar bilan tanishishga qaratilgan mashq va topshiriqlar.

Asardagi joy, tabiat tasvirlarini tushunish. Tasvirning jonli chiqishiga xizmat qiladigan soʻzlarni tanlash.

Sayohatchi qushlar.



Tinglangan audiomatn yordamida tovushlarning hosil bo'lishi, ularning talaffuzini farqlashga oid mashqlar. Matn mazmunini tahlil qilish, zarur o'rinlarni qayd etish va xulosa qilish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Mavzu bilan bog'liq matn tarkibidan so'z va gapni o'zaro farqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Xabar va axborot matnlarida qo'llanadigan fe'l shakllari bilan tanishish. So'zlar ifodalagan umumiy tushunchani aniqlay olish mashqlari. So'zlar ifodalagan tushunchalar (shaxs nomi, narsa nomi, ularning harakati, belgisi va miqdori)ni ularga so'roq berish orqali ajratish mashqlari. Matnni qayta ijodiy bayon qilish mashqlari.

Asarda qahramonlar orasidagi munosabatlarni tushunish.

Qishda uxlaydigan hayvonlar (ayiq, qunduz va hokazo)

Mavzu yuzasidan berilgan matn tarkibida narsa nomlarini so'roq berish orqali aniqlash, ularning ko'plikda qo'llanilishi, ko'plikdagi narsa nomlarining so'roqlari bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Matn tarkibida x va h undoshlari ishtirok etgan so'zlar imlosi, ularning talaffuzi. Bo'g'in ko'chirish va bosh harflar imlosiga rioya qilgan holda 3 yoki undan ortiq gapdan iborat matn yaratish.

Mavzu bilan bog'liq berilgan rasmdagi narsalarga belgi bildiruvchi so'zlarni tanlay olish, so'zlarning qarama-qarshi ma'nolari bilan tanishish mashqlari. Qarama-qarshi ma'noli so'zlardan og'zaki nutqda o'rinli foydalanish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Ertak va masallarda hayvonlar orqali insonlarga xos xususiyatlarning ifodalanishi. Ertak va masal qahramonlariga ta'rif berish.

Mustahkamlash darsi.

Nazorati ishi va tahlili.

IV bo'lim. SOG' TANDA – SOG'LOM AQL

(28 soat)

Bakteriya va mikroblar (eng kichik jonli qo'shnilarimiz haqida)

Mavzu bilan bog'liq matn bilan tanishish, undagi ayrim so'zlar talaffuziga e'tiborni qaratish, so'zlar tarkibidagi A – O va O – O' unlisi ishtirok etgan so'zlar talaffuzi va imlosi. Ushbu harflar qatnashgan so'zlarni bo'g'inlarga ko'chirish mashqlari. Matn tarkibida kelgan atamalar izohi bilan tanishish, lug'at va undan foydalanish qoidalariga rioya qilish.

Mavzu yuzasidan suhbat uyushtirish, unda og'zaki nutq tuzish qoidalari bilan tanishish, suhbat davomida muloqotga kirisha olish va muloqot odobiga rioya qilish, mavzu yuzasidan fikrlarini tartibli va mazmunli qilib ifodalashga o'rgatish mashqlari. Fikrni dalillash uchun gaplarni o'zaro bog'lashga oid til birliklari (chunki, shuning uchun).

Mavzu bilan bog'liq berilgan kichik matn tarkibidan gapning chegarasini aniqlash va kerakli tinish belgilarini qo'yish bilan bog'liq mashqlar.

Ilmiy matnlarni tushunish. Ilmiy matnlarda ishlatiladigan maxsus so'zlar (atamalar) ma'nosini kontekstdan va maxsus lug'atlardan topish.

Foydali nonushta

Berilgan matn tarkibidagi ayrim soʻzlar talaffuzi. Nutq tovushlarini toʻgʻri talaffuz qilish, notogʻri talaffuz natijasida soʻzlarning maʼnosi oʻzgarishi bilan bogʻliq mashq va topshiriqlar. Matn tarkibidan soʻzlarga soʻroq berish orqali sanoq va tartibni bildiruvchi soʻzlarni aniqlay olish, ularning talaffuzi va imlosi ustida ishlash mashqlari. Matn tarkibida kelgan ayrim soʻz va birikmalarning maʼnosini aniqlash bilan bogʻliq mashq va topshiriqlar. Nonushta vaqtida qoʻllanadigan til birliklari (minnatdorchilik, nonushta bilan bogʻliq feʼllar).

Tinglangan audiomatndagi soʻzlovchining nutq ohangiga eʼtibor berish orqali matn tarkibidagi gaplarning xabar, soʻroq, buyruq va istak kabi maʼnolarni aniqlash mashqlari. Gaplarning ifoda maqsadiga koʻra turlaridan foydalangan holda 3 yoki undan ortiq gapdan iborat ijodiy matn tayyorlash, bunda tinish belgilarining qoʻllanilish qoidalariga rioya qilish. Nuqta, soʻroq, undov belgilaridan foydalana olishga oid mashqlar.

Matn va u bilan bogʻliq vizual maʼlumotni solishtirish. Grafik, diagrammalarni tushunish.

Suyakning darmondorisi (kalsiy, sut mahsulotlari).

Berilgan matn tarkibidagi unli va undosh tovushlarning talaffuzi va imlosi bilan bogʻliq mashq va topshiriqlar. I va E unlisi ishtirok etgan soʻzlar talaffuzi va imlosi, ushbu harflar qatnashgan soʻzlarda boʻgʻin koʻchirish bilan bogʻliq mashqlar. Matnning asosiy mazmuni va gʻoyasini aniqlashga qaratilgan mashq va topshiriqlar. Olinma soʻzlar talaffuzi va imlosi.

Berilgan rasm asosida 3 yoki undan ortiq gapdan iborat matn yaratish. Oʻzi tuzgan matn tarkibidan soʻzlarga soʻroq berish orqali narsa nomlarini bildiruvchi soʻzlarni aniqlash, ularning imlosi. Gaplar ohangiga qarab kerakli tinish belgilaridan foydalanish bilan bogʻliq mashq va topshiriqlar.

Tinglangan audiomatn tarkibida berilgan atamalarni ajrata olish, ular izohi bilan tanishish mashqlari. Soʻz ichida yonma-yon kelgan bir xil undoshli soʻzlarni boʻgʻinlab koʻchirishga doir mashqlarni bajarish. Matn uchun lugʻat tayyorlash. Matn uchun tanlangan savollarni tushunish va mantiqli, tartibli ravishda oʻz javoblarini taqdim etish.

Ilmiy matnlarni tushunish. Ilmiy matnlarda ishlatiladigan maxsus soʻzlar (atamalar) maʼnosini kontekstdan va maxsus lugʻatlardan topish.

Mustahkamlash darsi.

V boʻlim. KASBIM – FAXRIM (26 soat)

Hunar – hunardan unar (kulol, temirchi, duradgor).

Harf birikmalari ifodalaydigan tovushlar, ularning soʻz tarkibida qoʻllanilishi, ular ishtirok etgan soʻzlarni boʻgʻinlarga ajratish bilan bogʻliq mashq va topshiriqlar. Matn tarkibida qoʻllangan narsa, shaxs otlari va ularning imlosi. Hunarmandchilik asbob-uskunolari nomlarining talaffuzi va imlosi.

Mavzu yuzasidan ogʻzaki suhbat uyushtirish, suhbat davomida gaplarning ifoda maqsadiga koʻra turlari (xabar, soʻroq, buyruq, istak)dan



foydalanish. Og'zaki ifodalangan fikrni yozma nutqqa aylantirish mashqlari. Gaplarda tinish belgilarini o'rinli qo'llash bilan bog'liq mashqlar.

Asardagi narsa, buyumlar tasvirini tushunish.

Sharafli kasblar (o'qituvchi, shifokor, harbiy).

Mavzu bilan bog'liq matn ustida ishlash, matnda ifodalangan asosiy g'oyani va xulosani anglash bilan bog'liq topshiriqlar. Matn tarkibida bosh harflar bilan ifodalangan so'zlar va shaxs otlari imlosi. Kasbga oid xarakter-xususiyatlarni ifodalovchi so'zlar.

Tinglangan audiomatn tarkibidagi kishilarning ismi va familiyasini aniqlash, ularning yozma nutqda ifodalanishi, audiomatn tarkibidagi so'zlovchining nutq ohangini belgilay olish, matn tarkibidagi ayrim gaplarni yozma ifodalash mashqlari. Harfiy birikmalar ifodalaydigan tovushlar, ularning so'zlar tarkibida qo'llanilishi, harflar birikmasi ishtirok etgan so'zlarni bo'g'inlarga ajratish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Mavzu bilan bog'liq suhbat uyushtirish. Suhbat davomida atrofodagilar bilan muloqot qilish odobiga, fikr bildirish tartibiga amal qilish. Fikr bildirishda fikr tartibni bildiruvchi (birinchidan, ikkinchidan...) so'zlardan foydalanish mashqlari. Fikrlarni bir-biriga bog'lovchi vositalar (chunki, shuning uchun, negaki).

Asardan xulosa chiqarish.

Mustahkamlash darsi.

Nazorati ishi va tahlili.

VI bo'lim. YOSH IQTISODCHI **(20 soat)**

Quvnoq ferma (Sigir, qo'y, echki, tovuqning moddiy foydalari).

Berilgan matn tarkibidagi ayrim so'zlar talaffuzi va imlosi. U va O' unlisi ishtirok etgan so'zlar talaffuzi va imlosi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Berilgan rasm asosida 3 yoki undan ortiq gapdan iborat ijodiy matn yaratish. Unli va undosh harflarning yozma nutqda to'g'ri ifodalanishi bilan bog'liq topshiriqlar. Hayvonlarga ta'rif berishda qo'llanadigan so'z va birikmalar.

Mavzu yuzasidan suhbat uyushtirish. Suhbat davomida ma'nodosh va zid ma'noli so'zlarni qo'llash bilan bog'liq topshiriqlar. Hayvonlarga nom tanlash, nega aynan shu nomni tanlaganini tushuntirib berish, hayvon nomlarining bosh harflar bilan ifodalanishi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Hayvonlarning va insonlarning tovushlari, hayvonlar tovushlarining yozuvda aks etishi. Hayvonlarning fe'li orqali insonlarga ta'rif berish (tulki, ayiq, she'r kabi hayvonlarning tasviriy ifoda sifatida insonlar bilan qiyoslanishi).

Tinglangan audiomatn tarkibidan so'zlovchining nutq ohangiga qarab gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini aniqlay olish mashqlari. Matndagi qarama-qarshi ma'noli so'zlar, ularning ma'nosi: rangni, maza-ta'mni, hajmni qiyoslovchi qarama-qarshi ma'noli so'zlarni ajrata olish bilan bog'liq



mashq va topshiriqlar. Matnning zarur o'rinlarini qayd qilish, matn yuzasidan berilgan savol va topshiriqlarni bajarish.

Matndagi sabab va oqibat bog'lanishlarini tushunish.

Vaqtning qadri (vaqtdan unumli foydalanish haqida tavsiyalar).

Kunning qismlari, soat va vaqtni ifodalovchi birliklar va ularning imlosi. Berilgan matn tarkibidan qo'sh undoshli so'zlarni ajratish, so'z ichida yonma-yon kelgan bir xil undoshlarning talaffuzi va bunday so'zlarni bo'g'inlarga ajratishga oid mashq va topshiriqlar. So'zlarga so'roq berish orqali sanoq va tartibni ifodalovchi so'zlarni ajratish. Sanoq va tartibni bildiruvchi so'zlar ishtirokida kun tartibi bilan bog'liq 3 yoki undan ortiq gapdan iborat matn yaratish.

Mavzu bilan bog'liq maqol va hikmatli so'zlar bilan tanishish, og'zaki suhbat orqali ular ma'nosini tahlil qilish, ularning nutq tuzishdagi ahamiyati haqida fikrlashish. Suhbat davomida tengdoshlari bilan muloqot qilishda qo'llaniladigan so'zlardan o'rinli foydalanish mashqlari.

Asardagi qahramonlar harakatlariga baho berish. Xulosa chiqarish.

Mustahkamlash darsi.

VII bo'lim. **FAN VA TEXNOLOGIYALAR** (22 soat)

Robot ixtiro qilaman (Robotlar, robot yasaydigan bolalar, to'garaklar).

Mahsulot tayyorlash jarayonida faol qo'llaniladigan so'zlar. Mavzu yuzasidan berilgan matn bilan tanishish, matnni ravon va ifodali o'qish, o'qish davomida muhim o'rinlarni belgilab ketish, matn tarkibidagi so'zlarga so'roq berish orqali narsa nomlarini bildiruvchi so'zlarni aniqlash mashqlari. Narsa nomlariga mos keluvchi so'zlarning qarama-qarshi belgisi: rangi, hajmiga ko'ra qiyoslanishi bilan bog'liq mashq va topshiriq.

Bo'g'in ko'chirish va bosh harflar imlosiga rioya qilgan holda mavzu yuzasidan dialogik matn yaratish. Vergul va tire tinish belgilarining qo'llanilishi (dialogik matnda). Gaplarda ularning ifoda maqsadiga ko'ra turlari bo'yicha kerakli tinish belgilarini qo'llash bilan bog'liq topshiriqlar.

So'z oxirida kelgan ayrim undoshlarining ba'zi o'rinlarda tushib qolishi, bunday so'zlarning imlosi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Mavzu yuzasidan berilgan matnning asosiy mazmuni va g'oyasini aniqlash, xulosa chiqarish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar ustida ishlash, uni qayta bayon qilishga oid mashqlar.

Matndan kerakli ma'lumotlarni topish. Matn yuzasidan savollarga javob berish

G'aroyib ixtirolar (g'ildirak, qog'oz, pul va h.k.).

Harakatning o'tgan zamon shakli haqida (-gan qo'shimchasining qachon qo'llanishi). Mavzu bilan bog'liq matn tarkibidan so'zlarni bo'g'inlarga ajratish. So'zlarga so'roq berish orqali harakatni bildiruvchi so'zlar, shaxs va narsalarning harakatini bildiruvchi so'zlarni ajrata olish, harakatning bir necha shaxs tomonidan bajarilishini ifodalashda qanday so'roq berish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.



Berilgan matn yordamida matnning hosil bo'lishi, undagi gaplarning o'zaro mazmunan bog'lanishi, matnga sarlavha tanlash bilan bog'liq ma'lumotlar bilan tanishish. Matn bilan bog'liq berilgan savol va topshiriqlarni bajarish orqali matnning asosiy g'oyasi, zarur o'rinlarini belgilash, matn yuzasidan xulosa chiqarish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Matndan kerakli ma'lumotlarni topish. Matn yuzasidan savollarga javob berish.

Quyosh – quvvat manbayi (Quyosh energiyasi, quyoshning vazifalari).

Osmon jismlarini ifodalovchi so'zlar va ularning imlosi. Berilgan mavzu yuzasidan berilgan audiomatn bilan tanishish, so'zlovchining nutq ohangi yordamida gaplarning tugallangan ohang bilan aytilishiga oid topshiriqlar. Audiomatn tarkibidagi xabar, so'roq, buyruq va istak kabi ma'nolarni ifodalovchi gaplarni ajrata olish, ushbu gaplarni yozma nutq orqali ifodalash, tinish belgilarining qo'llanilish qoidalariga rioya qilish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Mavzu bilan bog'liq ma'lumotlar keltirilgan matn tarkibidan bajarilgan yoki bajarilmagan harakatga mos keluvchi shaxs va narsa nomlarini aniqlay olish, ularga so'roq berish. Shaxs va narsa harakatini bildiruvchi so'zlarni ajrata olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Matn tarkibidagi atamalar izohi bilan tanishish, lug'at va undan foydalanish qoidalari.

Matn va u bilan bog'liq vizual ma'lumotni solishtirish. Grafik, diagrammalarni tushunish.

Mustahkamlash darsi.

VIII bo'lim. TIL VA DIL (18 soat)

Shaxsiy kutubxona (bolalar uchun kitoblar).

To'plam va tasnif haqida (kitoblarning janri va turiga qarab tasniflanishi) tushuncha. Miqdor va rangni bildiruvchi so'zlar, kitoblarning nomini matnda aks ettirish va ularning imlosi. Mavzu bilan bog'liq matn tarkibidan qo'sh undoshli so'zlarni aniqlash, so'z ichida yonma-yon kelgan bir xil undoshlarning talaffuzi va imlosi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Berilgan matnning asosiy g'oyasi va xulosasini anglagan holda uni qayta ijodiy bayon qilishga oid mashqlar.

Tinglangan audiomatn tarkibidagi zid ma'noli va ma'nolari yaqin so'zlarni sharhlay olish, she'riy matnlarning ifodali o'qilishi, ohangdosh so'zlarni aniqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Rasm asosida berilgan vaziyatga mos 3 yoki undan ortiq gapdan iborat ijodiy matn yarata olish, bunda tinish belgilari, bo'g'inga ko'chirish va bosh harflar imlosi. Rasmda ifodalangan narsa va shaxslarga nisbatan belgi bildiruvchi so'zlarni tanlay olish mashqlari.

Berilgan ertak matnidagi his-hayajonni ifodalovchi gaplarni aniqlay olish, ulardagi ohang va tinish belgilarini qo'llash bilan bog'liq mashq va



topshiriqlar. Ertaklarning xulosasini ayta olish, ertak qahramonlari nutqini obrazga kirib o'qiy olish kabi malakalarni rivojlantirish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Ertak qahramonlariga xat yozish mashqlari. Shaxsiy xat yozish qoidalari.

Matn turlarini farqlash. Badiiy va ilmiy matnga xos xususiyatlarni topish.

So'zni topib ishlating (so'zni ma'nolariga qarab to'g'ri qo'llash haqida).

Berilgan matn tarkibidan ma'nodosh so'z, ularning o'ziga xos tomonlari bilan tanishish. Lug'at va undan foydalanish qoidalari.

Berilgan ma'nodosh so'zlardan keraklisini ajrata olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Tutuq belgisining qo'llanilish o'rinlari bilan tanishish, tutuq belgisi ishtirok etgan so'zlar imlosi va talaffuzi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

So'z, so'zdan foydalanish, muloqot odobi, murojaat va mulozamat so'zlari (rahmat, iltimos, sog' bo'ling kabi).

Nutq haqida, nutqning ko'rinishlari: og'zaki va yozma nutq haqida suhbat.

Shaxsiy xat yozish mashqlari, punktuatsiya va imlo qoidalariga rioya qilgan holda shaxsiy xat yozish. Yozma nutq va uning o'ziga xos tomonlari bilan tanishishga qaratilgan mashq va topshiriqlar ("edi", "emish", "ekan" so'zlarining yozma nutqda qo'llanishi).

Badiiy asardagi o'xshatish va tasvirlarni tushunish.

Mustahkamlash darsi.

Nazorati ishi va tahlili.

IX bo'lim. TARIX XAZINALARI

(10 soat)

Samarqand – tarix beshigi.

Mavzu bilan bog'liq matn tarkibidagi so'z oxirida kelib, og'zaki nutqda tushib qoladigan undoshlar imlosi (masalan, d-t, b-p, z-s...). Shahar, qishloq, ko'cha va daryo nomlari, ularning bosh harflar bilan yozilishi.

Bo'g'in ko'chirish va bosh harflar imlosiga rioya qilgan holda berilgan rasm asosida 3 yoki undan ortiq gapdan iborat matn yaratish.

Berilgan matn tarkibidan narsa nomlarini bildiruvchi so'zlarni ularga so'roq berish orqali aniqlay olish, narsa nomlarining ko'plikda qo'llanilishi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Matndagi ayrim so'z va birikmalarning ma'nosiga e'tibor qaratish. Buyuk bobokalonlarimizdan biriga xat yozish.

Matndagi notanish so'zlar ma'nosini kontekstdan anglash. Kontekstdan anglashga yordam beradigan savollar.

Yozuvni kim ixtiro qilgan?

Berilgan matnning tuzilishi, matn tarkibidagi gaplarning mazmun jihatdan o'zaro bog'lanishi. Matn tarkibida qo'llangan vaqt va miqdorni bildiruvchi so'zlarnig yozuvda harflar va sonlar bilan ifodalanishi, ular imlosi



bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Fikrni davom ettirish va ikki fikrni bir-birga bog'lovchi vositalar ("va", "shuning uchun", chunki so'zlari).

Tinglangan suhbat yordamida x va h tovushlarining hosil bo'lishi, ularning so'z tarkibida qo'llanilishi, ushbu so'zlar imlosi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. So'z oxirida kelib talaffuzi va imlosi farq qiluvchi harflarni to'g'ri qo'llash ustida mashqlar. Gap va uning belgilari: tugallangan fikr, so'z va so'zlarning o'zaro bog'lanishi, bosh harf bilan yozilishiga oid mashq va topshiriqlar.

Matnlarni solishtirish. Matnlardagi mazmun, uslub, tuzilish jihatdan o'xshash va farqli jihatlarni topish.

Mustahkamlash darsi.

X bo'lim. SAN'AT VA MADANIYAT **(19 soat)**

Mo'yqalam mo'jizasi.

Tasviriy san'at asarlarini ta'riflashda faol ishlatiladigan so'zlar talaffuzi va imlosi. Rang-tus, shakl-shamoyilni ifodalovchi so'zlar. Mavzu yuzasidan berilgan matn tarkibidagi harfiy birikmalar ifodalaydigan tovushlar, ularning so'z tarkibida qo'llanilishi, harflar birikmasi ishtirok etgan so'zlarning bo'g'inlarga ajratilishi bilan tanishish, mavzu bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Berilgan matn tarkibidan qarama-qarshi ma'noli so'zlarni aniqlash, ularning ma'nosi: rangni, maza-ta'mni, hajmni qiyoslovchi qarama-qarshi ma'noli so'zlarni ajrata olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Berilgan tasviriy san'at asarini og'zaki/yozma shaklda tasvirlashga oid mashq va topshiriqlar.

Asar va uning tasviriy san'atdagi talqinini solishtirish.

Bolalar qo'shiqlari.

Xalq og'zaki ijodi namunalari asosida nomlar va taqlid so'zlar imlosi. Berilgan matn tarkibidan shaxs va narsa nomlarini bildiruvchi so'zlarni ajrata olish, matnning asosiy g'oyasi va mazmuni bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Matn tarkibidagi ma'nodosh va zid ma'noli so'zlarni aniqlay olish mashqlari.

Mavzu yuzasidan tartibli va mazmunli fikr bildirish mashqlari.

Tinglangan audiomatn tarkibidagi zid ma'noli va ma'nolari yaqin so'zlarni sharhlay olish, she'riy matnlarning ifodali o'qilishi, ohangdosh so'zlarni aniqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

She'riy nutqga xos bo'lgan xususiyatlarni topish.

Mustahkamlash darsi.

XI bo'lim. HUQUQIMIZ – HAQIMIZ **(22 soat)**

Yo'l qoidasi – umr foydasi

Yo'l belgilari va ularning yozuvda aks etishi. Shaxs va narsalarning harakat-holatini bildiruvchi so'zlarni belgilash. Matnning asosiy o'rinlari,

g'oyasini aniqlay olish, matn yuzasidan xulosa chiqarish bilan bog'liq topshiriqlar.

Berilgan rasmdagi vaziyat asosida o'z fikrini tartibli va to'liq ifodalash bilan bog'liq topshiriqlarni bajarish yordamida og'zaki nutq yaratish. Bu jarayonda nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish, noto'g'ri talaffuzning natijasida ma'nosi o'zgaradigan so'zlar bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Qoidabuzar haydovchiga xat yozish mashqlari.

Birinchi shaxs nomidan bayon qilingan asarlarni tushunish.

Navbatda turishni bilasizmi?

Murojaat va mulozamatni ifodalovchi so'zlar. Tartib sonlarning imlosi. Matnning tuzilishini o'rganish, matn asosida berilgan savol va topshiriqlar ustida ishlash, matn tarkibida qo'llanilgan so'zlarni so'roq berish orqali guruhlariga ajrata olish bilan bog'liq mashqlar.

Mavzu yuzasidan suhbat uyushtirish, muloqot odobi, kattalar va tengdoshlar bilan muloqotga kirishish, navbatda turish jarayonida qo'llaniladigan so'zlar. Suhbat davomida bir-birini tinglash, boshqalar fikrini hurmat qilish, so'zlash uchun ruxsat olish kabi malakalar ustida ishlash mashqlari.

Matnni qismlarga bo'lish. Matn qismlari orasidagi bog'liqlikni tushunish.

Mustahkamlash darsi.

XII bo'lim. O'QUV YILI OXIRIDA TAKRORLASH

(16 soat: takrorlash 8 soat, nazorat ishi va tahlili 8 soat)

Ushbu soatlarda o'quvchining yil davomida olgan o'qib, eshitib tushunish, og'zaki va yozma nutqqa oid bilim, ko'nikma va malakalari sinovdan o'tkaziladi. Sinov natijalari asosida qo'shimcha ta'limiy ishlar amalga oshiriladi.

Nazorati ishi va tahlili.

MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Bo'limlar nomi	Soatlar taqsimoti					
		Jam i	Yangi mavz u	Nazor at ishlari	N.I. tahlili	Mus - lash	Tak-lash
1	O'zbekiston – mening Vatanim!	8					4
2	Men, sen, u va ular	26	22	3		1	
3	Tabiat ne'matlari	28	22	3	2	1	
4	Sog' tanda – sog'lom aql	24	23	3		1	
5	Kasbim – faxrim	26	20	3	2	1	
6	Yosh iqtisodchi	20	16	3		1	
7	Fan va texnologiyalar	22	18	3		1	
8	Til va dil	18	12	3	2	1	



9	Tarix xazinalari	10	8	1		1	
10	San'at va madaniyat	18	15	2		1	
11	Huquqimiz - haqimiz	22	19	2		1	
12	O'quv yili oxirida takrorlash	16		2	2		8
Jami		238	152	28	8	10	12



III SINF

I bo'lim. MEN , SEN, U VA ULAR (6 soat)

Mustaqillik maydoni (istiqlol, hurfiylik, Mustaqillik maydoni haqida)

Mavzu bilan bog'liq matn tarkibidagi ayrim so'zlar tahlilini olib borish, bunda unli va undosh tovushlarning hosil bo'lishi, ular juftligi bo'yicha olingan bilimlarni takrorlash, matn tarkibida berilgan ayrim so'z va birikmalar ma'nosini izohlash bo'yicha mashq va topshiriqlar.

Mavzu bilan bog'liq berilgan audiomatn tarkibidan so'zlarga so'roq berish orqali ularni guruhlariga ajratish, narsa, o'simlik, tabiat hodisalari, o'quv qurollarining nomlanishi bilan bog'liq olingan bilimlarni takrorlash. Matn tarkibida berilgan ayrim so'zlar izohi bilan tanishish, lug'atdan foydalanish qoidalariga rioya qilish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

G'aroyib bolalar (vunderkindlar)

Matn tarkibidan qator undoshli so'zlar talaffuzi va imlosi, so'z oxiri va so'z boshida kelgan qator undoshlarning talaffuzi va bo'g'inlarga ajratilishi. Matnning asosiy mohiyatini aniqlay olish, matn yuzasidan savollar bera olishga oid mashqlar.

Mashq va topshiriqlar yordamida harf, so'z oxirida jufti bor undoshlarni tekshirish usullari, j, (dj), x, h, qo'sh undoshlar talaffuzi hamda imlosi bo'yicha o'tilganlarni takrorlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Jamoat transportlari (avtobus, metro harakati qoidalar)

Olinma hamda qator unli so'zlarning talaffuzi va imlosi. Ittifoq va murojaat so'zlarining qo'llanilishi.

Manzilni ko'rsatish va so'rash jarayoni, unda til birliklaridan og'zaki va yozma shaklda foydalana olish malakasini rivojlantirishga qaratilgan mashq va topshiriqlar. Joy nomlari imlosi va ularda qo'shtirnoqning qo'llanilishi.

Yangi so'zlar ma'nosini kontekstdan aniqlab olishga oid topshiriqlar.

Mustahkamlash darsi.

II bo'lim. TABIAT NE'MATLARI (17 soat)

O'zbekistonning o'ziga xos tabiati

(tog'lar, cho'llar, daryolar, hayvonlar)

Berilgan matn tarkibidan shaxs, narsa va joy nomlarini bildiruvchi so'zlar, ularning so'roqlari. Bosh harflar imlosi, kishilarning nomlari, hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar, joy nomlari, bayram va muhim sanalar, tashkilot va gazeta, jurnal nomlarining bosh harf bilan yozilishi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Tabiat tasvirida qo'llaniladigan til birliklari. Sinonimik qatordan uslubga xos ravishda foydalanishga oid mashq va topshiriqlar.

Tabiatni tasvirlashda badiiy yondashuv, unda muallifning ifoda uslubi. Bir mavzudagi ikki xil tasvirni o'zaro qiyoslash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.



Mavzu bilan bog'liq matn tarkibidan ketma-ket kelgan unli va undosh ishtirok etgan so'zlarning talaffuzi va imlosi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. So'zlarga so'roq berish va ular ifodalagan ma'noga ko'ra so'zlarning turkumlarga ajratilishi bilan bog'liq mashqlar.

Rasm asosida og'zaki va yozma matn yaratish. Matn g'oyasini ochib berish uchun eng ma'qul rasmni tanlay olish mashqlari.

Antarktida – muz saltanati

(tabiati, jonzotlari)

Berilgan matn orqali bo'g'in, uning hosil bo'lishi, bo'g'inga ko'chirish qoidalari bilan tanishishga qaratilgan mashq va topshiriqlar. Matnning asosiy mohiyatini aniqlash, matnni qismlarga ajratish, ularning g'oyasi va xulosasini aniqlash bilan bog'liq topshiriqlar.

Sanash ohangi bilan berilgan so'zlar va ularning orasida vergulning qo'llanishi.

Sovuq o'lkalar haqida ishlangan multfilmlar voqealarini bayon qilish mashqlari. Fikrni bog'lash, asoslash, xulosalash va voqeaga ishora qilishda qo'llaniladigan til birliklari.

Berilgan mavzu bilan bog'liq punktuatsiya va imlo me'yorlariga amal qilgan holda 5 yoki undan ortiq gap tuzib yoza olish.

Berilgan matn tarkibidagi ayrim so'zlarning asos va qo'shimchalarga ajratilishi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Dunyo okeanlari

(okeanlar haqida)

Hajm-o'lchovni bildirgan so'zlar va ular ifodalagan ma'nolarni tushunish hamda o'rinli foydalanishga oid mashqlar. Suv hayvonlari va ularni tasvirlashga oid topshiriqlar.

Tabiat hodisalarining ijobiy tomonlari hamda salbiy oqibatlari haqida bahs.

Matndagi so'zlarning shakliy va mazmuniy jihatlarini sharhlay olishga qaratilgan topshiriqlar.

Gap hosil qilish uchun so'zlarni o'zaro bog'lash zarurligi, –ni, -ning, -ga, -da, -dan qo'shimchalari so'zlarni so'zlarga bog'lashi haqida ma'lumot. Berilgan so'zlar tarkibidan shunday qo'shimchalarni ajrata olish, berilgan qo'shimchalarni so'zlarga qo'shish orqali ularni bog'lab gap hosil qilish bo'yicha mashq va topshiriqlar.

Matn tarkibidagi gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini ajrata olish, darak, so'roq va buyruq ohangi, ularda tinish belgilarining qo'llanilishi. Ko'plikda qo'llangan narsa va shaxs nomlarini ajratish, ko'plik qo'shimchasining talaffuzi va imlosi.

Avvalgi bilimlarga tayangan holda berilgan matnni tahrir qilish (tinish belgilari, imlo, so'z qo'llash).

Baraka daryosi

(Amudaryo haqida)

Berilgan qisqa ma'lumotlar (masalan, joylashish o'ri, uzunligi, chuqurligi, sig'imi, yo'nalishi)ni matn ko'rinishida kengroq ifodalash mashqlari. Matnning qoralama nusxasini tayyorlash, uni tahrirlash.

Berilgan rasmlar asosida so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalardan o'rinli foydalangan holda mavzu yuzasidan fikr bilirish, bunda fikrning tartibli hamda mantiqli ifodalash mashqlari. Mavzu bilan mos keluvchi so'z va birikmalarni qo'llash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari, darak gap, darak gaplarning aytilish ohangi, ularda tinish belgisining qo'llanilishi bilan bog'liq topshiriqlar.

Mustahkamlash darsi.

III bo'lim. SOG' TANDA – SOG'LOM AQL (20 soat)

Salomatlik garovi

(to'g'ri ovqatlanish)

Nonushta, tushlik va kechki taomnomalarni tuzish, unda qo'llaniladigan til birliklari, ro'yxatni yozma shaklda ifodalashda qo'llanadigan tinish belgilariga oid mashq va topshiriqlar.

Mavzu bilan bog'liq holda berilgan matn tarkibidan so'zlarning o'zi ifodalagan ma'no va so'rog'iga ko'ra turkumlarga ajratilishi, so'zlarning yasali sh hodisasi, so'z yasovchi qo'shimchalar bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Matnni ravon va ifodali o'qish malakasini shakllantirish mashqlari.

Matn tarkibidan shaxs, narsa va joy nomlarini ajrata olish, ularni asos va qo'shimchalarga ajratish, shaxs, narsa va joy nomlarini hosil qiluvchi qo'shimchalar.

Berilgan materialga mos rasm, chizma, belgi va shakllarni tanlay olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Berilgan gaplarda ifodalangan asosiy mazmunni aniqlash, ushbu mazmunni yuzaga chiqaruvchi asosiy va qo'shimcha bo'laklarni ajrata olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Berilgan rasm asosida mavzu bilan bog'liq 5 yoki undan ortiq gapdan iborat matn yaratish, bunda bosh bo'laklar, gap mazmunini to'ldiruvchi bo'laklarni aniqlashga doir mashq va topshiriqlar.

Vitaminlar

(eng muhim vitaminlarning qaysi mahsulotda bo'lishi)

Olinma so'zlar, ularning talaffuzi va imlosi. Matn tarkibida berilgan atamalarni aniqlash, ularning ma'nolari bilan tanishish, atamalar yordamida lug'at hosil qilish.

Berilgan ma'lumotlar asosida o'sish yoki kamayish tartibidagi ketma-ketlikka asoslangan ro'yxat tuzishga qaratilgan mashqlar.

Berilgan matn tarkibida ajratib ko'rsatilgan so'zlarni asos va qo'shimchalarga ajratish, so'zlarning yasali sh hodisasi, yangi so'z yasovchi qo'shimchalar bilan tanishish, lug'at boyligini so'z yasovchi



qo'shimchalardan yangi so'z yasash orqali boyitishga qaratilgan mashq va topshiriqlar.

Berilgan matnni qayta ijodiy bayon qilish mashqlari.

Berilgan rasm asosida so'z va so'z birikmalarini hosil qilish, ular yordamida og'zaki gap tuza olish mashqlari. Hosil bo'lgan gaplarni ifoda maqsadiga ko'ra turlari va ohangiga e'tibor qilgan holda tinish belgilarini qo'llab yoza olish mashqlari.

Matn tarkibidagi maza-ta'm, shakl-hajm, rang-tus, xususiyat kabi belgi bildiruvchi so'zlarni aniqlash, ularni ma'nosiga ko'ra guruhlariga ajratish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Tabiatni asraymiz (tabiat muhofazasi)

Tabiat muhofazasi bilan bog'liq atamalar, ularning sinonim va antonimlari, tabiat muhofazasiga oid harakat fe'llari, ularning imlosi.

Mavzu yuzasidan suhbat qurish, bunda muloqot odobi, munozara jarayonida o'zaro hurmatni saqlagan holda navbat bilan fikr bildirish, o'z qarashlarini odob bilan himoya qilishga oid mashqlar.

Gap hosil qilish uchun so'zlarni o'zaro bog'lash, -ni, -ning, -ga, -da, -dan qo'shimchalardan foydalanish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Matn tarkibidan ketma-ket kelgan bir xil unlilar, ikkita bir xil unli tovush yonma-yon qo'llangan so'zlarni aniqlash, ularning talaffuzi va imlosiga doir mashq va topshiriqlar.

Matnning asosiy mohiyati va g'oyasini aniqlash, asosiy g'oyani ochishga xizmat qiluvchi birliklarni ajratib bera olish hamda matndan xulosa chiqarish bilan bog'liq topshiriqlar.

Og'zaki fikr ifodalashda maqsadga muvofiq so'z, ibora va birikmalardan o'rinli foydalanishga qaratilgan mashqlar.

Virus nima? (gripp, uning oldini olish qoidalari)

Olinma so'zlar, ularning talaffuzi va imlosi. Matn tarkibida berilgan atamalarni aniqlash, ularning ma'nolari bilan tanishish, atamalar yordamida lug'at hosil qilish.

Matn tarkibidagi gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini ajrata olish va mos tinish belgilarini qo'llay olish mashqlari.

Matn yuzasidan berilgan savolni tushunish va mantiqli javob berish hamda javobini dalillash malakasini rivojlantirish bilan bog'liq mashqlar.

Berilgan gaplarning asosiy mazmunini aniqlash, ushbu mazmunni yuzaga chiqaruvchi bo'laklarni aniqlash, bosh bo'laklarning turlari bilan tanishishga doir mashq va topshiriqlar.

Mavjud bilimlar asosida shifokor sifatida yo'riqnoma va tavsiyalar aks etgan matn tuzish.

Mustahkamlash darsi.

Nazorat ishi va tahlili



IV bo'lim. KASBIM – FAXRIM (11 soat)

Dangasalik – yomon illat (dangasalikdan qutulish yo'llari, foydali mashg'ulot bilan band bo'lish, xobbi)

Harakatning bajarilganlik yoki bajarilmaganligini (o'qigan, o'qimagan) ifodalaydigan birliklarni farqlash va ularni qo'llashga oid mashqlar.

Gap mazmunidan ehtimollikni ifodalashga oid birliklar (gumon, ishonch)ni aniqlash va ularni o'z nutqida to'g'ri qo'llashga oid mashqlar.

Insonning salbiy va ijobiy xarakterlarini ifodalovchi birliklar, ularning sinonim va antonimlarini topish uchun lug'atdan foydalanish topshiriqlari. Ertak/hikoya qahramonlarining nutqi asosida ularning xarakter xususiyatlarini aniqlashga oid topshiriqlar.

Matnning asosiy g'oyasini aniqlay olish, matn yuzasidan savollar tayyorlash, savollarga javob berish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Kasblarni ifodalovchi so'zlar, ularning yasalishi, talaffuzi va imlosi. Og'zaki va yozma nutqda kasbga oid so'zlardan o'rinli foydalana olishga oid mashq va topshiriqlar.

Berilgan audiomatn tarkibidagi so'zlarga so'roq berish orqali harakatni ifodalovchi so'zlarni aniqlash, harakatning bajarilishi yoki bajarilmasligining ifodalanishiga oid mashq va topshiriqlar.

Berilgan gaplar tarkibidan ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlash, ularning bosh bo'laklarga bog'lanishi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Badiiy matn ustida ishlash, matnda berilgan so'zlarni shakliy va mazmuniy jihatdan guruhlariga ajratish. She'rlarni ifodali o'qish, she'rdagi ohangdosh so'zlarni ajratish, ohangdoshlikni ta'minlab bergan unsurlarni ko'rsata olishga oid topshiriqlar.

Tomorqa (tomorqa ekinlari, mehnat, dehqonchilik, qishloq xo'jaligi)

Faoliyat-jarayon fe'llarining yasalishi, ularni qo'llash bilan bog'liq mashqlar. Berilgan rasmlar asosida ma'lum mavzu yuzasidan taqdimot nutqi tayyorlash topshiriqlari.

Berilgan suhbat matni tarkibidan kishilarning nomlari, hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar, joy nomlarini ajratish, ularning bosh harf bilan yozilishiga e'tibor qaratish, mavzu bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Ko'plik ma'nosidagi so'zlarni aniqlash, ularning imlosi.

Mustahkamlash darsi.

V bo'lim. YOSH IQTISODCHI (11 soat)

Jamg'arma pullarim (tejamkorlik, pulni ishlatish)

Iqtisodiy atamalar va ularning yasalishi bilan tanishish, matn tarkibida berilgan atamalarni aniqlash, ularning ma'nolarini topish, atamalar yordamida lug'at tuzish.

Mavzu bilan bog'liq matndan yasalgan so'zlarni aniqlash, so'z yasovchi qo'shimchalar va so'zlarni bog'lovchi qo'shimchalarning o'zaro



farqini, ularning soʻz asosiga qoʻshilish tartibini aniqlashga doir mashq va topshiriqlar.

Berilgan rasm asosida maʼlum voqea-hodisani tasvirlab punktuatsiya va imlo qoidalariga rioya qilgan holda 5 yoki undan ortiq gapdan iborat matn yaratish.

Yetti xazina (sigir, tovuq, asalari, ipak qurti, objuvoz, tegirmon, oʻrmon)

Matn tarkibida berilgan ayrim soʻz, ibora, hikmatli soʻz, tasviriylarining mazmunini izohlay olishga qaratilgan topshiriqlar.

Berilgan matn tarkibidan hayvon va parranda nomlarini bildirgan otlar, hayvon va parrandalarning turlari, ularga qoʻyilgan nomlar, ularning imlosi bilan bogʻliq mashq va topshiriqlar.

Belgi bildiruvchi soʻzlar haqida maʼlumot berish, ushbu soʻzlardan yozma nutqda foydalangan holda mavzu bilan bogʻliq matn yaratish. Mavzu bilan bogʻliq suhbat uyushtirish, suhbat davomida belgi bildiruvchi soʻzlarni qoʻllash, ularga soʻroq berish orqali tasniflashga doir topshiriqlar.

Tinglangan audiomatn tarkibidan soʻzlarga soʻroq berish orqali shaxs va narsalarning harakatini bildiruvchi soʻzlarni ajratish, -la, -illa, -ulla kabi qoʻshimchalar yordamida feʼl hosil qilish. Yasama feʼllarning talaffuzi va imlosi ustida ishlash.

Mustahkamlash darsi.

Nazorat ishi va tahlili

VI boʻlim. FAN VA TEXNOLOGIYALAR **(17 soʻat)**

Mars – qizil sayyora (koinot, Mars)

Koinot bilan bogʻliq atamalar va ularning yasalishi bilan tanishish, matn tarkibida berilgan atamalarni aniqlash, ularning maʼnolarini topish, atamalar yordamida lugʻat tuzish.

Berilgan matn tarkibidan qoʻsh/qator unli/undoshli soʻzlarni aniqlash, ularning talaffuzi, boʻgʻinlab koʻchirilishiga oid mashq va topshiriqlar.

Berilgan matn mazmunining asosiy gʻoyasi va mazmunini tushunish, mazmunni ochib beruvchi birliklarni koʻrsata olishga qaratilgan topshiriqlar, matnni qayta ijodiy bayon qilish mashqlari.

Matnni toʻgʻri va ravon oʻqish bilan bogʻliq topshiriqlar.

Berilgan rasm asosida mavzu bilan bogʻliq gaplar hosil qilish, hosil qilingan gaplarda ikkinchi darajali boʻlaklarning bosh boʻlaklarning mazmunini ochib berishdagi oʻrnini aniqlashga oid mashq va topshiriqlar.

Zamonaviy texnologiyalar (robotlar, virtual oʻyinlar)

Matn tarkibidan oʻzlashgan soʻzlarni aniqlash, ularning talaffuzi va imlosi ustida ishlash. Matn tarkibidagi qarama-qarshi maʼnoli va yaqin maʼnoli belgi bildiruvchi soʻzlarni aniqlash, ular juftligini hosil qilishga doir mashq va topshiriqlar.

Harakat-holat feʼllarining yasalishi, ularni sharhlash bilan bogʻliq mashqlar. Robotlar va virtual oʻyinlar haqida yozilgan ikki matnning



xususiyatlarini ta'riflash, o'xshash va farqli qarashlarni aniqlash, ularning qaysi til birliklari orqali ifodalanayotganini topa olishga oid mashqlar.

Tinglangan audiomatn tarkibidagi atamalarni ajratish, lug'at yordamida ularning izohi bilan tanishish. Lug'atdan foydalanish qoidalariga rioya qilish. Tinglangan materialga mos rasm, chizma, belgi va shakllarni tanlay olishga qaratilgan topshiriqlar.

Orzusidagi robot yoki virtual o'yinning tavsifini yozma ifodalab berish topshiriqlari.

Teleskop – osmonga qo'yilgan narvon (teleskop, rasadxona, kashfiyotlar)

Insonning portreti (alloma yoki kashfiyotchi ajdodlarimiz) asosida ularning tashqi ko'rinishini tasvirlab beruvchi og'zaki/yo'zma matn yaratish.

Berilgan matndagi so'z, ibora va birikmalarning mohiyatini anglashga doir topshiriqlar. Tashkilot, gazeta, jurnali, asar nomlarini aniqlash, ularning yozuvda aks etishiga oid (bosh harf, qo'shtirnoq, vergul) mashq va topshiriqlar.

Berilgan matn tarkibidan harakatni bildiruvchi so'zlarni ajratish, ularning ma'nolarini o'rganish, yaqin va qarama-qarshi ma'noli fe'llarni ajrata olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Tinglangan monologik nutq yoki suhbatdan so'zlovchining asosiy g'oyasini ajratish, zarur o'rinlarni qayd qilishga doir topshiriqlar ustida ishlash. Asosiy so'z va tushunchalarni talaffuzda alohida ko'rsatish uchun urg'u va ohangdan to'g'ri foydalanish mashqlari.

Mikroskop – zarrabin (mikroskop tarixi, kashfiyotlar)

Kashfiyotlar tarixini ifodalash, ularda til birliklaridan o'rinli foydalanish mashqlari.

Berilgan matn tarkibidan o'zlashgan so'zlarni aniqlash, ularning talaffuzi va imlosi ustida ishlash, o'zlashgan so'zlar lug'atini tuzish.

Matn yuzasidan berilgan savolni tushunish va mantiqli javob berish bilan bog'liq topshiriqlar.

Matn ustida ishlash. Berilgan matnni qismlarga ajratish, ularga sarlavha tanlash, ushbu qismlarning o'zaro bog'liqligini aniqlash, bog'liqlikni ta'minlash uchun qaysi birliklardan foydalanilganini ko'rsatish, matn mazmuniga mos keluvchi reja tuzish bilan bog'liq topshiriqlar.

Aqli yordamchi (kompyuter haqida)

Mavzu bilan bog'liq matn tarkibidagi ayrim so'zlarni asos va qo'shimchalarga ajratish, so'z asosi va asosdosh so'zlar, yasovchi qo'shimchalarning asosdosh so'zlarni hosil qilishi, asosdosh so'zlar o'rtasidagi ma'no bog'liqligini aniqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Berilgan matn tarkibidagi miqdor sonlarni aniqlash, ularning raqamlar va harflar bilan ifodalanishiga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Tinglangan audiomatnni tinglash jarayonida muhim o'rinlarni qayd etib borish, fikrlar ketma-ketligini saqlagan holda yozma nutqqa aylantirish mashqlari.

Mustahkamlash darsi.



VII bo'lim. TIL VA DIL (15 soat)

So'zdan so'zning farqi bor (paronim so'zlar, ayrim so'zlarning qiziq etimologiyasi)

Matn tarkibida talaffuzi yaqin so'zlarni aniqlash, ularning ma'nolari aks etgan kichik lug'atlar tuzish. Paronimlarni to'g'ri qo'llash uchun kontekstdan foydalanish mashqlari.

Shaxsiy xat yozish qoidalari bilan tanishish. Do'stiga (oila a'zolariga) xat yozish. Bunda badiiy nutq uslubidagi so'zlardan foydalanish, ifodalalanayotgan fikrlarning tartiblilikiga, punktuatsiya va imlo qoidalariga rioya qilish.

Namuna asosida so'zlarning qanday paydo bo'lgani haqida taxminlarni ilgari surish. Bahslarda o'z taxminlarini asoslashga urinish topshiriqlari.

Ism qanday qo'yiladi? (ismning ma'nosi, ism qo'yish an'anasi, tug'ilganlik haqida guvohnoma)

Ismlar ma'nosi, ism qo'yish an'anasi bilan bog'liq matn tarkibidan belgi bildiruvchi so'zlarni aniqlay olish, belgi bildiruvchi so'zlarni asos va qo'shimchalarga ajratish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Belgi bildiruvchi so'zni yasovchi qo'shimchalar bilan tanishish. Matn tarkibida berilgan yaqin ma'noli sifatlar, ularni tanlay olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Tinglangan matnda qo'llangan zid ma'noli, ma'nosi yaqin so'zlarni sharhlay olish, belgi bildiruvchi so'zlarni belgiga egalik yoki ega emaslik bo'yicha guruhlariga ajratish, ularni hosil qiluvchi qo'shimchalarni o'rganish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

O'zi, oila a'zolarining ismlari ma'nosini lug'atlardan foydalanib aniqlash va matn holida ifodalab berish. Qavm-qarindoshlikni ifodalovchi so'zlar, ularning talaffuzi va imlosi.

Nutqimiz bezagi Maqollarning talaffuzi va imlosi, ularning mazmuniy guruhlanishiga oid mashq va topshiriqlar. Maqollardan o'rinli foydalanish, berilgan vaziyatga mos keluvchi maqollarni tanlay olish topshiriqlari.

Iboralarning talaffuzi va imlosi, ularning mazmuniy guruhlanishiga oid mashq va topshiriqlar. Iboralardan o'rinli foydalanish, berilgan vaziyatga mos keluvchi iboralarni tanlay olish topshiriqlari. Ularning sinonim va antonimlarini topa olish, iboraning gapdagi vazifasini aniqlash, ularni tahlil qilishga oid mashqlar.

Tez aytishlar orqali talaffuzni yaxshilash mashqlari, tez aytishlardagi ohangdoshlikning sababini ko'rsata olish.

Og'zaki va yozma nutq. Berilgan rasmlar asosida ibora va maqollardan foydalanib hikoya matni tuzish (yozma).

Mustahkamlash darsi.

VIII bo'lim. SAN'AT VA MADANIYAT (19 soat)

San'at va madaniyat

San'at va madaniyatga oid so'zlarning yasalishi bilan tanishish, ularni matn tarkibidan aniqlash, ma'nolarini topish, ushbu so'zlar yordamida lug'at tuzish.

Matn tarkibidagi bayram va muhim sanalarning bosh harflar bilan yozilishi bilan bog'liq mashq va topshiriqlarni bajarish. Matn tarkibidagi ibora, hikmatli so'zlarning ma'nosini izohlash bilan bog'liq topshiriqlar.

Berilgan matn tarkibidan so'zlarga so'roq berish orqali shaxs va narsalarning harakatini bildiruvchi so'zlarni aniqlash, harakatning bajarilishi yoki bajarilmasligining ifodalanishi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Tinglangan audiomatn tarkibidagi ayrim gaplar tahlilini olib borish, gaplarning ohangiga e'tibor bergan holda kerakli tinish belgilarini qo'llay olish, gap bo'laklarini farqlashga oid mashq va topshiriqlar.

Sayyohlari ko'p diyor (tarixiy shaharlarimiz)

Matn tarkibidagi so'zlarga so'roq berish orqali shaxs, narsa va joy nomini bildiruvchi so'zlarni aniqlash mashqlari. Shaxs, narsa va joy nomlarining yasalishi, ularni yasovchi qo'shimchalar va imlosi. Matn tarkibida berilgan so'z, ibora va birikmalarning ma'nosini izohlash bilan bog'liq topshiriqlar.

Badiiy va ilmiy-ommabop uslubda ta'riflangan shaharlar haqidagi matnlarni o'qish, ularda qo'llangan til birliklaridagi farqlarni aniqlashga doir mashqlar.

Mavzu bilan bog'liq berilgan gaplar tarkibidan bosh bo'laklarni ajratish. Ularga so'roq berish, ega va kesimning so'roqlari bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Mavzu yuzasidan og'zaki suhbat uyushtirish, bunda o'z fikrini dalillashga, maqsadga muvofiq so'z va birikmalardan foydalanish bilan bog'liq topshiriqlar.

Kulolchilik

Hunarmandchilikka oid atamalar va ularning yasalishi bilan tanishish, matn tarkibida berilgan atamalarni aniqlash, ularning ma'nolarini topish, atamalar yordamida lug'at tuzish.

Tinglangan audiomatn tarkibidagi hunarmandchilikka oid so'zlarni aniqlash va ularni guruhlash topshiriqlari.

Mavzu yuzasidan 5 yoki undan ortiq gapdan iborat dialogik matn yaratish, unda tinish belgilarining ishlatilishi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Matn tarkibida berilgan ayrim darak gaplarni so'roq gaplarga aylantirish mashqlari.

Berilgan mavzu yuzasidan suhbat uyushtirish. Unda berilgan rasm asosida og'zaki nutq yaratish.

Kitobdan yaxshisi yo'q (kitobxonlik, kitob o'qish qoidalari)

Berilgan matn tarkibidan ibora, maqol va hikmatli so'zlarni ajrata olish, ular ma'nosini tushunish, ularning o'zaro farqini bilish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Mavzu bilan bog'liq holda berilgan matn tarkibidan belgi bildiruvchi so'zlarni ajrata olish, ularga so'roq berish orqali sifat bog'langan so'zni



aniqlash, uning ot soʻz turkumi ekanligiga eʼtiborni qaratish bilan bogʻliq mashq va topshiriqlar.

Tinglangan matn tarkibidan his-hayajon, quvonch, hayratlanishning ifodalanishi bilan bogʻliq soʻzlarni aniqlash. Ular ishtirok etgan gaplarni yoza olish. His-hayajon gap, his-hayajon gapning maʼnolari, ularda tinish belgisining qoʻllanilishiga oid boʻlgan mashq va topshiriqlar.

Ertaklar – yaxshilikka yetaklar (ertakdagi yaxshi va yomon qahramonlar haqida)

Berilgan matn tarkibidagi maʼnolari yaqin boʻlgan soʻzlarni aniqlash, ular maʼnolari oʻrtasidagi bogʻliqlikka eʼtiborni qaratish bilan bogʻliq mashq va topshiriqlar.

Berilgan matndan ertak qahramonlarining xarakter-xususiyatlari aks etgan oʻrinlarni aniqlashga oid mashqlar.

Berilgan matn tarkibidagi -la, illa, -ulla kabi qoʻshimchalar yordamida yasalgan feʼllarni ajrata olish, ushbu feʼllarning talaffuzi va imlosi bilan bogʻliq mashq va topshiriqlar. Feʼl yasovchi qoʻshimchalar yordamida feʼl hosil qilish.

Nutqni boyitishda ibora, maqol va hikmatli soʻzlarning ahamiyatini tushunishga oid mashqlar. Ushbu birliklardan foydalardan holda berilgan mavzu yuzasidan fikr bildirga olish topshiriqlari.

Ertak matni tarkibidan hayvon va parranda nomlarini bildirgan otlarni ajratish, hayvon va parrandalarning turlari, ularga qoʻyilgan nomlar, ularning imlosi bilan tanishishga doir mashq va topshiriqlar. Ertakni qayta ijodiy bayon qilish. Ertakning asosiy gʻoyasini aniqlash va ifodalash.

Oʻzi bilgan ertak qahramonlaridan biriga shaxsiy xat yozish.

Mustahkamlash darsi.

Nazorat ishi va tahlili

IX boʻlim. HUQUQIMIZ – HAQIMIZ

(16 soat)

Oʻzim xarid qilaman (xaridor huquqlari, doʻkonda sifatli mahsulotni tanlash koʻnikmasi)

Sotuvchi va xaridor oʻrtasidagi muloqotda qoʻllaniladigan til birliklari, ularning talaffuzi va imlosi.

Matn tarkibidan soʻzlarga soʻroq berish orqali miqdorni bildiruvchi va hisob soʻzlarni aniqlashga, -ta qoʻshimchasi yordamida miqdor sonlarni hosil qilishga doir mashq va topshiriqlar.

Tartibni bildiruvchi soʻzlar, ularning soʻroqlari. -(i)nchi qoʻshimchasi yordamida tartib sonning hosil boʻlishi bilan tanishish. Tartib sonlarning raqamlar va harflar bilan ifodalanishiga doir topshiriqlar.

Berilgan matnni mazmunan tugallangan qismlarga ajratish, matn qismlariga sarlavha tanlash, matn mazmuniga mos keluvchi reja tuzish, matn qismlari, ushbu qismlardagi gaplarning oʻzaro bogʻliqligini anglashga doir mashq va topshiriqlar.

Tovar yorliqlarini o'qib tushunishga oid mashq va topshiriqlar. Turli shriftlarni o'qiy olish mashqlari.

Birovning mulki (birovning qonuniy mulkiga zarar yetkazmaslik kerakligi haqida)

Mavzu yuzasidan berilgan matn tarkibidan buyruq ma'nosini ifodalovchi gaplarni aniqlash, ularning buyurish, maslahat, iltimos kabi ma'nolarni anglatishi, buyruq gaplarda tinish belgisining qo'llanilishi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Mavzu yuzasidan suhbat uyushtirish. Gap mazmunini to'ldiruvchi bo'laklar, gapda ifodalangan asosiy fikrni to'ldirish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Ikkinchi darajali bo'laklarning vazifasi – gap mazmunini to'ldirish. Ikkinchi darajali bo'laklarning bosh bo'laklarga bog'lanishi, so'roq berish yordamida ularni aniqlash bilan bog'liq topshiriqlar.

Mavzu bilan bog'liq berilgan rasm asosida og'zaki va yozma ravishda fikr ifodalash.

Mustahkamlash darsi.

X bo'lim. O'QUV YILI OXIRIDA TAKRORLASH (6 soat)

Ushbu soatlarda o'quvchining yil davomida olgan o'qib, eshitib tushunish, og'zaki va yozma nutqqa oid bilim, ko'nikma va malakalari sinovdan o'tkaziladi. Sinov natijalari asosida qo'shimcha ta'limiy ishlar amalga oshiriladi.

Nazorati ishi va tahlili.

MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Bo'limlar nomi	Soatlar taqsimoti					
		Jami	Yangi mavzu	Nazorat ishlari	N.I. tahlili	Mus-lash	Tak-lash
1	Men, sen, u va ular	6	2				4
2	Tabiat ne'matlari	17	14	2		1	
3	Sog' tanda – sog'lom aql	20	15	3	1	1	
4	Kasbim – faxrim	11	9	1		1	
5	Yosh iqtisodchi	11	8	1	1	1	
6	Fan va texnologiyalar	17	14	2		1	
7	Til va dil	15	12	2		1	
8	San'at va madaniyat	19	15	2	1	1	
9	Huquqimiz - haqimiz	16	13	2		1	
10	O'quv yili oxirida takrorlash	6		1	1		4
	Jami:	136	102	16	4	8	8



IV SINIF

I bo'lim. MEN, SEN, U VA ULAR (8 soat)

Kindik qonim to'kilgan yurt

Matn bilan ishlash orqali 3-sinfda o'rganilgan bilimlarni takrorlash. Tovush va harflar, ularning o'zaro farqi, tabiiy tovushlar va nutq tovushlari, tovushlarning harflar bilan ifodalanishi bo'yicha o'tilgan mavzularni takrorlash. Mavzu yuzasidan berilgan matn tarkibidagi ayrim so'zlarning fonetik tahlili. Matnlarni og'zaki talaffuz me'yorlariga amal qilgan holda to'g'ri, ravon va ifodali o'qish olish bog'liq topshiriqlar.

Sinfimiz ilg'orlari (A'lochi bolalarning fazilati, a'lochi bo'lish uchun nima qilish kerakligi haqida)

Inson va uning xarakteriga ijobiy ta'rif berishda faol qo'llaniladigan so'zlar va ularning imlosi. Ohangga tayangan holda so'z va gaplarning ijobiy va salbiy ma'noda ekanligini aniqlashga oid mashq va topshiriqlar.

Badiiy matndan olingan parchadagi inson xarakterini ifodalovchi so'zlarni aniqlab, ularni ijobiy va salbiy xususiyatiga ko'ra ajrata olish. Ularning sinonimlarini lug'atlardan foydalangan holda topa olish. Ijobiy va salbiy xususiyatlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'ya olish.

So'z, uning tarkibiy qismi, asos va qo'shimchalar, qo'shimchalarning vazifasiga ko'ra turlari. O'z do'stini tasvirlab punktuatsiya va imlo qoidalariga rioya qilgan holda 7 yoki undan ortiq gapdan iborat matn yaratish. Bunda gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini ajrata olish va kerakli tinish belgilarini qo'ya olish.

Mening do'stim (do'st, hurmat, yordam)

Inson va uning xarakteriga jins xususiyatlaridan kelib chiqib ta'rif berishda faol qo'llaniladigan so'zlar va ularning imlosi. Ohangga tayangan holda so'z va gaplarning ijobiy va salbiy ma'noda ekanligini aniqlashga oid mashq va topshiriqlar.

Do'stiga ta'rif bera olish mashqlari. Berilgan ta'rifda nega aynan shu so'zlardan foydalanganini dalillay olish.

Sinonimlar lug'atidan foydalangan holda o'z nutqini boyitish ustidagi mashqlar.

Do'stiga shaxsiy xat yozish asnosida uning kamchiliklari va yaxshi tomonlarini bayon qilish, nima uchun buni kamchilik deb hisoblashini dalillay olishga oid topshiriqlar.

Berilgan matn tarkibidan so'zlarga so'roq berish orqali ularning turkumlarini ajratish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Matnning asosiy mohiyatini aniqlay olish, matn yuzasidan savollar bera olishga oid mashqlar.

Berilgan topshiriqlar yordamida so'z, gap va matnning xususiyatlari, matn hosil qilish qoidalarini bilan tanishish. Berilgan audiomatn yordamida his-hayajon gaplarini aniqlash, ularning ohangiga e'tibor berish, yozma nutqda his-hayajon gap, unda tinish belgilarining qo'llanilish qoidalariga



rioya qilish. Berilgan rasm asosida odam yoki ma'lum voqeani tasvirlab, so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlaridan foydalanib 7-8 ta gap tuzib yoza olish, bunda fikr tartibiga rioya qilish.

II bo'lim. TABIAT NE'MATLARI

(12 soat)

Toza havo – ming dardga davo (kislород, o'simliklarning kislород ishlab chiqarishi)

Olinma so'zlarning talaffuzi va imlosi. Matn tarkibida berilgan atamalarni aniqlash, ularning ma'nolari bilan tanishish, atamalar yordamida lug'at hosil qilishga oid mashq va topshiriqlar.

Matndagi xatboshilarning o'zaro bog'lanishi. Bog'lovchi vositalarni topa olish va o'z nutqida qo'llash (mazkur, yuqoridagilarni hisobga olib, shulardan kelib chiqib) mashqlari.

Matn bilan ishlashda matnning asosiy mohiyatini aniqlay olish, matn yuzasidan savollar bera olish bilan bog'liq topshiriqlar.

So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari. Berilgan matn tarkibidan shakldosh, ma'nodosh va zid ma'noli so'zlarni ajrata olish, ularning ma'nolari ustida ishlashga oid mashq va topshiriqlar.

Gap haqida, gapning tugallangan ohang bilan aytilishi, gapning fikr ifodalashi. Berilgan mavzuda og'zaki talaffuz me'yorlariga amal qilgan holda to'g'ri va ravon so'zlay olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Ro'yxatli matn tarkibida ikki nuqta va nuqtali vergulning ishlatilishi.

Qizil kitob (Kitob tarixi, O'zbekiston qizil kitobiga kirgan hayvonlar)

O'simliklar va ularning turli xususiyatlarini bildirib keluvchi so'zlarni qo'llay olishga oid mashq va topshiriqlar. Matnni ruknlarga ajrata olish mashqlari.

Qator unlili so'zlarning talaffuzi va imlosi bilan tanishish. Talaffuzi bilan imlosi farq qiluvchi so'zlarni ajrata olish, yozma nutqda ularni imlo qoidalariga rioya qilgan holda ifodalash mashqlari.

Berilgan mavzu yuzasidan suhbat uyushtirish. Bunda mavzudan chetga chiqmaslik, o'z fikrlarini erkin, navbat bilan bayon qilish va asoslash, shaxsiy qarashlarini odob bilan himoya qilishga oid malakalarni rivojlantirish bilan bog'liq topshiriqlar ustida ishlash. Berilgan so'zlarni qismlarga ajrata olish mashqlari. So'zning tarkibiy qismlari va ular anglatadigan ma'no bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Berilgan ramlarni ketma-ketlikda tartiblash va ular asosida kichik hikoya tuzish.

Dunyoda nechta qit'a bor? (Qit'alar, ularning tabiati)

Mavzu yuzasidan taqdimot matni qoralamasini tayyorlash. Qoralama matnni tahrir qilish. Matnni ruknlarga ajratish. Ruknlarga sarlavha tanlash mashqlari.

Hajm-o'lchov, joylashuv mazmunini tashuvchi so'zlarning sinonimlari va antonimlarini topish uchun lug'atlardan foydalana olishga oid topshiriqlar.



Keltirilgan matn tarkibidan ketma-ket kelgan undosh tovushli soʻzlarni ajratish, ularning talaffuzi va imlosi. Shunday soʻzlar ishtirokida 7 yoki undan ortiq gapdan iborat ijodiy matn yaratish. Matnni yozish davomida gapning ifoda maqsadiga koʻra turlaridan foydalanish, ular imlosiga rioya qilish.

Materiklarning badiiy hamda axborot matnlarida tasvirlanishini qiyoslagan holda badiiy va ilmiy-ommabop uslubni solishtirish topshirigʻi. Ularda qoʻllaniladigan soʻzlarni farqlay olish mashqlari.

Berilgan matn tarkibidan asosdosh soʻzlarni aniqlash, berilgan soʻzlarni asos va qoʻshimchalarga ajratish, berilgan qoʻshimchalardan yangi soʻzlar hosil qilish bilan bogʻliq topshiriqlar.

III boʻlim. SOGʻ TANDA – SOGʻLOM AQL **(18 soat)**

Bosh miya boshliqmi? (bosh miyaning vazifalari)

Olinma soʻzlarning talaffuzi va imlosi. Matn tarkibida berilgan atamalarni aniqlash, ularning maʼnolari bilan tanishish, atamalar yordamida lugʻat tuzishga oid mashq va topshiriqlar.

Matnning maʼlum qismini oʻqib, uni mantiqan davom ettirish, matn mazmuniga mos keladigan sarlavha topish bilan bogʻliq topshiriqlar.

Gapdagi soʻzlarni bosh va ikkinchi darajali boʻlaklarga ajrata olish. Ikkinchi darajali boʻlaklarning bosh boʻlakdan anglashilgan mazmunni qanday ochib berayotganini tushunishga oid mashq va topshiriqlar.

Harf birikmalari ishtirok etgan soʻzlarni tahlil qilish, ularning imlosi bilan tanishish, ular ishtirok etgan soʻzlarni boʻgʻinlarga ajratish boʻyicha mashq va topshiriqlar.

Qoʻshimchalarning vazifasiga koʻra turlari bilan tanishish, soʻzlarni asos va qoʻshimchalarga ajratish, soʻz yasovchi va soʻzni soʻzga bogʻlovchi qoʻshimchalarni farqlash, soʻzlarni tahlil qilish. Berilgan qoʻshimchalardan oʻrinli foydalanish boʻyicha mashq va topshiriqlar.

Ot soʻz turkumi, otlarning kelishik qoʻshimchalari bilan qoʻllanishi, kelishiklarning nomi, soʻroqlari va qoʻshimchasi bilan tanishish. Gap tarkibidagi soʻzlarni oʻzaro bogʻlovchi birliklarni ajratishga doir topshiriqlar.

Immunitetim – qalqonim (immunitet haqida)

Olinma soʻzlarning talaffuzi va imlosi. Matn tarkibida berilgan atamalarni aniqlash, ularning maʼnolari bilan tanishish, atamalar yordamida lugʻat tuzishga oid mashq va topshiriqlar.

Feʼl – soʻz turkumi, feʼlning soʻroqlari, harakat maʼnosini bildiruvchi soʻzlarga oid mashq va topshiriqlar. Berilgan matn tarkibidan soʻzlarga soʻroq berish orqali harakat maʼnosini bildiruvchi soʻzlarni ajrata olish bilan bogʻliq mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Berilgan matnni ogʻzaki talaffuz meʼyorlari asosida tinish belgilarini hisobga olib toʻgʻri va ifodali oʻqiy olishni shakllantirish bilan bogʻliq topshiriqlar.



Berilgan matn tarkibidan ajratib ko'rsatilgan so'zlar ustida ishlash, ularni asos va qo'shimchalarga ajrata olish, egalik qo'shimchasi bilan tanishish, ularning talaffuzi va imlosini o'rganishga doir mashq va topshiriqlar.

So'z oxirida qator kelgan undoshli so'zlar va ularning imlosi. Tinglangan matn tarkibidan shunday so'zlarni ajrata olish, ular talaffuzi va imlosini o'rganish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Matn yaratish qoidalari bilan tanishish. Berilgan mavzu yuzasidan matn yaratish. Ifodalanayotgan fikrning tartiblilikiga, mantiqan bir-birini davom ettirishi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Muayyan matnni mazmunan tugallangan qismlarga ajratish, matnga mos reja tanlashga o'rgatish bilan bog'liq topshiriqlar.

Olimpiada o'yinlari (tarixi, qiziqarli faktlar, o'zbek chempionlari)

Yangi so'zlarning ma'nosini kontekstdan aniqlab olish mashqlari. Matn mazmunini ochib beruvchi rasm va sarlavha tanlashga oid topshiriqlar.

Fe'lining gapdagi vazifasi bilan tanishish. Gapning asosiy mazmuni, ushbu mazmunni yuzaga chiqarayotgan bo'laklarni aniqlash, fe'l ifodalagan mazmun, uning gapdagi vazifasini aniqlashga doir topshiriqlar. Berilgan rasm asosida ma'lum bir vaziyatni tasvirlab 7 yoki undan ortiq gapdan iborat matn yaratish, harakatni bildiruvchi so'zlardan o'rinli foydalanish.

Fe'l yasovchi qo'shimchalar, ot va sifat so'z turkumlardan fe'l yasalishi, yasama fe'llarning talaffuzi va imlosi.

Berilgan mavzu yuzasidan og'zaki fikr ifodalash mashqlari. Fikr ifodalashda gap, gapda so'zlarning o'zaro bog'lanishiga oid ma'lumotlar bilan tanishish. O'zi gapirmoqchi bo'lgan mavzu yuzasidan nutq qoralamasini tayyorlash. Bunda punktuatsiya va imlo qoidalariga rioya qilish. So'zlarni o'zaro bog'lashda qo'llaniladigan qo'shimchalarni ajratish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Tez yordam (jarohat olganda birinchi yordam, tavsiyalar)

Tez yordam chaqirishda, shifokor bilan muloqot qilishda qo'llaniladigan so'zlar, ularning talaffuzi va imlosi. Salomatlikdan shikoyat qilish yoki salomatlik haqida ma'lumot berish/olishda qo'llaniladigan til birliklariga oid mashqlar.

Harakatning bajarilganligi yoki bajarilmaganligini ifodalovchi fe'llarni aniqlash, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar bilan tanishish, bo'lishsiz fe'lining hosil bo'lishi, harakatning bajarilishi va bajarilmasligini ifodalovchi so'zlardan yozma va og'zaki nutqda o'rinli foydalanish bilan bog'liq topshiriqlar.

Shakldosh so'zlar bilan tanishish, berilgan matn va gaplar tarkibidan shakldosh so'zlarni ajrata olish, ulardan og'zaki nutqda foydalanish.

Tinglangan matn mazmunini qayta bayon qilib bera olish, berilgan savollarga to'g'ri javob bera olish mashqlari.

Shaxsiy ma'lumotlari asosida sodda anketalarni shakllantira olish. Mavjud anketalarga tayanib tavsifiy nutq tuza olish topshiriqlari.



Gap bo'laklari bilan tanishish, gaplarning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarini aniqlash hamda ulardan nutqda to'g'ri foydalanish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Nazorat ishi va tahlili.

IV bo'lim. KASBIM – FAXRIM

(15 soat)

Dasturchilik qanday kasb? (dasturchilik kasbi haqida ma'lumot)

Olinma so'zlarning talaffuzi va imlosi. Matn tarkibida berilgan atamalarni aniqlash, ularning ma'nolari bilan tanishish, atamalar yordamida lug'at tuzish. Yangi tushunchalarning ma'nosini kontekst asosida taxmin qilish mashqlari.

Kasblar, ularga ta'rif berishda qo'llaniladigan til birliklaridan foydalanishga oid mashqlar.

Otlarda egalik qo'shimchalarining qo'llanilishi hamda imlosi, berilgan matn tarkibidan so'zlarga so'roq berish orqali ot so'z turkumiga oid so'zlarni aniqlash, ularni asos va qo'shimchalarga ajratish, egalikni ifodalashga qaratilgan mashq va topshiriqlar.

Berilgan matndagi qahramonni xarakter-xususiyat/tashqi ko'rinish tomonlardan tasvirlay olish bilan bog'liq topshiriqlar.

Hisobchi nima ish qiladi? (buxgalterning vazifalari)

Olinma so'zlarning talaffuzi va imlosi. Matn tarkibida berilgan atamalarni aniqlash, ularning ma'nolari bilan tanishish, atamalar yordamida lug'at tuzish. Yangi tushunchalarning ma'nosini kontekst asosida taxmin qilish mashqlari.

Tinglangan audiomatnning g'oyasi, asosiy mazmuni va xulosasini ayta olish, u asosida matn tuza olish bilan bog'liq topshiriqlar. Matn asosidagi savollarga javob bera olish mashqlari.

So'zning oxirgi harfiga qarab qo'shimchalarning qo'shilish tartibi, talaffuzi va imlosi bilan bog'liq mashqlar.

Berilgan matn tarkibidan xabar mazmunini ifodalovchi gaplarni ajratish. Darak gap, unda tinish belgilarining qo'llanilishi. Muayyan mavzu yuzasidan axborot berish maqsadida darak gaplardan foydalanish, darak gaplarni so'roq gaplarga aylantirish yuzasidan mashq va topshiriqlar.

Ot yasovchi qo'shimchalar, otga va boshqa so'zlarga qo'shib, yangi ma'noli ot yasaydigan qo'shimchalar bilan tanishish. -chi, -zor, -dosh, -kor, -k, -q kabi qo'shimchalarning vazifasini o'rganish, ushbu qo'shimchalar yordamida yangi so'z hosil qilish. Berilgan matndagi so'zlarning shakliy (tuzilishi, yasalishi) va mazmuniy (leksik) jihatlarini sharhlay olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Berilgan so'z yasovchi qo'shimchalarni qo'shib, asosdosh so'zlarni hosil qilish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Mening qiziqishlarim (bolaning qiziqishlariga qarab kasbni belgilash)

Orzu-istak, niyat va ehtimolni ifodalovchi til birliklarining qo'llanilishi, talaffuzi va imlosi. O'z qiziqishlari haqidagi gaplarda qo'llaniladigan fe'llarni bilish va to'g'ri qo'llashga oid mashqlar.

Ma'nodosh so'zlar, ularning nutq tuzishdagi ahamiyati bilan tanishish. Ma'nodosh so'zlar ma'nosini izohlay olish, ular o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Rasm asosida biror vaziyatni ma'nodosh so'zlardan foydalangan holda tavsiflay olish bilan bog'liq topshiriqlar.

Berilgan matn tarkibidan egalik qo'shimchalari ishtirok etgan so'zlarni aniqlash, egalik qo'shimchalari qo'shilgan otlarda sodir bo'layotgan tovush o'zgarishlari: i, u, a tovushining tushib qolishi, k, q tovushining g, g' tovushlariga almashishini aniqlash bilan bog'liq mashqlar. Otlarga egalik qo'shimchalarini qo'shish, ushbu otlarda ro'y berayotgan tovush o'zgarishlarini aniqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

V bo'lim. YOSH IQTISODCHI (11 soat)

Toma-toma ko'l bo'ladi (tejamkorlik, tejamkorning xasisdan farqi)

Yangi tushunchalarning ma'nosini kontekst asosida taxmin qilish mashqlari.

So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalar: -ning, -ni, -ga, -da, -dan qo'shimchalari bilan tanishishga oid mashq va topshiriqlar.

Berilgan mavzu yuzasidan munozara olish borish, bunda mavzudan chetga chiqmagan holda o'z fikrini erkin, navbat bilan bayon qilish va asoslash, shaxsiy qarashlarini odob bilan himoya qilish topshiriqlari.

Berilgan matn tarkibidan zid ma'noli so'zlarni aniqlay olish, ular ma'nolari o'rtasidagi zidlikni anglash, zid ma'noli so'zlardan og'zaki va yozma nutqda o'rinli foydalanish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Berilgan matnning ma'lum qismini o'qib, uni mantiqan davom ettirish, matn mazmuniga mos keladigan sarlavha topish bilan bog'liq topshiriqlar.

O'z do'stiga shaxsiy xat yozish orqali tejamkorlik haqida bilib olganlarini tushuntirib berish, tejamkor bo'lish kerakligi haqida maslahatlar berish topshiriqlari.

Mavzu bilan bog'liq matn tarkibidan hikmatli so'zlarni aniqlash, ular ifodalagan mazmunni sharhlay olish, ularning nutq tuzishdagi ahamiyati bilan tanishish. Berilgan hikmatli so'zlardan maqsadli foydalanishga qaratilgan mashq va topshiriqlar.

Pul nima? (pul haqida, pulning tarixi, raqamli pullar, qog'oz pullar)

Yangi tushunchalarning ma'nosini kontekst asosida taxmin qilish mashqlari. Yangi so'zlar lug'atini tuzish.

Ishlab chiqarish jarayonida qo'llaniladigan fe'llar ustida mashq va topshiriqlar.

Otlarning kelishiklar bilan qo'llanilishi, bosh kelishik, bosh kelishikdagi so'zlar, so'roqlari bilan tanishish. Bosh kelishikdagi so'zlarning boshqa so'zlarga bog'lanishi, bosh kelishikdagi otlarning gapdagi vazifasini aniqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Tinish belgilarini to'g'ri qo'llay olish ularining matn hamda gap mazmuniga ta'siri bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.



Tinglangan audiomatn tarkibidan x/h tovushli soʻzlarni imlosi aniqlash, ularning imlosi ustida ishlash. Tinglangan materialga mos rasm, chizma, belgi va shakllarni tanlay olish bilan bogʻliq topshiriqlar.

Nazorat ishi va tahlili.

VI boʻlim. FAN VA TEXNOLOGIYALAR

(24 soat)

Matematika – fanlar otasi (matematikaning hamma sohada kerak boʻlishi)

Olinma soʻzlarning talaffuzi va imlosi. Matn tarkibida berilgan atamalarni aniqlash, ularning maʼnolari bilan tanishish, atamalar yordamida lugʻat tuzish. Yangi tushunchalarning maʼnosini kontekst asosida taxmin qilish mashqlari.

Tushum kelishigi, tushum kelishigidagi soʻzlarning soʻroqlari bilan tanishish. Tushum kelishigida soʻzning maʼnosini aniqlash, tushum kelishigi qoʻshimchasining otni feʼlga bogʻlashi, tushum kelishigidagi otlarning talaffuzi va imlosi, gapdagi vazifasi bilan bogʻliq mashq va topshiriqlar.

Berilgan matn tarkibidan yasovchi qoʻshimchasi boʻlgan otlarni aniqlay olish, otlarni asos va qoʻshimchalarga ajralishi bilan bogʻliq mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Berilgan matndagi soʻz, soʻz birikmasi, ibora va sodda gaplarning mohiyatini anglash bilan bogʻliq topshiriqlar.

Matn qismlarini, matn tarkibidagi gaplarni oʻzaro bogʻlashga xizmat qilayotgan birliklarni aniqlash va ularni oʻz nutqida toʻgʻri qoʻllashga oid mashq va topshiriqlar.

Son soʻz – turkumi, sonning shaxs va narsaning sanogʻi (miqdori) va tartibini bildirishi bilan tanishish. Berilgan matnlar tarkibidan soʻzlarga soʻroq berish orqali son soʻz turkumiga oid soʻzlarni aniqlay olishga oid mashq va topshiriqlar. Fikrni ifodalashda tartibni bildiruvchi soʻzlardan foydalanish. Mavzu yuzasidan tartibli fikr ifodalashga oʻrganish bilan bogʻliq mashq va topshiriqlar.

Badiiy va informativ matnlardagi tavsif usulining farqi, ularda qoʻllaniladigan soʻzlar. Informativ va badiiy matnni ajrata olishga qaratilgan mashq va topshiriqlar.

Dunyoni oʻzgartirgan ixtirolar (Tarixdagi eng muhim ixtirolar)

Maʼlumotni majhul nisbat orqali berishda uning mazmunini va shakli oʻzgarishlarini anglash ustida mashqlar. Olinma soʻzlarning talaffuzi va imlosi. Matn tarkibida berilgan atamalarni aniqlash, ularning maʼnolari bilan tanishish, atamalar yordamida lugʻat tuzish. Yangi tushunchalarning maʼnosini kontekst asosida taxmin qilish mashqlari.

Qaratqich kelishigi va uning imlosi. Berilgan matn tarkibidan qaratqich va tushum kelishigi ishtirok etgan soʻzlarni aniqlash. Qaratqich kelishigidagi otning ot bilan bogʻlanishi va tushum kelishigidagi otning feʼl bilan bogʻlanishi: bu qoʻshimchalarning qoʻllanish oʻrinlarini farqlash bilan bogʻliq mashq va topshiriqlar.

Mavzu yuzasidan taqdimotlar qoralamasini tayyorlash va ularni tahrir qilish mashqlari.

Berilgan matn tarkibidan soʻzlarga soʻroq berish orqali son soʻz turkumiga oid soʻzlarni aniqlash, ularning imlosi bilan tanishish. Miqdor va tartibni bildiruvchi sonlarning yozilishi, yozma nutqda ulardan oʻrinli foydalanish bilan bogʻliq topshiriqlar. Ogʻzaki va yozma nutqni oʻstirishda sonlardan toʻgʻri foydalana olishga oʻrgatishga oid topshiriqlar.

Tinglangan audiomatn tarkibidagi gaplarni gapning maqsadga koʻra turlari boʻyicha tahlil qilish, ularda tinish belgilarining qoʻllanilishi boʻyicha topshiriqlar. Tinglangan audiomaterialni ogʻzaki aytib bera olish va matn koʻrinishida yozib bera olish bilan bogʻliq topshiriqlar.

Yana telefonmi? (qurilma tarixi, telefonning foydali va zararli jihatlari, foydalanishdagi meʼyor)

Biror maʼlumotni oʻtgan zamon shaklida yetkazish, oʻtgan zamon shaklining qoʻllanilishi va imlosi. Yangi tushunchalarning maʼnosini kontekst asosida taxmin qilish mashqlari.

Joʻnalish kelishigi, joʻnalish kelishigining qoʻshimchalari soʻroqlari, maʼnosi bilan tanishish. Joʻnalish kelishigidagi otning feʼlga bogʻlanishi va gapdagi vazifasini aniqlash, joʻnalish kelishigining qoʻshimchasining -ga, -ka, -qa tarzida qoʻllanilishi bilan bogʻliq mashq va topshiriqlar.

Sanalarning yozma va ogʻzaki nutqda aks etishiga doir mashq va topshiriqlar.

Sonlarning maʼno turlari: miqdor va tartib sonlar. Miqdor sonlarning nechta?, qancha? soʻroqlariga javob boʻlishi.

Tinglangan audiomatnni yozma matnga aylantirish, ohang asosida tinish belgilarini qoʻllay olish topshiriqlari.

Poʻlat qushlar (samolyot va vertolyot, tarixi, qanday uchishi)

Olinma soʻzlarning talaffuzi va imlosi. Matn tarkibida berilgan atamalarni aniqlash, ularning maʼnolari bilan tanishish, atamalar yordamida lugʻat tuzish. Yangi tushunchalarning maʼnosini kontekst asosida taxmin qilish mashqlari.

Qoʻllanma va yoʻriqnoma yoza olishga qaratilgan mashq va topshiriqlar. Jadval koʻrinishidagi maʼlumotlarni ogʻzaki va yozma shaklda ifodalash topshiriqlari.

Oʻrin-payt kelishigi, oʻrin-payt kelishigining maʼnosi, qoʻshimchasi bilan tanishish. Oʻrin-payt kelishigi qoʻshimchasining otni feʼlga bogʻlashi, oʻrin-payt kelishigidagi soʻzlarning talaffuzi va imlosi, gapdagi vazifasini oʻrganishga doir mashqlar.

Matnni qismlarga ajrata olish va shu qismlarga sarlavha qoʻyish, qismlarni bogʻlashda qoʻllanilga vositalarni aniqlash va izohlab bera olishga qaratilgan mashq va topshiriqlar.

Internet – oʻrgimchak toʻri (internet nima? Foydalanishdagi koʻnikmalar)



Shaxsiy ma'lumotlar asosda sodda shaklda anketalarni to'ldirish mashqlari. Ma'lumotlarni ma'lum tizimga solish, ularni jadval ko'rinishida aks ettirish topshiriqlari.

Berilgan matn tarkibidan mavzu bilan bog'liq atamalarni ajratish, uning qaysi fanga oid ekanligi bilan tanishish. Atamalarning izohini aniqlash, lug'at va ulardan foydalanish topshiriqlari.

Mavzu yuzasidan qoralama matn tayyorlash va uni qayta o'qish jarayonida tahrir qilish. Matnning oxirgi ko'rinishini shakllantirish.

Xabarxona va ijtimoiy tarmoq hamda telefon suhbatlarida qo'llaniladigan til birliklari va ularning imlosi.

Chiqish kelishigi, chiqish kelishigining qo'shimchasi, so'roqlari, ma'nosi bilan tanishish. Chiqish kelishigi qo'shimchasining o'tni fe'lga bog'lashi, chiqish kelishigidagi otlarning talaffuzi va imlosi, chiqish kelishigidagi so'zning gapdagi vazifasini aniqlashga doir mashq va topshiriqlar.

Matn tarkibidan tartib sonlarni aniqlash, ularni asos va qo'shimchalarga ajratish. Tartib sonlarni hosil qiluvchi qo'shimchalar, ularning imlosi, sonlarning yozuvda harfiy ifoda, arab, rim raqamlari bilan ifodalanishiga oid bo'lgan topshiriqlar.

Shaxsiy xat yozish. Bunda xat yozish qoidalariga rioya qilish, kerakli til birliklaridan foydalanish.

VII bo'lim. TIL VA DIL **(14 soat)**

Til bilganga ming tanga (Jahon tillari)

Berilgan maqollarning ma'nosini izohlay olish mashqlari. Matn tarkibida qo'llangan maqollarning izohini bilish, maqollarning nutq tuzishdagi ahamiyatini aniqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Matnning asosiy mohiyatini aniqlash, ularni qaysi birliklarda aks etayotganini ko'rsata olish, mavzu yuzasidan savollar berish bilan bog'liq malakalarni rivojlantirishga doir topshiriqlar.

Tinglangan audiomatn tarkibidan talaffuzi va imlosi farq qiladigan undosh tovushli so'zlarni aniqlash, ularning imlosini bilgan holda yozma nutqda berilgan mavzu yuzasidan 7 yoki undan ortiq gapdan iborat matn yaratish. Bunda matn tarkibidagi gaplarning mazmun jihatdan bog'lash va muhimligi darajasiga ko'ra joylashtirish bilan bog'liq topshiriqlar.

Biror bir til haqida gapirilganda qo'llaniladigan qolip gaplar, ulardan unumli foydalanish mashqlari.

Sifat so'z turkumi, sifatning shaxs va narsaning rangi, shakli, hajmi, mazasi, hidi va xususiyatini bildirishi, qanday?, qanaqa? so'roqlariga javob bo'lishi bilan tanishish. Matn tarkibidan sifat so'z turkumiga oid so'zlarni aniqlash, berilgan rasm asosida narsa va shaxslarni kerakli sifat so'z turkumiga oid so'zlarni qo'llash orqali tavsiflay olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.



Maqol, ibora va hikmatli soʻzlarning talaffuzi, imlosi, ularning mazmuniy guruhlanishiga oid mashq va topshiriqlar. Ulardan oʻrinli foydalanish, berilgan vaziyatga mos keluvchi frazeologizmlarni tanlay olish topshiriqlari.

Soʻzlarning lugʻati (Lugʻat nima? Uning turlari, foydalanish)

Turli shakl va mazmundagi lugʻatlardan foydalanish malakasini shakllantirishga qaratilgan mashqlar. Bir soʻzning turli lugʻatlarda aks etishi va ularni qiyoslashga oid topshiriqlar.

Berilgan matn tarkibidan soʻzlarga soʻroq berish orqali sifat soʻz turkumiga oid soʻzlarni ajratish mashqlari. Sifatlarning otga ohang yordamida bogʻlanishi, sifatlarning gapdagi vazifasi bilan bogʻliq mashq va topshiriqlar.

Tinglangan matn tarkibidan ayrim soʻzlarning imlosini bilan tanishish, ularning maʼnolarini aniqlash maqsadida imlo lugʻati va izohli lugʻat bilan ishlash mashqlari. Imlo va izohli lugʻatning vazifalari, ulardan foydalanish qoidalarini bilan tanishishga oid topshiriqlar.

Lugʻat va lugʻat turlari mavzusidagi matn bilan tanishish. Lugʻatdan foydalanish qoidalarini aniqlash. Matnning asosiy mohiyati, gʻoyasi va xulosasini aniqlashga doir mashq va topshiriqlar.

Berilgan mavzu yuzasidan ijodiy matn yaratish topshirigʻi. Matn mazmuniga mos keluvchi soʻz, gap, iboralarni tanlay olish, ulardan yozma nutqda foydalanish. Matnga mos reja tanlay olish, matn mazmunini rejaga mos holatda yoritish olish, punktuatsiya va imlo qoidalariga rioya qilish.

Bolalar ensiklopediyasi (Ensiklopediya nima? Foydali jihatlari)

Badiiy va ensiklopedik matnlarni qiyoslay olish, ulardagi farqlar va oʻxshashliklarni koʻrsatib berishga oid mashq va topshiriqlar. Maʼlumotni badiiy va ensiklopedik tarzda aks ettirish topshiriqlari.

Sifat soʻz turkumi, sifatlarning yasallishi va ularning imlosi. Berilgan matn tarkibidagi sifat soʻz turkumiga oid soʻzlarni aniqlash, ularni sifatlarning maʼno turlari boʻyicha guruhlariga ajratish. Nutqda sifatning maʼno turlaridan toʻgʻri foydalana olish bilan bogʻliq mashq va topshiriqlar.

Rasm asosida berilgan muayyan shaxs, narsa yoki vaziyatni tasvirlashda sifatlardan unumli foydalana olish bilan bogʻliq topshiriqlar.

Mavzuga mos sarlavha, reja va rasm tanlay olish mashqlari.

VIII boʻlim. TARIX XAZINALARI **(12 soat)**

Imom Al-Buxoriy

Shaxs va uning xususiyatlarini ifodalashda qoʻllaniladigan til birliklari, asr, yil va sanalarning ogʻzaki va yozma nutqda ifodalanishiga oid mashq va topshiriqlar. Inson xarakter-xususiyatlarini ifodalashda qoʻllaniladigan soʻzlarning sinonim va antonimlarini farqlay olishga qaratilgan topshiriqlar.

Shaxs haqida maʼlumot beruvchi matn tayyorlash uchun maʼlumotlarni toʻplash va saralash, maʼlumotlar asosida shaxsning anketasini tayyorlash, matnni qismlarga ajratish va ularga sarlavha qoʻyish bilan bogʻliq mashq va



topshiriqlar. Badiiy uslubdagi matnlardan inson xarakteri va xususiyatlari ta'riflangan o'rinlarni topish, ularni salbiy va ijobiylarga ajratish mashqlari.

Berilgan matnning tuzilishini, unda qo'llanilgan ayrim so'z, ibora va hikmatli so'zlar ma'nosini aniqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Berilgan matn tarkibidan so'zlarga so'roq berish orqali sifat, ot va fe'llarni aniqlash, ularni asos va qo'shimchalarga ajratish. So'z yasovchi qo'shimchalarga oid mashq va topshiriqlar.

Matnda vergul, qo'shtirnoq va tire tinish belgilarining qo'llanishiga doir mashq va topshiriqlar.

Bobom qurgan nilometr (Farg'oniy haqida. Nil daryosi bo'yidagi nilometr)

Yangi tushunchalarning ma'nosini kontekst asosida taxmin qilish mashqlari.

Shaxs va uning xususiyatlarini ifodalashda qo'llaniladigan til birliklari, asr, yil va sanalarning og'zaki va yozma nutqda ifodalanishiga oid mashq va topshiriqlari.

Shaxs haqida ma'lumot beruvchi matn tayyorlash uchun ma'lumotlarni to'plash va saralash, ma'lumotlar asosida shaxsning anketasini tayyorlash, matnni qismlarga ajratish va ularga sarlavha qo'yish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Matn tarkibidan ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq berish orqali ular turkumini aniqlash. Ushbu so'zlarning imlosiga e'tiborni qaratish, belgi ma'nosini kuchaytirib ifodalash birliklari va ularning imlosi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Gapdagi so'zlarni bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajrata olish va ulardan nutqda to'g'ri foydalana olishga oid mashq va topshiriqlar. Ikkinchi darajali bo'laklarning bosh bo'lakdan anglashilgan mazmunni qanday ochib berayotganini tushunishga oid mashq va topshiriqlar.

Berilgan matn tarkibidan atamalarni ajratish, ularning qaysi fanga oid ekanligini aniqlash, atamalardan foydalangan holda berilgan mavzuda og'zaki va yozma nutq tuzish. Atamalar izohi bilan tanishishda lug'at va undan foydalanish topshiriqlari.

Toshkentning o'n ikki darvozasi

Joylashuv o'rnini ifodalashga qo'llaniladigan til birliklarining talaffuzi va imlosi. Xaritalardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirishga oid mashq va topshiriqlar. Matn asosida xaritadan kerakli o'rin va ma'lumotlarni ko'rsatib bera olishga oid mashqlar.

Majhul va orttirma nisbatdagi fe'llarning farqi, ularning ma'no ifodalashdagi o'rnini anglashga oid mashq va topshiriqlar.

Olmosh so'z turkumi bilan tanishish, uning ma'nosi, qanday so'zlar olmosh so'z turkumiga oid ekanligi, berilgan matn tarkibidan olmosh so'z turkumiga oid so'zlarni aniqlash va tahlil qilish mashqlari. Mavzu bilan bog'liq she'rni ifodali ayta olish mashqlari.

Tutuq belgili so'zlarni aniqlash, tutuq belgisining ma'no farqlashi. Shunday so'zlar ishtirok etgan matnlar ustida ishlash. Tutuq belgisi mavjud



so'zlarni yozma nutqda qo'llash mashqlari. Berilgan mavzu yuzasidan og'zaki fikr bildirish, bunda o'zlashtirilgan leksik birliklarni maqsadga muvofiq tarzda qo'llash bilan bog'liq topshiriqlar.

Tinglangan audiomatn tarkibidan gaplarning ohangiga qarab ularni turlarga ajrata olishga oid topshiriqlar. So'roq gap, unda tinish belgilarining qo'llanilishi. Tinglangan audiomaterialni og'zaki aytib bera olish va matn ko'rinishida yozib bera olish bilan bog'liq topshiriqlar.

Nazorat ishi va tahlili

IX bo'lim. SAN'AT VA MADANIYAT

(9 soat)

Eski juvadagi mo'jiza (kino haqida)

Teatr va kinozallar bilan bog'liq til birliklarini aniqlash, ularni kontekstga asoslangan holda izohlash va lug'atini tuzish, talaffuzi va imlosi bilan bog'liq mashqlar.

Kishilik olmoshlari, ularning uch shaxsni ifodalashi bilan tanishish, kishilik olmoshlarining kim?, kimlar? so'rog'iga javob bo'lishi, berilgan matn tarkibidan olmosh so'z turkumiga oid so'zlarni aniqlay olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Mavzu yuzasidan bahs olib borish. Bunda mavzudan chetga chiqmagan holda o'z fikrini erkin, navbat bilan bayon qilish va asoslash, shaxsiy qarashlarini odob bilan himoya qilish kabi malakalarni shakllantirishga qaratilgan topshiriqlar.

Naqshlarda muhrlargan ma'nolar (naqsh san'ati, milliy naqsh, binolar bezaklarining ma'nosi)

Hunarmandchilikka oid atamalar va ularning yasalishi bilan tanishish, matn tarkibida berilgan atamalarni aniqlash, ularning ma'nolarini topish, atamalar yordamida lug'at tuzishga oid mashq va topshiriqlar.

Tinglangan audiomatn tarkibidagi hunarmandchilikka oid so'zlarni aniqlash va ularni guruhlash topshiriqlari.

Mavzu yuzasidan 7 yoki undan ortiq gapdan iborat dialogik matn yaratish, unda tinish belgilarining ishlatilishi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Matn tarkibida berilgan ayrim darak gaplarni so'roq gaplarga aylantirish mashqlari.

Berilgan mavzu yuzasidan suhbat uyushtirish. Unda berilgan rasm asosida og'zaki nutq yaratish.

Men, sen, biz, siz olmoshlarining 1-, 2- shaxs ko'plikni ifodalashi, shaxsga ishora qilishi, lekin ot o'rnida qo'llana olmasligi.

U, ular olmoshlarining ot o'rnida qo'llanilishi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar ustida ishlash. Matnning ma'lum qismini o'qib, uni mantiqan davom ettirish, matn mazmuniga mos keladigan sarlavha topish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Ertak, hikoya, rivoyatlarning asosiy g'oyasini, axloqiy jihatini aniqlash, ertak qahramonlari nutqini obrazga kirib o'qiy olish bilan bog'liq topshiriqlar.



X bo'lim. HUQUQIMIZ – HAQIMIZ

(7 soat)

Qanday huquqlarimiz bor? (bolalarning birlamchi huquqlari)

Qonun hujjatlari va ularda til birliklarining aks etishi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Qonunlardan keltirilgan moddalarni tushunish va o'z tilida bayon qilib bera olish topshiriqlari.

Matn ustida ishlash. Matn bo'yicha berilgan topshiriqlarni tushunish va savollarga javob berish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Berilgan matn tarkibidan kishilik olmoshlarini aniqlash, kishilik olmoshlarining kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanishiga oid mashq va topshiriqlar. Kishilik olmoshining gap bo'laklari vazifasida kelishi bilan tanishish.

Mavzu bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Tinglangan materialga mos rasm, chizma, belgi va shakllarni tanlay olishga oid topshiriqlar.

Berilgan matn tarkibidan istak gaplarni aniqlash, unda tinish belgilarining qo'llanilishi bilan tanishish. Mavzu yuzasidan istak gaplarni qo'llagan holda og'zaki va yozma fikr ifodalash mashqlari. Bunda og'zaki va yozma fikr ifodalashning qoidalariga amal qilish.

Tabriknoma matni tayyorlash. Tengdoshiga yuboriladigan tabriknomada qo'llaniladigan til birliklari va ularning imlosiga doir topshiriqlar.

Birovni haqorat qilish jinoyatmi? (so'kong'ich bolalar, buning huquqiy javobgarligi)

Shikoyat ma'nosidagi so'zlar, ularning talaffuzi va imlosi. Xalq og'zaki ijodi namunalaridan olqish va qarg'ishga oid so'zlarni aniqlay olish va ularning qo'llanishiga doir mashqlar.

Kechirim so'rashda qo'llaniladigan til birliklari va ularning imlosi.

Qonunlardan keltirilgan moddalarni tushunish va o'z tilida bayon qilib bera olish topshiriqlari.

Tinglangan audiomatn tarkibidagi iboralarni aniqlash, iboralarning mazmuni bo'yicha suhbatlashish. Berilgan iboralardan foydalangan holda 7 yoki undan ortiq ijodiy matn yarata olish.

Matnning tuzilishi, matnga sarlavha qo'yish va reja tuzish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Ushbu jarayonda qanday qoidalarga amal qilish kerakligi.

Matn tarkibidan ketma-ket kelgan bir xil undoshli so'zlarni aniqlash, ular imlosi ustida ishlashga oid mashq va topshiriqlar.

Berilgan matn, hikoya va ertaklardagi qahramonlarni tasvirlay olish bilan bog'liq topshiriqlar.

XI bo'lim. O'QUV YILI OXIRIDA TAKRORLASH

(4 soat)

Ushbu soatlarda o'quvchining yil davomida olgan o'qib, eshitib tushunish, og'zaki va yozma nutqqa oid bilim, ko'nikma va malakalari



sinovdan o'tkaziladi. Sinov natijalari asosida qo'shimcha ta'limiy ishlar amalga oshiriladi.

Nazorati ishi va tahlili.

MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Bo'limlar nomi	Soatlar taqsimoti					
		Jami	Yangi mavzu	Nazorat ishlari	N.I. tahlili	Mus-lash	Tak-lash
1	Men, sen, u va ular	4					4
2	Tabiat ne'matlari	16	13	2		1	
3	Sog' tanda – sog'lom aql	18	14	2	1	1	
4	Kasbim – faxrim	15	12	2		1	
5	Yosh iqtisodchi	11	8	1	1	1	
6	Fan va texnologiyalar	24	20	3		1	
7	Til va dil	14	11	2		1	
8	Tarix xazinalari	12	8	2	1	1	
9	San'at va madaniyat	9	7	1		1	
10	Huquqimiz – haqimiz	9	6	1	1	1	
11	O'quv yili oxirida takrorlash	4					4
Jami		136	99	16	4	9	8



V SINF

(136 soat + *34 soat)

I bo'lim. MEN, SEN, U VA ULAR

(6 soat+ *3 soat)

Til va jamiyat tushunchalari, ularning bog'liqligi

Til, muloqot, muomala. Til mavzusidagi matn bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Jamiyat mavzusidagi matnni tinglab tushunishga oid mashq va topshiriqlar. Til, xalq haqida hikmatli so'zlar, maqollar asosida suhbat.

O'zbek tili – davlat tili

Ona tili va davlat tili tushunchalari haqida. O'zbek tilining Davlat tili sifatida nufuzi va mavqeyini oshirish borasida yurtimizda amalga oshirilgan chora-tadbirlar haqida. Davlat tili bilan bog'liq matnini o'qish, shu asosda topshiriqlarni bajarish. Ona tilining nufuzi bilan bog'liq kichik og'zaki/yozma matn tuzish.

Mustaqillik yo'li (istiqlol, muhim voqealar, muhim sanalar)

Mustaqillik haqida turli uslublarda berilgan matnlarni qiyoslashga oid topshiriqlar. Matnda qo'llangan tarixiy shaxslar, sanalar va ularning imlosi.

Nutq tovushlari bo'yicha o'tilgan mavzularni takrorlash, mavzuga oid mashq va topshiriqlar.

Berilgan mavzu yuzasidan adabiy talaffuz me'yorlariga amal qilgan holda mazmunli, ta'sirchan va ravon so'zlay olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Vatan ozodligi yo'lida qahramonlik ko'rsatgan tarixiy shaxslardan biriga shaxsiy xat yozish.

Dam olish kuni (Dam olish kuni, hordiq, muhim tavsiyalar)

Vaqt(sana, muddat, payt)ni ifodalalashga oid til birliklari va ularning imlosi.

Berilgan matn tarkibidan ajratib ko'rsatilgan so'zlarni asos va qo'shimchalarga ajratish, so'z va uning tarkibini aniqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Maroqli dam olish yuzasidan muhim tavsiyalar tayyorlash va og'zaki/yozma shaklda taqdim etish.

1-oktabr – Ustoz va murabbiylar bayrami (ustoz, murabbiy, tabrik)

Ustoz va murabbiylikka oid atamalar (ta'lim, sport), ularning imlosi.

Ot, sifat, son, fe'l, olmosh (kishilik olmoshlari) so'z turkumlari bo'yicha o'tilgan mavzularni takrorlash. Bunda matn qismlarni ajratish, matndan ko'zlangan maqsadni aniqlay olish bilan bog'liq topshiriqlarni bajarish. Vaziyatga mos keluvchi til birliklaridan foydalanishga o'rgatish mashqlari.

Kerakli til birliklaridan o'rinli foydalangan holda tabriknoma yozish.

Tasavvurimdagi kelajak (kelajak, orzu, maqsad, mehnat)

Berilgan rasm, belgi, shakl, chizmalar asosida kelajak uchun reja tayyorlash mashqlari. Kelasi zamonda gap va matn tuzishda qo'llaniladigan til birliklaridan to'g'ri foydalanish mashq va topshiriqlari.



Gap, gap bo'laklari va matn bilan bog'liq o'tilgan mavzular takrorlanadi. Tinglangan jonli nutq va audiomaterial(mashhur shaxslarning hayoti bilan bog'liq)ning tafsilotlarini belgilay olish, matn ko'rinishida yozib bera olish, matn yuzasidan berilgan savollarni tushunish va javob berish bilan bog'liq topshiriqlar.

Mustahkamlash darsi

Nazorat ishi va tahlili

II bo'lim. TABIAT NE'MATLARI

(15 soat + *4 soat)

Bu qanday tovush?

Tabiatdagi tovushlar. Nutq tovushlari. Tovush tilning eng kichik birligi ekanligi va borliqdagi eng kichik birliklarga qiyosi.

Matn bilan ishlash orqali borliqdagi voqea-hodisalarning butundan qismga tomon iyerarxik bo'linishi bo'yicha tahliliy fikr yuritish va umumlashma xulosalar chiqarish, og'zaki va yozma munosabat bildirish.

To'plam va tasnif. To'plam, guruh tuzish qoidalari. Mustaqil so'zlar, yordamchi so'zlar va oraliqdagi so'zlarga ajratish sabablari. Mustaqil ravishda o'quvchi istagan narsalaridan to'plam yoki guruh yaratishi.

So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari. Sinonim, antonim, paronim, omonim tushunchalarni bir-biridan farqlashga oid mashq va topshiriqlar.

Odobsizlik nimalarda ko'rinadi?

Odob mavzusidagi matnni o'qish. Matnning asosiy g'oyasini ifodalagan til birliklarini aniqlashga oid topshiriqlar.

Antonim va sinonimlarni topishga qaratilgan mashqlar.

Suhbat odobi haqida munozara o'tkazish. "Tengdoshlarim orasida eng yaxshisi..." jadvalini ishlab chiqish (o'quvchining o'zi) va ularni nega eng yaxshi ekanligini tushuntirib berish.

Ohangning so'z ma'nosiga ta'siri, ohang yordamida so'zlarning ijobiy yoki salbiy ma'no kasb etishiga oid topshiriqlar.

Unli va undosh tovushlarning nutq jarayonida ifoda va mazmunni yuzaga keltirishdagi imkoniyatlari aks etgan matnlar ustida ishlash, o'zini va o'zgalarni tinglash, yozma bayon, og'zaki dialoglar tuzish.

Quyosh tizimida nechta sayyora bor? (sayyoralar)

Matndan olinma so'zlarni ajrata olish, ularning talaffuzi va imlosiga oid mashq va topshiriqlar. Yangi tushunchalar asosida lug'at tuzish.

Nutq tovushlarining ma'no farqlash vazifasi. Nutq tovushlari orqali so'zlarning hosil qilinishi. Nutq tovushlarining asosiy vazifasi ma'no farqlash ekanligi.

Nom, belgi, son, olmosh, harakatning belgisi va harakatni ifodalovchi so'zlarni matn asosida o'zaro farqlash. Ular qanday asosga ko'ra shunday nomlangani, imlosi. Matn ustida ishlash. Mustaqil so'zlarni ajrata olish mashqlari.



Ma'nodosh so'zlar bilan tanishish. Berilgan matn tarkibidan ma'nodosh so'zlarni ajrata olish, ular ma'nolari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash. Berilgan rasm asosida ma'nodosh so'zlardan foydalangan holda imlo va uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda o'z fikrini to'g'ri, izchil ifodalash, shuningdek, 10 yoki undan ortiq gapdan iborat matn yoza olish bilan bog'liq topshiriqlar.

Toza havoni o'simliklar hosil qiladimi? (kislrorod, fotosintez)

Tabiatni asrashga qaratilgan tashkilotlar haqidagi matn va topshiriqlar. "300 yil yashaydigan paketlar" mavzusidagi audiomaterialni tinglashga oid topshiriqlar (tinglangan jonli nutq va audiomaterialning tafsilotlarni belgilay olish, matn ko'rinishida yozib bera olish).

Berilgan so'zlar tarkibidan ularga so'roq berish, ular ifodalagan mazmunni tahlil qilish orqali mustaqil so'zlarni ajrata olish mashqlarini bajarish, mustaqil so'zlarning xususiyatlari bilan tanishish.

Muayyan uslubda berilgan matn tarkibidan mustaqil so'zlarni aniqlash, matnni ifodali va ravon o'qiy olish malakasini shakllantirish bilan bog'liq topshiriqlar.

So'zlarning qarama-qarshi ma'nolari. Berilgan so'zlarning qarama-qarshi ma'nolarini aniqlay olishga oid mashq va topshiriqlar.

Matnni tashkil qilgan komponentlarning qanday ma'no tashiyotganini aniqlash, nima uchun aynan ulardan foydalanilganligini tushunishga oid mashq va topshiriqlar.

Bo'g'in, uning amaliy ahamiyati haqidagi ma'lumotlar bilan tanishish. Bo'g'in ko'chirish qoidalariga amal qilib, fikrni izchil va to'g'ri ifodalagan holda berilgan mavzu yuzasidan yozma fikr ifodalashga oid topshiriqlar.

Tabiatni asrash, odam va tabiat munosabati haqidagi qisqa metrajli filmlarni tomosha qilish va shu asosda kichik matn yozish (Qisqa metrajli filmlar CGI asosli, xalqaro tanlovlarda ishtirok etgan bo'lishi talab etiladi).

"Men tabiatni qanday asrayman?" mavzusida matn tayyorlab so'zlab berish.

Mustahkamlash darsi

Nazorat ishi va tahlili

III bo'lim. SOG' TANDA – SOG'LOM AQL

(16 soat + *3 soat)

Quloq faqat eshitadimi? (quloqning funksiyalari, g'aroyib faktlar)

Nom, belgi, son, olmosh, harakatning belgisi va harakatni ifodalovchi so'zlarni matn asosida o'zaro farqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Mustaqil so'zlarning guruhlariga ajratishga oid mashqlar.

Adabiy talaffuz me'yorlariga amal qilgan holda mazmunli, ta'sirchan va ravon so'zlay olish malakasini rivojlantirishga oid topshiriqlar.

Yordamchi so'zlar haqidagi boshlang'ich ma'lumotlar. Berilgan matn tarkibidan mustaqil va yordamchi so'zlarni farqlash mashqlari. Matnni tashkil qilgan komponentlarning qanday ma'no tashiyotgani, nima uchun aynan ulardan foydalanilganligini tushunish mashqlari.



Bo'g'inning turlari: ochiq va yopiq bo'g'inlar. Bo'g'in hosil qilishda unli tovushlarning o'рни, bo'g'inlarga ajratish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Berilgan audiomaterial asosida imlo va uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda 10–12 ta gapdan iborat matn orqali o'z fikrini to'g'ri, izchil ifodalash bilan bog'liq topshiriqlar.

Yurakning vazifasi nima? (yurak, qon aylanish tizimi, g'aroyib faktlar)

Oldindan berilgan mavzuga doir matn tuzib taqdimot qilishga tayyorlanish, o'z taqdimotini mantiqli va tartibli tarzda ifodalash mashqlari.

Nom, belgi, son, olmosh, harakatning belgisi va harakatni ifodalovchi so'zlarni matn asosida o'zaro farqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Shakldosh so'zlar, ularning nutq tuzishdagi ahamiyati, shakldosh so'zlardan og'zaki va yozma nutqda o'rinli foydalana olish qoidalari. Berilgan matn tarkibidan shakldosh so'zlarni aniqlay olish, ularning ma'nosini izohlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Badiiy va ilmiy-ommabop uslubdagi matnlarni o'zaro qiyoslash va ulardagi farqlarni aniqlashga oid topshiriqlar.

So'zlarni to'g'ri biriktira olish va gap qurilmasini to'g'ri shakllantirish. Matnning izchilligi va samarasini oshirish uchun so'zlarni, grammatik qoidalarni va strukturalarni to'g'ri qo'llashga oid mashqlar ustida ishlash.

Badantarbiya (ertalabki badantarbiya, sog'lom qomat)

Matndan olinma so'zlarni ajrata olish, ularning talaffuzi va imlosiga oid mashq va topshiriqlar.

Mustaqil so'zlar tuzilishi va ularning imlosi (sodda va qo'shma so'zlar). Tinglangan jonli nutq va audiomaterialning tafsilotlarni belgilay olish, matn ko'rinishida yozib bera olish, imlo qoidalarga rioya qilish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Bosh ma'no va ko'chma ma'no haqida dastlabki tushunchalar. She'rlarni ifodali o'qish. She'rlardan ko'chma ma'nodagi so'zlarni topish, nima sababdan ular ko'chma ma'noda ekanini tushuntirib berish bilan bog'liq topshiriqlar.

Maqollarning nutqni boyitishdagi o'рни. Ibora, maqol haqida tushuncha, ularning paydo bo'lishi haqida ma'lumotlar berilgan matn bilan tanishish. Maqol va iborani ajrata olishga oid topshiriqlar. Matndan maqol, iboralarni topib, tarkibidagi so'zlarni alohida va birgalikda anglatigan ma'nosi ustida fikr yuritishga oid topshiriqlar. Bosh va ko'chma ma'no jadvaliga solish mashqlari.

“Isitmani qo'l tekkizmay o'lchash mumkinmi?” mavzusidagi audiomaterialni tinglash, begona so'zlarni yozish, lug'atlardan ma'nosini topish.

Mustahkamlash darsi

Nazorat ishi va tahlili

IV bo'lim. KASBIM – FAXRIM

(15 soat + *4 soat)

Huquqshunos – huquq posboni (yurist, kasb haqida ma'lumot)



Huquqiy atamalar va ularning imlosi. Huquqiy atamalar lug'atini tuzish.

Mavzu bilan bog'liq audiomaterialdan berilgan ma'lumotni grafik va rasm ko'rinishida ifodalay olish mashqlari.

Nutq a'zolari, nutq tovushlarining hosil bo'lishida nutq a'zolarining o'ri bilan tanishish. Mavzu bilan bog'liq matn tarkibidan ajratib ko'rsatilgan so'zlarning fonetik tahlili. Nutq tovushlarini hosil qilishda faol bo'lgan nutq a'zolarini ajratish mashqlari.

Mustaqil so'zlarning tuzilishi va imlosi (juft va takroriy so'zlar). Tinglangan jonli nutq va audiomaterialning tafsilotlarini belgilay olish, matn ko'rinishida yozib bera olish. Matn mazmuniga mos keladigan sarlavha/sarlavhalarni topishga oid topshiriqlar.

Sodda gap, uning turlarini farqlash. Egallagan amaliy va nazariy bilimlari, kundalik mavzular yuzasidan fikrini tartibli va tushunarli tarzda ifodalash mashqlari. Berilgan mavzu yuzasidan mantiqiy, ijodiy, tanqidiy fikrlash asosidagi og'zaki bayon qilish.

Me'morning ishi qanday? (arxitektor, kasb haqida ma'lumot)

Me'morchilikka oid til birliklarini ajrata olish va ularning imlosiga oid mashq va topshiriqlar.

Tinglangan materialga mos rasm, chizma, belgi va shakllarni tanlay olish mashqlari.

Nutq a'zolarining tovushlar talaffuzidagi o'ri (unli va undosh tovushlarning qaysi nutq a'zosi orqali yuzaga chiqayotgani). Nutq a'zolarini mashq qildirish. Nutq a'zolari bilan bog'liq ma'rifiy matni ustida ishlash.

Me'moriy obidalarining tasvirini og'zaki/yozma ifodalash mashqlari.

Muhandislik — muhim kasb (injener, kasb haqida ma'lumot)

Muhandislikka oid til birliklarini ajrata olish va ularning imlosiga oid mashq va topshiriqlar.

Bo'g'inga ajratish va bo'g'inga ko'chirish qoidalari. Bo'g'inga ajratish va bo'g'in ko'chirish tushunchalarini farqlash. Bo'g'in ko'chirish qoidalari.

"Akam (opam, o'rtog'im) bo'g'inni qanday ko'chiradi?" mavzusida qisqa matn tuzib yozib kelish. Ularning qayerlarda xato qilganini tushuntirish.

Bog'lovchi bilan tanishish. Bog'lovchining so'z va gaplarni o'zaro bog'lashi, bog'lovchi so'zlar bilan tanishish. Berilgan matn tarkibidan bog'lovchi so'zlarni ajrata olish, ularning tahlili.

Atamashunoslik. Berilgan matn tarkibidan atamalarni ajratish, matnda qo'llanilgan atamalar lug'atini tuzish. Matn va lug'atlar bilan ishlash.

Badiiy asar namunalari ifodali o'qish, bunda til vositalarining mazmunini qisman anglash, ohang, ovoz past-balandligi, to'xtam (pauza)dan o'rinli foydalana olish mashqlari.

Mustahkamlash darsi

Nazorat ishi va tahlili

V bo'lim. YOSH IQTISODCHI

(15 soat + *3 soat)

Mening birinchi biznes loyiham (bolalarbop biznes rejalar)

Tadbirkorlikka oid til birliklarini ajrata olish va ularning imlosiga oid mashq va topshiriqlar.

Ko'makchilar haqidagi dastlabki ma'lumotlar. Ko'makchining vazifasi, ko'makchilar qaysi so'zlar orqali ifodalanishi, ularni matn tarkibidan ajrata olish, ko'makchilarning ma'nolari bilan tanishishga oid mashq va topshiriqlar. Berilgan mavzu bilan bog'liq fikrlarni mantiqiy, ijodiy, tanqidiy fikrlash va fikrini og'zaki bayon qilishga oid topshiriqlar.

Ilmiy va kasbiy atamalar. Kasbiy atamalarni farqlash; kelajakda kim bo'lishi bilan bog'liq mavzuda matn tuzish va matnda qo'llanilgan kasbiy atamalar lug'atini tuzish. Matn va lug'atlar bilan ishlash. Kasblar haqidagi matnni o'qish, mazmunini o'zlashtirish, qayta hikoya qilish.

Biznes reja, tadbirkorlik haqidagi matnni o'qish, mazmunini o'zlashtirish, qayta hikoya qilish.

Biznes reja loyihasi tayyorlash va uni og'zaki/yozma shaklda taqdim etishga oid topshiriqlar.

Pulingizni bankda saqlang (bank haqida ma'lumot)

"Do'konlardagi hisob mashinalari qanday ishlaydi?" mavzusidagi audiomaterialni tinglash, begona so'zlarni yozish, lug'atlardan ma'nosini topish.

Bo'g'in ko'chirish qoidolari bilan tanishish. Ayrim so'zlarning bo'g'inga ko'chirilishi, matn tarkibidagi so'zlarni bo'g'inlarga ko'chirish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar ustida ishlash. Berilgan mavzu yuzasidan grammatik, punktuatsion va imlo qoidalariga rioya qilgan holda yozma matn tayyorlash mashqlari.

Yuklamalar haqidagi dastlabki ma'lumotlar. Yuklamalarning ma'nolari, vazifalarini aniqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Berilgan mavzu yuzasidan matnning izchilligini va samarasini oshirish uchun so'zlarni, grammatik qoidalar va gap qurilmalarini to'g'ri qo'llashga oid topshiriqlar.

Sodda gap, uning ifodalanishi. Sodda gap tarkibidagi bosh bo'laklarning qo'llanilishi, sodda gap ifodalagan ma'nolarni aniqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

So'zlovchi(-lar)ning nutqiy vaziyatlardagi ruhiy holati, gap ohangi, fikr va qarashlarini farqlay olish mashqlari.

"Jamg'arma pullarimni qanday saqlayman va sarflayman?" mavzusida ijodiy matn yaratish.

Investitsiya kiriting. (sarmoya qachon, qanday maqsadda kiritiladi?)

Iqtisodiyotga oid terminlarni ajrata olish. Ularning ma'nolarini lug'at yordamida aniqlash, iqtisodiyotga oid so'zlar lug'atini tuzish.

Yordamchi so'zlar imlosi bilan tanishish. Yordamchi so'zlarni berilgan matnlar tarkibidan ajrata olish, ularning imlosiga rioya qilish mashqlarini bajarish.

Berilgan matnni qismlarga ajrata olish, matndan ko'zlangan asosiy maqsadni aniqlay olish bilan bog'liq topshiriqlarni bajarish.



Tinish belgilari va chiziqchani to'g'ri qo'llashga oid mashq va topshiriqlar.

Yordamchi so'zlarni bir-biridan farqlay olish, gapdagi ma'nosini anglay olish, gapdagi/birikmadagi o'rnini tushuntirib bera olishga oid mashq va topshiriqlar.

Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlariga ajrata olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar ustida ishlash. Ularning ma'nolari o'rtasidagi farqni aniqlay olish, tinish belgilaridan o'rinli foydalanish mashqlari.

Audiomaterialda berilgan ma'lumotni grafik va rasm ko'rinishida ifodalay olish mashqlari.

E'lon yozish qoidalari bilan tanishish. Muayyan mavzuda e'lon yozish, e'lon yozish qoialariga rioya qilish, kerakli til birliklaridan foydalana olish. Yozilgan e'lon matnlariga baho berish mashqlari.

Mustahkamlash darsi

Nazorat ishi va tahlili

VI bo'lim. FAN VA TEXNOLOGIYALAR **(16 soat + *4 soat)**

Nobel mukofoti (mukofot haqida atroflicha ma'lumot)

Olinma so'zlar, ularning talaffuzi va imlosi. Taqdirlash va minnatdorchilikni ifodalovchi til birliklari.

Undosh tovushlar, ularning hosil bo'lishi mavzusiga oid mashq va topshiriqlar.

Yordamchi so'zlarni bir-birlaridan farqlay olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Darak gap, u ifodalagan mazmunni aniqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Berilgan matn tarkibidan darak gaplarni ajrata olish, darak gaplarda tinish belgilarining qo'llanilish qoidalari rioya qilishga oid topshiriqlarni bajarish.

Tinglangan jonli nutq va audiomaterialning tafsilotlarni belgilay olish, matn ko'rinishida yozib bera olishga oid topshiriqlarni bajarish.

Mukofot olgan insonga tabrik xati yozish.

Arab raqamlari (Al-Xorazmiy, arab raqamlari, rim raqamlari, "Al-jabr")

Arab va rim raqamlaridan foydalanish, ularning imlosiga oid mashq va topshiriqlar.

Nutq tovushlari va harf tushunchalari, harflar ifodalagan tovushlar, 23 harfning 24 tovushni ifodalashi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Mavzu bilan bog'liq mantiqiy, ijodiy, tanqidiy fikrlash va fikrini og'zaki bayon qilishga oid topshiriqlar. Matn mazmunidan xulosa chiqarish, mazmunini og'zaki va yozma bayon qilish mashqlari.

Ismlar haqida ma'lumot, berilgan matn tarkibidan ismlarni aniqlay olish, ularning bosh harflar bilan yozilishiga oid mashq va topshiriqlar. Ism tanlash haqida. "Ismingizning ma'nosini bilasizmi?" matni ustida ishlash.

Ilmiy atamalar. Ilmiy atamalarni farqlash, berilgan mavzu bilan bog'liq matn tuzish va matnda qo'llanilgan ilmiy atamalar lug'atini tuzish.

Berilgan audiomaterial asosida imlo va uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda o'z fikrini to'g'ri, izchil ifodalash, shuningdek, 10 yoki undan ortiq gapdan iborat matn yoza olish mashqlari.

Amerikani kim kashf qilgan? (Beruniy haqida)

Kashfiyotchilik bilan bog'liq til birliklari. Shaxs va joy nomlari, ularning imlosi. Ma'lumotlarni qiyoslash orqali tanqidiy ruhda fikr bildira olishga oid topshiriqlar.

So'roq gap, u ifodalagan mazmunni aniqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Berilgan matn tarkibidan so'roq gaplarni ajrata olish, so'roq gaplarni yuzaga keltirayotgan vositalar: ohang, yuklamalar, so'roq olmoshlarini aniqlay olish, so'roq gaplarda tinish belgilarining qo'llanilish qoidalariga rioya qilishga oid topshiriqlar.

Matn tuzish uchun gaplarni ketma-ketlikda bog'lay olish; tinish belgilari (nuqta, so'roq va undov)ni to'g'ri qo'llash, berilgan matn, rasm, audiomaterial asosida imlo va uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda o'z fikrini to'g'ri, izchil ifodalash, turli uslubdagi matnlarni ravon va ifodali o'qish, matnni tashkil qilgan komponentlarning qanday ma'no tashiyotgani, nima uchun aynan ulardan foydalanilganligi, matn mazmuniga mos keluvchi sarlavha topish va matnni qismlarga ajratish mashqlari.

Berilgan mavzu yuzasidan adabiy talaffuz me'yorlariga amal qilgan holda mazmunli, ta'sirchan va ravon so'zlay olish topshiriqlar. Rasm asosida og'zaki taqdimot tayyorlash.

Marskezar – Marsda kezar (marsoxodlar, Mars missiyasi, raketalar)

Berilgan matn tarkibidan internetga oid terminlarni ajrata olish, ular ma'nosi bilan tanishish, internetga oid terminlar lug'atini tayyorlash.

Matnning izchilligi va samarasini oshirish uchun so'zlarni, grammatik qoidalar va gap qurilmalarini to'g'ri qo'llashga oid topshiriqlar.

Istak gap, u ifodalagan mazmunni aniqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlarni bajarish. Berilgan matn tarkibidan istak gaplarni ajrata olish, istak gaplarni yuzaga keltirayotgan qo'shimcha vositalarni aniqlay olish, istak gaplarda tinish belgilarining qo'llanilishiga oid topshiriqlar.

O'z istaklarini yozma yoki og'zaki ifodalay olish, unda istak ma'nosini yuzaga chiqaruvchi vositalardan o'rinli foydalanish.

Bobosi/buvisidan oldingi texnologiyalar haqida so'rash hamda hozirgi texnologiyalar bilan solishtirgan holda og'zaki/yozma taqdimot tayyorlash.

Mustahkamlash darsi

VII bo'lim. TIL VA DIL (17 soat + *4 soat)

Tortishsang ham hurmat qil (bahs odoblari)

Nutqiy vaziyatlarda suhbat va munozara odobiga rioya qilgan holda og'zaki muloqotga kirishishga oid mashqlar.

Qavm-qarindoshlik bilan bog'liq so'zlarning, asosan, ot so'z turkumiga oidligi. Matn va lug'atlar bilan ishlash (o'qib tushunish, tinglab tushunish, tushunganlarini og'zaki va yozma bayon qila olish) "U sizga kim bo'ladi?"



ma'rifiy matn ustida ishlash va unda ishlatilgan qavm-qarindoshlik bilan bog'liq so'zlar lug'atini tuzish, ularning ma'nolarini izohlash.

Buyruq gap, u ifodalagan mazmunni aniqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Berilgan matn tarkibidan buyruq gaplarni ajrata olish, buyruq gaplarni yuzaga keltirayotgan vositalarni aniqlay olish, buyruq gaplarda tinish belgilarining qo'llanilish qoidalariga rioya qilishga oid topshiriqlar.

Undov so'zlar bilan tanishish. Undov so'zlarni boshqa so'zlardan farqlay olish, gapdagi ma'nosini anglash va yozma nutqda to'g'ri qo'llashga oid mashq va topshiriqlar.

Berilgan matn, rasm, audiomaterial asosida imlo va uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda o'z fikrini to'g'ri, izchil ifodalash, shuningdek, 10 yoki undan ortiq gapdan iborat matn yoza olish mashqlari.

Oraliqdagi so'zlar nega mustaqil yoki yordamchi so'z turkumlari tarkibiga kirmasligining sabablari bilan matn orqali amaliy jihatdan tanishish. Taqlid so'zlarni boshqa so'zlardan farqlay olish, gapdagi ma'nosini anglash va yozma nutqda to'g'ri qo'llash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

She'rlarni ifodali o'qish. She'rlarda ko'chma ma'nodagi so'zlarni topish, nima sababdan ular ko'chma ma'noda ekanini tushuntirib berishga oid mashqlar.

O'zbekchasi-bor ku?! (muloqotda til sofligini saqlash, tilga hurmat)

O'quvchilarga ularning nutqidagi chet tilga oid, lekin o'zbekchasi mavjud so'zlarning o'zbekchasini o'rgatish, kichik lug'at berish. Yangi so'zlarning qanday paydo bo'lishi haqida tushuncha berish. So'z o'zlashtirish usuli haqidagi matn bilan tanishtirish.

"Oila a'zolarimga o'zbekchasini o'rgatdim" mavzusida kichik matn tayyorlash.

Nutqimizni nima boyitadi? Maqollarning nutqni boyitishdagi o'rni. Maqol haqida tushuncha, ularning paydo bo'lishi haqida ma'lumotlar berilgan matn bilan tanishish. Maqol va iborani ajrata olish mashqlari. Maqol, iboralardagi so'zlarning alohida va birgalikda anglatgan ma'nosini farqlash, ularni bosh va ko'chma ma'no jadvaliga solish mashqi.

Badiiy asar namunalarini ifodali o'qish, bunda til vositalarining mazmunini qisman anglash, ohang, ovoz past-balandligi, to'xtam (pauza)dan o'rinli foydalana olish mashqlari.

Nega bunday deyiladi? (joylarga atab qo'yilgan nomlar etimologiyasi)

Joy nomlari va ularning imlosi. Joylarga qanday nom tanlanishi, berilgan matnlar tarkibidan joy nomlarini aniqlash olish, joy nomlarining imlosi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Tinglangan jonli nutq va audiomaterialning tafsilotlarni belgilay olish, matn ko'rinishida yozib bera olish mashqlari.

Iboraning nutqni boyitishdagi o'rni. Ibora haqida tushuncha, ularning paydo bo'lishi. Maqol va iborani ajrata olish. Matndan iboralarni topib tarkibidagi so'zlarni alohida va birgalikda anglatgan ma'nosi ustida fikr yuritish. Bosh va ko'chma ma'no jadvaliga solish.



Yangi soʻzlarning paydo boʻlishi. Berilgan matn tarkibidan yangi paydo boʻlgan soʻzlarni ajrata olish, ularning izohi bilan tanishish. Muayyan sohaga oid yangi paydo boʻlgan soʻzlarni aniqlay olish, ularni qoʻllab fikrning izchilligi, punktuatsiya va imlo qoidalariga rioya qilgan holda 10 yoki undan ortiq gapdan iborat matn yaratish.

Mustahkamlash darsi

Nazorat ishi va tahlili

VIII boʻlim. TARIX XAZINALARI

(13 soat + *3 soat)

Minorai kalon (Buxoro, tarixiy voqealar)

Tarixiy soʻzlar va ularning imlosi. Badiiy asarlardan tarixiy soʻzlarni aniqlash va maʼnosini izohlashga oid topshiriqlar.

Paronim soʻzlar bilan tanishish. Paronim soʻzlarni bir tovush bilan farqlanuvchi, talaffuzi yaqin boʻlmagan soʻzlardan farqlash. Paronim soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilishga oid, notoʻgʻri talaffuz natijasida gap va soʻzlarning maʼnosida yuzaga keladigan oʻzgarishlarni aniqlash bilan bogʻliq mashq va topshiriqlar.

Matn tuzish uchun gaplarni bogʻlash qoidalar bilan tanishish. Berilgan mavzu yuzasidan matn tuzish, bunda matnning izchilligini va samarasini oshirish uchun soʻzlarni, grammatik qoidalar va gap qurilmalarini toʻgʻri qoʻllash malakasini shakllantirish bilan bogʻliq topshiriqlar.

Tarixiy shaharlarga oid videomateriallarni sharhlab berish mashqlari.

Jaloliddin Manguberdi (Moʻgʻul bosqini, vatanparvarlik, mardlik)

Jang-u jadal voqealari aks etgan matnlar tahlili, ularda qoʻllaniladigan soʻzlar talaffuzi va imlosi. Oʻtmishda ishlatilgan soʻzlarning hozirgi kundagi shakli.

His-hayajon gap. His-hayajon gap ifodalagan maʼnolar, ularni ifodalash vositalari, his-hayajon gaplarda tinish belgilarining qoʻllanilishiga oid mashq va topshiriqlar.

Badiiy asar namunalarini ifodali oʻqish, bunda til vositalarining mazmunini qisman anglash, ohang, ovoz past-balandligi, toʻxtam (pauza)dan oʻrinli foydalana olish mashqlari.

Fonetik hodisa haqida tushuncha. Tovush tushishi, tovish ortishi, tovush almashishi hodisalari ularning sodir boʻlish sabablari. Fonetik hodisalarning yuz berish sabablari va turlarini bilish, imlosiga oid topshiriqlar.

Berilgan matn, rasm, audiomaterial asosida imlo va uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda oʻz fikrini toʻgʻri, izchil ifodalash, shuningdek, 10 yoki undan ortiq gapdan iborat matn yoza olish topshirigʻini bajarish.

Goʻri Amir (Amir Temur, davlat tarixi, maqbara)

Hikmatli soʻzlar, hikmatli soʻzlarning nutqni boyitishdagi ahamiyati. Berilgan matn tarkibidan hikmatli soʻzlarni ajrata olish, ularning maʼnolari bilan tanishish, nutqni boyitishdagi ahamiyatiga baho berish. Berilgan



mavzu bilan bog'liq hikmatli so'zlarni to'plash va ularni qo'llagan muayyan mavzuga oid matn yaratish.

Audiomaterial asosida fonetik hodisalarni aniqlash. Ularning sodir bo'lishi. Tovush o'zgarishiga uchragan hamda bir tovush bilan farqlanadigan so'zlarning imlosi.

Bir xil mavzuda ikki xil uslubda yozilgan matnni qiyoslashga oid topshiriqlar.

“Bobomga xat” mavzusida ijodiy matn yaratish.

Samoviy tulporlar (Dovon davlati, noyob tulporlar)

Matn ustida ishlash. Turli uslubdagi matnlarni ravon va ifodali o'qish, matnni tashkil qilgan komponentlarning qanday ma'no tashiyotgani, nima uchun aynan ulardan foydalanilganligini tushunishga oid mashqlar. Matnlarga tayangan holda otlarning yoshiga qarab nomlanishi, ularning izohiga oid ma'lumotlar.

Matn mazmuniga mos keladigan sarlavha/sarlavhalarni topish, matnni qismlarga ajrata olish, matndan ko'zlangan maqsadni anglay olish bilan bog'liq topshiriqlar.

Gaplarda tinish belgilari (undov, so'roq, nuqta)ning qo'llanilishiga oid bilimlarni mustahkamlash mashqlari.

Gaplarni ular ifodalagan mazmunga ko'ra ifoda maqsadiga ko'ra turlarini aniqlay olish, kerakli tinish belgilarini qo'llash. Grammatik, punktuatsion va imlo qoidalariga rioya qilgan holda mavzu bilan bog'liq 10 yoki undan ortiq gapdan iborat bo'lgan matn yaratish.

Mustahkamlash darsi

Nazorat ishi va tahlili

IX bo'lim. SAN'AT VA MADANIYAT

(11 soat + *3 soat)

Temuriylar muzeyi (muzey va eksponatlar haqida)

Sayyohlik bilan bog'liq til birliklari, ularning talaffuzi va imlosi. Eksponatlarga qo'yilgan belgi(raqam, kod)larni ifodalashga oid mashq va topshiriqlar.

Tovush tushishi hodisasi bilan tanishish, berilgan so'zlarni asos va qo'shimchalarga ajratish, so'zlarning talaffuzi va imlosida ro'y berayotgan o'zgarishlarni aniqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

So'zlovchilarning nutqiy vaziyatlardagi ruhiy holati, gap ohangi, fikr va qarashlarini farqlay olish mashqlarini bajarish.

Uyushiq bo'lakli gaplar bilan tanishish, uyushiq bo'laklarning gap tarkibida ifodalanishi, uyushiq bo'lakli gaplarga xos ohang, ularda tinish belgilarining qo'llanilishi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Muzeylarga oid rasmlarni tasvirlab yozish.

Toshkentdagi ilk teatr (teatr, teatr tarixi)

Teatrda oid atamalar, ularning imlosi. Sahna uchun yozilgan asarlar matni bilan tanishish.

Monologik nutq va suhbatni eshitib tushuna olish, tinglangan jonli nutq va audiomaterialning tafsilotlarni belgilay olish, matn ko'rinishida yozib bera olish, berilgan savollarni tushuna olish va javob bera olishga oid mashqlar.

Audiomaterialda berilgan ma'lumotni grafik va rasm ko'rinishida ifodalay olish malakalarini rivojlantirish bilan bog'liq topshiriqlar.

Unli tovushlar. Unlilarning bo'g'in va so'zlar shakllanishidagi ahamiyati, badiiy matnlar va qo'shiqchilik san'atida ularning tutgan o'rnini.

E'lon yozish qoidalari bilan tanishish. Muayyan mavzuda e'lon yozish, e'lon yozish qoialariga rioya qilish, kerakli til birliklaridan foydalana olish. Yozilgan e'lon matnlariga baho berish mashqlari.

Mustahkamlash darsi

Nazorat ishi va tahlili

X bo'lim. HUQUQIMIZ – HAQIMIZ

(8 soat + *3 soat)

YUNESKO haqida eshitganmisiz? (YUNESKO haqida ma'lumot)

Qisqartma so'zlar talaffuzi va imlosi. Qisqartma so'z yasash qoidalari.

Matn ustida ishlash. Tovush ortishi hodisasi bilan bog'liq bilimlarni mustahkamlash, berilgan so'zlarni asos va qo'shimchalarga ajratish, so'zlarning talaffuzi va imlosida ro'y berayotgan o'zgarishlarni aniqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Turli uslubdagi matnlarni ravon va ifodali o'qish, matnni tashkil qilgan komponentlarning qanday ma'no tashiyotgani, nima uchun aynan ulardan foydalanilganligini tushunish, matn mazmuniga mos keladigan sarlavha / sarlavhalarni topish mashqlari.

Bepul ta'lim olish huquqi (davlatning g'amxo'rligi, uning qadriga yetish kerakligi ...)

Ta'limga oid atamalar talaffuzi va imlosi. Atamalar izohi bilan tanishish va ular asosida lug'at tuzish.

Matn ustida ishlash. Tovush almashinishi hodisasi bilan bog'liq bilimlarni mustahkamlash, berilgan so'zlarni asos va qo'shimchalarga ajratish, so'zlarning talaffuzi va imlosida ro'y berayotgan o'zgarishlarni aniqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Matnning izchilligini va samarasini oshirish uchun so'zlarni, grammatik qoidalar va gap qurilmalarini to'g'ri qo'llash, maqol, matal va hikmatli so'zlarning matndagi o'rnini aniqlay olish, matndan ko'zlangan maqsadni anglay olish mashqlari.

Ta'lim bilan bog'liq e'lon yozish. E'lon yozish qoialariga rioya qilish, kerakli til birliklaridan foydalana olish. Yozilgan e'lon matnlariga baho berish mashqlari.

Mustahkamlash darsi



XI bo'lim. O'QUV YILI OXIRIDA TAKRORLASH

(4 soat)

Ushbu soatlarda o'quvchining yil davomida olgan o'qib, eshitib tushunish, og'zaki va yozma nutqqa oid bilim, ko'nikma va malakalari sinovdan o'tkaziladi. Sinov natijalari asosida qo'shimcha ta'limiy ishlar amalga oshiriladi.

Nazorati ishi va tahlili.

MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Bo'limlar nomi	Soatlar taqsimoti					
		Jami	Yangi mavzu uchun	Nazorat ishlari	Nazorat ishlari tahlili	Mustahkamlash	Takrorlash
1	Men, sen, u va ular	6	2				4
2	Tabiat ne'matlari	15	11	2	1	1	
3	Sog' tanda – sog'lom aql	16	12	2	1	1	
4	Kasbim – faxrim	15	11	2	1	1	
5	Yosh iqtisodchi	15	11	2	1	1	
6	Fan va texnologiyalar	16	13	2		1	
7	Til va dil	17	13	2	1	1	
8	Tarix xazinalari	13	9	2	1	1	
9	San'at va madaniyat	11	8	1	1	1	
10	Huquqimiz – haqimiz	8	5	1	1	1	
11	O'quv yili oxirida takrorlash	4					4
Jami:		136	95	16	8	9	8

IXTISOSLASHGAN TA'LIM UCHUN MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Bo'limlar nomi	Soatlar taqsimoti					
		Jami	Yangi mavzu uchun	Nazorat ishlari	Nazorat ishlari tahlili	Mustahkamlash	Takrorlash
1	Men, sen, u va ular	9	2			3	4
2	Tabiat ne'matlari	19	11	2	1	5	
3	Sog' tanda – sog'lom aql	19	12	2	1	4	
4	Kasbim – faxrim	19	11	2	1	5	
5	Yosh iqtisodchi	18	11	2	1	4	
6	Fan va texnologiyalar	20	13	2		5	
7	Til va dil	21	13	2	1	5	
8	Tarix xazinalari	16	9	2	1	4	
9	San'at va madaniyat	14	8	1	1	4	
10	Huquqimiz – haqimiz	11	5	1	1	4	
11	O'quv yili oxirida takrorlash	4					4
Jami:		170	95	16	8	43	8



VI SINIF

(136 soat + *34 soat)

I bo'lim. MEN, SEN, U VA ULAR

(12 soat+ *3 soat)

Til – muloqot vositasi.

Til – moddiy, ma'naviy merosni saqlash va boyitishning eng kuchli vositasi. Moddiy va ma'naviy meros tushunchasi. Ularni yaratish, saqlash va boyitishda tilning ahamiyati. "Insonni so'z ayladi juda hayvondin" mavzusida suhbat.

Bunda berilgan mavzu yuzasidan fikrini mazmun ketma-ketligini rejalashtira olgan holda izchil va tushunarli tarzda ifodalashga o'rgatish mashqlari.

Qisqacha tajimayi holim

(hujjatlar: tarjimayi hol, pochta indeksi, uy manzili)

Tarjimayi hol – inson hayoti va faoliyatining izchil tavsifi. Tarjimayi hol yozish qoidalari. O'z tarjimayi holini yozish topshirig'i. Bunda kerakli til birliklaridan foydalanish, ma'lumotlarning izchillikda berilishiga o'rgatish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Unli va undosh tovushlar, o'zbek alifbosi va imlo qoidalari, bo'g'in mavzusiga oid bo'lgan bilimlarni takrorlash, tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish, buning natijasi haqida suhbat. Noto'g'ri talaffuz – noto'g'ri yozilgan yozma nutq ekanligi bilan bog'liq mavzuda matn yaratish. Bunda uslubiy qoidalarga rioya qilish, o'z fikrini to'g'ri, izchil ifodalash,

Gap qurilmasini to'g'ri shakllantirish, sodda gap turlarini farqlash bilan bog'liq mavzularni takrorlash, ushbu mavzularga oid mashq va topshiriqlar.

Shifoxona (shifoxonalar haqida atroflicha ma'lumot, zarur ko'nikmalar)

Navbatda turish vaqtida va shifokor bilan muloqotda qo'llaniladigan til birliklari. Shifokor ko'rsatmalari (retsept, yo'riqnoma) bilan bog'liq matnlarni o'qiy olish va ularga munosabat bildirish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

So'zlarni turkumlarga ajratish bilan bog'liq o'tilgan mavzularni takrorlash. Bunda matndan ko'zlangan maqsadni anglay olish, matn qaysi toifadagi o'quvchiga mo'ljallanganini, u qanday kontekstda yozilganini bilish bilan bog'liq topshiriqlar.

So'zning ko'p ma'noliligi, bosh va ko'chma ma'nolar, ko'chma ma'noni hosil qiluvchi birliklar. Berilgan matn tarkibidagi ayrim so'zlarni ma'nolari bo'yicha tahlil qilish, ko'p ma'noli so'z va shakldosh so'zlarni ajrata olish, ko'chma ma'nodagi so'zlarni aniqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Shifokor ko'rigidan o'tish jarayoni, uni tavsiflovchi ijodiy matn yaratish, unda iltifot va minnatdorchilikni bildiruvchi til birliklaridan foydalanish.

Bozor qilishni bilasizmi? (sotuvchilar bilan suhbat, savdolashish odoblari, zarur ko'nikmalar)

Sotuvchilar bilan suhbat jarayonida qo'llaniladigan til birliklari, ularning qo'llanilishi va ma'nolari. Berilgan videomaterial yordamida savdolashish

odobi, bozorda o'zini tutish qoidasi bilan tanishish. Sotuvchi va xaridor o'rtasida qo'llaniladigan til birliklarini aniqlash, ularga munosabat bildirish.

Joy nomlari, atama va kasb-hunarga oid so'zlar bilan bog'liq mavzularni takrorlash. Berilgan matnlar tarkibidan joy nomlarini aniqlash, ular imlosi, atamalar va kasb-hunarga oid so'zlarni ajrata olish, ular ma'nosini izohlay olishga oid mashq va topshiriqlar.

Qardosh ellar

Millat va elatlarni ifodalovchi til birliklari, ularning imlosi. Tillarning o'limi: sabablar va omillar. Tilning joni bormi? Tillararo notenglik. "Katta tillar va "kichik tillar".

"Internet – tillarning yashash sharti" matnini o'qish, matn asosida topshiriqlarni bajarish. "Ona tilim ehtiyottalab tilmi?" mavzusida kichik matn tuzish.

Berilgan matn bilan tanishish, uni ifodali o'qish, bunda nafas olish va chiqarish, tovushlarning rang-barangligi, baland-pastligi, talaffuzdagi o'ziga xosliklarni anglash, ohang, to'xtam (pauza)dan o'rinli foydalana olish mashqlari. Matn tarkibidagi ma'nodosh, shakldosh va zid ma'noli so'zlar tahlilini olib borish orqali ushbu mavzular bilan bog'liq bilimlarni takrorlash.

Mustahkamlash darsi

Nazorat ishi va tahlili

II bo'lim. TABIAT NE'MATLARI

(13 soat +*4 soat)

Tog'lar – Yerning qoziqlari (tog'lar, tog'larning vazifasi)

Ekologiyaga oid atamalar, ularning talaffuzi va imlosi. Matn tarkibida berilgan atamalarni aniqlash, ularning ma'nolari bilan tanishish, atamalar yordamida lug'at tuzish.

To'plam va tasnif. Turkum – narsa, voqea va tushunchalarni turiga ko'ra ajratish va guruhlash. Borliqdagi yoki boshqa o'quv predmetlardagi tushunchalarni turkumlash. "Qanday qilib turlarga ajratiladi?" ta'limiy audiomatnini tinglash/videomaterialni tomosha qilish. So'zni turkumlarga ajratishda e'tiborga olinadigan jihatlar.

So'z tarkibi, asos va qo'shimchalar. Berilgan so'zlarni asos va qo'shimchalarga ajrata olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Mavzu bilan bog'liq matn tarkibidagi ayrim so'zlarni asos va qo'shimchalarga ajratish, qo'shimchalarni tasniflash va ularning vazifasi bilan tanishish, so'zlarni tub va yasama so'zlarga ajratish bo'yicha tahlil.

Tabiatda suv qanday aylanadi? (qor, yomg'ir, yerosti suvlar, daryolar)

Ob-havoni, tabiat hodisalarini ifodalaydigan til birliklari. Ularning talaffuzi, imlosi va ular ifodalaydigan ma'nolar bilan tanishish.

Ob-havo haqida jadval/xarita ko'rinishida berilgan ma'lumotlarni o'qiy olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Qo'shimchalarni tasniflash va ularning vazifasi. Tub va yasama so'zlar. Berilgan matn tarkibidan yasama so'zlarni ajrata olish. So'z yasovchi,



so'zga qo'shimcha ma'no yuklovchi, so'zni so'zga bog'lovchi qo'shimchalarni ajratishga oid mashq va topshiriqlar.

Nutq yaratish jarayonida nomni, belgini, sanoqni, harakat-holatni, harakat-holatning belgisini ifodalaydigan so'zlardan to'g'ri foydalanish mashqlari. Turlarga ajratish borasidagi ko'nikmalarga tayangan holda erkin tanlov va mezon asosida muayyan bir soha yoki fan voqelik (tushuncha)larini turlarga ajratib, matn shaklida yozish.

Global isish (ekologik xavf haqida ma'lumot)

Ekologiyaga oid atamalar, ularning talaffuzi va imlosi. Matn tarkibida berilgan atamalarni aniqlash, ularning ma'nolari bilan tanishish, atamalar yordamida lug'at tuzish.

Matnlardagi so'zlarni turkumlarga ajrata olish va so'z turkumlarini farqlashga doir topshiriqlar. Berilgan materialni tartiblash va umumlashtirish, fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslab yozish mashqlari.

Bir turdagi nomlar. Shaxs, narsa, o'rin-joy, faoliyat-jarayonni, paytni ifodalovchi so'zlar mavzusi bilan tanishish. Ularning imlosi, eshitilganlari asosida xulosa qilish va xulosani dalillar bilan asoslay olishga oid mashq va topshiriqlar.

Qayta ishlanadigan chiqindilar (chiqindilar, ularni qayta ishlash, tabiat muhofazasi)

Tabiatni asrash, qayta ishlanadigan chiqindilardan foydalanish bo'yicha o'z reja va takliflarini taqdimot ko'rinishida tayyorlash va uni himoya qilish.

Shakl yasovchi qo'shimchalar va ularning tasnifi. Matndagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarni asos va so'zni so'zga bog'lovchi, yangi so'z hosil qiluvchi va so'zga qo'shimcha ma'no beruvchi qo'shimchalarga ajratish bo'yicha tahlil.

Tinish belgilari: nuqta, so'roq, tire qanday holatda qo'llanilishi. Sintaktik bilimlarga tayangan holda gap mazmunini aniqlash va shunga ko'ra tinish belgilarini qo'llay olish mashqlari.

Berilgan munozarali mavzu muhokamasida o'zining shaxsiy qarashlarini himoya qila olish, o'z fikrlarini tartiblash va umumlashtirish, fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslab yozishga oid topshiriqlar.

"Buyijonim o'g'itlari" mavzusida berilgan matn bilan tanishish, unda tabiatni asrash, uvol tushunchasi bilan bog'liq mavzudagi maqol va hikmatli so'zlar ma'nolari ustida ishlash.

Mustahkamlash darsi

Nazorat ishi va tahlili

III bo'lim. SOG' TANDA – SOG'LOM AQL

(15 soat + *3 soat)

Ko'z nurini asraylik. (o'qish, televizor, telefon va h.k.lardan foydalanishda me'yori)

Mutolaa, turli shakldagi adabiyotlardan foydalanish qoidalari bilan tanishish. Internet sahifalaridan kerakli ma'lumotlarni qidirish, ularning ishonchligiga baho berish, ushbu ma'lumotlarga munosabat bildirish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Shakldosh, ma'nodosh va zid ma'noli qo'shimchalar. Berilgan qo'shimchalar asosida yangi so'zlarni hosil qilish, jonli nutq va audiomaterialning umumiy mavzusi yuzasidan tilga olingan tafsilotlarni belgilay olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Berilgan matn tarkibidan iboralarni ajratish, ularning ma'nosiga teng keladigan so'zlarni topish. Iboralarni qo'llab gaplar va matn tuzish. Tinglangan matn asosida iboralarning uslubiy xususiyatlari haqida tahliliy fikr yuritish, umumlashma xulosalar chiqarish, yozma va og'zaki munosabat bildira olishga oid mashq va topshiriqlar.

Ot so'z turkumi haqida. Kishi, narsa va o'rin-joy ma'nosini bildiruvchi so'zlar, ularning so'roqlarini aniqlashga doir mashq va topshiriqlar.

Ekologiya bilan bog'liq matn tarkibidan ekologik tushunchalarni ajrata olish, ularning izohi bilan tanishish.

O'zi yoqtirgan telekanali uchun ko'rsatuvlar dasturini ishlab chiqish va og'zaki/yoza taqdim etish.

Me'yoridan ortiq yemang. (semizlik, ochofatlik, foydali ma'lumotlar)

Faoliyat-jarayon otlari, ularning yasalishi. Berilgan matn tarkibidan faoliyat-jarayon otlarini aniqlash, ularning imlosi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Narsa otlari va nomlarini bildiruvchi so'zlar. Narsa otlarini yasovchi qo'shimchalar. "Nega bunday nom olgan?" matni orqali brend nomlarning ma'nosi bilan tanishish.

Berilgan audiomaterialdagi ma'lumotni yozma, grafik va rasm ko'rinishida ifodalay olish mashqlari.

Fikrni ifodalashi mumkin bo'lgan sintaktik birliklar: gap, matn. Sintaktik birliklarini bir-biridan ajrata olish. Turli mavzular yuzasidan fikrini mazmun ketma-ketligini rejalashtira olgan holda izchil va tushunarli tarzda ifodalash mashqlari.

Jigar – eng mehnatkash a'zo (jigar haqida ma'lumot)

Salomatlikka oid internetdan olingan ikki xil ma'lumot muhokamasi, matnni tashkil qilgan komponentlarning anglatayotgan ma'nosi (har bir so'z, so'z birikmasi va gap shaklining qanday ma'no tashiyotgani)ni bilishga oid topshiriqlar.

Qo'shimchalarning shakldosh, ma'nodosh, zid ma'noliligini bilishga oid mashq va topshiriqlar. Ushbu qo'shimchalar ishtirok etgan maqollar tahlilini olib borish.

Gapda so'zlarni bir-biriga bog'lovchi vositalarni aniqlash, ularning qo'llanilishi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

"Tani sog'ga kunda to'y" mavzusida matn tayyorlab so'zlab berish. Bunda adabiy talaffuz me'yorlariga amal qilgan holda nutqiga mos keluvchi



iqtiboslar tanlab mazmunli, ta'sirchan va ravon so'zlay olish malakasini shakllantirish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Suzishni bilasizmi? (suzish sporti, suzishning foydali jihatlari)

Suv havzalari va inshootlari nomlari, ularning imlosi bilan tanishish. Matndan ko'zlangan maqsadni anglay olish, matn qaysi toifadagi o'quvchiga mo'ljallanganini, u qanday kontekstda yozilganini aniqlash bilan bog'liq topshiriqlar.

Otlarning tuzilishiga ko'ra turlari: sodda, qo'shma, juft va takroriy otlar. Sodda otlar imlosi bilan tanishish. Inson va uning salomatligi haqidagi matn va topshiriqlar. "Inson salomatligiga nima xavf soladi?" mavzusidagi audiomaterialni tinglash va topshiriqlarni bajarish.

Berilgan matn, rasm, audiomaterial asosida "To'g'ri ovqatlanamanmi?" mavzusida 12 yoki undan ortiq gapdan iborat matn yaratish. Matnni yaratishda so'zlarni, grammatik qoidalar va gap qurilmalarini to'g'ri qo'llash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Mustahkamlash darsi

Nazorat ishi va tahlili

IV bo'lim. KASBIM – FAXRIM

(17 soat + *4 soat)

Iste'dod va layoqat (kasb tanlashda iste'dod va layoqatga e'tibor qaratish ko'nikmasi)

Kasblar mohiyatini ochib beruvchi tasviriy ifodalar topishga oid mashqlar. Tasviriy ifodalarning predmet, voqea-hodisalarning o'z nomi orqali yuzaga chiqmagan muhim xususiyatlarini tasvirlab, bo'rttirib, izohlab va to'ldirib ko'rsatishda muhim nutqiy vosita ekanligi.

Audiomaterialni tinglash va ularda qo'llangan tasviriy ifodalarni topish. "Men ham tilimizni tasviriy ifoda bilan boyita olamanmi?" mavzusida bahslashish. Berilgan mavzuda og'zaki taqdimot tayyorlash.

Shaxs otlari, ularning imlosi, shaxs otlarini yasovchi qo'shimchalar bilan tanishish. Berilgan matnni qismlarga ajrata olish, xatboshilarni aniqlash, matnga reja va sarlavha tanlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Otlarda lug'aviy shakl, erkalash-kichraytirish va ko'plik qo'shimchalari. Berilgan matn tarkibidan shunday qo'shimchalar ishtirok etgan so'zlarning ma'nolarini aniqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Erkalash-kichraytirish qo'shimchalarini o'z nutqida qo'llash orqali tinglovchiga bo'lgan munosabatni bildirish bilan bog'liq topshiriqlar.

Kasb bilan bog'liq bayramlardan biriga tabriknoma yozish. Bunda mavzuga mos keladigan til birliklaridan foydalana olish qoidalariga rioya qilish, tabriknoma matning mazmuniga va ko'rinishiga tanqidiy, ijodiy yondashuvni shakllantirish bilan bog'liq topshiriqlar.

Dehqon yurti boqadi (mavsumiy ekinlar, intensiv bog'lar, issiqxonalar)

Mavzu bilan bog'liq publitsistik maqola muhokamasi, unda mavzuni ochib beruvchi til birliklarini ajratish, ularning ma'nolari. Maqolada qo'llanilgan atamalar bilan bog'liq lug'at tuzish.

Ibora va uni nutqiy vaziyatlarda to'g'ri qo'llash. Iboralarning qo'shma so'z va so'z birikmasi bilan o'xshash va farqli tomonlari. Matn va lug'atlar bilan ishlash.

Badiiy asar namunalarini ifodali o'qish, bunda nafas olish va chiqarish, tovushlarning rang-barangligi, baland-pastligi, talaffuzdagi o'ziga xosliklarni anglash, ohang, to'xtam (pauza)dan o'rinli foydalana olish mashqlari.

Iboralardagi salbiy va ijobiy bo'yoqlarni anglash. "Iboralar o'z ma'nosida tushunilsa..." mavzusida suhbat va kichik sahna ko'rinishlari tashkil qilish.

Bir turdagi so'zlar va atab qo'yilgan so'zlar bilan tanishish, ular imlosiga oid mashq va topshiriqlar. "Mening korxonam" nomli tasviriy matn yaratish (matnda korxonasini nega bunday atagani haqida fikrlari bo'lishi shart).

Matnlar qanday mazmunda yaratiladi? Matn haqida. Uning mazmuniga ko'ra turlari: hikoya matni, tasviriy matn, muhokama matni.

"Hunarli kishi xor bo'lmas" mavzusidagi matn bilan tanishish, so'z va qo'shimchalar tahlilini olib borish.

Kompyuter grafikasi (dizayn, yangi yo'nalishlar haqida ma'lumot)

Olinma so'zlar talaffuzi va imlosi. Berilgan matn tarkibidan olinma so'zlarni ajratish, ularning ma'nolarini sharhlash, lug'at tuzishga oid mashq va topshiriqlar.

"Ishga taklif qilamiz!" mavzusida berilgan e'lon matni bilan ishlash. Undagi otlarni tegishli guruhlariga ajratish, imlosiga oid topshiriqlar.

Qo'shma otlari imlosi. Grammatik, punktuatsion va imlo qoidalariga rioya qilgan holda berilgan mavzu yuzasidan o'z fikrlarini ifodalash.

Atoqli otlar, ularning ifodalanishi, bosh harflar bilan yozilishi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Matnni tashkil qilgan komponentlarning anglatayotgan ma'nosi (har bir so'z, so'z birikmasi va gap shaklining qanday ma'no tashiyotgani)ni bilishga, matnga sarlavha tanlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Teleboshlovchi bo'lib qolsam... (boshlovchilik, nutq o'stirish, hozirjavoblik)

Jurnalistika sohasiga oid atamalar, ularning talaffuzi va imlosi. Matn tarkibidan berilgan atamalarni aniqlash, ularning ma'nolari bilan tanishish, atamalar yordamida lug'at tuzish.

O'rin-joy va faoliyat-jarayon nomlarini bildiruvchi so'zlar, ular imlosi bilan tanishish. Berilgan matn tarkibidan o'rin-joy va faoliyat-jarayon nomlarini bildiruvchi so'zlarni aniqlay olish. Monologik nutq va suhbatni eshitib tushuna olish, mavzuni aniqlash va nomlay bilish, munosabat bildirish bilan bog'liq topshiriqlar.

Belgi bildiruvchi so'zlar bilan tanishish. Sifatning shaxs, narsa va o'rin-joyning belgisini bildiruvchi so'z ekanligini bilish, berilgan matn tarkibidan



shunday so'zlarni ajrata olish, ularga so'roq berish, ular qaysi so'zning belgisni bildirib kelayotganligini aniqlay olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Ma'lum vaziyat va mavzu yuzasidan jurnalist sifatida matn tayyorlash, bunda jurnalistika sohasi bilan bog'liq atamalardan, til birliklaridan foydalanish.

Mustahkamlash darsi

Nazorat ishi va tahlili

V bo'lim. YOSH IQTISODCHI

(11 soat + *3 soat)

Import yoki eksport (import, eksport, davlat iqtisodiyotida ularning o'rni)

Iqtisodga oid atamalar bilan tanishish, ularning talaffuzi va imlosi. Matn tarkibidan berilgan atamalarni aniqlash, ularning ma'nolari bilan tanishish, atamalar yordamida lug'at hosil qilish. Lug'atdan foydalanish qoidalari, lug'at atamasi ta'rifi, lug'at tuzish qoidalari va lug'at turlarini o'rganuvchi bo'lim lug'atshunoslik (leksikografiya) ekanligi bilan tanishish.

Kelishik qo'shimchalari, ularning imlosi, qo'llanilishi bilan tanishish. Otlarda ularning nomlanishi (izohi), ular bajaradigan vazifalarni aniqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Belgi bildiruvchi so'zlarning ma'noviy guruhlari. Xususiyat, rang-tus, maza-ta'm, hajm-o'lchov, hid bildiruvchi va makon-zamonga xoslikni ifodalovchi so'zlarni ajrata olish, ulardan og'zaki va yozma nutqda foydalanish.

Berilgan matn, rasm, audiomaterial asosida imlo va uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda o'z fikrini to'g'ri, izchil ifodalash, shuningdek, 12 yoki undan ortiq gapdan iborat matn yoza olish mashqlarini bajarish, matn tarkibida atamalardan foydalanish. Ular izohini izohli lug'at yordamida izohlash orqali matn uchun lug'at tayyorlash.

Soliqlarni to'lab borasizmi? (soliq turlari, davlatning soliqdan manfaati)

Tarixiy so'zlar, ular ifodalagan ma'nolar bilan tanishish. Tarixiy so'zlarning uslubiy xususiyatlari.

Mavzu bilan bog'liq so'zlarning kelib chiqishiga oid matn bilan tanishish. Xatboshilarni aniqlagan holda matnni qismlarga ajratish, matn mazmuniga mos sarlavha tanlash bilan bog'liq topshiriqlar.

Otlarda egalik qo'shimchalari, ularning ifodalanishi bilan tanishish. Egalik qo'shimchalarining imlosi, egalik qo'shimchalarining vazifasini aniqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Berilgan monologik nutq yoki suhbatni eshitib tushuna olish, mavzuni aniqlash va nomlay bilish, matnda ifodalangan voqea-hodisaga munosabat bildirishga oid topshiriqlar.

Belgilarning darajalanishi. Belgining ortiq yoki kamligini ifodalash, oddiy, qiyosiy, orttirma, ozaytirma darajalar va ularning hosil bo'lish usullari.



Berilgan matndan sifatlarni aniqlash va darajalar bo'yicha tahlil qilish. Berilgan oddiy darajadagi so'zlarni boshqa darajaga o'tkazish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

So'zlarning gapdagi sintaktik vazifasini aniqlay olishga doir mashqlar. Og'zaki va yozma nutqda sintaktik vositalardan unumli va to'g'ri foydalanishga oid mashqlar.

Nima uchun soliqlarni o'z vaqtida to'lash kerakligi haqida eslatma mazmunida xat tayyorlash.

Kommunal to'lovlar (elektr, gaz, suv uchun to'lovlar, tejamkorlik)

To'lov qog'ozlarining to'ldirilishi, qisqartma so'zlar imlosi, cheklarni o'qiy olish bilan bog'liq topshiriqlar. Ma'lum shakldagi hujjatlar qoliplarini to'ldirish ko'nikmalari.

Qo'shimcha ma'nolarni qanday ifodalaymiz? Otlarda ko'plik, erkalash-kichraytirish, qarashlilik (-niki), xoslik (-dagi) qo'shimchalarining ma'nolari bilan tanishish. Berilgan matn tarkibidan ushbu qo'shimchalarning qanday ma'no anglatayotganini aniqlash.

O'z maqsadini ma'lum shakllar, belgilar, rasmlar yordamida ifodalash. Tejamkorlik bilan bog'liq o'tkazilayotgan aksiya uchun shior, nom va logotip tayyorlash. Audiomaterialda berilgan ma'lumotni yozma, grafik va rasm ko'rinishida ifodalay olish mashqlari.

Mustahkamlash darsi

Nazorat ishi va tahlili

VI bo'lim. FAN VA TEXNOLOGIYALAR (9 soat + *4 soat)

Elektron pochta (internet va elektron pochta haqida foydali ma'lumotlar)

Internet bilan bog'liq atamalar, ularning talaffuzi va imlosi. Matn tarkibidan berilgan atamalarni aniqlash, ularning ma'nolari bilan tanishish, atamalar yordamida lug'at hosil qilish.

Lug'at turlari, ularning ahamiyati. Lug'atlardan to'g'ri foydalanish uchun alifboni bilishning ahamiyati haqida. Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning rus/ingliz/fransuz/nemis tiliga tarjima lug'atini tuzish.

Berilgan matn tarkibidagi kelishik va egalik qo'shimchalarining gaplar mazmuniga ta'sirini kuzatish, imloviy hamda uslubiy ahamiyatini tahlil qilish mashqlari. Jonli nutq va audiomaterialning umumiy mavzusi yuzasidan tilga olingan tafsilotlarni belgilay olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Fikr va hissiyotlarni ifodalashning qo'shimcha vositalaridan foydalanish ("smaylik"lar, turli rasmlar, "gif"lar) qoidalari, ularning ma'nolari.

Mendeleyev elementlari (Mendeleyev faoliyati, elementlar davriy jadvali)

Bolalar ensiklopediyasidan olingan "Barg" maqolasi ustida ishlash. Berilgan badiiy matn tarkibidan sifatlarni aniqlash va tuzilishiga ko'ra guruhlarga ajratishga oid mashq va topshiriqlar.



Belgi bildiruvchi soʻzlarning tuzilishiga koʻra turlari: sodda, qoʻshma, juft va takroriy sifatlar haqida maʼlumot berish, ularning nutq ifodalashdagi ahamiyati.

Narsa, belgi-xususiyat, harakat-holatlarining miqdori yoki tartibini bildiruvchi soʻzlar. Berilgan matn bilan tanishish, matn yuzasidan berilgan savollarni tushuna olish va javob bera olish, savol bera olish, maqsadga koʻra mantiqiy urgʻu qoʻya bilishga oid mashq va topshiriqlar.

Hisob soʻzlar. Matndan hisob soʻzlarni ajratish mashqlari. Sonlarning imlosi ustida ishlash. Qadimda qanday hisob-oʻlchov soʻzlari boʻlganligiga oid matn ustida ishlash.

Texnika xavfsizligi (elektr toki va gazning xavfi)

Texnika bilan bogʻliq atamalar, ularning talaffuzi va imlosi. Matn tarkibidan berilgan atamalarni aniqlash, ularning maʼnolari bilan tanishish, atamalar yordamida lugʻat hosil qilish.

Belgi bildiruvchi soʻzlarning tuzilishiga koʻra turlari: sodda, qoʻshma, juft va takroriy sifatlar, ularning nutq ifodalashdagi ahamiyatini tushuntirish. Berilgan badiiy matn tarkibidan sifatarni aniqlash va tuzilishiga koʻra guruhlariga ajratish mashqlari.

Muhokama matni. Muhokama matnini yaratishda materialni tartiblash va umumlashtirish, fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslab yozish mashqlari.

Mavzu bilan bogʻliq matn bilan tanishish, unda berilgan maʼlumotni yozma, grafik va rasm koʻrinishida ifodalay olish mashqlari.

Mustahkamlash darsi

VII boʻlim. TIL VA DIL **(16 soat + *4 soat)**

Hadislarning hikmati (Imom Buxoriy, hadis)

Atoqli otlar, ularning imlosi, shaxs nomlariga qoʻshilishi mumkin boʻlgan birliklar maʼnosi, ularning qoʻllanilishi.

Faoliyat, harakat va holatni ifodalash uchun feʼl soʻz turkumidan foydalanilishiga doir yoʻl-yoʻriqlar bilan tanishish. Feʼllarni qanday soʻroqqa javob boʻlishiga koʻra boshqa tushuncha bildiruvchi soʻzlardan farqlash.

Matn va lugʻatlar bilan ishlash. Qomusiy lugʻatdan olingan matn asosida topshiriqlarni bajarish (tinglab tushunish, oʻqib tushunish, ogʻzaki va yozma munosabat bildirish) “Kichik lugʻat daftarim” mavzusida taqdimot qilish. Turli fanlardan tuzgan lugʻatlarini qanday lugʻat turiga kirishi haqida suhbatlashish.

Iqbol Mirzoning “Oʻzbek” sheʼri matni ustida ishlash. Notanish tushunchalar, soʻzlarni lugʻatlardan foydalanib izohlashga oid mashqlar.

Hikoya matni, uning oʻziga xos xususiyatlari bilan tanishish. “Hikmatlar xazinasi” mavzusida hikoya matni tuzish.

Peshtoqdagi bitiklar (reklama bannerlari, doʻkon va oshxonalarining nomlanishi, tilga va qonunga hurmat masalalari)



Reklama qoidalari, unda qo'llaniladigan til birliklari. Reklama matnlari bilan ishlashga oid topshiriqlar.

“Xatosini toping” topshirig'i ustida ishlash. Nomlanishi va imlosida xatolari mavjud bo'lgan reklama bannerlari, oshxona va korxona nomlari muhokamasiga oid topshiriqlar. Davlat tili va unga bo'lgan munosabat masalasida ijodiy matn yaratish.

Aqliy faoliyat fe'llari, ularga misollar bilan tanishish. Ularni boshqa fe'lining ma'naviy guruhlaridan ajrata olish, berilgan mavzu yuzasidan punktuatsiya va imlo qoidalariga rioya qilgan holda aqliy faoliyat fe'llaridan foydalangan holda 12 yoki undan ortiq gapdan iborat matn yozish.

Miqdor sonlarning sanoq, dona, chama, taqsim, jamlovchi va kasr sonlarga bo'linishi bilan tanishish, ularning imlosi, ifodalanishi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Sanoq son va uning ifodalanishi. Berilgan mavzu yuzasidan sanoq sonlarni qo'llagan holda fikr bildirish, mavzu muhokamasida o'z fikrlarini himoya qila olishga oid mashq va topshiriqlar.

Tasviriy matn, uning o'ziga xos xususiyatlari. Berilgan mavzu bilan bog'liq tasviriy matn yaratish. Bunda materialni tartiblash va umumlashtirish, fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslab yozish qoidalariga amal qilish.

Berilgan mavzuda e'lon yozish, unda mavzuga mos keladigan til birliklaridan foydalana olish qoidalariga rioya qilish, e'lon matni va ko'rinishiga tanqidiy, ijodiy yondashish.

Sayyohlarga “gid”lik qilsam-chi? (Yurtni tanitish, suhbat qurish)

Nutqiy faoliyat fe'llari va ularning imlosi. Ularni boshqa fe'lining ma'naviy guruhlaridan ajrata olish, berilgan mavzu yuzasidan adabiy talaffuz me'yorlariga amal qilgan holda nutqiga mos keluvchi iqtiboslar tanlab mazmunli, ta'sirchan va ravon so'zlay olish mashqlari.

Dona son va uning ifodalanishi bilan tanishish. Berilgan matn tarkibidan dona sonlarni aniqlay olish, ular imlosi va ular bilan qo'llanayotgan so'zlarga e'tibor berish.

Maqol va uning nutqni boyitishdagi ahamiyati haqida suhbat uyushtirish. Og'zaki nutqda o'z fikrlarini dallilash, ular ta'sirchanligini oshirish maqsadida mavzuga mos maqollarni tanlash mashqlari. Maqol va aforizmlar (hikmatli so'zlar)ning matnga qo'shadigan hissasini aniqlay olish mashqlari.

Audiomaterialda berilgan ma'lumotni yozma, grafik va rasm ko'rinishida ifodalay olish, eshitilganlar asosida xulosa qilish va xulosani dalillar bilan asoslay olish mashqlari.

Ingliz tili – dunyo tili (til o'rganishning ahamiyati, ingliz tilining ilm-fanni chuqur o'zlashtirishda muhimligi)

Dunyo tillari va o'zbek tili. Ingliz tilining ilm-fanni chuqur o'zlashtirishda muhimligi. O'zbek tilining nufuzi va hurmatini oshirish bilan bog'liq matn bilan ishlash. Matnni tashkil qilgan komponentlarning anglatayotgan



ma'nosi (har bir so'z, so'z birikmasi va gap shaklining qanday ma'no tashiyotgani)ni bilish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Fe'l zamonlari, ularning ifodalanishi bilan tanishish. Sodir bo'ladigan harakatning qanday vaqtda sodir bo'lganligini fe'l shakliga tayangan holda aniqlay olishga oid mashq va topshiriqlar.

Kasr son va chama son, ularning ifodalanishi bilan tanishish. Berilgan matn tarkibidan kasr va chama sonlarni aniqlay olish, ular imlosi bilan tanishish. Berilgan mavzu yuzasidan fikr bildirishda sonning ma'noviy guruhlaridan mosini tanlay olish mashqlari.

"Ona tilim 50 yildan so'ng" mavzusida ijodiy matn yaratish (o'zbek tilining internet tiliga aylanishi..).

Mustahkamlash darsi

Nazorat ishi va tahlili

VIII bo'lim. TARIX XAZINALARI

(12 soat + *3 soat)

Muzlik davri (muzlik davri iqlimi, hayvonlar)

Davrni ifodalovchi til birliklari, ularning talaffuzi va imlosi. Berilgan matndan sifatning ma'no guruhi va tuzilishiga ko'ra turlarini farqlashga oid mashq va topshiriqlar.

Jismoniy faoliyat fe'llari. Ularni boshqa fe'lning ma'noviy guruhlaridan ajrata olish, badiiy asar namunalari ifodali o'qish, bunda nafas olish va chiqarish, tovushlarning rang-barangligi, baland-pastligi, talaffuzdagi o'ziga xosliklarni anglash, ohang, to'xtam (pauza)dan o'rinli foydalana olish, matn tarkibidan jismoniy faoliyat fe'llarini aniqlash, ularni izohlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Tartib sonlar, ularning ifodalanishi. Narsalarning ketma-ketlik tartibini ifodalash, ularning imlosiga oid mashq va topshiriqlar. Turli mavzular yuzasidan o'z fikrini mazmun ketma-ketligini rejalashtira olgan holda izchil va tushunarli tarzda ifodalash bilan bog'liq mashqlar.

Mavzu bilan bog'liq qisqa videomahsulot (peyzaj rasm) asosida tavsifiy matn tayyorlash.

U dunyoni o'zgartirgan (Leonardo Da Vinchi)

Ixtirolar bilan bog'liq aqliy faoliyat fe'llari. Fe'llarning ma'noviy guruhlari, nutqiy faoliyat va jismoniy faoliyat fe'llari, ularning qo'llanilishi, imlosi.

O'zbek tilidagi ko'makchi fe'llar, ularning qo'llanilishi. Badiiy matn ustida ishlash va ularda ko'makchi fe'llarning o'rni haqida suhbat. "Ko'makchi fe'llar ko'magi" mavzusida bahs munozara yuritish.

Taqsim son va jamlovchi sonlar, ularning ifodalanishi bilan tanishish. Berilgan matn tarkibidan taqsim son va jamlovchi sonlarni aniqlay olish, ular imlosiga rioya qilish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Berilgan materialni tartiblash va umumlashtirish, fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslab yozish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Buyuk ipak yo'li (Ipak yo'li tarixi, savdogarlik, ipakchilik)



Faoliyat-jarayon otlari, ularning yasalishi. Berilgan matn tarkibidan faoliyat-jarayon otlarini aniqlash, ularning imlosi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Harakat va holatni bildiruvchi so'zlarning tuzilishiga ko'ra turlari. Sodda va qo'shma fe'llar. Qo'shma fe'llarning ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalaridan farqi. Berilgan publitsistik yoki badiiy matn tarkibidan fe'llarni aniqlash, ularni tuzilishiga ko'ra sodda va qo'shma fe'llar guruhiga ajratish mashqlari.

Harakat va holatning belgisini bildiruvchi so'zlar va ularning tuzilishi. Nutq yaratish jarayonida holat, payt, o'rin, miqdor-daraja, maqsad-sababni ifodalovchi so'zlardan to'g'ri foydalanish. Ularning imlosi.

Holat ravishlari. O'rin ravishlari. Ular ifodalagan tushuncha, ravishlar bog'lanib kelgan gap bo'lagi, ravishlarning sifat so'z turkumidan farqini aniqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Berilgan matn, rasm, audiomaterial asosida imlo va uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda o'z fikrini to'g'ri, izchil ifodalash, 12–14 ta gapdan iborat matn yozish.

Mustahkamlash darsi

Nazorat ishi va tahlili

IX bo'lim. SAN'AT VA MADANIYAT

(13 soat+ *3 soat)

Miniatyura – mo'jaz surat (sharq miniatyurasi, Behzod, kitob grafikasi)

Grafika, kitoblarning muqovasi qanday yaratilishi, ular qanday talablarga javob berishi, kitob grafikasi bilan bog'liq matn bilan tanishish.

Harakat va holatni bildiruvchi so'zlarning tuzilishiga ko'ra turlari. Juft va takroriy fe'llar. Mavzu yuzasidan berilgan matn tarkibidan fe'llarni aniqlash, ularni tuzilishiga ko'ra sodda va qo'shma fe'llar guruhiga ajratish mashqlari. Berilgan mavzu yuzasidan fe'llarni qo'llagan holda, mantiqiy, ijodiy, tanqidiy fikrlash va fikrini og'zaki bayon qilish mashqlari.

Payt ravishlari. Miqdor-daraja ravishlari. Ular ifodalagan tushuncha, ravishlar bog'lanib kelgan gap bo'lagi, ravishlarning sifat so'z turkumidan farqini aniqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Tinish belgilari: nuqta, so'roq, tire qanday holatda ishlatilishini o'rganish. Sintaktik bilimlarga tayangan holda, gap mazmunini aniqlash va shunga ko'ra tinish belgilarini qo'llay olish.

Matn turlari va tinish belgilariga oid bilimlarni mustahkamlash. Matn yoki kitob mazmuniga mos keladigan sarlavha va muqova tanlash. Kitob muqovalariga qarab uning mazmuniga baho berish bilan bog'liq tavsifiy matn yaratish.

Oqsaroyga bitilgan hikmat (Temuriylar me'morchiligi)

Hikmatli so'zlar, ularning matnni boyitishdagi o'rne. Hikmatli so'zlarni matn tarkibida qo'llash qoidalari (imlosi va o'rne).



Fe'l nisbatlari. Faoliyat va holat hamda uning bajaruvchisi o'rtasidagi munosabatga baho bera olish. Bajaruvchining faoliyat jarayonida qanday ishtirok etishini fe'l shakliga qarab tushunish, unga doir topshiriqlar.

Badiiy matnlardan harakat va holatning belgisini bildiruvchi so'zlarni topish, ularning fikr ifodalashdagi o'rnini aniqlashga oid topshiriqlar. "Belgi bildiruvchi so'zlarning hammasi ham sifatmi?" mavzusida bahslashish.

Taklifnoma yozish, unda mavzuga mos keladigan til birliklaridan foydalana olish qoidalariga rioya qilish, taklifnoma matni va ko'rinishiga tanqidiy, ijodiy yondashuv.

Milliy cholg'u asboblari (dutor, tambur, g'ijjak, doira)

Musika bilan bog'liq atamalar, ularning talaffuzi va imlosi. Matn tarkibida berilgan atamalarni aniqlash, ularning ma'nolari bilan tanishish, atamalar yordamida lug'at hosil qilish.

Fe'l nisbatlari. Faoliyat va holat hamda uning bajaruvchisi o'rtasidagi munosabatga baho bera olish. Bajaruvchining faoliyat jarayonida qanday ishtirok etishini fe'l shakliga qarab tushunish, unga doir topshiriqlarni bajara olish. Aniq nisbat, uning ifodalanishi. Berilgan matn tarkibidan aniq nisbatdagi fe'llarni aniqlash, ularning ma'nolari izohlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Fe'llarning yasalishi, fe'l yasovchi qo'shimchalar bilan tanishish. Berilgan matnlar tarkibidan yasama fe'llarni aniqlay olish. Ularni asos va qo'shimchalarga ajrata olish mashqlari.

Musiqiy madaniyatga oid og'zaki/yozma matn yaratish.

Mustahkamlash darsi

Nazorat ishi va tahlili

X bo'lim. HUQUQIMIZ – HAQIMIZ

(14 soat + *3 soat)

Konstitutsiya – bosh qomusimiz (qonunlar majmuasi haqida ma'lumot)

Tarixiy sana va bayram nomlari, ularning imlosi bilan tanishish. "Yurtimizdagi bayramlar" mavzusida kichik maqola tayyorlash. Unda nomlarning imlosiga e'tibor qaratish.

Birgalik nisbat va orttirma nisbat, uning ifodalanishi. Berilgan matn tarkibidan birgalik va orttirma nisbatdagi fe'llarni aniqlash, ularning ma'nolarini izohlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar ustida ishlash. Bajaruvchining faoliyat jarayonida qanday ishtirok etishini fe'l shakliga qarab tushunish, unga doir topshiriqlarni bajara olish.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan ayrim moddalarni sharhlab yozish.

Davlat tilida ish yuritishni o'rganamiz. Ish qog'ozlari uslubi haqida.

Tashkilot, korxona, muassasa nomlari, ularning imlosi bilan tanishish. Berilgan matnlar tarkibida tashkilot, korxona, muassasa nomlarini ifodalovchi so'zlarni aniqlay olish, ulardan foydalanishda imlo qoidalariga rioya qilish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.



Majhul nisbat va uning ifodalanishi. Berilgan matn tarkibidan majhul nisbatdagi fe'llarni aniqlash, ularning ma'nolari izohlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar ustida ishlash. Bajaruvchining faoliyat jarayonida qanday ishtirok etishini fe'l shakliga qarab tushunish, unga doir topshiriqlar.

Tushuntirish xatining yozilish sabablari, uni yozish qoidalari, unda qo'llaniladigan til birliklari bilan tanishish. Tushuntirish xati yozish.

Davlatni kim boshqaradi? (Oliy Majlis, Prezident, Vazirlar Mahkamasi)

Olinma so'zlar, ularning talaffuzi va imlosi. Bosh harflar va qisqartma so'zlar imlosi. Matn tarkibida berilgan atamalarni aniqlash, ularning ma'nolari bilan tanishish, atamalar yordamida lug'at hosil qilish.

Sifat yasovchi qo'shimchalar, ular imlosi bilan tanishish. Berilgan matn tarkibidan yasama sifatlarni aniqlay olish, ularni asos va qo'shimchalarga ajrata olish, berilgan qo'shimchalardan yangi sifatlarni hosil qilish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

"Men Prezident bo'lsam" mavzusida og'zaki/yozma matn yaratish.

O'z deputatingizni bilasizmi? (deputatning vazifalari, tuman deputatlari)

Davlat tuzilmasiga oid til birliklari, ularning talaffuzi va imlosi.

Muhokama matni, uning o'ziga xos tomonlari bilan tanishish. Berilgan mavzu yuzasidan muhokama matnini yozish, turli mavzular yuzasidan fikrini mazmun ketma-ketligini rejalashtira olgan holda izchil va tushunarli tarzda ifodalash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

"Haqiqatni qanday aniqlash mumkin?" mavzusidagi matnni o'qish, ziddiyat haqida bahs yuritish.

Berilgan mavzuda deputatga shaxsiy xat yozish, unda mavzuga mos keladigan til birliklaridan foydalana olish qoidalari rioya qilish, shaxsiy xat matning mazmuniga va ko'rinishiga tanqidiy, ijodiy yondashish.

Mustahkamlash darsi

XI bo'lim. O'QUV YILI OXIRIDA TAKRORLASH

(4 soat)

Ushbu soatlarda o'quvchining yil davomida olgan o'qib, eshitib tushunish, og'zaki va yozma nutqqa oid bilim, ko'nikma va malakalari sinovdan o'tkaziladi. Sinov natijalari asosida qo'shimcha ta'limiy ishlar amalga oshiriladi.

Nazorati ishi va tahlili.



MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Bo'limlar nomi	Soatlar taqsimoti					
		Jami	Yangi mavzu uchun	Nazorat ishlari	Nazorat ishlari tahlili	Mustahkamlash	Takrorlash
1	Men, sen, u va ular	12	7			1	4
2	Tabiat ne'matlari	13	9	2	1	1	
3	Sog' tanda sog'lom aql	15	11	2	1	1	
4	Kasbim – faxrim	17	13	2	1	1	
5	Yosh iqtisodchi	11	7	2	1	1	
6	Fan va texnologiyalar	9	7	1		1	
7	Til va dil	16	12	2	1	1	
8	Tarix xazinalari	12	9	1	1	1	
9	San'at va madaniyat	13	9	2	1	1	
10	Huquqimiz – haqimiz	14	10	2	1	1	
11	O'quv yili oxirida takrorlash	4					4
Jami:		136	94	16	8	10	8

IXTISOSLASHGAN TA'LIM UCHUN MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Bo'limlar nomi	Soatlar taqsimoti					
		Jami	Yangi mavzu uchun	Nazorat ishlari	Nazorat ishlari tahlili	Mustahkamlash	Takrorlash
1	Men, sen, u va ular	15	7			4	4
2	Tabiat ne'matlari	17	9	2	1	5	
3	Sog' tanda sog'lom aql	18	11	2	1	4	
4	Kasbim – faxrim	21	13	2	1	5	
5	Yosh iqtisodchi	14	7	2	1	4	
6	Fan va texnologiyalar	13	7	1		5	
7	Til va dil	20	12	2	1	5	
8	Tarix xazinalari	15	9	1	1	4	
9	San'at va madaniyat	16	9	2	1	4	
10	Huquqimiz – haqimiz	17	10	2	1	4	
11	O'quv yili oxirida takrorlash	4					4
Jami:		170	94	16	8	44	8



VII SINF

(102 soat + *34 soat)

I bo'lim. MEN, SEN, U VA ULAR

(9 soat + *3 soat)

Ijtimoiy tarmoqlar (facebook, telegram, axborot xavfsizligi).

Ijtimoiy tarmoqlar bilan bog'liq til birliklari, ularning talaffuzi va imlosi. Ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalarda muloqot odobi, ularga rioya qilish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

6-sinfda o'tilganlarni takrorlash: so'zlarning yasalishi. So'z va ma'no.

Mustaqil so'z turkumlari, ot, otlarda egalik, kelishik, erkalash-kichraytirish, qarashlilik va xoslik qo'shimchalari, belgi bildiruvchi so'zlar belgi bildiruvchi so'zlarning darajalanishi, sonlar, hisob va tartib so'zlar.

Kompyuter qaysi tillarni biladi? Zamonaviy texnologiyalar dunyosida tilning ahamiyati. "Til va texnologiyalar" matni ustida ishlash, mashqlarni bajarish.

Axborotlarni tarqatish qoidalari berilgan audiomatn bilan tanishish, ushbu ma'lumotlar yordamida axborotlarni tarqatish madaniyatiga oid yo'riqnoma yozish. Bunda fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslab yozish, matn tarkibida asosiy o'rinlarni o'ziga xos ajratilgan shaklda berish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar (birinchidan, ikkinchidan yoki alohida satrda, jadval ko'rinishida, strelkalar yordamida....)

Zamonamiz qahramonlari (Kimlarni qahramon sanaymiz?)

Sohalarga oid til birliklari, ularning talaffuzi va imlosi. Berilgan matn tarkibidan sohaga oid til birliklarini ajratish, ularning ma'nosini izohlash. Matndan ko'zlangan maqsadni anglay olish, matn qaysi toifadagi o'quvchiga mo'ljallanganini, u qanday kontekstda yozilganini bilishga oid mashq va topshiriqlar.

So'z, so'z birikmasi yoki gap o'rnida almashadigan so'zlar. Ishora qiluvchi turkum. Fikrni so'zni takrorlamay ifodalash, olmoshlarning boshqa mustaqil turkumlardan farqini izohlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Zamonamiz qahramonlarining shaxsiy esdaliklaridan olingan matnlar bilan tanishish, matndan ko'zlangan asosiy g'oya va matn xulosasini ajrata olish. Matnning boshqa qism yoki bo'laklariga ishora qiluvchi til birliklarini aniqlash, ular vazifasini tushuntirish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Istalgan qahramonga shaxsiy xat yozish, unda kerakli murojaat birliklaridan o'rinli foydalanish.

Markaziy Osiyo (O'zbekistonning geografik o'ri, qo'shni davlatlar)

Geografiyaga oid atamalar, ularning talaffuzi va imlosi. Atoqli otlar, joy nomlari imlosi. Matn tarkibidan geografik atamalar va atoqli otlarni ajratish, atamalar izohi bilan tanishish, mavzu bilan bog'liq lug'at tayyorlash bilan bog'liq mashqlar.

Olmoshlarning turlari. Nutqdagi ahamiyati. Berilgan matn tarkibidan olmoshlarni ajratish, boshqa so'z turkumlari bilan qiyoslash, olmoshlarning nutqdagi vazifasini aniqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.



Kelishik shakllari, ularning nutqdagi ahamiyati. Kelishiklarning turlari. Kelishiklarni qabul qila oladigan soʻzlar. Kelishiklarning soʻzning gapdagi sintaktik vazifasiga taʼsiri.

Mavzu bilan bogʻliq joy tasviri (xarita)ni tasvirlash. Unda berilgan shakllar, izohlar, raqamli maʼlumotlar yordamida tasvir uchun axborot matnini tayyorlash.

Diagramma koʻrinishida berilgan maʼlumotlarni ogʻzaki/yozma koʻrinishda ifodalash bilan bogʻliq mashq va topshiriqlar.

II boʻlim. TABIAT NEʼMATLARI

(10 soat + *4 soat)

Turon yoʻlbarsi (qirilib ketgan yoʻlbars turi)

Ekologiyaga oid til birliklari, ularning talaffuzi va imlosi. Berilgan matn tarkibidan ekologiyaga oid til birliklarini aniqlay olish, lugʻat yordamida ular maʼnosi bilan tanishish.

Kishilik olmoshlari. Ularning nutq soʻzlovchisi, tinglovchisi va undan oʻzga shaxsni aniqlashi. Birlik va koʻplik sonning kishilik olmoshida ifodalanishi.

Bosh kelishik – boshqa kelishik shakllari uchun asos shakl. Gapda ega, ot kesim, sifatovchi aniqlovchi va undalma boʻlib kelishi. Ularning imlosiga oid mashq va topshiriqlar.

Berilgan matnning asosiy gʻoyasini anglay olish, matndagi asosiy fikrlarni belgilash, ularni qayd etish bilan bogʻliq mashq va topshiriqlar.

Mazmun jihatdan ekologik xavf va uning sabablari aks etgan videorolik bilan tanishish, uning mazmuni bilan bogʻliq savollar ustida ishlash, videorolik mazmuniga munosabat bildirish, xulosa chiqarish bilan bogʻliq mashq va topshiriqlar.

Qutb yulduzi (yulduz, yulduzlar xaritasi, qutblar)

Olinma soʻzlar, ularning talaffuzi va imlosi. Atoqli otlar imlosi. Berilgan matn tarkibidan olinma soʻzlar va atoqli soʻzlarni ajratish, ularning talaffuzi va imlosi bilan bogʻliq mashq va topshiriqlar. Lugʻat bilan ishlash.

Kishilik olmoshining kelishik shakllarini olishi. Gapdagi sintaktik vazifasi. Kishilik olmoshlaridan soʻz yasaymiz. Biz, siz, ular kabi kishilik olmoshlarining birlikdagi shaxsni ifodalashi bilan bogʻliq mashq va topshiriqlar.

Berilgan audiomaterialni tinglash, unda berilgan maʼlumotlarni muhim va nomuhim qismlarga ajratish, muhim oʻrinlarni turli shaklda belgilash bilan bogʻliq mashq va topshiriqlar.

Mirzo Ulugʻbek, uning faoliyati bilan bogʻliq ijodiy matn tuzish. Matnda ifodalanayotgan fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslab yozish.

Boychechak – bahor elchisi (bahor, milliy bayramlar, daraxtlarning uygʻonishi)



Tarixiy sana va bayram nomlari, ularning talaffuzi va imlosi. Tarixiy sanalar, bayram nomlarining yozma nutqda ifodalanishi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Mavzu bilan bog'liq she'rlarni yoddan ifodali o'qish, matn tarkibida qo'llangan ko'chma ma'nodagi so'zlar tahliliga oid mashq va topshiriqlar.

Qaratqich kelishigi va tushum kelishigining nomlanishi (ma'nosi). Ularni qanday so'zlar bilan bog'langaniga ko'ra farqlash. To'g'ri talaffuz orqali savodni mustahkamlash. Qaratqich va tushum kelishigi shaklidagi so'zlarning gapdagi vazifasi.

Tabiatni tasvirlashda badiiy yondashuv. Unda muallifning ifoda uslubi. Bir mavzudagi ikki xil tasvirni o'zaro qiyoslash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Tasviriy ifoda va iboraning matn g'oyasini yetkazishdagi o'rni, turli lug'atlardan foydalana olish. Berilgan rasm asosida imlo va uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda o'z fikr va hissiyotlarini to'g'ri, izchil ifodalab 14–16 ta gapdan iborat matn yaratish.

Tabriknoma yozish, unda qo'llaniladigan til birliklari, tabriknoma yozish qoidalarga rioya qilish. Tabriknomaning ko'rinishi va mazmuniga ijodiy yondashish.

Mustahkamlash darsi

III bo'lim. SOG' TANDA – SOG'LOM AQL

(10 soat + *3 soat)

S vitamini (S vitaminining foydali jihatlari)

Olinma so'zlar, ularning talaffuzi va imlosi. Berilgan matn tarkibidan olinma so'zlarni ajratish, ular ma'nolarini lug'at yordamida aniqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Berilgan matn tarkibidan mavzu bilan bog'liq maxsus belgilarni aniqlash, ular ifodalaydigan ma'no bilan tanishish mashqlari.

O'zlik olmoshi. Ushbu olmosh bilan birga qo'llanuvchi egalik qo'shimchasi. O'zlik olmoshining kishilik olmoshi bilan ifodalanishi, vazifasi. O'zlik olmoshidan yangi yasalgan so'zlar va ularning imlosi.

Berilgan matn bilan tanishish, matn tarkibidan uning qismlariga ishora qiluvchi til birliklarini ajratish, ularning vazifasini aniqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Modal so'z. Ishonch, gumon, quvonch, afsuslanish, fikrning tartibi, xulosasi kabi ma'nolarni bildiruvchi so'zlar. Modal so'zlardan og'zaki va yozma nutqda foydalanish, ularning imlosi.

Matn va lug'atlar ustida ishlash. "Shifokor va bemor o'rtasidagi muloqot odobi" mavzusidagi matn bilan tanishish. Modal so'zlarni aniqlash va tahlil.

Muayyan kasallikdan davolanish bo'yicha berilgan tavsiyalarni sxema, rasm shaklida tasvirlash. Berilgan mahsulotlarning tarkibiga asoslanib ularni foydali va foydasiz mahsulotlarga ajratish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Asalari – bolari (asal, asalning shifobaxshligi, asalari hayoti)

Qo'shma so'zlar imlosi, berilgan matn tarkibidan qo'shma so'zlarni aniqlash, ular imlosi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

"Dunyoning yetti xazinasi" matnidagi bosh kelishikdagi so'zlarni aniqlash. Matnda berilgan ma'lumot yuzasidan suhbatlashish, xonadonlari misolida ular haqida bilganlarini so'zlash.

Berilgan matnga sarlavha topish, uni qismlarga ajratish, xatboshilarni belgilash. Matn mazmunining asosiy g'oyasi va xulosasini aniqlash, unga munosabat bildirish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Mazmunlari o'xshash bo'lgan ilmiy va publitsistik uslubda berilgan matnlar mazmuni, ularda qo'llanilgan til birliklarini tahlil qilish. Matnda berilgan ma'lumotlardan foydalana olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Kurash – milliy sport turi (kurash tarixi, milliy an'analar)

Sport sohasiga oid atamalar, an'ana va qadriyatlarni ifodalovchi til birliklari, ularning talaffuzi va imlosi. Berilgan matn tarkibidan sport bilan bog'liq atamalar va an'ana va qadriyatlarni ifodalovchi til birliklarini ajratish, ularning ma'nolari bilan tanishish.

Ko'rsatish olmoshi. So'z, so'z birikmasi, gap o'rnida qo'llanuvchi, ishora qiuvchi va aniqlab keluvchi olmosh. Berilgan matn tarkibidan ko'rsatish olmoshini, u ishora qilgan birliklarni aniqlay olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Mustaqil so'zlar va gaplarni o'zaro bir-biriga bog'laydigan va ularga qo'shimcha ma'no yuklaydigan so'zlarning o'ziga xos xususiyatlari: asosiy vazifasi va mustaqil so'zlardan farqi haqida ma'lumotga ega bo'lish.

Berilgan matnning asosiy g'oyasini aniqlash, ushbu g'oyani yuzaga chiqaruvchi matn qismlarini ajratish.

Matnning tarkibiy qismlarini bog'lovchi vositalarni aniqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Sport mavzusiga oid berilgan suhbat matnini yaratish, unda murojaat birliklari, soha bilan bog'liq atamalardan foydalanish. Dialog yozish qoidalari.

Nazorat ishi va tahlili

IV bo'lim. KASBIM – FAXRIM

(11 soat + *4 soat)

Kasbmi, hunar?

Kasb-hunarga oid atamalar, olinma so'zlar, ularning talaffuzi va imlosi. Berilgan matn tarkibidan ularni ajrata olish, ularning izohini lug'at yordamida aniqlash mashqlari.

So'roq olmoshlari. So'roq nima haqida(shaxs, narsa, belgi, payt, o'rin, miqdor va sabab-maqсад so'roqlari)? So'roq gaplarni hosil qilishda so'roq olmoshlarining ishtiroki. Gapni so'roq gapga aylantirmagan so'roq olmoshlari (Qayerda ahillik bo'lsa, shu yerda baraka bo'ladi).

"Kim aybdor?" mavzusida o'qituvchi tashlagan muammoli vaziyat yuzasidan bahslashish. Bahsda gumon olmoshlaridan o'rinli foydalanish.



“O’n yildan so’ng men...” mavzusida matn yaratish. Matnda ko’rsatish olmoshidan o’rinli foydalanish, o’qilgan matnga munosabat bildirish. Orzu va rejaning farqi.

Ko’makchilarning ma’nolari. Tobe so’zni hokim so’zga bog’lash uchun ko’maklashuvchi vositalarning ma’no turlari, ularning qo’shimchalar bilan ma’nodoshligi, ulardan nutqda to’g’ri foydalanishga oid mashq va topshiriqlar.

Veterinar (kasbning muhimligi haqida)

Olinma so’zlar, shifokorlikka oid til birliklari bilan tanishish. Ularning talaffuzi va imlosiga oid mashq va topshiriqlar.

Berilgan matn yordamida veterinar kasbining asosiy vazifalari bilan tanishish. Matndan ko’zlangan maqsadni anglay olish, matn qaysi toifadagi o’quvchiga mo’ljallanganini, u qanday kontekstda yozilganini aniqlash bilan bog’liq mashq va topshiriqlar.

Belgilash olmoshlari. Jamlik ma’nosini ifodalovchi belgilash olmoshlari. Ajratib ifodalovchi belgilash olmoshlari. Belgilash olmoshining tuzilishi va yozilishi. “O’zimiz ham belgilash olmoshini hosil qilamiz” mavzusida bahs (har kim – olmosh, har kun – ravish, har kungi – sifat).

Tovushlarga taqlidni bildiruvchi so’zlar, ularning tuzilishi va imlosi. Holatga taqlidni bildiruvchi so’zlar, ularning tuzilishi va imlosi.

Matn va lug’atlar ustida ishlash. Taqlid so’zlar bilan bog’liq ijodiy diktant va uning tahlili. “Hayvonlarga nomlar qanday tanlangan?” mavzusida suhbat. Og’zaki suhbat (qurbaqa, kakku, qarg’a...). “Ustaxonada bir kun” matni bilan tanishish va taqlid so’zlarni tahlil qilish.

Kishilar diqqatini tortish, jonivorlarni haydash, chaqirish va to’xtatish kabi buyruq-xitobni ifodalovchi undov so’zlar. Ularning og’zaki va yozma nutqda ifodalanishi, imlosi. Undov so’zlarning nutq uslublarida qo’llanilishi.

Tinglangan audiomaterial matnining muhim o’rinlarni belgilash, matn mazmuniga mos keluvchi savollarni tanlay olish, matn mazmuniga munosabat bildirish bilan bog’liq mashq va topshiriqlar.

Kelajak kasblari (kelajakda qaysi kasblarga ko’proq ehtiyoj bo’lishi)

Olinma so’zlar, ularning talaffuzi va imlosi. Berilgan matn tarkibidan olinma so’zlarni aniqlash, ularning ma’nolari bilan tanishish. Matn bilan bog’liq kichik lug’at yaratish.

Kasb oti yasovchi qo’shimchalar bilan tanishish, yasama kasb otlarini asos va qo’shimchalarga ajratish. Berilgan matn tarkibidan xulosa chiqarish, xulosani matnda berilgan hodisaga bog’lay olish bilan bog’liq mashq va topshiriqlar.

Bog’lovchilar. Gap tarkibidagi so’zlarni va sodda gaplarni o’zaro bog’lovchi vositalarning vazifasiga ko’ra turlari. Ularni matn tarkibidan aniqlash, ularni vazifasiga ko’ra turlarga ajratish mashqlari.

Otlashish hodisasi. Nutqda qulaylik va tejamkorlikka erishish. Otlashadigan so’zlar (sifat, son, sifat-dosh, ravish, taqlid so’z)ni otning xususiyatiga ega so’zlar(olmosh, harakat nomi)dan farqlash. Otlashgan



so'zlarni tarkibiy qismlarga ajratish. Ularning kelishik, egalik, ko'plik va erkalash-kichraytirish shakllari ekanligi.

Zamonaviy kasblar, ular qanday tasavvur etish mumkinligi bilan bog'liq ijodiy matn yaratish. Unda zamonaviy texnologiyalar bilan bog'liq atamalardan foydalanish. Bajariladigan vazifaga ko'ra zamonaviy kasblar uchun nom tanlash topshiriqlari.

Kasbiy bayramlar bilan bog'liq tabriknoma yozish. Unda tabriknoma yozishda qo'llaniladigan til birliklariga rioya qilish.

Mustahkamlash darsi

V bo'lim. YOSH IQTISODCHI

(9 soat + *3 soat)

Maqsadli xarajatlar (pulni aniq maqsad bilan yig'ish va xarjlash)

Bank-moliya sohasiga oid til birliklari, ularning talaffuzi va imlosi. Soha bilan bog'liq atamalar izohi, berilgan atamalar yordamida mavzu bilan bog'liq og'zaki matn yaratish.

So'zlarni va sodda gaplarni o'zaro biriktirib, ayirib, zidlab yoki inkor ma'nosi bilan bog'laydigan bog'lovchilar. Berilgan matn tarkibidan bog'lovchilarni aniqlash, ularni ma'nosiga ko'ra turlarga ajratish mashqlari.

Kunlik xarajatlar ro'yxati/biznes-loyihani tuzish. Bunda biror narsani tushuntirish yoki ma'lum predmet, hodisa haqida ma'lumot yetkazish maqsadida fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslab yozish mashqlari.

"Bozorda" matnida berilgan ko'rsatish olmoshlarining vazifasini izohlash. Bozor haqida shaxsiy taassurotlarini bayon qilish, unda olmoshlardan unumli foydalanish. "Bozor yaxshimi yoki do'kon?" mavzusida bahslashish. So'zlash va tinglash malakasini namoyon qilish.

Oylik maoshlari (oylik maoshi qanday to'lanishi, ota-onaning mehnatini qadrlash masalalari)

Miqdor sonlar, hisob so'zlar. ularning talaffuzi va imlosi. Hisob so'zlardan foydalanish, hisob so'zlarning hosil bo'lishi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Hokim va tobe munosabatdagi so'zlarni hamda gaplarni o'zaro ergashtirib bog'lovchi vositalar, ularning turlari. Bog'lovchilarning qo'llanilishi.

Yuklamalar, ularning ma'nolari. Yuklamalardan og'zaki va yozma nutqda foydalanish va ularning imlosi.

Maoshni qanday sarflash kerakligi bilan bog'liq fikrlar ifodalangan matn yaratish. Imlo va uslubiy qoidalarga rioya qilish, mavzu bilan bog'liq kerakli til birliklarini tanlay olish va ulardan o'rinli foydalanish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

"Bobolar hikmati" matnida berilgan maqollar mag'zini chaqish, bahslashish, unda otlashgan so'zlarning turkumini, tarkibiy qismlarini aniqlash. Shu kabi maqollarni misol keltirish, tushib qolgan otni tiklashga oid mashq va topshiriqlar.



Bobomning pensiyasi (pensiyaning qanday yig'ilishi, pensiya yoshlari)

Qavm-qarindoshlikni ifodalovchi til birliklari, ularning ma'nolari. Matnlar tarkibidan qavm-qarindoshlikni ifodalovchi til birliklarini aniqlash, ularning talaffuzi va imlosi bilan tanishish. (kennoyi emas, kelinoyi...)

Bo'lishsizlik olmoshlari. Bo'lishsizlik olmoshlarining hosil bo'lishi va imlosi. Belgilash, gumon va bo'lishsizlik olmoshlarining hosil bo'lishidagi umumiylik (So'roq olmoshlarining ishtiroki).

"Farzand bo'lish odobi" matnini o'qish, undan anglashilgan fikrni muhokama qilish, bo'lishsizlik olmoshlarining ishlatilish o'rinlarini izohlash. "Do'stim qanday farzand?" mavzusida kichik taqdimot tayyorlash.

Erkalash-kichraytirish shakllarining nutq ifodasidagi vazifasi va o'rni. – gina shaklining imlosi. Erkalash-kichraytirish shakllari qatnashgan so'zlarni tahlil qilish, ularni guruhlarga ajratish, ma'nolarini izohlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Mavzu bilan bog'liq diagramma ko'rinishida berilgan matnlarni o'qish, unda berilgan ma'lumotlar to'g'risida mulohaza yuritish, ularga munosabat bildirish va ushbu ma'lumotlardan foydalana olish bilan bog'liq topshiriqlar.

Nazorat ishi va tahlili

VI bo'lim. FAN VA TEXNOLOGIYALAR **(8 soat + *4 soat)**

Fizika hayotni yengillashtiradi. (olam fizik qonuniyat asosida mavjud ekani)

Fizika faniga oid atamalar, ularning talaffuzi va imlosi. Berilgan matnlar tarkibidan shunday atamalarni ajrata olish, ular ma'nolarini lug'at yordamida aniqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Jo'nalish kelishigi. Jo'nalish kelishigini turli so'zlarga qo'shib, so'rog'idagi farqni izohlash (kimga?, nimaga?, qayerga?, qachon?). Jo'nalish kelishigi shaklidagi so'zlarning gapdagi vazifasi. Jo'nalish kelishigining turli ko'rinishlari (-ga, -ka,-qa) va ularning imlosi. Ayrim olmoshlarga qo'shilganda bo'ladigan tovush hodisasi.

Tinish belgilari gapning mazmun-mohiyatini to'g'ri anglash va anglatishda qo'llaniladigan belgilar tizimidir. Tinish belgilaridan qayerda va qanday vaziyatlarda foydalanamiz? Tinish belgilarini bir-biridan farqlash. Ma'lum bir tinish belgisi ishlatilgan o'rinda nima uchun aynan shu tinish belgisi qo'llanilganini anglashga qaratilgan mashqlar.

Berilgan videomaterialdan zarur o'rinlarni qayd etish, hamda ushbu ma'lumotlarni yozma, grafik va rasm ko'rinishida ifodalay olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Ensiklopedik lug'atlarning ahamiyati haqidagi matn bilan tanishish, ulardan foydalanish qoidalariga rioya qilishga oid mashqlar.

Alisa, Sofiya, Siri. Ular kim? Sun'iy ongga ega robotlar qanday gaplashadi. "Biz yozgan matnlarda qanday ma'lumotlar saqlanadi?" matni ustida ishlash. "Men robot yaratsam..." mavzusida matn yaratish.



Somon yo'li galaktikasi (galaktikalar, yulduzlar, koinot cheksizligi)

Koinot bilan bog'liq til birliklari, olinma so'zlar. Ularning talaffuzi va imlosi. Ushbu birliklar ma'nosi bilan tanishish, ulardan og'zaki nutqda foydalanishga oid mashq va topshiriqlar.

O'rin-payt va chiqish kelishigi. Turli so'zlarga qo'shib ko'rib, so'roqlarining o'zgarish sababini izohlash. Gapdagi vazifasini aniqlash.

Nuqta va vergulning yozma nuqtadagi o'rni va ularning qo'llanilishi. Fantastik janrda yozilgan matn bilan tanishish, unda tinish belgilarining qo'llanilishi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Matn ustida ishlash, unda berilgan ma'lumotlarni muhokama qilish yordamida matn bilan bog'liq xulosalarni belgilash, ushbu xulosalarni dalillar bilan asoslay olish topshiriqlari.

Elektromobil (kamxarj, ekologik bezarar avtomobillar)

Avtomobil rusumlarini ifodalovchi nomlar, ularning talaffuzi va imlosi. Qisqartma so'zlar imlosi, qisqartma so'zlarni hosil. Berilgan matnlar tarkibidan avtomobil rusumlarini ifodalovchi nomlarni, qisqartma so'zlarni ajratish, ularning talaffuzi va imlosi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Belgili va belgisiz qo'llanadigan kelishik shakllari. Kelishik shaklidagi so'zlarga to'g'ri so'roq berishning ahamiyati. Ular bog'lanadigan so'zlar. Kelishiklarni belgili va belgisiz qo'llash o'rinlari va ulardan ko'zlangan maqsad.

Ikki nuqta, uning qo'llanilish o'rinlari bilan tanishish. Fikrlarni yozma ifodalashda ikki nuqtadan o'rinli foydalanish mashqlari.

Korxona, tashkilot nomlari, ularga tegishli logotiplar ifodalayotgan ma'nolar bilan tanishish, berilgan shakllar yordamida korxona, tashkilot, tadbirlar uchun logotip tayyorlash mashqlari.

VII bo'lim. TIL VA DIL **(9 soat + *4 soat)**

Tutilmay gapiraman (nutq, taqdimot tayyorlash ko'nikmalari)

O'zbek tilining qonun-qoidalariga amal qilgan holda turli vaziyatlarda ta'sirchan va ravon so'zlay olish, bunda talaffuz qoidalariga rioya qilishga oid mashqlar. Omma oldida nutq so'zlash qoidalariga bilan tanishish, ularni amaliy qo'llay olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Undov so'z – insonlarning buyruq-xitobi va his-hayajonini ifodalovchi so'z sifatida. Kishilardagi quvonch, erkalash-erkalanish, rohatlanish, hayron qolish, norozilik, g'azab-nafrat, og'riq singari his-hayajonni ifodalovchi undov so'zlar.

Egalik shakllari. Egalik – predmet (shaxs, narsa, voqea-hodisa, o'rin-joy)ga egalikni ifodalovchi shakl. Qaratqich va egalik qo'shimchalarining bir-birini o'zaro taqozo qilishi. Egalik shaklida shaxs va son ifodasi. Egalik shaklining xususiyatlari.

Topshiriqli matn asosida egalik shaklidagi so'zlarni yozish bo'yicha malaka hosil qilish. Matn mazmunini anglash, so'zlovchi shaxsini



o'zgartirgan holda qayta hikoyalay olish, so'zlovchi shaxsi o'zgarganida egalik shaklida yuz beradigan o'zgarishni izohlash.

Berilgan mavzu bilan bog'liq taqdimot tayyorlash, mavzu yuzasidan aniq faktlar, dalillar asosida fikr bildirish, bunda o'z fikrlarini himoya qila olish, fikrlar tartibi va ularni o'zaro bog'lovchi til birliklaridan o'rinli foydalanish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Yozuvchi bo'lish osonmi? (yozuvchilik, matn tuzish, badiiyo'szlardan foydalanish ko'nikmasi)

Badiiy ijod jarayoni bilan bog'liq til birliklari, ularning ma'nolari bilan tanishish. Ko'chma ma'noli so'zlar, ularning qo'llanilishi, fikr ifodalashda ko'chma ma'nodagi so'zlarning ahamiyatiga oid mashq va topshiriqlar.

Umumxalq ishlatadigan so'zlar (qo'llanilish doirasi chegaralanmagan so'zlar). Chegaralangan so'zlar: faqat ma'lum bir hudud doirasidagina qo'llaniladigan so'zlar (shevaga xos so'zlar), ma'lum ijtimoiy guruh doirasidagina ishlatiladigan so'zlar. Shevaga xos so'zlarni farqlashga oid mashqlar ustida ishlash.

Egallik shaklining yozma nutqda qo'llanilishi. Tovush hodisalari: ortishi (parvoyim), tushishi (ko'ngli) va almashishi (yuragi). "Qorin" va "Qo'ziqorin" so'zlariga egalik shaklining qo'shilish holatini izohlashga harakat qilish. Belgisiz egalik shakli.

"Menga yoqqan asar" mavzusida ijodiy matn yaratish, o'zbek tiliga xos bo'lgan ibora(idioma)lar maqol va aforizmlarning matnga qo'shadigan hissasini aniqlay olishga oid topshiriqlar.

So'z mulking sultoni (Navoiyning so'z qo'llashidagi mahoratini ko'rsatish, so'zning ma'no qirralari haqida ko'nikmalar)

Mumtoz asarlar tili, ularning o'ziga xos xususiyatlari, mumtoz asarlarga oid lug'atlar bilan ishlash.

Alisher Navoiy hayoti va ijodi bilan bog'liq ikki xil uslubdagi matnni qiyoslash, ularda qo'llanilgan til birliklarini tahlil qilish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Navoiyning so'z qo'llash mahoratiga oid matn bilan tanishish. Matn yordamida ona tilining jozibasini anglash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

"Qushlar ham yig'lar" (Muhammad Yusuf) she'rini o'qish va she'r matni ustida ishlash.

Nazorat ishi va tahlili

VIII bo'lim. TARIX XAZINALARI

(10 soat + *3 soat)

Ochiq osmon ostidagi muzey (Xiva tarixi, Ichan qal'a, turizm)

Muzeylar faoliyatiga oid til birliklari, olinma so'zlar, ularning talaffuzi va imlosi. Berilgan matn tarkibidan muzeylar faoliyatiga oid til birliklari va olinma so'zlarni ajratish, ular ma'nolarini lug'at yordamida izohlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.



Qo'shma otlar, ularning imlosi. Qo'shma otlarni farqlash, yozma nutqda ularni imlosi qoidalariga rioya qilgan holda ifodalash mashqlari.

Nomshunoslik. Nomlarda milliylik va tarixiylikning namoyon bo'lishi. Atamashunoslik qo'mitasi. Bosh harflar va qisqartma so'zlar imlosi. Yashab turgan hududdagi nomlarni o'rganish va tahlil qilish mashqlari. O'zbekiston viloyatlari nega hozirgi nomi bilan atalishi haqidagi matn bilan ishlash.

Predmetning bitta yoki ko'p ekanligini ifodalash usullari. -lar qo'shimchasining xususiyatlari. Nutq jozibasini oshirishda ko'plik shaklidan foydalanish.

Tarixiy obidalar aks etgan rasm yoki video material asosida tavsifiy matn yozish, bunda kerakli til birliklaridan o'rinli foydalanishga oid topshiriqlar.

Temiryo'llar (temiryo'llar tarixi, poyezdlarning taraqqiyotdagi o'rni)

Transport bilan bog'liq til birliklari, ularning talaffuzi va imlosi. Yonma-yon kelgan unli va undoshlar ishtirok etgan so'zlar, ularing talaffuzi va imlosi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

So'roq belgisining qo'llanilish o'rinlari, yozma nutqda so'roq belgisining qo'llanilish qoidalariga rioya qilishga o'rgatish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Tashqi imkoniyatlar: boshqa tillardan kirib keladigan so'zlar. Berilgan so'zlarnig qaysi tillardan o'zbek tilining leksik qatlamiga o'zlashganligini lug'at yordamida aniqlash mashqlari.

Matnni tashkil qilgan grammatik vositalar, matn tuzilishi, uning tarkibiy qismlarini bog'lovchi vositalarning vazifasini anglash, matndan ko'zlangan maqsadni anglay olish, matn qaysi toifadagi o'quvchiga mo'ljallanganini, u qanday kontekstda yozilganini aniqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

"Hamma bilishi kerak" mavzusida bayon qilingan transportdan foydalanish odobi haqida suhbatlashish, tahlil qilish, yana nimalarni qo'shish mumkinligi haqida qarashlarni bayon qilish. Nutqda belgilash olmoshlarining qo'llanilish o'rinlariga urg'u berish.

Transportdan foydalanish odobi, unda qo'llaniladigan til birliklari (murojaat, iltifot)dan foydalanib, dialog ko'rinishidagi yozma/og'zaki nutq tayyorlash.

U dunyoni o'zgartirgan: Nyuton (Isaak Nyuton va uning ilmiy faoliyati)

Olinma so'zlar, ularning talaffuzi va imlosi. Ularni matn tarkibidan aniqlash, ular ma'nolarini lug'at yordamida izohlash. Unli tovushlarning yonma-yon qo'llanilishi, ularning talaffuzi va imlosi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Olmoshlarning tuzilishiga ko'ra turlari. Olmoshlarning tuzilishi va imlosi. Olmoshlarning tuzilishiga ko'ra turlari jadvalini to'ldirish. Qanday yozilishini o'rganish, yozma nutqda qo'llay olish. Qo'shib, ajratib va chiziqcha bilan yozilishini asoslash.



“Havo tarkibida qanday moddalar borligini bilamizmi?” matnidagi ilmiy ma’lumotni anglash, muhokama qilish, matnda qo‘llangan olmoshlarning tuzilishi va imlosini izohlash.

Ilmiy uslubda berilgan matn tahlili. Ilmiy atamalarni ajratish, matnni tashkil qilgan grammatik vositalar hamda matn tuzilishi va uning tarkibiy qismlarini bog‘lovchi vositalarning vazifasini tushunishga oid mashq va topshiriqlar.

“Dunyoni qanday o‘zgartira olaman?” mavzusida ijodiy matn yaratish. Unda o‘z fikrlarini ifodalashda mantiqiy ketma-ketlikka, izchillikka rioya qilish. Fikrlarini yetkazish maqsadida kerakli til birliklari, argumentlar va daliliy tavsiflotlardan foydalana olish topshiriqlari.

Nazorat ishi va tahlili

IX bo‘lim. SAN‘AT VA MADANIYAT

(10 soat + *3 soat)

“Boburnoma” – memuar asar (memuar, boburiylar, o‘zi haqida yozish ko‘nikmalari)

Tarjimayi holning badiiy ifodasi, uning rasmiy tarjimayi holda farqlarini anglash bilan bog‘liq mashq va topshiriqlar. Tarjimayi holning badiiy ko‘rinishida qo‘llaniladigan til birliklaridan foydalanish, bosh harflar imlosi (toshkentlik, namanganlik)ga oid mashq va topshiriqlar.

“Boburnoma” asaridan olingan joy nomlari, narsa nomlariga oid ta’riflar asosida asar uchun lug‘at yaratish. Bunda lug‘at tuzish qoidalariga rioya qilishga oid mashq va topshiriqlar.

Gumon olmoshlari. Gumon ma’nosini ifodalash usullari. Gumon olmoshini hosil qilish. Gumon olmoshining faqat sodda tuzilishi mavjudligi. - alla qo‘shimchasi bilan hosil qilingan so‘zlarning hammasi ham olmoshmi? (Allaqachon – payt ravishi). -dir qo‘shimchasining shakldoshligi.

“Boburnoma” asaridan keltirilgan xat namunalarini tahlil qilish, unda qo‘llanilgan murojaat, iltifot ... kabi til birliklari tahlili orqali muallifning so‘z qo‘llash mahoratiga baho berish mashqlari.

Ichki imkoniyatlar: ilgari qo‘llanilib, keyin iste’moldan chiqib ketgan so‘zlardan yangi tushunchalarni ifodalash uchun foydalanish, shevadagi so‘zlarni faollashtirish, so‘z yasash.

Tarjimayi hol qoidalariga rioya qilgan holda uning ikki xil ko‘rinishi: badiiy va rasmiy shakldagi tarjimayi hol yozish.

“Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali (festival tarixi, Registon maydoni, maqomchilik)

Tarixiy sanalar, atoqli otlar, joy nomlari imlosi. Yozma nutqda ularni ifodalash bilan bog‘liq mashq va topshiriqlar.

“-ningmi, -nimi?” topshiriqli matni orqali kelishiklardan to‘g‘ri foydalanishga o‘rganish. Og‘zaki nutqda nima uchun farqlamasligi haqidagi muhokama. Bunday qo‘shimchalarda tovush hodisasi.

Ko‘p nuqta, uning qo‘llanilish o‘rinlari. Ko‘p nuqta va uning qo‘llanilishiga oid mashq va topshiriqlar.



“Men sevgan qo‘shiqchi bilan suhbat” mavzusida matn tayyorlash.

Tavsifnoma yozish qoidalari. Tavsifnoma yozishda kerakli uslub, til birliklaridan foydalanish, muayyan shaklda berilgan ish qog‘ozlarini to‘ldirish bilan bog‘liq mashq va topshiriqlar.

Baxshilarga jo‘r bo‘lgan tarix (dostonlar, baxshilar, to‘ydagi udumlar)

Xalq og‘zaki ijodi, marosimlar bilan bog‘liq til birliklari, ularning imlosi. Xalq og‘zaki ijodi, marosimlarga oid til birliklarining ma‘nosini aniqlash, yozma va og‘zaki nutqda ulardan foydalanish bilan bog‘liq mashq va topshiriqlar.

Muayyan mavzuda berilgan sahna asarlarini ijro etish. She‘rlar va dramatik asarlardan parchalarni ijro etishda ularni yoddan ifodali o‘qish, obraz holatini tas‘irli ifodalash, nutq jarayonida ohang, to‘xtam (pauza)dan o‘rinli foydalanishga oid mashq va topshiriqlar.

Taklifnoma yozish. Berilgan mavzuda teatr yoki boshqa tadbirlarga taklifnoma yozish, bunda taklifnoma yozishda qo‘llaniladigan til birliklaridan o‘rinli foydalanish.

Mustahkamlash darsi

X bo‘lim. HUQUQIMIZ – HAQIMIZ

(10 soat + *3 soat)

Oliy Majlis (parlament, qonun chiqaruvchi organlar)

Qonunchilikka oid atamalar, ularning talaffuzi va imlosi. Qonunchilikka oid atamalarni berilgan matn tarkibidan aniqlash, ular ma‘nosini matn mazmuni yordamida izohlash, o‘z izohlarini izohli lug‘at yordamida tekshirish bilan bog‘liq mashq va topshiriqlar.

Nuqtali vergul, uning qo‘llanilishi. Yozma nutqda nuqtali verguldan foydalanishga oid mashq va topshiriqlar.

Rasmiy uslubda berilgan matn tahlili. Matndan ko‘zlangan maqsadni anglay olish, matn qaysi toifadagi o‘quvchiga mo‘ljallanganini, u qanday kontekstda yozilganini bilishga oid mashq va topshiriqlar.

“Olmoshsiz matn” topshirig‘ini bajarish orqali olmoshlarning nutqimizdagi ahamiyati haqida muhokama o‘tkazish.

Mavzu bilan bog‘liq berilgan rasmiy uslubdagi matnni publitsistik uslubdagi matnga aylantirish. Publitsistik uslubga xos til birliklari, ifoda uslubidan foydalana olishga oid mashq va topshiriqlar.

Berilgan mavzuda e‘lon yozish. Bunda e‘lon yozish qoidalari va kerakli til birliklarini qo‘llash bilan bog‘liq topshiriqlar.

Ijro hokimiyati (vazir, hokim)

Eskirgan so‘zlar, ularning ma‘nolari. Berilgan matn tarkibidan eskirgan so‘zlarni ajratish, ularning ma‘nolari bilan tanishish. Eskirgan so‘zlar ishtirok etgan matnlarning ifoda uslubiga oid mashq va topshiriqlar.

Farmon yoki qaror matni bilan ishlash. Unda qo‘llaniladigan til birliklari, ifoda uslubi, fe‘l, olmosh, ot kabi so‘z turkumlarining ifodalanishi, ularning shakli bilan bog‘liq mashq va topshiriqlar.



Olmoshlarning tuzilishi ko'ra turlari. Olmoshlarning tuzilishi va imlosi. Olmoshlarning tuzilishiga ko'ra turlari jadvalini to'ldirish. Qanday yozilishini o'rganish, yozma nutqda qo'llay olish. Qo'shib, ajratib va chiziqcha bilan yozilish mashqlari.

Tire, qavs va qo'shtirnoqdan foydalanish. Yozma nutqda mazkur tinish belgilaridan o'rinli va to'g'ri foydalanish mashqlari.

Berilgan mavzu yuzasidan og'zaki/yozma ko'rinishda taqdimot tayyorlash. Bunda fikrlarni argumentlar va daliliy tavsilotlar bilan asoslab yozish, o'z g'oyalarini himoya qilish hamda bahs-munozaraga kirish odobi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Ariza va tushuntirish xati. Ariza va tushuntirish xati yozishda qo'llaniladigan til birliklari, ularning yozilishidan asosiy maqsad, yozilish qoidalariga rioya etish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Mualliflik huquqi (patentlash, mualliflik huquqlari)

Olinma so'zlar, huquqiy atamalar, ularning talaffuzi va imlosi. Berilgan matn tarkibidan olinma so'zlar, huquqiy atamalarni ajratish, ular ma'nosini lug'at yordamida aniqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Undov belgisi, uning qo'llanilish o'rinlari. Undov belgisining qo'llanilishiga oid mashq va topshiriqlar.

Tinish belgilarining umumiy ma'noga ta'sir etish xususiyatlari. Gap tuzish, matn yaratish jarayonida ifodalamoqchi bo'lingan mazmunga mos tinish belgisini qo'llay olish. Tinish belgilarining o'qish jarayonidagi intonatsiyaga ta'sir ko'rsatishini tushunish va buni amalda qo'llay olish mashqlari. Guvohnoma matnini o'qish mashqlari.

Ko'chirmakashlik yomon illat ekanligiga oid matn yaratish. O'z fikrlarini va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslab yozish, o'z yozma nutqining ta'sirchanligini oshirish maqsadida badiiy va ritorik vositalarni qo'llay olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Matn va lug'atlar ustida ishlash. "Internetmi yoki kitob?" mavzusidagi matn bilan tanishish va bog'lovchilar bo'yicha tahlil olib borish.

"Tong otmoqda!" mavzusidagi rangli fotosuratlar jamlanmasi asosida badiiy matn yaratish, unda bog'lovchi so'zlardan foydalanish va izohlash.

Tavsiyanoma yozish. Tavsiyanoma yozishda qo'llaniladigan til birliklari, ularning yozilishidan asosiy maqsad, yozilish qoidalariga rioya etish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

XI bo'lim. O'QUV YILI OXIRIDA TAKRORLASH

(6 soat)

Ushbu soatlarda o'quvchining yil davomida olgan o'qib, eshitib tushunish, og'zaki va yozma nutqqa oid bilim, ko'nikma va malakalari sinovdan o'tkaziladi. Sinov natijalari asosida qo'shimcha ta'limiy ishlar amalga oshiriladi.

Nazorati ishi va tahlili

MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Bo'limlar nomi	Jami soatlar taqsimoti					
		Jami	Yangi mavzu uchun	Nazorat ishlari	Nazorat ishlari tahlili	Mustahkamlash	Takrorlash
1	Men, sen, u va ular	9	5				4
2	Tabiat ne'matlari	10	8	1		1	
3	Sog' tanda – sog'lom aql	10	8	1	1		
4	Kasbim – faxrim	11	8	2		1	
5	Yosh iqtisodchi	9	7	1	1		
6	Fan va texnologiyalar	8	7	1			
7	Til va dil	9	7	1		1	
8	Tarix xazinalari	10	8	1	1		
9	San'at va madaniyat	10	7	2		1	
10	Huquqimiz – haqimiz	10	9	1			
11	O'quv yili oxirida takrorlash	6		1	1		4
Jami:		102	74	12	4	4	8

IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM UCHUN MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Bo'limlar nomi	Jami soatlar taqsimoti					
		Jami	Yangi mavzu uchun	Nazorat ishlari	Nazorat ishlari tahlili	Mustahkamlash	Takrorlash
1	Men, sen, u va ular	12	5			3	4
2	Tabiat ne'matlari	14	8	1		5	
3	Sog' tanda – sog'lom aql	13	8	1	1	3	
4	Kasbim – faxrim	15	8	2		5	
5	Yosh iqtisodchi	12	7	1	1	3	
6	Fan va texnologiyalar	12	7	1		4	
7	Til va dil	13	7	1		5	
8	Tarix xazinalari	13	8	1	1	3	
9	San'at va madaniyat	13	7	2		4	
10	Huquqimiz – haqimiz	13	9	1		3	
11	O'quv yili oxirida takrorlash	6		1	1		4
Jami:		136	74	12	4	38	8



VIII SINF

(102 soat + *34 soat)

I bo'lim. MEN, SEN, U VA ULAR

(11 soat + *3 soat)

Istiqlol orzusi (jadidlar, qatag'on)

O'zbek adabiy tili rivojida jadidlarning o'rne bilan bog'liq matn bilan tanishish, jadid adabiyoti namunalarining til xususiyatlari. Unda qo'llangan atamalar va grammatik shakllarni bugungi kundagi adabiy til me'yorlari bilan qiyoslash mashqlari.

So'z turkumlarini farqlashga oid bilimlarni takrorlash, so'zlarni turkumlarga ajratish, yordamchi so'zlar, alohida olingan so'zlar guruhiga oid mashq va topshiriqlar.

Jadidlarning o'zbek tili rivojiga qo'shgan hissasi haqidagi ma'lumotlardan foydalanib, daliliy tafsilotlarga asoslangan holda ijodiy-tavsifiy xarakterdagi matn yaratish.

Mahalla guzari (qo'shnichilik, mahalla oqsoqoli, munosabatlar)

Joy nomlari, qadriyat va an'analarga oid til birliklari bilan tanishish, berilgan matnlar tarkibidan ushbu birliklarni aniqlay olish, ma'nolari ustida ishlash, ularning talaffuzi va imlosi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

So'z birikmasi. So'z birikmasining o'ziga xos xususiyatlari. Har qanday so'zlarning o'zaro birikishi so'z birikmasini hosil qila olmasligi, so'z birikmasining qo'shma so'z, ibora, tasviriy ifoda va gaplardan qanday farqlanishini aniqlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Tinish belgilari: nuqta, undov, so'roq, vergul, ikki nuqta, ko'p nuqta, nuqtali vergul, qo'shtirnoq, tire, qavs tinish belgilarining qo'llanilish o'rne jihatidan farqlari.

O'z mahallasining joylashish o'rne, nomlanishi, mahallasiga xos bo'lgan urf-odat va qadriyatlar bilan bog'liq tavsifiy matn yaratish.

Muammoga yechim izlang. (muammoli vaziyatda o'zini tutish, zarur chora-tadbirlar haqida ko'nikmalar)

Tinglangan dialogik va polilogik nutq va bahsda tomonlarning vazifasi, fikri va qarashlarini farqlash, ularga munosabat bildirish, savollarga javob berish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Bunda bahslashish odobi, o'z fikrlarini ifoda etish qoidalari, so'zga chiqish hamda murojaat kabi til birliklaridan o'rinli foydalanish.

Nutq uslublari haqida umumiy ma'lumot: so'zlashuv, ilmiy, publitsistik, badiiy va rasmiy uslub. Nutq uslublari farqlay olishning ahamiyatli jihatlari.

Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari. Gap – so'z yoki so'zlar vositasida anglatilgan fikr. Xabar, so'roq, buyurish, undash, istak-xohish ma'nosini anglatuvchi gaplar.

“Dunyoni o'zgartirishni xohlayman” mavzusida berilgan muhokama matnini o'qish, matn mazmuniga munosabat bildirish, mavzuni davom ettirish. Og'zaki tuzilgan matndan yozma matn uchun fikrlarni saralay olish,



izchilligini ta'minlash, qisqa qaydlar yozish, reja tuzish va insho qoralamasini tayyorlash.

O'tish davri boshlandi (o'smirlikka o'tish, ruhiy evrilishlar)

Til va ruhiyat tushunchalari. Ularning bog'liqligi. Ruhiyatga to'g'ri ta'rif. Inson ruhiyatini anglashda tilning o'ni. Hislarini o'zgalarga yetkazishda tilning eng asosiy vosita ekanligi.

Tilning inson ruhiyatini ifodalashga qaratilgan birliklari. "Tuyg'u", "hissiyot", "xohish", "muhabbat", "nafrat" kabi tushunchalarga ta'rif berish orqali ularni aniqlashtirish.

"Inson o'zing" (Erkin Vohidov) she'ri matni ustida ishlash.

"Mening tuyg'ularim" mavzusida matn yaratish. Bunda matnning izchilligini va samarasini oshirish uchun so'zlar, grammatik qoidalar va strukturalarni to'g'ri qo'llash, o'z yozma nutqining ta'sirchanligini oshirish maqsadida badiiy va ritorik vositalarni qo'llay olish.

II bo'lim. TABIAT NE'MATLARI (8 soat + *4 soat)

Orol dengizi — asr fojiasi (Orol dengizi, ekologiya)

Orol muammosiga oid internetdan olingan manbalar mazmunini tahlil qilish, matndagi voqealarga muallifning nuqtayi nazarini aniqlay olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Matn tarkibidan ekologiyaga oid atamalarni aniqlay olish, ular ma'nosini izohlash uchun lug'atlardan foydalanish.

Kiritma — so'zlovchining o'z fikriga munosabatini bildiruvchi so'z. Kiritmani ifodalovchi so'zlar, kiritmalardan og'zaki va yozma nutqda foydalanishga oid mashq va topshiriqlar.

Insho — ijodiy-tavsifiy matn. "Insho" so'zining izohi. Inshoning boshqa matnlardan farqi. Insho yozish talablari. Tezis, reja, qoralama. Insho mavzu va mazmuni. Inshoning maqsadiga ko'ra turlari.

Orol muammosi bilan bog'liq rasmlar asosida o'z fikr va hissiyotlarini to'g'ri, izchil ravishda ifodalab "Orolni qanday qutqarish mumkin?" mavzusida 16–18ta gapdan iborat matn yaratish.

Azon qatlami (azon qatlamining yemirilishi, ekologiya)

Olinma so'zlar talaffuzi va imlosi. Berilgan matn tarkibidan ularni ajrata olish, ular ma'nolarini izohlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Berilgan matnda har bir so'z, so'z birikmasi va gap shaklining qanday ma'no tashiyotganini, nima uchun aynan shu so'z, birikma yoki gap qo'llanganini, grammatik vositalarning hamda matn tuzilishi va uning tarkibiy qismlarini bog'lovchi vositalarning vazifasini tushunish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Epigraf. Epigraf tanlash, uning ahamiyati. Epigrafning o'rinlashuvi. Insho uchun mos epigraf — ijodkor badiiy va ilmiy saviyasi mahsuli.

Ilmiy insho. Ilmiy insho talablari. Axborot aniqligi, ilmiy tushuncha, terminlar.



Tabiatni muhofaza qilish mavzusida ilmiy insho uchun dalil va ma'lumotlar to'plash, ularni saralash, reja tuzish va izchilligini ta'minlab bayon etish.

Mustahkamlash darsi

III bo'lim. SOG' TANDA – SOG'LOM AQL

(10 soat + *3 soat)

Uyquning me'yori bormi? (uyquning ahamiyati, yoshga ko'ra me'yorlari)

Inson faoliyati bilan bog'liq harakat nomlari (uxlash, ovqatlanish, ...), ularning imlosi. Harakat nomlarining qo'llanilishi, ularning grammatik vazifalari. Berilgan matn tarkibidan shunday birliklarni aniqlash va ular tahliliga oid mashq va topshiriqlar.

Teng va tobe bog'lanish: so'z qo'shilmasi va so'z birikmasi. Tobe bog'lanish usullari. So'z birikmasining fikr ifodalashdagi ulushi. So'z birikmasini kengaytirish yordamida fikr ifodalash bilan bog'liq topshiriqlar.

Gaplarning ifoda maqsadiga mos keluvchi tinish belgilaridan foydalanish, og'zaki nutqda gaplarning ifoda maqsadiga mos ohangni qo'llay olishga oid mashqlar.

Matn va lug'atlar ustida ishlash: gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlarida ifodalanayotgan yondosh ma'nolarni aniqlash bo'yicha topshiriq, "Otam aytgan o'git" matni ustida ishlash, gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlari bo'yicha, tinish belgilarining qo'llanilishi bo'yicha tahlil.

Reja. Insho yozishda rejaning muhimligi. Reja turlari. Sodda va murakkab rejalar.

Turli ko'rinishda berilgan materiallar asosida o'z fikr va hissiyotlarini to'g'ri, izchil ifodalash, shuningdek, turli mazmundagi 16–18ta gapdan iborat matn yozish. Bunda kiritmalardan nutqda to'g'ri foydalanish.

DNK nima? (DNK, genetika)

Qisqartma so'zlar, ularning imlosi. Qisqartma so'zlarni hosil qilish qoidalari. Berilgan qisqartma so'zlarni kengaytirib yozish mashqlari.

Berilgan matn tarkibidan olinma so'zlarni aniqlash, matnni qismlarga ajratish, qismlarni bog'lovchi vositalarni aniqlash hamda unga sarlavha/sarlavhalarni topish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Gap bo'laklari. Kesim – gapning markaziy bo'lagi. Fe'dan boshqa so'z turkumlari ham kesimni ifodalay olishi, kesimning birikmali holda ifodalanishiga oid mashq va topshiriqlar.

"Kichik tadqiqotchi" mashqi asosida mavzu bilan bog'liq ilmiy matn yaratish. Fiklarni ilmiy asoslashga, terminlardan o'rinli foydalanishga erishish mashqlari.

Mustahkamlash darsi

Nazorat ishi va tahlili

IV bo'lim. KASBIM – FAXRIM

(9 soat + *4 soat)



Eng nufuzli universitetlar: Oksford, Garvard (OTM tarixi, alohida xususiyatlari)

Atoqli otlar va olinma soʻzlar, ularning talaffuzi va imlosi. Berilgan matn tarkibidan atoqli otlar va olinma soʻzlarni ajratish, ularning imlosi va talaffuziga oid mashq va topshiriqlar. Olinma soʻzlar izohi bilan tanishish.

Tinglangan dialogik va polilogik nutq va bahsda tomonlarning vazifasi, fikri va qarashlarini farqlash, ularga munosabat bildira olish, savollarga javob berishga oid topshiriqlar.

Fikr ifodalashning qoʻshimcha vositalari. Uyushiq boʻlak, undan oʻrinli foydalanish va imlosi bilan tanishish. Uyushiq boʻlaklar uchun umumlashtiruvchi soʻzni tanlay olish, ogʻzaki va yozma nutqda undan toʻgʻri foydalanish.

Ega – kesimdan anglashilgan harakatning bajaruvchisi yoki belgining egasi. Ega va kesim orasida tirening ishlatilishi. Egali va egasiz gaplar.

Oliy taʼlim muassasalarining reytinglari bilan bogʻliq diagrammalarni sharhlash bilan bogʻliq topshiriqlar.

Jurnalist kim? (jurnalist, muxbir, muharrir)

Jurnalistika sohasiga oid til birliklari, ularning talaffuzi va maʼnolarini izohlash. Berilgan matndagi voqealarga muallifning nuqtayi nazarini aniqlay olish, xulosa chiqarish va xulosani matnda berilgan hodisaga bogʻlay olishga oid topshiriqlar.

Oʻzbek tilidagi asosiy tovushlar, unli va undosh tovushlarning soʻzning turli oʻrinlaridagi talaffuzi, adabiy talaffuz meʼyorlari, soʻzlarni bogʻlashdagi talaffuz qoidalari. Qisqartmalar talaffuzi. Talaffuzda eng koʻp yoʻl qoʻyiladigan xatolar ustida ishlash. Aniq talaffuz qilishni taʼminlovchi mashqlar bilan tanishish.

Matn. Matnning tuzilishi. Matnning hajmiga koʻra turlari. Makro va mikro matn. Matn tuzish qoidalari.

Ijtimoiy tarmoqlarda berilgan axborot matnlarining imloviy, uslubiy xatoliklarini aniqlash, ularni tahrirlash bilan bogʻliq mashqlar.

Bir lavozimdan boshqasiga oʻtkazish uchun tavsiyanoma yozish.

Marketolog (savdo, marketing, zamonaviy kasblar)

Zamonaviy kasblarga oid til birliklari, ularning talaffuzi va imlosi. Zamonaviy kasblar nomlarining kelib chiqishi, ular ifodalagan maʼnoni izohlash bilan bogʻliq mashq va topshiriqlar. Muayyan sohaga oid til birliklari yordamida matn yaratish. Bunda kiritmalardan nutqda toʻgʻri foydalanish.

Ajratilgan boʻlakni ifodalash usullari, ajratilgan boʻlakli gaplarda tinish belgilaridan va ohangdan toʻgʻri foydalanish. Ajratilgan boʻlak va uyushiq boʻlakning oʻzaro farqi.

Publitsistik uslub, publitsistik uslubdagi matnni yaratish qoidalari, unda qoʻllaniladigan til birliklari. Publitsistik uslubda yozilgan matnning ifoda shakli va unda qoʻllanilgan til birliklarini tahlil qilish mashqlari.

Savdo-sotiq doʻkonlari, maishiy xizmat koʻrsatish shaxobchalari, tashkilot, korxona va muassasa nomlarining tanlanishi, ularning imlosi bilan



bog'liq ma'lumotlarni to'plash hamda ushbu ma'lumotlarga nisbatan tanqidiy ruhdagi publitsistik matn tayyorlash.

Mustahkamlash darsi

V bo'lim. YOSH IQTISODCHI

(13 soat + *3 soat)

Moliyaviy piramida (moliyaviy firibgarliklar)

Moliya bilan bog'liq til birliklari, ularning talaffuzi va imlosi. Moliyaviy atamalarni berilgan matn tarkibidan aniqlash, ularning izohi bilan tanishishga oid mashq va topshiriqlar.

Ikkinchi darajali bo'laklarning gapdagi o'rne. Fikr ifodalashda sodda yig'iq va sodda yoyiq gap. Gaplarni ikkinchi darajali bo'laklar hamda bosh bo'laklarning qo'llanilishiga ko'ra turlarga ajratish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Bir mavzudagi uch xil uslubda berilgan matnlar tahlili. Ularda qo'llanilgan til birliklari, grammatik shakllarni aniqlash, ularni farqlash.

Mavzu bilan bog'liq jadval ko'rinishida berilgan ma'lumotlarni tushunish, ularni axborot matni ko'rinishida yoza olish. Matnda berilgan ma'lumotlar yuzasidan mulohaza yuritish, ularga munosabat bildirish va foydalanish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Qimmatli qog'ozlar (aksiya va obligatsiyalar)

Olinma so'zlar talaffuzi va imlosi. Moliyaviy atamalarni berilgan matn tarkibidan aniqlash, ularning izohi bilan tanishishga oid mashq va topshiriqlar.

Hol – kesimdan anglashilgan ish-harakat yoki holatning belgisini bildiruvchi bo'lak. Holning ifodalanishi. Berilgan gaplar va matnlar tarkibidan holni aniqlash, uning ifodalanishini tahlil qilish, og'zaki va yozma nutqda holdan to'g'ri foydalanish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Matndagi gaplarni bog'lovchi vositalar. Matn tuzish talablari (mavzu, sarlavha; ravonlik, mantiqiylik, aniqlik va nutq sofligi).

Qimmatli qog'ozlarda mavjud bo'lgan belgilarni tushunish, ulardan foydalana olishga oid mashqlar. Qimmatli qog'ozlarning vazifasi, inson hayotidagi ahamiyatini tavsiflashga oid fikrlarni og'zaki/yoza ko'rinishda ifodalash.

Internet do'konlari (amazon, alibaba, olx)

Olinma so'zlar imlosi, savdo-sotiq bilan bog'liq til birliklari. Berilgan matnlar tarkibidan olinma so'zlar va savdo-sotiq bilan bog'liq til birliklarini aniqlash, ularning izohi bilan tanishish. Internet do'konlari bilan bog'liq murakkab grafik chizma hamda diagrammalar ko'rinishida berilgan ma'lumotlarni og'zaki ifodalab berish mashqlari.

To'ldiruvchi va uning ifodalanishi. Berilgan gaplar va matnlar tarkibidan to'ldiruvchini aniqlash, uning ifodalanishini tahlil qilish, og'zaki va yozma nutqda to'ldiruvchidan to'g'ri foydalanish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.



“Internetda hammasi bor” mavzusidagi insho uchun sodda va murakkab reja tuzish. Reja tuzishda mazmun izchilligiga e’tibor qaratish, mavzu dolzarbligini ifodalay olish.

O’zi istagan biror mahsulot uchun reklama matni tayyorlash. Reklamaga oid til birliklaridan foydalanish, reklama tayyorlash qoidalariga amal qilish, o’z mahsuloti uchun logotip tayyorlash bilan bog’liq mashq va topshiriqlar.

Bitkoin bilan tanishmisiz? (Kriptovalyuta, foyda-zarar, qimor, aldovlar)

Internetga oid til birliklari, olinma so’zlar talaffuzi va imlosi. Berilgan matnlar tarkibidan bitkoinga oid til birliklari va olinma so’zlar bilan bog’liq til birliklarini aniqlash, ularning izohi bilan tanishish.

Tinglangan dialogik nutqda tomonlarning vazifasi, fikri va qarashlarini farqlash, ularga munosabat bildirish, savollarga javob berish bilan bog’liq mashq va topshiriqlar.

Aniqlovchi. Aniqlovchi sifatlaydi, izohlaydi, kimga qarashli ekanligini aniqlaydi. Aniqlovchining ifodalanishi. Berilgan gaplar va matnlar tarkibidan aniqlovchini aniqlash, uning ifodalanishini tahlil qilish, og’zaki va yozma nutqda to’ldiruvchidan to’g’ri foydalanish bilan bog’liq mashq va topshiriqlar.

Erkin mavzudagi insholar. Erkin mavzudagi insholarning o’ziga xos xususiyatlari. Shaxsiy taassurotlar ifodasi. Erkinligi. Ommabopligi.

“Shaxsiy qarashlarim” mavzusidagi insho uchun reja tuzish, shaxsiy qarashlari aks etgan insho yozish, o’qish va unda ifodalangan fikrlarini himoya qila olish. Bunda kiritmalardan to’g’ri foydalanish.

Tarjimayi hol yozish.

Mustahkamlash darsi

Nazorat ishi va tahlili

VI bo’lim. FAN VA TEXNOLOGIYALAR (6 soat + *4 soat)

Nanotexnologiyalar

Olinma so’zlar talaffuzi va imlosi. Nanotexnologiyalarga oid til birliklari. Berilgan matnlar tarkibidan mavzu bilan bog’liq atamalarni, olinma so’zlarni aniqlash, ularning izohi bilan tanishish.

Videomaterialda berilgan ma’lumotni yozma, grafik va rasm ko’rinishida ifodalay olish, unda ifodalangan ma’lumotlardan foydalanish bilan bog’liq mashq va topshiriqlar.

Gap bo’laklarining odatdagi va o’zgargan tartibini aniqlash. O’zgargan tartib, uning vazifasi. Gapdagi biror bo’lakni alohida ta’kildab aytishda gap urg’usining ahamiyati.

Berilgan muayyan narsa haqida ma’lumot yetkazish maqsadida ijodiy-tavsifiy xarakterdagi matn yarata olish, bunda daliliy tafsilotlarga asoslanish mashqlari.

Muqobil energiya



Energetika bilan bog'liq til birliklari, ularning talaffuzi va imlosi. Berilgan matnlar tarkibidan energetikaga oid til birliklari va olinma so'zlar bilan bog'liq til birliklarini aniqlash, ularning izohi bilan tanishish.

Mazmunida muqobil energiya manbalarining istiqbollari yoritilgan matnni o'qish, axborotga munosabat bildirish, matnning ifoda xususiyatini aniqlash. Shu mavzuda ixtiyoriy turi bo'yicha insho yozish.

Rasmiy uslub, rasmiy uslubdagi matnni yaratish qoidalari, unda qo'llaniladigan til birliklari. Rasmiy uslubda yozilgan matnning ifoda shakli va unda qo'llanilgan til birliklari bo'yicha tahlil qilish mashqlari.

Hisobot yozish. Matn ko'rinishida berilgan ma'lumotlarning asosiy parametrlarini aniqlash hamda ularni diagramma, jadval ko'rinishida ifodalash, bunday ko'rinishdagi matnlarni qo'llash sohasi va ularni taqdim etish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Mustahkamlash darsi

VII bo'lim. TIL VA DIL (11 soat + *4 soat)

Sanamay sakkiz dema.

Nutqiy faoliyat fe'llari, ular imlosi. Berilgan nutqiy faoliyat fe'llarining umumiy va xususiy ma'nolarini ajratish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Monolog va muloqot. Nutqning monologik, dialogik, polilogik ko'rinishlarini ajrata olish. Monologik va suhbat tarzidagi nutqning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yozma va og'zaki shakllarini yarata olish.

Badiiy uslub, badiiy uslubdagi matnni yaratish qoidalari, unda qo'llaniladigan til birliklari. Badiiy uslubda yozilgan matnning ifoda shakli va unda qo'llanilgan til birliklari bo'yicha tahlil qilish mashqlari.

Istalgan asardan monologik yoki dialogik nutq ko'rinishlarini sahnalashtirish.

Nutqqa ta'sir ko'rsatuvchi verbal va noverbal vositalar. Mimika, pantomimika, nafas olish texnikasi, anafora, gradatsiya, inversiya, intonatsiya tushunchalarini bilish va ulardan nutqda foydalana olish.

Videomaterial orqali mimika va pantomimika ko'rinishida berilgan axborotni og'zaki/yozma nutq orqali ifodalash mashqlari.

"Teskari insho" topshirig'i orqali berilgan hikmatli so'z, maqol, badiiy matndan parchaga mos insho mavzusini yozish. Teran, ta'sirchan fikrlarni ilg'ay olish.

Maktab gazetasi muharriri

Matbuotga oid til birliklari, ularning talaffuzi va imlosi. Sohaga oid atamalarining ma'nolarini aniqlash, ulardan og'zaki va yozma nutqda foydalanish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Ritorik so'roq gap. So'roq, buyruq va istak gaplarning uslubiy xususiyatlarini bilish, o'rganilgan qoidalar asosida nutqda qo'llay olish.

So'z-gap, uning qo'llanilish sabablari. Og'zaki va yozma fikr ifodalashda so'z-gaplardan foydalanish mashqlari.

”Matn haqida matn” mavzusidagi ilmiy matnni o’qish, undagi axborotni anglash, og’zaki va yozma nutqda olingan ma’lumotlardan o’rinli foydalanish. ”Kim ta’sirchan hikoya qiladi?” taqdimoti asosida muayyan mavzuda hikoya qilish mashqi.

Berilgan mavzuda muayyan yoshdagi gazetxonlarga mo’ljallangan gazeta loyihasini tayyorlash. Uning mundarijasi, unga ma’lumotlar tanlash, uning ko’rinishi va shakli bilan bog’liq fikrlari ifodalangan taqdimot tayyorlash hamda o’z fikrlarini ifodalash topshiriqlari.

Qaysi shevada gapirasiz?

Shevaga oid til birliklari, ular ifodalagan ma’no. Shevaga xos so’zlarning badiiy matnlarda qo’llanilishidan ko’zlangan asosiy maqsadni aniqlash bilan bog’liq mashq va topshiriqlar.

Nutqimizdagi madaniyat. Nutq madaniyati, o’zbek muloqot xulqi. ”O’zbek muloqot odobi” matni bilan tanishish.

Muloqot madaniyatida jins jihatdan xoslanish. O’zbek erkak va ayollarining muloqot xulqidagi o’ziga xos sifatlar. ”Dadam va oyimning nutqi” mavzusida matn yaratish.

Adabiy mavzudagi insholar. Adabiy mavzudagi insholarning o’ziga xos xususiyatlari. Unda qo’llaniladigan til birliklari.

”Badiiy asar bilimdoni” mashqi asosida adabiy mavzudagi insho yozish talablarini yodga olish.

VIII bo’lim. TARIX XAZINALARI

(9 soat + *3 soat)

Ma’mun akademiyasi

Olinma so’zlar, atoqli otlar, ularning talaffuzi va imlosi. Berilgan matnlar tarkibidan olinma so’zlar va atoqli otlarni aniqlash, ularning izohi bilan tanishish.

Matn va lug’atlar ustida ishlash: ”Yurtimizning qadimiy shaharlari” matni ustida ishlash. Ta’limiy mazmundagi asarlardan parcha bilan tanishish. Erkin Vohidovning ”So’z latofati” asaridan parchalar bilan ishlash.

Atov gap – voqea-hodisani, narsa-buyum va davrni jonli gavdalantirishning tasviriy vositasi. Atov gapning ifodalanishi, to’liqsiz gap va kiritmalardan farqi.

Ilmiy uslubdagi matnni yaratish qoidalariga rioya qilgan holda qadimiy shaharlar, buyuk allomalar haqida matn yaratish.

U dunyoni o’zgartirgan: Ibn Sino

Tibbiyot bilan bog’liq til birliklari, olinma so’zlar, ularning talaffuzi va imlosi. Berilgan matnlar tarkibidan olinma so’zlar va tibbiyot bilan bog’liq til birliklarini aniqlash, ularning izohi bilan tanishish.

Matn turlari. Ma’lumotnoma matni. Ma’lumotnoma matnining xususiyatlari. Axborot berish. Matn tuzuvchining xolisligi. Qo’llanish o’rinlari.

Undalma – so’zlovchining fikri qaratilgan shaxs yoki narsa. Undalma va kiritmalarning ifodalanishi, ularda ohang va tinish belgilarining qo’llanilishi.



Audiomaterialda berilgan ma'lumotlarga tayangan holda tibbiy maslahat yozish mashqlari. Bunda fikr ifodalashning tartibi, kerakli til birliklaridan o'rinli foydalanish.

O'rxun-Enasoy bitiklari

O'rxun-Enasoy bitiklaridan olingan parcha bilan ishlash, unda til birliklari, grammatik shakllarning ifodalanishini o'rganish, lug'at bilan ishlashga oid mashq va topshiriqlar.

Adabiy mavzudagi insholar. Adabiy mavzudagi insholarning o'ziga xos xususiyatlari. "Ortiqchasini top" mashqi orqali adabiy mavzudagi insho mavzularini aniqlash, insho yozish ko'nikmasini shakllantirish mashqlari.

Berilgan matnni o'qish, uning xususiyatiga ko'ra turini aniqlash, ifoda xususiyatini o'zgartirish orqali parchaning hozirgi tildagi tabdilini yaratish. Matnlardagi o'xshashlik va farqlarni izohlash.

Mustahkamlash darsi

IX bo'lim. SAN'AT VA MADANIYAT **(13 soat + *3 soat)**

G'arbning uyg'onishi

"Men uchun qadriyat nima?" Mavzusida matn yaratish va shu mavzuda og'zaki fikr bildirish.

Bugungi dunyoning umumiy qiyofasi to'g'risida yozma va og'zaki tarzda fikr bildirish. Bugungi dunyo bilan hamnafas bo'lish qaysi qadriyatlardan voz kechishni talab qilishi to'g'risida guruh bo'lib bahsga kirishish.

"Dang'illama to'yga emas, kelajakka pul tikaman" mavzusida matn yaratish.

Matn va lug'atlar ustida ishlash: "Kiyinish odobiga rioya qilamanmi?", "Murojaatni bildiruvchi so'zlar, o'zbekona murojaat usullari", "Rahmat, bor bo'ling!" kabi matnlar ustida ishlash.

Milliy maqomchilik san'ati

Musiqqa bilan bog'liq til birliklari, ularning talaffuzi va imlosi. Berilgan matnlar tarkibidan musiqa bilan bog'liq til birliklarini aniqlash, ularning izohi bilan tanishishga doir mashq va topshiriqlar.

Ijodiy-tavsifiy matnning o'ziga xos xususiyatlari. Mualliflik, badiiylik, ijodkorlik, ta'sirchanlik.

Talaffuz mashqlari. Talaffuzdagi nuqsonlarni bartaraf etishga qaratilgan mashqlarni o'rganish, ularni mustaqil bajara olish.

Matn va lug'atlar ustida ishlash: "Teatr nega ibratxona?" mavzusidagi matn bilan ishlash, so'z birikmalari bo'yicha tahlil.

Tinglangan audiomaterialning ifoda uslubini aniqlash, unda qo'llanilgan so'roq gap, darak gap, undov va kinoya ohangidagi gaplarni farqlash, matn yuzasidan xulosa chiqargan xulosalarini yozma ifodalash.

Nazorat ishi va tahlili

X bo'lim. HUQUQIMIZ – HAQIMIZ

(6 soat + 3 soat)

Diqqat, korrupsiya!

Olinma soʻzlar, huquqiy madaniyat bilan bogʻliq tushunchalar, ularning talaffuzi va imlosi. Berilgan matnlar tarkibidan olinma soʻzlar va huquqiy madaniyat bilan bogʻliq tushunchalarni aniqlash, ularning izohi bilan tanishish.

Publitsistik va rasmiy uslubda berilgan matnlar tahlili. Ularning farqlarini aniqlash. Nutq uslublarini farqlay olishning ahamiyatli jihatlari.

Matn mazmunidan turli koʻrsatmalarni tushunish va tavsiyalarni bajara olish, matndagi voqealarga muallifning nuqtayi nazarini aniqlay olish bilan bogʻliq mashq va topshiriqlar.

Bayonnoma yozish qoidalariga rioya qilgan holda maʼlum mavzuda korrupsiyaviy holat boʻyicha bayonnoma yozish.

Mavzu bilan bogʻliq hadis va hikmatli soʻzlarni toʻplash va yozish mashqlari.

Odil Sud

Sud-huquq tizimiga oid til birliklari, ularning talaffuzi va imlosi. Berilgan matnlar tarkibidan sud-huquq tizimiga oid til birliklarini aniqlash, ularning izohi bilan tanishish.

Tavsifnoma, uning yozilish qoidalariga rioya qilgan holda maʼlum mavzuda tavsifnoma yozish.

Tushuntirish xatining yozilish qoidalariga rioya qilgan holda maʼlum vaziyat bilan bogʻliq tushuntirish xati yozish.

Soʻz erkinligi

Publitsistik va rasmiy uslub, ularning farqlari. Nutq uslublarini farqlay olishning ahamiyatli jihatlari.

Berilayotgan axborotning ishonchliligi, aniqligi, toʻgʻriligi kabi sifatlariga baho berish hamda uni eʼlon qilish shakllari bilan bogʻliq mashq va topshiriqlar.

“Nohaqqdirman, lekin fikr oʻzimniki” mashqi asosida erkin mavzudagi insho yuzasidan olingan bilimlarni amaliyotda qoʻllay olish.

Maʼmuriy javobgarlik

Rasmiy uslubdagi matn bilan ishlash, unda qoʻllaniladigan til birliklari, grammatik shakllar ifodasi.

Kodekslar sharhi, unda qoʻllanilgan til birliklari, grammatik shakllarni tahlil qilish, ifoda uslubiga baho berish bilan bogʻliq mashq va topshiriqlar.

Qonun va moddalarni ommaga tushunadigan uslubda yozma ifodalash, bunda kerakli til birliklarini tanlay olish, huquqiy atamalarni izohlash.

Ariza yozish qoidalariga rioya qilish mashqlari.

XI boʻlim. OʻQUV YILI OXIRIDA TAKRORLASH (6 soat)



Ushbu soatlarda o'quvchining yil davomida olgan o'qib, eshitib tushunish, og'zaki va yozma nutqqa oid bilim, ko'nikma va malakalari sinovdan o'tkaziladi. Sinov natijalari asosida qo'shimcha ta'limiy ishlar amalga oshiriladi.

Nazorati ishi va tahlil

MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Bo'limlar nomi	Soatlar taqsimoti					
		Jami	Yangi mavzu uchun	Nazorat ishlari	Nazorat ishlari tahlili	Mustahkamlash	Takrorlash
1	Men, sen, u va ular	11	7				4
2	Tabiat ne'matlari	8	6	1		1	
3	Sog' tanda – sog'lom aql	10	8	1	1		
4	Kasbim – faxrim	9	7	1		1	
5	Yosh iqtisodchi	13	11	1	1		
6	Fan va texnologiyalar	6	4	1		1	
7	Til va dil	11	9	2			
8	Tarix xazinalari	9	7	1		1	
9	San'at va madaniyat	13	10	2	1		
10	Huquqimiz – haqimiz	6	5	1			
11	O'quv yili oxirida takrorlash	6		1	1		4
Jami:		102	74	12	4	4	8



IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM UCHUN MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Bo'limlar nomi	Soatlar taqsimoti					
		Jami	Yangi mavzu uchun	Nazorat ishlari	Nazorat ishlari tahlili	Mustahkamlash	Takrorlash
1	Men, sen, u va ular	14	7			3	4
2	Tabiat ne'matlari	12	6	1		5	
3	Sog' tanda – sog'lom aql	13	8	1	1	3	
4	Kasbim – faxrim	13	7	1		5	
5	Yosh iqtisodchi	16	11	1	1	3	
6	Fan va texnologiyalar	10	4	1		5	
7	Til va dil	15	9	2		4	
8	Tarix xazinalari	12	7	1		4	
9	San'at va madaniyat	16	10	2	1	3	
10	Huquqimiz – haqimiz	9	5	1		3	
11	O'quv yili oxirida takrorlash	6		1	1		4
Jami:		136	74	12	4	38	8



IX SINF

(68 soat + *34 soat)

I bo'lim. MEN, SEN, U VA ULAR

(5 soat + *3 soat)

Kelajakdagi O'zbekiston (vatan kelajagi, oldimizga qo'yilgan rejalar)

Vatan mavzusida berilgan ikki xil davrda yozilgan matnlarni qiyoslash, ularda qo'llanilgan til birliklarining ma'nosini sharhlar, til xususiyatlarini aniqlashga oid mashq va topshiriqlar.

So'z birikmasi va boshqa sintaktik birliklarni farqlash, gapning turlari, gap bo'laklari haqida o'tilgan mavzularni takrorlash, ushbu til birliklarining tahlili bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Uyushiq bo'lak, ajratilgan bo'lak, undalma va kiritmalardan to'g'ri foydalanish bilan bog'liq mashq va topshiriqlarni bajarish orqali o'tilgan mavzularni takrorlash.

Kelajakdagi orzu va maqsadlari bilan bog'liq rejalarini taqdimot ko'rinishida tayyorlash, uni himoya qilishda fikr va g'oyalarini mavzudan chetga chiqmagan holda, ta'sirchan va ifodali tarzda yetkazish bilan bog'liq mashqlar.

"Osmono'par inshootlar" matnini o'qish, axborotni anglash, inshootlar joylashgan hudud haqida tushuncha hosil qilish. O'zbekistondagi mashhur inshootlar haqida bilgan ma'lumotlarini so'zlash. Nutq ifodasida uyushiq bo'lak, ajratilgan bo'lak va kiritmalardan foydalanish.

Vatanimga xizmat qilaman (armiya, vatanparvarlik, yurt himoyasi)

Harbiy soha bilan bog'liq til birliklari, ularning talaffuzi va imlosi. Berilgan matnlar tarkibidan shunday birliklarni ajratish, ular ma'nosini izohlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Bir mavzuda berilgan ikki ko'rinishdagi matnlarni matn turlariga ko'ra ajratish, matnni tashkil qilgan grammatik hamda matn tuzilishi va uning tarkibiy qismlarini bog'lovchi vositalarning vazifasini tushunishga oid topshiriqlar.

Nutq uslubi – muayyan nutqiy vaziyatlarda qo'llanadigan til shakli. Nutq uslublarning maqsadga ko'ra nomlanishi. Adabiy tilning vazifaviy uslublari.

Vatan qanday himoya qilinadi mavzusida bahs-munozara tashkil qilish, bunda o'zbek tilining qonun-qoidalariga amal qilgan holda ta'sirchan va ravon so'zlay olish, ohang, ovoz past-balandligi, to'xtam(pauza)dan o'rinli foydalana olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Askarga maktub yozish, bunda xat yozishning uslubiga, qoidalariga rioya qilish hamda unda xat mavzusiga mos keluvchi til birliklaridan foydalana olish.

Tavsiyanoma yozish.

Umrning mazmuni (yashashdan maqsad, jamiyatda o'z o'rnini topish)

Jamiyatshunoslikka oid til birliklari, ularni berilgan matn tarkibidan aniqlay olish, ushbu atamalarning ma'nosini izohlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Asos va qo'shimchalar imlosi. Asosga qo'shimchalar qo'shilganda asosda hamda qo'shimcha tarkibida qanday o'zgarishlar bo'lishi bilan tanishish, ushbu qoidalaridan yozma nutqda to'g'ri foydalanish. Ikki qismdan iborat atocli otlar va qisqartma otlar imlosi.

Nutq jarayonida hech qanday o'zgarishsiz o'zganing gapidan aynan foydalanilgan gap (ko'chirma gap).

Zamonamiz qahramonlari yoki jinoyatga qo'l urgan tengdoshidan xayolan intervyu olish, bunda maqsadiga erishish uchun suhbat mavzusiga mos keluvchi savollarni tanlay olish, suhbat odobiga rioya qilish.

Tushuntirish xati yozish.

"Kuch adolatdadir" (adolat, qonun, ishonch – jamiyatning tayanch tushunchalari)

Qonunchilikda faol qo'llanuvchi atamalar, ularning talaffuzi va imlosi. Berilgan matnlar ichidan qonunchilikka oid atamalarni ajrata olish, ular imlosi va talaffuzi ustida ishlash, ma'nolarini izohlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Gaplarning tuzilishiga ko'ra turlari. Kesimlik belgisiga ko'ra gaplarning tuzilishi. Qo'shma gap va sodda gap, ularning farqi, imlosi.

Ergashgan qo'shma gaplarning umumiy xususiyatlari. Qismlar o'rtasidagi tobelik. So'z birikmasi bilan o'xshashlik. Izohlanayotgan gap, izohlayotgan gap. Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalar, ularning imlosi.

Ishonchli rasmiy saytlardan qonunchilik va unga rioya etilishiga oid axborot bilan tanishish hamda ushbu axborot matniga nisbatan o'z munosabatlari aks etgan taqdimot tayyorlash hamda uni taqdim etish.

Kafolat xati yozish.

II bo'lim. TABIAT NE'MATLARI

(4 soat + *4 soat)

O'zbekiston qo'riqxonalari (tabiat qo'riqxonalari haqida)

Tabiatni asrashga oid matnni tahlil qilish, unda qo'llanilgan qo'riqxonalar bilan bog'liq til birliklarini aniqlash, ular talaffuzi, imlosi hamda ma'nolari bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Matndan birlamchi va ikkilamchi tafsilotlar va xatboshilarni aniqlash mashqlari.

Ajratib yoziladigan so'zlar imlosi. Matnlar tarkibidan ajratib yoziladigan so'zlarning imlosiga oid mashq va topshiriqlar.

Insho haqida ma'lumotga ega bo'lish, uni yarata olish. Insho yozishning qoidalari, inshoning tarkibiy qismi.

Tabiatga oid bir xil mavzudagi ikki xil rasmni sharhlash, ushbu mavzu bilan bog'liq ikki xil uslubda nutq tayyorlay olish va so'zlash, mavzudan chetlashmagan holda fikr va g'oyalarini taqdimot ko'rinishida tayyorlay olishga oid mashq va topshiriqlar.



O'zbekiston qizil kitobiga kiritilgan hayvon va o'simliklar haqida ro'yxat tayyorlash, bunda o'zi tayyorlagan materiallarni tartiblash va umumlashtirish, fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslay olish.

Dalolatnoma yozish.

Yerning ko'rinmas qalqoni (Yer magnit maydoni, infraqizil nurlar)

Fizikaga oid til birliklari, olinma so'zlar, ularning talaffuzi va imlosi. Berilgan matnlar ichidan fizikaga oid til birliklari va atamalarni ajrata olish, ular imlosi va talaffuzi ustida ishlash, ma'nolarini izohlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Qo'shma gapni qismlarga ajratish. Qo'shma gap qismlari o'rtasidagi mazmuniy munosabatni anglash.

Juft so'zlarning chiziqcha bilan yozilishi bo'yicha qoidalar. Tartib sonlarning yozilishi. Ushbu qoidalardan yozma nutqda to'g'ri foydalanishga oid mashqlar.

"Tabiatning biz bilmagan mo'jizalari" mavzusidagi matndan tabiat hodisalari va ularning ob-havoga ta'siri, fasllar almashinuvi haqida ma'lumot olish. O'z kuzatishlari haqida o'rtoqlashish, nutq ifodasida qo'shma gaplardan o'rinli foydalanishga oid mashqlar. Ularning o'rtasidagi mazmuniy munosabatga izoh berish.

Mavzu bilan bog'liq chizma, rasm, jadvallar ko'rinishida berilgan ma'lumotlarni o'qish mashqlari, turli qo'llanmalar, ketma-ketlikda berilgan ko'rsatmalarni tushunish, ushbu ko'rsatmalardan foydalana olish.

Mustahkamlash darsi

III bo'lim. SOG' TANDA – SOG'LOM AQL

(7 soat + *3 soat)

GMO: siz qarshimisiz? (GMO mahsulotlar, zararli oqibatlar)

Qisqartma so'zlar, ularning imlosi, qisqartma so'zlarni hosil qilish. Olinma so'zlar, ularning talaffuzi va imlosi. Berilgan matnlar tarkibidan qisqartma so'zlar va olinma so'zlarni ajratish, ularning ma'nolarini izohlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Qo'shma gap qismlarining bog'lanishi va tasnifi. Bog'lovchili bog'lanish, bog'lovchisiz bog'lanish; bog'lovchilar va bog'lovchi vositalar, ohang, mazmunan bog'lanish.

Birovning aynan keltirilgan gapi va so'zlovchining gapidan tashkil topgan qo'shma gaplar.

1) M: "K". M: "K?" M: "K!";

2) M: "K", — m. M: "K?" — m. M: "K!" — m.;

3) "K", — m. "K?" — m. "K!" — m.;

4) "K, — m, — k"..." va h.k. qolipidagi gaplar va ularda tinish belgilarining qo'llanishi.

Yorliqlarda berilgan ibora va shakllarning nimani ifodalashi, yorliqda qanday ma'lumotlar bo'lishi kerakligi bilan bog'liq matn bilan tanishish. Mahsulot yorliqlari, ularni o'qish va tushunish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.



Biror bir mahsulot uchun yorliq tayyorlash, unda ifodalanishi kerak bo'lgan shakllar va ma'lumotlarni keltirish, ularning joylashishiga noodatiy yondashuv.

Nomofobiya – kasallikning yangi turi (telefonga qaram bo'lib qolish oqibatlar)

Texnikaga oid til birliklari, olinma so'zlar imlosi. Matn tarkibida berilgan atamalarni aniqlash, ularning ma'nolari bilan tanishish, atamalar yordamida lug'at tuzish.

Bosh harflar imlosi. Bosh harflarning qo'llanilishi o'rinlari va sabablari. Berilgan matnlar tarkibidan bosh harflar bilan ifodalangan so'zlar tahlili.

Bog'lovchilar, bog'lovchi vositalar va ohang orqali bog'langan sodda gaplar o'rtasidagi mazmuniy munosabatni anglashga oid topshiriqlar.

O'zi gapirmoqchi bo'lgan mavzu yuzasidan nutq qoralamasini tayyorlash. Bunda materialni tartiblash va umumlashtirish, fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslay olish, matnning izchilligini ta'minlash uchun so'zlar, grammatik qoidalar va strukturalarni to'g'ri qo'llashga oid topshiriqlar.

Tinglangan materialga mos rasm, chizma, belgi va shakllarni tanlash va izohlay olishga oid mashqlar.

Nazorat ishi va tahlili

IV bo'lim. KASBIM – FAXRIM

(8 soat + *4 soat)

Men o'qimoqchi bo'lgan universitet

Ta'lim, kasb-hunarga oid til birliklari. Matn tarkibida berilgan atamalarni aniqlash, ularning ma'nolari bilan tanishish, atamalar yordamida lug'at tuzish.

Bog'langan qo'shma gap, uni bog'lovchi vositalar, ular ifodalagan mazmun. Bog'langan qo'shma gaplarni hosil qilish va turli vaziyatlarda ularni qo'llash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Oddiy va adabiy so'zlashuv uslubi. So'zlashuv uslubining, asosan, og'zaki nutq shaklida namoyon bo'lishi. So'zlashuv uslubiga xos til birliklari. So'zlashuv uslubida ohang vositalari, mimika va imo-ishoralarning o'rni. Adabiy so'zlashuv uslubida me'yor. Atrofdagilar suhbatini kuzatish va tahlil qilish mashqlari.

Yurtimizdagi universitetlar tarixi, bugunigi kundagi reytingi bilan bog'liq ma'lumotlar asosida dialogik matn tuzish va suhbatlashish.

O'zi tanlagan universiteti haqida, nima uchun aynan shu universitetni tanlaganligi bilan bog'liq fikrlarini matn ko'rinishida yoza olish, bunda materialni tartiblash va umumlashtirish, fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslay olish.

Tavsifnoma yozish.

Professor bo'laman (professor, ilmiy unvonlar)



Mavzuga oid matn bilan tanishish, olinma soʻzlar, ularning talaffuzi va imlosi. Berilgan matnlar tarkibidan soha bilan bogʻliq atamalarni ajratish, ularning maʼnolarini izohlash bilan bogʻliq mashq va topshiriqlar.

Ergashgan qoʻshma gap, uni bogʻlovchi vositalar, ular ifodalagan mazmun. Ergashgan qoʻshma gaplarni hosil qilish va turli vaziyatlarda ulardan foydana olish bilan bogʻliq mashq va topshiriqlar.

“Zamonamiz qahramonlari” mavzusida berilgan matnni oʻqish, anglashilgan fikrga munosabat bildirish. Oʻzi uchun qahramon boʻlgan insonlar haqida bahslashish. Nutq ifodasida *deb* soʻzini bogʻlovchi sifatida oʻrinli qoʻllash.

“Miya – eng qimmat resurs” mavzusida matn yaratish. Matnda kelajakda ham kerakli inson boʻlish uchun hozir nimalar qilish kerakligiga toʻxtalish. Uni ogʻzaki tahlil qilib berish.

Menejment (kasb haqida maʼlumot)

Iqtisodga oid til birliklari, olinma soʻzlar, ularning talaffuzi va imlosi. Berilgan matnlar tarkibidan soha bilan bogʻliq atamalar va olinma soʻzlarni ajratish, ularning maʼnolarini izohlash bilan bogʻliq mashq va topshiriqlar.

Bogʻlovchisiz qoʻshma gap, ular ifodalagan mazmun. Bogʻlovchisiz qoʻshma gaplarda tinish belgilari. Bogʻlovchisiz qoʻshma gaplarni hosil qilish va turli vaziyatlarda ulardan foydana olish bogʻliq mashq va topshiriqlar.

“Poyma-poy” mashqi orqali gapning 1-qismiga mos 2-gapni aniqlash. Unda gapning mazmunan mos kelishiga eʼtibor qaratish. Bogʻlovchisiz qoʻshma gapda qismlar mazmunan va ohang jihatdan bogʻlanishini anglash.

Bogʻlovchisiz qoʻshma gap yuzasidan olingan bilimlarni mustahkamlash. Berilgan matnni keng koʻlamli tahlil qilish. Bogʻlovchisiz qoʻshma gap qismlari oʻrtasida tinish belgilarining qoʻllanishi yuzasidan malaka hosil qilish.

<http://kasbtanla.uz/soha/> sayti bilan tanishish va tahliliy material toʻplash, murakkabroq grafik koʻrinishda berilgan chizma va diagrammalarni oʻgzaki ifodalab bera olish.

“Kasbim sari qoʻygan ilk qadamlarim” mavzusida imlo va uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda oʻz fikr va hissiyotlarini toʻgʻri, izchil ifodalash, shuningdek, turli mazmundagi 18–20 ta gapdan iborat tezis tayyorlash.

Mustahkamlash darsi

V boʻlim. YOSH IQTISODCHI

(8 soat + *3 soat)

Bozor iqtisodiyoti va uning qonuniyatlari

Bozor iqtisodiyotiga oid til birliklari (yalpi ichki mahsulot, tovar, kapital..). Olinma soʻzlar imlosi. Joy nomlari imlosi (Chorsu, Eski juva...). Berilgan matnlar tarkibidan shunday til birliklarini aniqlash, ularning maʼnolarini izohlash bilan bogʻliq mashq va topshiriqlar.

Payt, sabab-natija va zidlik munosabatini teng bogʻlovchilar yordamida ifodalash. Bogʻlangan qoʻshma gaplar qanday bogʻlanadi? Teng bogʻlanish.



Tinish belgilari. vergul, tire, ikki nuqta, nuqtali vergul. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari o'rtasidagi tinish belgilarining ma'no anglatishi. Gap qolipi.

O'zbekiston iqtisodiyotining o'sish dinamikasiga oid diagrammalar bilan ishlash, ularda berilgan ma'lumotlarni sharhlash. Shu va shunga o'xshash statistik ma'lumotlardan foydalana olish va taqdim etish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

"Agar men tadbirkor bo'lsam..." mavzusida matn yaratish. Yaratilgan matnlarni tinglash, berilgan fikrga munosabat bildirish, o'z fikrini himoya qilish. Qo'shma gaplarni aniqlash, ularni tarkibiy qismga ajratish, bog'lanishini tushuntirish.

Turizm iqtisodimiz tayanchi (O'zbekistonda turizm, uni rivojlantirish yo'llari)

Turizm sohasiga oid til birliklari va ularning imlosi. Berilgan matnlar tarkibidan shunday til birliklarini aniqlash, ularning ma'nolarini izohlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Tarixiy sana, bayram nomlari, tashkilot va mansab nomlari, mukofotlar, gazeta va jurnal nomlari imlosi, ularni berilgan matnlar tarkibidan ajratish va to'g'ri yozilishiga bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. qoidalarini takrorlash.

Zidlik munosabatini ifodalovchi qo'shma gaplar, ularni bog'lovchi vositalar. Berilgan matnlar tarkibidan zidlov bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gaplarni aniqlash, ularni tahlil qilish va o'z nutqida shunday gaplardan foydalana olish mashqlari.

Yashab turgan hududiga kelgan sayyoh bilan materiallarni tartiblash va umumlashtirish, fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslagan holda suhbat matni tayyorlash.

Biror tarixiy shahar yoki eksponat haqida berilgan rasm asosida tavsifiy matn yaratish. Bunda matnning izchilligini ta'minlash uchun so'zlar, grammatik qoidalar va strukturalarni to'g'ri qo'llash.

Sug'urtadan nima naf? (sug'urtalash tizimlari haqida)

Sug'urtalash bilan bog'liq til birliklari, ularning talaffuzi va imlosi. Berilgan matnlar tarkibidan shunday til birliklarini aniqlash, ularning ma'nolarini izohlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Teng bog'lovchilar yordamida bog'langan qo'shma gaplarda tinish belgilarining qo'llanilishi.

Payt, sabab-natija munosabatlarini ifodalovchi qo'shma gaplar, ularni bog'lovchi vositalar.

Berilgan audio yoki video shakldagi nutq va bahsni eshitib tushuna olish, eshitilgan monologik nutq va suhbat haqidagi savollarga javob bera olish, unga munosabat bildira olish. Jonli nutq va audiomaterialning umumiy mavzusi yuzasidan tilga olingan tafsilotlarni belgilay olish.

Avtomobil sug'urtasi bilan tanishish va shu asosda sug'urta matni yaratish. Bunda sug'urta uchun kerakli til birliklaridan foydalanish, sug'urta matnini yaratishga oid qoidalarga rioya qilish.



Kafolat xati, uning yozilish qoidalari. Kafolat xatining yozilishidan maqsad, unda qo'llaniladigan til birliklari. Kafolat xati yozish.

Nazorat ishi va tahlili

VI bo'lim. FAN VA TEXNOLOGIYALAR

(5 soat + *4 soat)

AES – zarraning cheksiz energiyasi (Atom elektr stansiyalari haqida)

Qisqartma so'zlar, ularning imlosi, qisqartma so'zlarni hosil qilish. Olinma so'zlar, ularning talaffuzi va imlosi. Berilgan matnlar tarkibidan qisqartma so'zlar va olinma so'zlarni ajratish, ularning ma'nolarini izohlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Qo'shma gap qismlarida ifodalangan voqea-hodisaning bittasi yoki galma-gal ro'y berishini ifodalash. Ayiruv bog'lovchilari. Voqea-hodisa galma-gal ro'y berishini ifodalaydigan ayiruv bog'lovchilari. Ayiruv bog'lovchisining yakka va takror qo'llanishi. Qismlar o'rtasida tinish belgisining ishlatilishi.

Fan, texnika va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan uslub. Ilmiy uslubning maxsus terminlar yordamida fanga doir tushunchalarni bayon etishga mo'ljallangani. Ilmiy uslubning boshqa uslublardan farqlovchi belgilari. Ilmiy uslubga xos til birliklari. Ilmiy-ommabop uslub. Ilmiy matnni tahlil qilish mashqlari.

AESlarga oid videomaterial bilan tanishish, bahslashish. Berilgan materialning umumiy mavzusi yuzasidan tilga olingan tafsilotlarni belgilay olish, eshitilganlar asosida xulosa qilish va xulosani dalillar bilan asoslay olish mashqlari.

O'rganilgan materiallar asosida ulardan foydalanib, berilayotgan faktlarning ketma-ketligi va izchilligini ta'minlagan holda ilmiy matn yaratish.

Fanlarning inson hayotidagi o'rni (fan va jamiyat, fan va kundalik turmush)

"Kelajakda dunyo yaxshilanadimi yoki..." mavzusida guruh bo'lib bahsga kirishish. Xulosalarni og'zaki va yozma shaklda bayon etish.

Inkor ma'nosini yuzaga chiqarishda inkor bog'lovchilaridan foydalanish. "Inkor" so'zining izohi. Inkor bog'lovchisi va inkor yuklamasining farqi. Inkor va tasdiq ma'nosi. So'z va gapni bog'lashi. Tinish belgisining ishlatilishi.

Nutq ifodasida inkor bog'lovchisidan o'rinli foydalanish. Inkor bog'lovchisi qanday uslublarda foydalanishini izohlash.

"Mening tasavvurimda insoniyat kelajagi" mavzusida tahliliy matn yaratish.

Mustahkamlash darsi

VII bo'lim. TIL VA DIL

(7 soat + *4 soat)

Mening orzu va istaklarim (orzu, niyat, istak, imkoniyat, maqsad sari harakat)

Berilgan matn tarkibidan faoliyat-jarayon otlari, mavhum otlar, fe'lining buyruq-istak maylidagi shakllarini aniqlash, ular ifodalagan ma'noni sharhlash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Bo'lsa, esa so'zlari yordamida qiyoslash va zidlash munosabatini ifodalash. Qiyoslash va zidlash munosabati. *Bo'lsa, esa* so'zlarining o'rinlashuvi. *Bo'lsa, esa* so'zlarning qo'llanishidagi nutqiy talab. *Bo'lsa* so'zining bog'lovchi bo'lmagan holatlardan farqlash.

Nutqiy faoliyat. Nuqtiiy faoliyat turlari. Og'zaki va yozma nutq haqida tushuncha. "Og'zaki nutq muhimmi yoki yozmami?" mavzusida davra suhbat. Tilning yashab qolishi uchun qaysi nutqiy faoliyat ko'proq ta'sir qilishi haqida fikrlarini bayon qilish.

Imlo va uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda badiiy tasvir vositalaridan foydalanib mavzu bilan bog'liq insho yozish.

Mavzu bilan bog'liq ariza yozish, arizani yozish shakli, unda qo'llaniladigan til birliklariga rioya qilish.

"XXI asr – savodxon insonlar asri. Sen bunga tayyormisan?"

Yozma savodxonlik – inson madaniyatining belgisi. Yozuv – har bir xalqning ma'naviy boyligi, yuksak madaniyati ko'rinishi. Harflar imlosini bilish, ya'ni harflarning yozilish texnikasiga yana bir bor e'tibor qaratish. Tutuq belgisining vazifasi.

Qo'shib, ajratib, chiziqcha bilan yozish bo'yicha mashq va topshiriqlar. "Imlo qoidalari faqat rasmiy hujjat uchunmi?" (O'quvchiga imlo qoidalarga doimo amal qilish lozimligini, ayniqsa, o'zaro yozishmalar(ijtimoiy tarmoqlar)dan foydalanish jarayonida ham bunga e'tibor qaratish zarurligini eslatuvchi ruhda yozilishi kerak).

Asos va qo'shimchalarning imlosi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Badiiy uslub – uslublarning eng murakkabi. Badiiy uslubga xos til birliklari. Badiiy uslubning asosiy xususiyati – bo'yoqdor til birliklaridan, ko'chma ma'noli ifodalardan foydalanishning ustuvorligi. Badiiy asar tilining adabiy til doirasidan chiqib ketish sabablari. Nasriy nutq bilan she'riy nutqning farqi.

Til va nutq munosabati. Til va nutq birliklarini farqlash. Til va nutq matni bilan tanishish, mashqlar bajarish. Til va nutq tushunchalarini misollar bilan farqlab berish.

Savodxonlik haqidagi matn bilan tanishish. O'zi yashayotgan shahar yoki hududdan imloning buzilishi bilan bog'liq faktlarni yig'ish va uni muhokama qilish.

Ertaga yangi kun boshlanadi! (tushkun kayfiyatni yengish, yiqilish mag'lubiyat degani emasligini tushuntirish)

Ruhiyat bilan bog'liq til birliklari, ularning talaffuzi va imlosi. Berilgan matnlar tarkibidan shunday birliklarni ajrata olish. Ushbu birliklarning ma'nolarini izohlash, nutqda ulardan foydalana olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Qo'shma gaplar uslubiyati. Qo'shma gap turlarining mazmunni yuzaga chiqarish darajasiga ko'ra turli uslublarda qo'llanilishi.



“Yaxshi kayfiyatning uch siri” mavzusida bahslashish, xulosa chiqarish, nutq ifodasida qo’shma gap turlaridan o’rinli foydalanish. Nutqni ibora, maqollar bilan boyitish.

Shuning uchun, shu sababli, shu tufayli kabi birikmalar yordamida sabab mazmunini yuzaga chiqarish. Tinish belgisining qo’llanishi.

“..., shuning uchun hayot go’zal” jumlasini to’ldirish, fikrlar xilma-xilligini tahlil qilish, yashash uchun motivatsiya olish.

Gapni qolip bilan ifodalash. Qo’shma gaplarda shart va payt mazmunini ifodalashning yana bir usuli. Shart mayli yordamida ergashgan qo’shma gaplar. Tinish belgisining qo’llanishi.

Tengdoshlariga motivatsiya beruvchi murojaat matni tayyorlash. Bunda “Men “Qizil kitob”ga kiritishni xohlagan tuyg’ular” mavzusida matn yaratish, bahslashish, o’z fikriga dalillar keltirish. Nutqda bog’langan qo’shma gapdan o’rinli foydalanish.

Mustahkamlash darsi

VIII bo’lim. TARIX XAZINALARI

(7 soat + *3 soat)

Jahon urushlari (jahon urushlarining iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy oqibatlari)

Tarix bilan bog’liq til birliklari, ular ifodalagan ma’nolar. Berilgan matnlar tarkibidan shunday birliklarni ajrata olish. Ushbu birliklarning ma’nolarini izohlash, nutqda ulardan foydalana olish bilan bog’liq mashq va topshiriqlar.

Ijtimoiy-siyosiy bilimlarni targ’ib qiluvchi va keng xalq ommasiga yetkazuvchi uslub. Ommani jonlantirish, kishilarning ongiga atrofda sodir bo’layotgan voqealarni singdirish, ularning ijtimoiy qarashlarini shakllantirish uchun xizmat qiluvchi uslub. Publitsistik uslubning og’zaki va yozma shaklda namoyon bo’lishi. Publitsistik uslubga xos til birliklari. Og’zaki va yozma shakldagi publitsistik uslub tahlili.

“Temur nasihati” matnini o’qish, tartib, intizom va mas’uliyatning inson hayotidagi o’rni haqida suhbatlashish. Shart mayli yordamida ergashgan qo’shma gaplarni aniqlash, ularni qolip bilan ifodalash, shart va payt munosabatini tushunish.

Bir mavzuda berilgan ikki uslub: badiiy va publitsistik uslubdagi matn tahlil qilish, unda qo’llangan til birliklari, ifoda usulini baholash bilan bog’liq mashq va topshiriqlar.

U dunyoni o’zgartirdi: Al-Xorazmiy (algebra, arab raqamlari)

Matematikaga oid til birliklari, ular ifodalagan ma’nolar. Berilgan matnlar tarkibidan shunday birliklarni ajrata olish. Ushbu birliklarning ma’nolarini izohlash, nutqda ulardan foydalana olish bilan bog’liq mashq va topshiriqlar.

Qo’shma gaplarda maqsad va sabab mazmunini deb so’zi yordamida ifodalash. *Deb* so’zining asl turkumi, ko’makchi vazifasida kelishidan farqlash, gaplarni bog’lashi. *Deb* so’zi qaysi o’rinda maqsad, qanday



o'rinda sabab ma'nosini ifodalashi. *Deb* so'zining ergash gap tarkibida kelishi. Tinish belgisining qo'llanishi.

Qo'shma gaplarda shart va payt munosabatini ifodalashning yana bir usuli. Shart mayli yordamida ergashgan qo'shma gaplar. Tinish belgilarining qo'llanilishi.

Berilgan matn yordamida arab va rim raqamlarining qo'llanilish o'rinlari bilan tanishish. Arab va rim raqamlaridan foydalanish qoidalar.

Berilgan matematik misolni o'qib, anglash. Uni hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash. U bilan bog'liq mulohaza yurita olish, ushbu misolni matnga aylantirib yozishga oid topshiriqlar.

Nazorat ishi va tahlili

IX bo'lim. SAN'AT VA MADANIYAT

(8 soat + *3 soat)

Ixcham to'ylarga nima deysiz? (isrof, dabdaba)

Milliy an'ana va qadriyatlarga oid til birliklari. Berilgan matnlar tarkibidan shunday birliklarni ajrata olish. Ushbu birliklarning ma'nolarini izohlash, nutqda ulardan foydalana olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Qo'shma so'zlar, ularning imlosi. Matnlar tarkibidan qo'shma so'zlarni ajrata olish, qo'shma fe'l va ko'makchi fe'li so'z qo'shilmasini ajratish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

O'zganing gapi mazmunini saqlab, ammo shaklini o'zgartirib nutqqa olib kirilgan gap (o'zlashtirma gap).

"Dabdabali to'yga emas, kelajakka pul tikaman" mavzusida munozara darsini tashkil etish. Bunda bahslashish odobi va so'zga chiqish, murojaat bilan bog'liq til birliklaridan foydalanish. O'z fikrlarini keltirilgan faktlar va argumentlar yordamida dalillay olish.

O'z tengdoshlari yoshidagi auditoriyaga mo'ljallangan mavzu bilan bog'liq publitsistik uslubdagi matnni yaratish. Bunda dalillardan o'rinli foydalanish, o'z fikrlarini asoslay olish.

G'arb Sharqdan nimalarni o'rgandi? (salib yurishlari, musulmon madaniyatining g'arbga ta'siri)

Diniy madaniyatga oid til birliklari, joy nomlari va yillarning yozilishiga oid qoidalar. Ushbu birliklardan og'zaki va yozma nutqda foydalana olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Berilgan matnini o'qish, matn mazmunidan anglashilgan qarashlarni hayotiy misollar bilan boyitish. Matndagi ergashgan qo'shma gaplarni aniqlash, bosh va ergash gapni topish.

Hurmat ma'nosida kelayotgan olmoshlarning va insonning qayerlik ekanligini ifodalovchi so'zlarning imlosi. (hurmat ma'nosida *Siz*, *O'zingiz* kabi so'zlarning bosh harf bilan yozilishi, *toshkentlik*, *farg'onalik* kabi so'zlarning kichik harf bilan yozilishi)

Hadislardan foydalanib ma'lum mavzuda matn yaratish. Hadis mazmunini tushinish, unda qo'llanilgan til birliklarining mazmuni va shaklini



tushungan holda sharhlay olish. Hadis mazmunini bugungi kun bilan bog'lash.

Audio kitoblarga qanday qaraysiz? (audio kitobning yutuq va kamchiliklari)

Kitob va uning turlariga oid til birliklari, ularning talaffuzi va imlosi. Ushbu til birliklarining mazmunini izohlay olish, ulardan og'zaki va yozma nutqda foydalana olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Qo'shma gaplarda ergashtiruvchi bog'lovchilar yordamida sabab, maqsad, shart yoki qiyosiy ma'noni ifodalash. Ergash gaplarda sabab, maqsad, shart yoki qiyosiy ma'noni ifodalashda ergashtiruvchi bog'lovchilardan foydalanish. Ergashtiruvchi bog'lovchilar va tinish belgilarining qo'llanilish o'rinlari.

Birovning aynan keltirilgan gapi va so'zlovchining gapidan tashkil topgan qo'shma gaplar, ularda tinish belgilarining qo'llanishi.

Berilgan audiokitobdan ma'lumot eshitish va zarur o'rinlarni belgilay olish, ularni qayd etish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Audiomaterial tayyorlash "Bilamiz-u, ammo..." matni yuzasidan bahslashish, mavzuga munosabat bildirish, o'z qarashlarini sodda, ravon, izchil bayon etish. Mavzuni davom ettirish.

"Kitobmi yoki telefon?" mavzusida bahs o'tkazish. Nutq ifodasida tinglash va so'zlash madaniyatini saqlash, fikrni tushunarli, dalillar bilan boyitib bayon qilish.

Mustahkamlash darsi

X bo'lim. HUQUQIMIZ – HAQIMIZ

(5 soat + *3 soat)

Prezident kim? (vazifasi, huquqiy maqomi)

Davlat boshqaruviga oid til birliklari, olinma so'zlar, ularning talaffuzi va imlosi. Ushbu til birliklarining mazmunini izohlay olish, ulardan og'zaki va yozma nutqda foydalana olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Konstitutsiyadan mavzu bilan bog'liq moddalar bilan tanishish, ular mazmunini tahlil qilish, hayotiy vaziyatlar bilan bog'lay olish. O'z fikrlarini ravon, izchil va faktlar asosida taqdimot ko'inishida ifodalay olish.

Prezidentga xat yozish. Bunda xat yozish qoidalari, murojaat birliklaridan o'rinli foydalanish.

Tarjimayi hol, uni yaratish qoidalari asoslanib yoza olish mashqlari.

Qachon men ham saylayman? (saylovlar, saylash huquqi)

Huquqiy atamalar talaffuzi va imlosi, ushbu til birliklarining mazmunini izohlay olish, ulardan og'zaki va yozma nutqda foydalana olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Rasmiy uslub – hozirgi o'zbek adabiy tilining rasmiy yozishmalar va yuridik ishlarda amal qiladigan bir ko'rinishi. Rasmiy uslubda so'z va so'z shakllarini qo'llashdagi muayyan chegaralanishlar. Rasmiy ish qog'ozlari matnining xolislik, aniqlik, ixchamlik, mazmuniy to'liqlikdan iborat zaruriy sifatleri. Rasmiy uslub namunasini yaratish mashqlari.

Saylov byulleteni bilan tanishish, rasmiy ish qog'ozlarining ifoda uslubi, unda qo'llaniladigan til birliklari, grammatik shakllarni tahlil qilish.

Dalolatnoma, uning yozilish qoidalari. Dalolatnomaning yozilishidan maqsad, unda qo'llaniladigan til birliklari. Dalolatnoma yozish.

Adliya vazirligi (adliya tizimi)

Olinma so'zlar imlosi, ularning talaffuzi va imlosi. Berilgan matn tarkibidan ushbu til birliklarini ajratish, ularning mazmunini izohlay olish, ulardan og'zaki va yozma nutqda foydalana olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Nisbiy so'zlar yordamida ergashgan qo'shma gaplar. "Nisbiy" so'zining izohi. So'roq olmoshlarining ergash gap tarkibida kelishi. Bosh gapda keluvchi olmoshlar. Ergash gap kesimining shakli. Gap qolipi. Tinish belgisining qo'llanishi. Bosh gap tarkibidagi olmoshning gapdagi vazifasi. Bosh gap tarkibidagi olmoshning tushib qolishi.

Ko'rsatish olmoshili ergashgan qo'shma gaplar. -ki yuklamasi, ko'rsatish olmoshi. Ko'rsatish olmoshining gapdagi vazifasi. Ko'rsatish olmoshining tushib qolishi.

<https://www.minjust.uz/> sayti bilan tanishish va xatoliklarni aniqlash, ushbu xatolarni tuzatish, rasmiy hujjatlarning yozilish uslubiga munosabat bildirish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Ishonchnoma, uning yozilish qoidalari. Ishonchnomaning yozilishidan maqsad, unda qo'llaniladigan til birliklari. Ishonchnoma yozish.

Tashqi siyosat (O'zbekistonning tashqi siyosati, elchilar)

Siyosatga oid til birliklari. Olinma so'zlar, ularning talaffuzi va imlosi. Berilgan matn tarkibidan ushbu til birliklarini ajratish, ularning mazmunini izohlay olish, ulardan og'zaki va yozma nutqda foydalana olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Ko'chirma gap o'zlashtirma gapga aylantirilganda, uning sodda gap shaklini olishi. Ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gapga aylantirish mashqlari.

Ergashgan qo'shma gap va sodda gapning ma'nodoshligi. Ma'nodoshlik tushunchasi. Nisbiy so'zli va ko'rsatish olmoshili ergashgan qo'shma gapni sodda gapga aylantirish. Qo'shma gapda bo'ladigan shakliy o'zgarishlar. Mazmuniy ma'nodoshlik.

Xalqaro maydondagi siyosiy vaziyatga oid material to'plash va taqdimot qilish, o'z fikrlarini mavzudan chetlashmagan holda ifodalash.

Taklifnoma, uning yozilish qoidalari. Taklifnomaning yozilishidan maqsad, unda qo'llaniladigan til birliklari. Taklifnoma yozish.

XI bo'lim. O'QUV YILI OXIRIDA TAKRORLASH (4 soat)

Ushbu soatlarda o'quvchining yil davomida olgan o'qib, eshitib tushunish, og'zaki va yozma nutqqa oid bilim, ko'nikma va malakalari sinovdan o'tkaziladi. Sinov natijalari asosida qo'shimcha ta'limiy ishlar amalga oshiriladi.

Nazorati ishi va tahlili

MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Bo'limlar nomi	Soatlar taqsimoti					
		Jami	Yangi mavzu uchun	Nazorat ishlari	Nazorat ishlari tahlili	Mustahkamlash	Takrorlash
1	Men, sen, u va ular	5	3				2
2	Tabiat ne'matlari	4	3	1			
3	Sog' tanda – sog'lom aql	7	5	1	1		
4	Kasbim – faxrim	8	6	1		1	
5	Yosh iqtisodchi	8	6	1	1		
6	Fan va texnologiyalar	5	4			1	
7	Til va dil	7	5	1		1	
8	Tarix xazinalari	7	5	1	1		
9	San'at va madaniyat	8	6	1		1	
10	Huquqimiz – haqimiz	5	5				
11	O'quv yili oxirida takrorlash	4		1	1		2
Jami:		68	48	8	4	4	4

№	Bo'limlar nomi	Soatlar taqsimoti					
		Jami	Yangi mavzu uchun	Nazorat ishlari	Nazorat ishlari tahlili	Mustahkamlash	Takrorlash
1	Men, sen, u va ular	8	3			3	2
2	Tabiat ne'matlari	8	3	1		4	
3	Sog' tanda – sog'lom aql	10	5	1	1	3	
4	Kasbim – faxrim	12	6	1		5	
5	Yosh iqtisodchi	11	6	1	1	3	
6	Fan va texnologiyalar	9	4			5	
7	Til va dil	11	5	1		5	
8	Tarix xazinalari	10	5	1	1	3	
9	San'at va madaniyat	11	6	1		4	
10	Huquqimiz – haqimiz	8	5			3	
11	O'quv yili oxirida takrorlash	4		1	1		2
Jami:		102	48	8	4	38	4



X SINF

(68 soat + *34 soat)

I bo'lim. TIL VA EKOOLAM

(2 soat)

KIRISH. (2 soat)

Olam va ekologiya tushunchalari. Nima uchun aynan "Ekoolam" so'zi qo'llanilgani haqida fikr yuritish.

"Til ekologiyasi". Muayyan tildagi leksik birliklarni sof holda saqlab qolish va ulardan to'g'ri foydalanish mavzusida olib borilayotgan izlanishlar to'g'risida suhbat. Suhbat orqali ushbu harakatning ahamiyatini tushuntirish.

Ekoolam bilan bog'liq fikrlarni ifodalash, va ma'lumotlarni olishda tilning ahamiyati.

Ekologiya bilan bog'liq maxsus so'zlar: "tabiat", "yer", "yerosti", "yerusti", "atmosfera" kabilar bilan tanishish.

"Mening hayotim va ekologik global muammolar" mavzusida tahliliy xarakterdagi matn yaratish.

Inson salomatligiga ekoolam ta'siri mavzusida guruh bo'lib bahsga kirishish.

Yozma shaklda xulosalar chiqarish va yechimlar taklif qilishga oid topshiriqlar.

II bo'lim. INSON VA E'TIQOD

TAKRORLASH

(4 soat)

9-sinfidagi bilimlarni takrorlash: qo'shma gap va uning turlari: bog'langan, ergashgan va bog'lovchisiz qo'shma gaplar. Ularda tinish belgilarini to'g'ri qo'llash.

Ko'chirma va o'zlashtirma gaplar, ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gapga aylantirishga oid mashq va topshiriqlar.

Nutq uslublarining o'ziga xos jihatlari. Turli uslubdagi matnlarni farqlash mashqlari.

E'tiqod – insonni tutib turgan ichki ustun. **Ishonch, imon, maslak** tushunchalari. "Konstitutsiyamizning 31-moddasini bilasizmi?" mavzusida suhbat.

"Ezgu e'tiqodga ko'ra yashamayotgan bo'lsangiz, yashayotganingiz kabi e'tiqod qila boshlaysiz!" mavzusida matn yozish.

Nima uchun e'tiqodli odamdan hayiqamiz?" matni bilan ishlash.

"E'tiqodga sadoqat" mavzusida har qanday vaziyatda ham e'tiqodida sobit insonlar haqida ma'lumot to'plash hamda taqdimot qilish. M.: "Men haqiqat uchun boshi ketsa "ih" deydigan yigitlardan emasman!" (Abdulla Qodiriy). "O'tda yoqmoqlik – inkor etmoqlik emas!" (Jordano Bruno).



III bo'lim. NUTQNING OG'ZAKI SHAKLI: IFODA VA VOSITA

(12 soat + *9 soat)

Adabiy tilning og'zaki shakli. Sizga fikr ifodalashning qaysi biri qulay? Fikr ifodalashda og'zaki nutqning imkoniyatlari va uning ta'sirchanligi nimalarga bog'liq ekanligi haqida suhbat. So'zlovchining nutq odobi.

Matn va lug'atlar ustida ishlash. Og'zaki nutqda gap bo'laklarining tartibi nima uchun qat'iy bo'lmaydi? "Og'zaki muloqot – tarbiya va madaniyatning belgisi sifatida" matni bilan ishlash.

Nutq texnikasi. Og'zaki nutqda urg'u va to'xtam. Ovozning balandlik darajasini bilish, undan foydalanish. Tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishning ahamiyati. She'riy asar qanday o'qiladi? Til birliklari bilan ifodalab bo'lmaydigan turlicha fikriy munosabatlarni ifodalash usullari (Yuz va qo'l harakatlarining ahamiyati).

Matn va lug'atlar ustida ishlash: "Sen so'zla, men kimligingni aytaman" matni ustida ishlash, mavzu yuzasidan bahs-munozaraga kirishish.

Mustahkamlash darsi.

Og'zaki nutqni ifodalash shakllari: Monolog, uni ifodalash qoidalari. Bahs va suhbat – og'zaki nutqning ko'rinishi. Bahsga tayyorlanish. Suhbat odobi.

Matn va lug'atlar ustida ishlash: "Mashhur notiqlar ma'ruzaga qanday tayyorlanishgan?" matni ustida ishlash. "Telefonda so'zlashish odobi" mavzusida suhbat. Dramatik asarlardan parchalar ijro etish orqali til vositalarining imkoniyatlari qanday yuzaga chiqishini tajribadan o'tkazish.

Mustahkamlash darsi

Nazorat ishi va tahlili

IV bo'lim. NUTQNING YOZMA SHAKLI: IFODA VA VOSITA

(10 soat + *9 soat)

Adabiy tilning yozma shakli. (Esse, insho). Fikr ifodalashda yozma nutqning ahamiyati. Yozma nutq namunalarinig shakliy va mazmuniy jihatdan farqlari.

Qanday yozish kerak?

Fikrni yozma tarzda ifodalash qonun-qoidalari. Matn yaratishda yordam beruvchi unsurlar.

Ijodiy matn sarlavhasini qanday tanlash kerak? Esse, insho, yozish jarayonida qiziqarli sarlavha tanlay olish nimalarga xizmat qilishi.

Fikrni ifodalashda matn uchun eng muhim birliklarni tanlay olishga oid mashqlar.

Epigrafni to'g'ri tanlash, reja tuzishda ahamiyat berilishi kerak bo'lgan qoidalar.

Mustahkamlash darsi.

Matnning kirish, asosiy va xulosa qismini to'g'ri shakllantirish. Fikrlarni shu qismga moslab ajratish.



Yozma nutqdan turli maqsadlarda foydalanish va bu maqsad yo'lida foydalaniladigan ifoda vositalarini saralay olish.

“Yozma manbalarning insoniyat taqdiridagi o'rni” mavzusida guruhda bahs-munozara olib borish va shu asosida muhokama matni yaratish.

“Do'stinga maktub”, “Salom, qadrdon kundalik!”, “Agar men bloger bo'lsam” mavzularidan biri asosida ijodiy matn yaratish.

Yozma nutqda imlo qoidalariga to'liq rioya etishning ahamiyati. Fikrni yozma tarzda ifodalash vaqtida izchillik, aniqlikka e'tibor qaratish. Matnning mazmuniy qismlarini to'g'ri tartiblay olish.

Yozish uchun tanlangan mavzu yuzasidan material to'play olish va ularni shaxsiy fikrlar bilan uyg'unlashtirishning ahamiyati. Fikr isboti sifatida argumentlardan o'rinni foydalana olish. Mavzuga mos, o'zbek tilidagi maqol, matal, idiomalardan o'rinni foydalanishga oid topshiriqlar.

Mustahkamlash darsi

Nazorat ishi va tahlili

V bo'lim. TIL VA TAFAKKUR

(18 soat + *8 soat)

Matn: shakl va mazmun. Matn turlari. Matnlarni turlarga ajratishning asoslari. Badiiy matn turlari(hikoya, she'r, drabl, drama)ning shakli va mazmuniy xususiyatlari.

Axborot matnlari(ilmiy va ommabop maqola, yo'riqnoma, grafik tasvir va jadvallar, tahliliy va tanqidiy matnlar, qiyoslash matnlari)ning shakli va mazmuniy xususiyatlari.

“Menga qulayi shu” mavzusida taqdimot tayyorlash, unda gazeta va internet nashlaridagi maqolalarni solishtirish. Badiiy va axborot matnlarida til birliklarining qo'llanishi.

Yozma va audio matn. Ularning o'ziga xos xususiyatlari. Talaffuz va ohangning mazmunga ta'siri. Badiiy matnlarning yozma va audio shakllarini taqqoslash. Ma'nodagi o'zgarishlar haqida fikr yuritish. Nimalar ma'noning o'zgarishiga turtki bo'lganini sharhlab berish topshirig'i.

Mustahkamlash darsi

Nazorat ishi va tahlili

Qanday o'qish mumkin? O'qish strategiyalari (eski bilimlarni qo'llash, bashorat qilish, asosiy g'oyani aniqlab olish, so'roqlash, xulosalar chiqarish, tasavvur qilish, hamkorlikda o'qish). “O'qish va tushunish” ilmiy-ommabop matni bilan tanishish. Matnlarni o'qishdagi yondashuvlar. O'qish davomida tushunishga yordam beruvchi omillar.

“Til va tafakkurni nima bog'lab turadi?” matni ustida ishlash.

“Noto'g'ri talaffuz qanday bo'ladi?” matni bilan tanishish.

Audiomatnni tinglayotganda nimalarga e'tibor berish kerakligi, mazmunni tushunish uchun qanday usullardan foydalanish mumkinligi haqida suhbat.

Bunda nima deyilgan? Matn sarlavhasi matn haqida nimalarni ko'rsatib bera olishi. Matnning asosiy g'oyasini aniqlash. Matn mavzusi va



g'oyasini ochib berayotgan birliklarni aniqlash. "SEO (QTO) nima?" matni bilan tanishish, mashq va topshiriqlarni bajarish. Matnda qo'llangan til birliklarining ma'no shakllanishidagi o'rnini baholay olish. So'zlarning o'z va ko'chma (matn ichida anglatayotgan) ma'nolarini aniqlashga oid mashq va topshiriqlar.

Qo'shiqlar va kliplarning nomutanosibligi mavzusida bahs yuritish. Tinglash jarayonida mazmunni tushunishga nimalar halal berishi haqida ma'lumot.

Mustahkamlash darsi

Nazorat ishi va tahlili

VI bo'lim. TILNING IFODA IMKONIYATLARI

(20 soat + *8 soat)

Nutq tovushlari jilosi. So'zning eng kichik qismi. Bir tovush orqali his-tuyg'ular ifodasi. So'zning leksik ma'nosini o'zgartiruvchi nutq tovushlari. Bir tovush bilan ma'no farqlanishi (paronimlar).

M, q, r, y, k, a, i, t, ch tovushlari yordamida yangi so'z yasash bahsi orqali nutq tovushlarining ahamiyati haqida tushuncha hosil qilish. "Bir tovush ma'nosi" mashqi orqali "o', a, o..." tovushlari ifodalagan ma'nolarni izohlash. Berilgan matndagi nuqtalar o'rniga paronim so'zlarning mosini qo'yish.

Nutq ifodasida imo-ishoralarning o'rne. His-hayajon ifodasi. Munosabat ifodasi. Ijtimoiy tarmoqlarda munosabat bildiruvchi "qiyofalar" (stikerlar). Ularni so'zga almashtirish.

"Dahshat" hikoyasidan berilgan parcha orqali nutq ifodasida imo-ishoralarning o'rne haqida tushuncha hosil qilish. Hayotiy misollar bilan fikrlarni dalillash, ijtimoiy tarmoqdagi munosabat bildiruvchi "qiyofalar" haqida bahslashish.

So'z – birinchi mo'jiza. So'zning ma'no va shakl munosabatlari. Sinonimlar, antonimlar, omonimlar.

Erkin Vohidovning "So'z latofati" asaridan olingan parchani o'qish, undagi so'z ma'nosi haqidagi ma'lumotni anglash, munosabat bildirish, o'z qarashlarini bayon qilish.

So'zlarda ma'no ko'chishi. Bir ma'nolilik, ko'p ma'nolilik, o'z ma'no, ko'chma ma'no.

Berilgan zamonaviy masaldagi ma'no nozikligini, kinoya, tagma'no, ma'no ko'chishini anglay olish. Shunday masallarga og'zaki misol keltirish, tagma'nosini muhokama qilish.

O'zbekning so'zi qiziq. O'xshashlikka (metafora, vazifadoshlik), aloqadorlikka (metonimiya), qism va butun orqali ifodalashga (sinekdoxa) asoslangan ma'no ko'chish turlari.

Matndagi so'zlarning ma'no ko'chish nozikliklarini ilg'ay olish, hayotiy misollar bilan dalillash, ulardagi ma'no ko'chishi nimaga asoslanganini izohlash.



Soʻz ham eskiradimi? Soʻzlarning eskirishi. Tarixiy soʻzlar. Eskirgan soʻzlar. Soʻzlarni eskirishdan asrash kerakmi? Qayta tugʻilgan eski soʻzlar.

Tarixiy mavzudagi matndan hozirda isteʼmolda boʻlmagan soʻzlarni aniqlash, ularning maʼnosini izohlash, hozirdagi muqobilini izlash va eskirgan soʻzlarni tasniflash.

“Hokim boʻlishni xohlayman” mavzusida matn yaratish, ulardagi soʻzlar xususiyatini izohlash.

Shevaga xos soʻzlar. Iboralar. Sheva nima? Lahja nima? Qayerning shevalari oʻrtasida mutanosiblik bor? Shevaga oid soʻzlarning soʻzlashuv uslubidagi ishtiroki. Iboralar – nutq bezagi. Nutqdagi faol iboralar. Iboralarning maʼnosini bilamizmi? Iboralarda subyektiv munosabatning ifodalanishi.

Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit-turk” asaridan berilgan turkiy qabilalar haqidagi parchani oʻqish. Shevalarning kelib chiqishi haqida bahslashish.

“Adabiy tilda gaplashaylik!” mashqi uchun telekanallarda efirga beriladigan boshlovchilari shevada gaplashadigan koʻrsatuvlarning beshligi roʻyxatini shakllantirish. Munosabat bildirish. Sheva oʻzbek tilining boyligi, lekin adabiy tilni ham sof saqlash shartligi haqida xulosa chiqarish.

Atamalar. Sof atamalar. Ilm-fan va kasb-hunarga oid atamalar.

“Nobel mukofoti haqida eshitganmiz-u...” matnidagi axborotni oʻrganish, matndan tashaqari bu mukofot haqidagi bilganlarini soʻzlab berish, matndagi atamalarni aniqlash.

Mustahkamlash darsi

Nazorat ishi va tahlili

Inkorning shakllari. Boʻlishsizlik shakli, yoʻq, emas soʻzlari, inkor yordamchisi, ohang orqali inkor qilish. Koʻmakchi feʼlli soʻz qoʻshilmasiga inkor shaklining qoʻshilishi.

Matnda ifodalangan inkor shakllarini aniqlash. Matndan anglashilgan fikrga munosabat bildirish. “Mening fikrim boshqacha” mavzusida yuqoridagi matnga raddiya yozish.

Koʻplik shakli faqat koʻplikni ifodalaydimi? Koʻplikni ifodalash usullari. -lar koʻplik shaklining uslubiy xususiyatlari. Koʻplik, hurmat, kinoya, kuchaytirish, umumlashtirish maʼnolarining ifodalanishi.

Sheʼriy matndan olingan parchadagi ilgari surilgan gʻoyani anglash, undagi badiiy goʻzallikni anglay olish. Asar badiiyatida koʻplik shaklining ahamiyatini izohlash.

Kelishik va koʻmakchilarning qoʻllanishi. Kelishiklar. Koʻmakchilar. Kelishik va koʻmakchilarning maʼnodoshligi. Aniq maʼno, umumiy maʼno. Belgili, belgisiz va qisqargan koʻrinish.

Sheʼriy matnlarda kelishik shakllarining qoʻllanilishi. Berilgan matndagi kelishiklarni koʻmakchiga almashtirish va maʼno farqlanishini izohlashga oid mashq va topshiriqlar.

Shaxs-son va zamonning ifodalanishi. Shaxs-son shakli. Zamon shakli. Shaxs-son shaklining uslubiy vazifalari. Shaxs-son shakllarining uslubiy xoslanishi va nutqda turli ma'no ifodalashi.

Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" asaridan olingan parchada zamon va shaxs-son shakllarining ifodalanishi, uslubiy vazifalari haqida bahs yuritish. Yozuvchining ifoda uslubini tahlil qilish. Asar tiliga munosabat bildirish.

Subyektiv munosabat ifodalovchi shakllar. Ularning ot va sifat turkumlariga qo'shilishi. Nutq ifodasida erkalash-kichraytirish shakllarining qo'llanishi.

"Mening o'g'rigina bolam" hikoyasidan audiomatni tinglash, undagi subyektiv munosabat ifodalovchi shakllarni aniqlash. Asar obrazlarining nutqi orqali ularning fe'l-atvorini tahlil qilish.

Mustahkamlash darsi

Davlat tilida ish yuritishni o'rganamiz. E'lon, tabriknoma, taklifnoma, tushuntirish xati, tarjimayi hol, ariza, tavsifnoma, tavsiyanoma, tilxat, dalolatnoma, ishonchnoma, yo'riqnoma, shartnoma, buyruq, buyruqdan ko'chirma.

Nazorat ishi va uning tahlili

Takrorlash darsi

Yil davomida o'tilganlarni takrorlash (2 soat)

MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Bo'limlar nomi	Soatlar taqsimoti					
		Jami	Yangi mavzu uchun	Nazorat ishlari	Nazorat ishlari tahlili	Mustahkamlash	Takrorlash
1	Til va ekoolam (Kirish)	2	2				
2	Inson va e'tiqod (Yil boshida takrorlash)	4					4
3	Nutqning og'zaki shakli: ifoda va vosita	12	7	2	1	2	
4	Nutqning yozma shakli: ifoda va vosita	10	6	1	1	2	
5	Til va tafakkur	18	11	3	2	2	
6	Tilning ifoda imkoniyatlari	20	15	2	1	2	
7	O'quv yili oxirida takrorlash	2					2
Jami		68	41	8	5	8	6

IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM UCHUN MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Bo'limlar nomi	Soatlar taqsimoti					
		Jami	Yangi mavzu uchun	Nazorat ishlari	Nazorat ishlari tahlili	Mustahkamlash	Takrorlash
1	Til va ekoolam (Kirish)	2	2				
2	Inson va e'tiqod (Yil boshida takrorlash)	4					4
3	Nutqning og'zaki shakli: ifoda va vosita	21	7	2	1	11	
4	Nutqning yozma shakli: ifoda va vosita	19	6	1	1	11	
5	Til va tafakkur	26	11	3	2	10	
6	Tilning ifoda imkoniyatlari	28	15	2	1	10	
7	O'quv yili oxirida takrorlash	2					2
Jami		102	41	8	5	42	6



XI SINF **(68 soat + *34 soat)**

I bo'lim. TIL VA ADABIYOT **(2 soat)**

KIRISH. (2 soat)

“Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurg‘on o‘yinayi hayoti til va adabiyotidir... . Til va adabiyot uyg‘unligi. Nodir Jonuzoqning “Yurak tilim” she‘ri matni bilan ishlash.

Badiiy asar tili. Badiiy asar tili – obrazli til. Yozuvchining milliy til imkoniyatlarini kengaytirish, o‘zining his-kechinmalarini imkon qadar yorqin ifodalashda adabiy til me‘yorlaridan chekinishi. Personajlar nutqining o‘ziga xosligi.

“Men sevgan yozuvchi(shoir)ning badiiy topilmalari” mavzusida kichik tadqiqot olib borish va taqdimot tayyorlab namoyish etish.

II bo'lim. INSON VA HUQUQ **TAKRORLASH** **(4 soat)**

10-sinfdagi bilimlarni takrorlash: fonetik vositalarning badiiy-estetik vazifasi. Matndan fono-grafik vositalarning uslubiy jilolalarini topish mashqlari.

Leksik vositalarning bo‘yoqdorli. So‘zlar, iboralar, ko‘chimlarni topishga oid mashqlar ustida ishlash.

Morfologik vositalarning badiiy-estetik vazifasi. Matndan morfologik vositalarning uslubiy jilolalarini topish mashqlari.

Huquqiy atamalar. Huquqiy atamalarning o‘ziga xos belgilari. Insonning davlat bilan munosabatidagi huquqiy maqomi haqida suhbat.

“O‘z huquqingizni bilasizmi?” mavzusida taqdimot tayyorlash va og‘zaki ifodalash mashqlari.

III bo'lim. NUTQNING OG‘ZAKI SHAKLI: IFODA VA VOSITA **(12 soat + *9 soat)**

Og‘zaki madaniy nutqni shakllantiruvchi asosiy sifatlar. Og‘zaki nutqda adabiy til me‘yorlari.

Nutqning to‘g‘riligi: so‘z qo‘llash, talaffuz, so‘z yasalishi, morfologik, sintaktik me‘yorlar.

Nutqning aniqligi: tavsiflanayotgan voqelikni aniq bilgan holda so‘z tanlash va qo‘llash. Ma‘nodosh, shakldosh, zid ma‘noli so‘zlardan, ko‘chma ma‘nodagi so‘zlardan o‘rinli foydalanish.

E. Vohidovning “So‘z latofati” asaridan olingan parcha bilan ishlash.

Nutqning mantiqiyliqi. Fikr tartibi va qurilishini to‘g‘ri ifodalay olish. Mantiqiylikni ta‘minlovchi grammatik vositalar.



Nutqning sofligi. Shevaga xos soʻzlar, varvarizmlar, vulgarizmlar, ishlaymaydigan va kanselyarizmlardan holiligi. Ayrim vaziyatlarda ulardan foydalanishdan koʻzlangan maqsad.

Mustahkamlash darsi

Nutqning boyligi, uni taʼminlovchi vositalar: Soʻz zahirasi, soʻzlarning turli maʼnolarini bilish, maʼnodosh soʻzlar, iboralar va tasviriy ifodalar va qoʻshma gap turlaridan oʻrinli foydalana olishga qaratilgan mashq va topshiriqlar.

Nutqning joʻyaliligi. Nutq soʻzlashda nutqning oʻrni, mavzusi, tinglovchining yoshi, ijtimoiy maqomi, nutqiy vaziyatni toʻgʻri angʻlay olish.

Nutqning ifodaliligi. Ifodalilikni yuzaga chiqaruvchi vositalar: ibora, koʻchim, kinoya va oʻxshatishlar.

Matn va lugʻatlar ustida ishlash: "Nishonga tekkan nutq" mavzusida ogʻzaki suhbat. "Mavzuni soʻzma-soʻz yodlamang" matni ustida ishlash, mavzu yuzasidan fikr bildirish.

Mustahkamlash darsi

Nazorat ishi va tahlili

IV boʻlim. NUTQNING YOZMA SHAKLI: IFODA VA VOSITA

(10 soat + *9 soat)

Matnda xatboshilarning oʻrni. Matnni qismlarga boʻlish. Xatboshining bir qismni ikkinchi qismdan ajratish, navbatdagi qism orqali yangi fikr bayon qilinishini bildirish uchun xizmat qilishi.

Xatboshi bilan ajratilgan va xatboshisiz yozilgan matnlar bilan ishlash. "Mening kasbim va yozma nutqim" mavzusida muhokama olib borish.

Tezis. Tezis qanday shakllantiriladi? Ishni nimadan boshlaymiz? Manbalarni koʻrish, materiallarni toʻplash.

"Bu nimani anglatadi" nomli umumiy sarlavha ostida istalgan biror fanga oid tezis yozish.

Tezis yozish jarayonida fanga oid bilimlardan tashqari tezis yaratish qonuniyatlari bilan ham tanishish.

Mustahkamlash darsi.

Ilmiy manbalardagi fikrlar, faktlardan matnda foydalanish tartibi. Fikrlarning izchilligi, tushunariligi, gap qurilishining oʻzbek tili qonuniyatlariga xosligi.

Hajm jihatidan katta matnni faqat eng muhim qismlarini saqlagan holda qisqartirish.

Kichik hajmli matnni kengaytirish:

"Chekib olgan haydovchi qancha yoqilgʻi qolganini koʻrish uchun benzobak tomon egildi..."

"Marhumning yoshi yigirma uchda edi".

Drablni izohlashlar asosida, mazmuni saqlangan holda qayta yozish, kengaytirish.

Mustahkamlash darsi

Nazorat ishi va tahlili

V bo'lim. TIL VA TAFAKKUR

(18 soat + *8 soat)

Bu qayerda va kim tomonidan aytilgan? Muallifning so'z qo'llash mahorati. Tanlangan so'zning mazmun va ohangga ta'sirini tahlil qilish. Dramatik va she'riy parchalardagi so'zlarning ohang va mazmunga ta'sirini aniqlash topshiriqlari. Muallif tomonidan yaratilgan topilmalarni (yangi so'zlar, birikmalar) aniqlash va baholay olishga oid topshiriqlar.

Turli mualliflar tomonidan yozilgan bir xil mavzudagi matnlarni qiyoslay olish. Muallifning matnning muayyan qismlarini (masalan, voqeani boshlash yoki tugatish) yaratish bo'yicha tanlovi (masalan, komedik, tushkun, fojiali) matnning umumiy tuzilishi va mazmuniga, estetikasiga qanday hissa qo'shganini tahlil qila olishga oid topshiriqlar.

Kontekstning matnga ta'siri. Matnning tushunilishidagi kontekstning o'ri. Turli davrlarda bir xil mavzuda yozilgan matnlarni qiyoslash mashqlari.

"Bunga ishonsa bo'ladimi?" nomli ijtimoiy tarmoq va xalq orasida tarqalayotgan turli ma'lumotlarni to'g'riligni tekshirish usullari haqida ma'lumot beruvchi matn ustida ishlash.

"Men qanday tasvirlardim?" mavzusida taqdimot tayyorlash.

Grafik tasvirlar so'zlaganda... Grafik ma'lumotlar. Ma'lumotlarning grafik usulda berilish tartibi. Ma'lumotni grafik usulda taqdim qilish usullari (diagramma, jadval, grafik organayzer). "Qizil, sariq, yashil hududlar" mavzusidagi audiomatnni tinglash va uni grafik shaklda tasvirlab berish. Ma'lumot yetkazishda grafik tasvirlar hamda jadvallarning ustunlik va kamchilik tomonlari haqida bahs yuritish.

Mustahkamlash darsi

Nazorat ishi va tahlili

Bu nima uchun kerak? Yo'riqnoma shakllari. Turli uskuna va dori-darmonlarning foydalanish yo'riqnomalari va ularning xususiyatlari. Yo'riqnoma matnlarda qo'llaniladigan til birliklari. "Mahsulotim yo'riqnomasi" mavzusida taqdimot tayyorlash.

Tinglangan ko'rsatmalar asosida harakat qilish mashqlari. Matnli va audio/video yo'riqnomalar afzallik va kamchilik tomonlari haqida bahs yuritish.

Reklama matnlari, ularda til birliklarining qo'llanishi. Reklama turlari. "Marketing va reklama" matni ustida ishlash. Ovozsiz reklama tasvirlaridan bu nima haqida ekanini topish. Yo'riqnomasi yozgan mahsulotini reklama taqdimotini tayyorlash.

Mustahkamlash darsi

Nazorat ishi va tahlili

VI bo'lim. TILNING IFODA IMKONIYATLARI



(20 soat + *8 soat)

Gapda soʻz tartibi. Gap boʻlaklarining odatiy tartibi, oʻzgargan (inversiyaga uchragan) tartibi. Inversiyaning nutq ifodasida ahamiyati.

“Bobur armoni” sheʼridan olingan parchadagi soʻzlarning tartibi, ularning uslubiy xususiyati haqida suhbatlashish. Oʻzaki dialog tuzish orqali soʻzlashuv uslubidagi gap boʻlaklarining tartibi haqida xulosa chiqarish.

Gapning ifoda maqsadiga koʻra turlari. Gapni ifodalashdan maqsadimizni bilamizmi? Darak, soʻroq, buyruq va istak gaplar. Ularning nutqda qoʻllanishi. Soʻroq gapni hosil qilish usullari. Buyruq gapning uslubiy xoslanishi.

Matnni tinglash, matndagi gaplarni ifoda maqsadiga koʻra farqlash. Buyruq gaplarda buyruq maʼnosini kuchaytira olish, Istak gapni ergashgan qoʻshma gapdan farqlay olish. Soʻroq gapni hosil qilayotgan vositalarni izohlash. Nutqda eng koʻp qanday gapdan foydalanishimiz haqida bahslashish.

Ritorik soʻroq gaplar uslubiyati. Sof soʻroq va ritorik soʻroq gaplar. Ritorik soʻroq gaplarning javob talab qilmasligi. Yashirin tasdiq ifodalashi, publitsistik uslubda keng qoʻllanishi.

Publitsistik matndan soʻroq gaplarni aniqlash. Ularni sof va ritorik soʻroq ifodalashiga koʻra tasniflash, ritorik soʻroq gapning taʼsirchanligini kuchaytirgan vositalarni aniqlash. Maqola yozish va unda ritorik soʻroq gaplardan oʻrinli foydalanish.

Kiritmalar uslubiyati. Kiritmaning vazifasi. Tuzilishi. Sodda va murakkab kiritma. Subyektiv munosabat, maʼlumotning toʻldirilishi yoki aniqlanishi. Qoʻllanish oʻrinlari. Tinish belgilarining ishlatilishi.

Matnni oʻqish, matndan olgan xulosasini bayon qilish. Matndagi kiritmalarning fikrga qoʻshgan maʼnosini izohlash.

Mustahkamlash darsi

Nazorat ishi va tahlili

Undalmalar uslubiyati. Soʻzlovchining nutqi qaratilgan predmetni ifodalagan soʻzning undalma ekanligi. Undalmada soʻzlovchi subyektiv munosabatining aks etishi. Undalmalarning nutq uslublarida qoʻllanishi. Undalmalarning oʻrinlashuvi va uning uslubiy ahamiyati.

Muhammad Yusufning “Onamdan xat” sheʼrini oʻqish, undaga ona sogʻinchi ifodalangan satrlarni qayta koʻrish. Undalmalarni aniqlab, ularning oʻrinlashuviga izoh berish. “Onamga xat” maktubini yozish.

Gapda kirishlar uslubiyati. Kirishlarning nutq ifodasidagi oʻrni. Ularning uslublarda namoyon boʻlishi. Tinish belgilari.

Qoʻshma gaplar uslubiyati. Qoʻshma gaplarning bogʻlovchili va bogʻlovchisiz boʻlishi. Bogʻlovchisi qoʻshma gapning soʻzlashuv uslubida faol ekanligi. Ilmiy va rasmiy uslubda bogʻlovchili qoʻshma gapning kengroq qoʻllanishi. Badiiy uslubda bogʻlovchili qoʻshma gapning barcha turi qoʻllanishi.

Rasmiy, badiiy uslubga xos matnni oʻqish, matndagi ifoda uslubi haqida fikrlashish, gaplarning tuzilishiga koʻra turini aniqlash, qoʻshma gap

qismlarining bog'lanishini izohlash. Og'zaki dialog tuzish orqali qo'shma gaplarning bog'lanishi haqida mulohaza yuritish.

Ko'chirma va o'zlashtirma gap uslubi. Ko'chirma gap – o'zganing aynan keltirilgan gapi. Ko'chirma gapli qo'shma gap qismlari. O'zlashtirma gap. Ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirilganda bo'ladigan shakily o'zgarishlar. Tinish belgilarining qo'llanishi.

Matndan anglashilgan fikrni tahlil qilish, undagi ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gapga aylantirish. Shakliy o'zgarishlarni izohlashga oid mashq va topshiriqlar.

Mustahkamlash darsi

Davlat tilida ish yuritishni o'rganamiz. Rasmiy yozishmalarni o'rganamiz! Xat va uning turlari. Diplomatik yozishmalar. Tijorat yozishmalari.

Nazorat ishi va uning tahlili

Takrorlash darsi

Yil davomida o'tilganlarni takrorlash (2 soat)

MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Bo'limlar nomi	Soatlar taqsimoti					
		Jami	Yangi mavzu uchun	Nazorat ishlari	Nazorat ishlari tahlili	Mustahkamlash	Takrorlash
1	Til va adabiyot (Kirish)	2	2				
2	Inson va huquq (Yil boshida takrorlash)	4					4
3	Nutqning o'zaki shakli: ifoda va vosita	12	7	2	1	2	
4	Nutqning yozma shakli: ifoda va vosita	10	6	1	1	2	
5	Til va tafakkur	18	11	2	1	2	
6	Tilning ifoda imkoniyatlari	20	15	3	2	2	
7	O'quv yili oxirida takrorlash	2					2
Jami		68	41	8	6	8	6

IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM UCHUN MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Bo'limlar nomi	Soatlar taqsimoti					
		Jami	Yangi mavzu uchun	Nazorat ishlari	Nazorat ishlari tahlili	Mustahkamlash	Takrorlash
1	Til va adabiyot (Kirish)	2	2				
2	Inson va huquq (Yil boshida takrorlash)	4					4
3	Nutqning o'zaki shakli: ifoda va vosita	21	7	2	1	11	
4	Nutqning yozma shakli: ifoda va vosita	19	6	1	1	11	
5	Til va tafakkur	26	11	2	2	10	
6	Tilning ifoda imkoniyatlari	28	15	3	2	10	
7	O'quv yili oxirida takrorlash	2					2
Jami		102	41	8	6	42	6